ADABIYOT

6

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan



Yangi nashr

Toshkent – 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UO‘K 821.512.133(075.3)
KBK 83.3(O‘zb)ya72
M 54

Tuzuvchilar:

Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov

Mas’ul muharrir:

Shuhrat Sirojiddinov – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU rektori, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Saodat Qambarova – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori.

Zulfiya Rashidova – Toshkent shahridagi Prezident maktabi oliy toifali ona tili va adabiyot fanio‘qituvchisi.

Adabiyot 6 [Matn]: 6-sinf uchun metodik qo‘llanma / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

Original maket va dizayn konsepsiyasi Respublika ta’lim markazi tomonidan ishlandi.

ISBN 978-9943-8352-6-9

© Respublika ta’lim markazi, 2022

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

ADABIYOT DARSLARIGA YANGICHA YONDASHUV

Bugungi o‘quvchi dunyoqarashi, fikrlashi, voqelikka munosabati nuqtayi nazaridan kechagidan farq qiladi. Endi ular qolipga solingan, stereotip fikrlar, hokim qarashlar, o‘zlariga tanish ma’lumotlarni qayta bayon qilib berishdek eskicha yondashuvlar bilan murosa qilolmaydi. Agar adabiyot o‘quvchilar (o‘rganuvchilar) tasavvurida ularning hayotiy ehtiyojlari o‘laroq tasavvur hosil qilmas ekan, u zerikarli va quruq g‘oyalar majmui bo‘lib qolaveradi.

“Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, o‘rta ta’limning asosiy maqsadlaridan biri o‘quvchilarda **mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil qilish** qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Umumiy ta’lim oldiga bunday maqsadning qonun bilan mustahkamlab qo‘yilishi bejiz emas. Mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil ko‘nikmalari shakllangan o‘quvchi ongli ravishda o‘z kelajagini belgilay oladi, keyingi hayot yo‘llarida o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado eta oladi, “salla desa kallani ko‘tarib keladigan” ijrochi emas (bunday ijrochilar bilan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash imkonsiz), balki chuqur tahlil asnosida muammolarga samarali yechim taklif qila oladigan mutaxassis bo‘lib yetishadi. Demak, umumiy ta’limda o‘qitiladigan har bir fan o‘quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini shakllantirishi lozim.

Ingliz metodist olimlari Elli Chambers va Marshal Gregoriy “bugun badiiy asarlarni o‘rganish avvalgidek “buni to‘g‘ri deb qabul qil” *(to get it right)* mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. Bugungi o‘quvchi badiiy asar haqidagi **mustaqil talqinlarini** bemalol, o‘z dunyoqarashi, fikrlash, tafakkur darajasiga ko‘ra bayon qila olish imkoniga ega. Ammo ko‘p holatlarda o‘qituvchining magistral (qonuniy) huquqi o‘quvchining erkin fikrlariga daxl qilib, uni ***“buni to‘g‘ri deb qabul qil”*** [1] kabi mezonlarga ergashishga majbur qiladi. Oqibatda asar mohiyati o‘quvchilarning fikri, idroki va anglovidan chiqarilgan xulosalar emas, balki o‘qituvchining yoki adabiyot darsligi mualliflarining shaxsiy qarashlaridan paydo bo‘lgan yagona xulosani tashkil etadi.

Ingliz metodist olimlarining badiiy asar tahlilidagi qoliplangan yondashuvlar haqidagi tanqidiy fikrlari uzliksiz ta’lim bosqichlarida qo‘llangan adabiyot darsliklaridagi “Asar haqida” degan bo‘limni eslatib yuboradi. Chunki badiiy asar haqidagi muallif (yoki mualliflar) o‘z idroki hosilasi o‘laroq namoyon bo‘lgan xulosalari “Asar haqida”da aks etadi va bu biz yuqorida qayd etgan “buni to‘g‘ri deb qabul qil ” yondashuviga olib keladigan dastlabki faktorlardan biri bo‘lib xizmat qiladi. “Asar haqida”gi ma’lumotning o‘quvchi ongiga singishi, uni “to‘g‘ri deb qabul qilish”i mavjud ma’lumotning dominant (yetakchi)lik xususiyati undagi “boshqacha bo‘lishi mumkin” degan qarashiga monelik qiladi yoki eng kamida o‘quvchini fikrlashdan to‘xtatadi. O‘quvchilarda badiiy asarni tushunish darajasini baholash ham xuddi matn tahlilidagi kabi o‘ta zerikarli, adiblarning hayoti, ijodi haqidagi faktologik ma’lumotlarni, asar syujetidagi muayyan detallarni eslab qolish kabi o‘quvchining tafakkuri,

[1] E.Chambers, M.Gregory. Teaching and Learning English literature. Sage Publications. London, 2006, P.11. Bu tamoyil jahon adabiy ta’limidagi an’anaviy “o‘qituvchi faol” (teacher centered-approach)ga yaqin tushuncha bo‘lib, adabiy tahlilda yakka fikrlilikka asoslanadi.

tasavvurini yuksaltirmaydigan, aksincha, badiiy didi va saviyasiga zang tushiradigan usullar orqali tekshiriladi. Oqibatda o‘quvchilarda “adabiyot, asar o‘qish, tahlil qilish faqat shunday ikir-chikirlarni esda saqlashdan iborat” degan munosabatni shakllantirdi.

Umumiy o‘rta ta’lim dasturida asosiy fanlardan biri bo‘lgan adabiyot fani orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, voqea-hodisalarga faol munosabatda bo‘lish, ularga baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun nimalarga e’tibor bermoq lozim? Adabiyot darslari o‘z samarasini ko‘rsatishi, o‘quvchilarda hayotda kerakli kompetensiyalar shakllanishida qanday omillar muhim rol o‘ynaydi?

Birinchi omil. Ma’lumki, **davlat ta’lim standartlari** har bir fanning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Standartlarda maqsad va vazifalar qanchalik aniq va barcha uchun tushunarli tarzda belgilab berilsa, fanning samarali o‘qitilishini ta’minlash va nazorat qilish shunchalik osonlashadi.

O‘quv dasturlari va rejalarini tuzish bo‘yicha aksar mutaxassislarning fikricha, ta’lim dasturlarining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri – **ta’limiy vazifalarning qay darajada aniq ifodalanishidir**. Vazifalar shu darajada aniq qo‘yilishi kerakki, o‘qituvchi mazkur vazifalar o‘quvchilar tomonidan qay darajada bajarilganligini kuzatib, baholay olishsin. O‘qituvchi standartda berilgan vazifani kichik qadamlarga bo‘lib, ma’lum bir dars davomida o‘quvchilarga qadam-baqadam ushbu vazifalarni hal etishda yordam bera olishi talab qilinadi.

Masalan, Buyuk Britaniya ta’lim standartlarida adabiyot fanidan maktab bitiruvchisi erishishi kerak bo‘lgan vazifalardan biri quyidagicha ifodalangan: “Yozuvchining tanlagan so‘zlarini, grammatik va struktural shakllarni tahlil qiladi, ularning o‘quvchiga ta’sirini baholay oladi”. Avstraliya maktab bitiruvchilariga qo‘yilgan talablardan biri esa quyidagicha: “Badiiy matnni tahlil qilish asosida asarning mustaqil talqinini yarata oladi”. Rossiya federal ta’lim standartlarida esa maktab bitiruvchisi “tarixiy, tarixiy-madaniy kontekstni va adib ijodi kontekstini hisobga olgan badiiy matnni tahlil qila olishi” ko‘zda tutilgan.

Har qanday adabiyot o‘qituvchisi o‘quvchi ushbu vazifalarni bajara oladigan bo‘lishi uchun **qanday qadamlarni qo‘yishi** lozimligini va yakuniy natijani **qanday yo‘llar bilan kuzatib, baholashi mumkinligini** tasavvur qila olishi kerak. Bu fanni o‘qitishning samaradorligini ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan turli davlatlar standartlaridagi malaka talablarining yana bir muhim xususiyatiga e’tibor qaratish lozim. Berilgan vazifalar **adabiyot faniga xos**, ya’ni ushbu kompetensiyalarni boshqa fan doirasida shakllantirishni tasavvur qilish mumkin emas va bu kompetensiyalar shakllanishi uchun o‘quvchilar adabiyotshunoslikka oid nazariy tushunchalardan ham xabardor bo‘lishlari lozim. Bu esa adabiyotning maktab dasturida ikkilamchi, yordamchi fan sifatida emas, balki **o‘z maqsad va vazifalari, o‘rganish obyekti, nazariy asosi mavjud mustaqil fan sifatida fanlar kesimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishini ta’minlaydi.**

Ikkinchi omil. Ta’lim jarayonining samarasini ta’minlovchi muhim komponentlardan biri **baholash tizimidir**. Baholash tizimi standartlarda belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilganligini ko‘rish imkonini bermog‘i lozim. Ya’ni ta’lim standartlari va baholash tizimi o‘rtasida uzviylik bo‘lishi hamda standartlarda

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

belgilangan vazifalarga qay darajada erishilganligini ko‘rish imkonini beruvchi baholash usullari va vositalari tanlanishi kerak.

O‘quvchilar ta’limiy yutuqlarini o‘lchash uchun har biri aniq shakllarda amalga oshiriladigan 3 xil baholash turini qo‘llash mumkin:

– diagnostik (boshlang‘ich) baholash;

– formativ (shakllantiruvchi, joriy) baholash;

– summativ (umumlashtiruvchi, xulosalovchi) baholash.

Diagnostik baholash shakl jihatidan kirish bo‘lib, o‘quvchi kompetentligining qay darajada shakllanganligini aniqlash uchun xizmat qiladi. U o‘quv yili boshida o‘tkaziladi va yil yakunida kutilgan natijalarga o‘quvchi qay darajada erishganini aniqlashga imkon beradi. Diagnostik baholash natijalari tasvir shaklida qayd etilib, umumlashtiriladi va o‘qituvchiga ta’lim vazifalari, o‘quvchi o‘quv masalalarini belgilash orqali o‘quv jarayonini takomillashtirishi va tuzatishlar kiritishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, boshlang‘ich baholash ta’lim jarayoni boshida ta’lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Baholash natijalari ta’lim jarayonining mazmuni va metodlari, shakllarini tanlash imkonini beradi.

Formativ baholashning maqsadi – o‘quvchining materialni o‘zlashtirishdagi individual o‘zgachalik va yutuqlarini aniqlash, shuningdek, o‘quvchi kutilgan natijalarga erishishi uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir. Shakl jihatdan u ham kirish (o‘rganilayotgan mavzuning boshida), ham kundalik (o‘quv jarayonida) bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi formativ baholashni o‘qitishning o‘z vaqtidagi tuzatishi uchun, rejalashtirishga o‘zgartishlar kiritish uchun, o‘quvchilar esa bajarilayotgan ishning sifatini yaxshilash uchun qo‘llaydilar. O‘quvchining qobiliyat darajasi emas, konkret ishi baholanadi.

Formativ baholash tizimi o‘qituvchi va o‘quvchilarga ta’lim jarayoni qay darajada samarali tashkil qilinayotgani, o‘rganuvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni qay darajada samarali kechayotgani haqida muttasil ma’lumot berib turishi, o‘qituvchi bu ma’lumot asosida ta’lim jarayoniga tegishli o‘zgartirishlar kirita olishi lozim. Misol uchun, o‘qituvchi o‘quvchilar aruz va barmoq vaznida yozilgan asarlarni ajratishda qiynalishayotganini ko‘rsa, mavzuga qaytib, o‘quvchilar bilan ushbu ko‘nikmani shakllantirish ustida ishlashi kerak.

Summativ (umumlashtiruvchi, jamlovchi) baholash – ta’lim jarayonining ma’lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki chorak, o‘quv yili oxiri, ta’limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishdan oldin) ta’lim oluvchining ta’limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o‘lchash jarayoni. Baholashning bu turi standartda belgilangan vazifalarga qay darajada erishilganiga xolis (tashqaridan) baho berish imkonini ta’minlashi lozim. Masalan, o‘quv yili oxirida adabiyot fani bo‘yicha o‘tkaziladigan bosqichli nazorat yoki yakuniy davlat attestatsiyasi mustaqil, maktabga bevosita aloqasi bo‘lmagan komissiya tomonidan baholansa, “qozonda bori cho‘michga chiqadi”. Summativ baholash yozma ish uchun yozma ishlar mavzulari shunday tuzilishi kerakki, **o‘quvchilarning fikrlashini cheklamagan holda, ulardan nima kutilayotgani haqida aniq tasavvur bersin.** Demak, adabiyot fanini o‘qitish samarali bo‘lishi uchun fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda **mos baholash usullari tanlanishi va ishlatilishi lozim.**

Uchinchi omil. Ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydigan omillardan yana biri o‘quv materiallari va metodikadir. **O‘quv materiallari va ularning zamiridagi metodika o‘quvchilarni fanga qiziqtira olishi, o‘quvchilar fan oldiga qo‘yilgan vazifalarga erishishida yordam bermog‘i lozim.** Maktab o‘quvchisi uchun eng asosiy o‘quv materiali bo‘lgan darslik shunchaki fanga oid ma’lumotlar yig‘indisi emas, balki o‘quvchi bilan interfaol dialogga kirishib, unda kompetensiyalarni shakllantirishga yordam bera oladigan vositaga aylanishi talab qilinadi.

Adabiyot fani yozuvchilar va ularning asarlari haqidagi tayyor ma’lumotlarni yod olishga emas, balki matn tahlili vositasida o‘quvchilarni **tanqidiy fikrlashga, empatiyaga** (birovning quvonch va g‘amiga sherik bo‘la olishga) o‘rgatish, **emotsional intellektini** rivojlantirish, turfa **olamlar va madaniyatlar** eshigini ochishga xizmat qiladigan fan bo‘lmog‘i lozim. Adabiyot darslari **badiiy matn va uning tahliliga** asoslanishi nuqtayi nazaridan uning yaratilish prinsiplari, strategiyalari ham aynan mana shu maqsadni anglashga yordam beradigan ilmiy tadqiqotlarga, xulosalarga asoslansagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

Badiiy matn boshqa turdagi matnlardan (darsliklar, ensiklopediyalar, ma’lumotnomalar va hokazo) tubdan farq qilishini va bu farqlar badiiy asarni o‘qish jarayoniga ham ta’sir qilishini nazardan qochirmasligimiz lozim. Badiiy matnni **bir xil tushunish va bir xil talqin qilish** nafaqat o‘quvchi tafakkurini o‘tmaslashtiradi, balki asarning badiiy-estetik qiymatini ham yo‘qqa chiqaradi.

Mutolaa jarayoni haqidagi zamonaviy qarashlar o‘qish va o‘qilgan matnni tushunishning **interaktivligi (interfaolligi)** tamoyiliga asoslangan. Ushbu tamoyilga ko‘ra, **o‘quvchi** va **matn** mutolaa jarayonida bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladi va o‘quvchi matn bilan ishlash jarayonida **ma’noni o‘zi yaratadi**.

Tadqiqotchilarning fikricha, badiiy matnni o‘qish natijasida chiqariladigan xulosalar **uch omilning** bir-biriga o‘zaro ta’siridan kelib chiqadi:

– o‘quvchi: uning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, unda mavjud bo‘lgan bilimlar majmui (pedagogikada ular “sxemalar” deb ataladi), matnni tushunishga yordam beruvchi bilimlari (leksika, sintaksis, semantika, pragmatika, adabiyot nazariyasi bo‘yicha ma’lumotlar), mutolaa paytidagi emotsional holati;

– badiiy asar matni: matn mavzusi, tuzilishi, tili, lingvistik, grammatik, uslubiy xususiyatlari, ekspozitsiyasi;

– o‘quvchining asarni o‘qishdan **maqsadi.**

Badiiy asar mutolaasi davomida o‘quvchi:

– o‘zini o‘rab turgan voqelikdan farq qiladigan voqelikka sho‘ng‘ish zavqini his qiladi;

– o‘zini muallif va asar qahramonlari bilan muqoyasa qiladi, o‘xshash va farqli jihatlarni qidiradi, o‘zini ularga yaqinlashtiradi yoki ulardan uzoqlashtiradi, ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy tuyg‘ularni his qiladi;

– asar muallifining dunyoqarashini, qadriyatlarini, uning voqelikka munosabatini va bu munosabatning sabablarini tushunishga harakat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy asar mutolaasi o‘quvchiga o‘zining dunyo haqidagi bilimlarini, siyosiy, ijtimoiy, axloqiy tafakkurini boyitish hamda tarix, madaniyatshunoslik, geografiya va boshqa fanlar bo‘yicha bilimlarini **chuqurlashtirish**, fanlarni o‘zlashtirish jarayonida ko‘ra olmagan detallarni ko‘rish imkonini beradi.

Yangi adabiyot darsliklarida asosiy maqsad **savol va topshiriqlar, izohlar yordamida o‘quvchida badiiy matnni mustaqil tahlil qila olish ko‘nikmalarini shakllantirish**ga qaratilgan. Mutolaa jarayoni samarali bo‘lishi uchun badiiy matn bilan ishlash **bir necha bosqichga** bo‘linadi. Bu bosqichlar o‘quvchida mavjud bilimni faollashtirish orqali yangi bilim, tushuncha va fikrlarning o‘zlashtirilishi samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Buning uchun esa adabiyot darslarida qo‘llanadigan savollar va topshiriqlar:

– bahs va munozaralarni keltirib chiqarishi lozim – demak, savol va topshiriqlar yagona to‘g‘ri javobga yoki yechimga ega bo‘lmasin;

– boshqa fanlardan olingan bilimlarga suyanishi hamda ularni boyitishga xizmat qilishi lozim – demak, fanlararo **integratsiyaga** katta e’tibor beriladi;

– turli **nutq ko‘nikmalarini** (o‘qish, eshitish, yozish, gapirish) qamrab olishi lozim;

– yuqori darajadagi kognitiv ko‘nikmalarni (tahlil qilish, baho berish, yaratish) rivojlantirishga xizmat qilishi lozim – demak, o‘quvchilarga beriladigan savollar va topshiriqlar faqat ma’lumotni qaytarishni talab qilmasligi, balki matnni tahlil qilib, uning asosida yangi narsa yaratish, matndagi voqea-hodisalar, obrazlarga baho berishni ham qamrab olishi talab qilinadi.

Badiiy asar matni bilan ishlashning har bir bosqichi muayyan maqsadlarga asoslanadi:

O‘qishdan oldingi topshiriqlar kitobxondagi mavjud bilimlar va badiiy matn o‘rtasida **ko‘prik** vazifasini bajaradi. Bundan maqsad o‘quvchilarni o‘zlari uchun notanish bo‘lgan badiiy asar mutolaasiga tayyorlash, asarni yaxshiroq tushunishga yordam berish, matnni oldindan ko‘ra olish qobiliyatini shakllantirish, asarda hikoya qilingan **kontekst** (tarixiy davr, geografik muhit, madaniyat) haqida tasavvur uyg‘otishdir. Bu bosqichda asarni o‘qishga nisbatan **motivatsiya** (rag‘bat) shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qishdan oldingi topshiriqlarni tayyorlashda aksariyat holatlarda struktural tahlil imkoniyatlari (masalan, badiiy asarning kompozitsion qurilishi, jumladan, asar sarlavhasi, prolog, epilog, asardagi epigraflar, ilk va so‘nggi jumlalar, muallifning badiiy asar kompozitsion qurilishidan kutgan maqsadi va hokazo)dan foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Bu bosqichda asarda hikoya qilingan zamon va makon haqida tushuncha berish maqsadida turli xil **artefaktlar**dan (buyumlar, xaritalar, kitoblar, plakatlar, hujjatlar va hokazo) hamda **multimedia vositalari**dan (musiqa, ovozli yozuvlar, fotosuratlar, videolavhalar) foydalanish mumkin. Masalan, o‘quvchini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarini tushunishga tayyorlash uchun Rossiya istilosi arafasidagi Turkiston xaritasini ko‘rsatib, xaritadan Toshkent, Qo‘qon, Marg‘ilonni topishni, bu shaharlar qaysi davlat tarkibida bo‘lganligini, bu davlatning poytaxti qayerda bo‘lganligini so‘rash mumkin.

Shuningdek, **asar muallifi haqida qisqacha ma’lumot** berish, yozuvchi biografiyasidan o‘qiladigan asarni tushunish uchun muhim bo‘lgan detallar keltirish ham o‘quvchini asarni anglashga tayyorlaydi. Masalan, Antuan de Sent Ekzyuperini bolaligida oltinrang qo‘ng‘iroq sochlari sabab “Qirol-Oftob” deb atashgani, uning kasbi uchuvchi bo‘lganligi va Afrika ustidan uchayotganida samolyoti halokatga uchrab, suvsiz qolganligi, salvadorlik rafiqasi Konsueloni juda yaxshi ko‘rganligiga qaramasdan, u bilan munosabatlari og‘ir bo‘lganligi, “Kichkina shahzoda” asarini Ikkinchi jahon urushi paytida ona yurti Fransiyani fashistlar istilo qilganida Nyu Yorkda do‘stining uyida yozganligi singari detal-

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

larni bilish o‘quvchilarga “Kichkina shahzoda” asaridagi obraz va ramzlarni (shahzoda, hikoyachi, gul, baobab, tulki) yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Bu bosqichda **yo‘naltiruvchi savollar**dan foydalanish ham asarning bosh g‘oyasini tushunishga yordam beradi. Yo‘naltiruvchi savollar samarali bo‘lishi uchun ular:

– ochiq, bitta to‘g‘ri javobga ega bo‘lmagan, muammoli savollar bo‘lishi;

– o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan bo‘lishi;

– o‘quvchilarning nafaqat bilimiga, balki dunyoqarashi va hayotiy tajribasiga tayanadigan bo‘lishi;

– o‘quvchilarni shunga o‘xshash yangi savollarga undaydigan bo‘lishi lozim.

Asarni o‘qish jarayonida yoki o‘qib bo‘lgandan keyin yo‘naltiruvchi savollarga yana qaytib, o‘quvchilarning bu borada fikri o‘zgargan yoki o‘zgarmaganligini so‘rash mumkin.

O‘qish davomidagi topshiriqlarning maqsadi o‘quvchiga asar matnini **tushunish va tahlil qilishga** yordam berish, o‘qish davomida o‘quvchining fikrini yo‘naltirib borishdan iboratdir. Bunda asardagi obrazlarning xatti-harakatlarini, xarakterlarini, bir-birlariga munosabatlarini, voqealarning sabab va oqibat zanjirini, asarning tili (leksikasi, grammatikasi, uslubi), unda qo‘llangan badiiy vositalarning ma’nosini tushunish, ularni tahlil qilish va baho berishga e’tibor qaratiladi.

O‘qish davomida bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– bashorat qilish: asarning ma’lum bir qismini o‘qigandan so‘ng keyin nima bo‘lishini so‘rash;

– to‘xtab o‘qish: asarning muhim tugunlarida o‘quvchilarni to‘xtatib, asarni tushunish, tahlil qilish va baho berishga qaratilgan savollar berish;

– asarning o‘qilgan qismiga **sarlavha** qo‘yishni so‘rash: bunday topshiriq o‘qilgan parchadagi muhim g‘oyani ajratib olishga yordam beradi.

O‘qishdan keyingi topshiriqlar esa asarni **makro darajada** tahlil qilish, sintez, baho berish va **o‘quvchi hayoti** bilan bog‘lashga *(personalizatsiya)* qaratiladi. Bunda asosiy e’tiborni syujetni (voqealar ketma-ketligini) qayta hikoya qilib berishga emas, g‘oyaga, muallif yetkazmoqchi bo‘lgan fikrga qaratish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu bosqichda adabiyot va boshqa fanlar **integratsiyasini** ta’minlash – asarni o‘qish natijasida olingan bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash va boshqa fanlardan olingan bilimlarni o‘qilgan asarga tatbiq qilish muhim rol o‘ynaydi.

Bu bosqichda bajariladigan topshiriqlar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin:

– asarni tarkibiy qismlarga (kulminatsiya, tugun, yechim va hokazo) ajratish;

– asardan uning asosiy g‘oyasini ochib beradigan so‘zlarni topish;

– asardagi voqealarga yoki obrazlar xatti-harakatlariga baho berish;

– asar bosh qahramoni nomidan xat, kundalik va hokazo yozish;

– asardagi voqealarni biron-bir obraz nuqtayi nazaridan bayon qilish;

– asar syujetidagi bir detal (voqea) o‘zgarganda voqealar qanday rivojlanishi mumkinligini bayon qilish;

– asardagi voqealarni davom ettirish yoki asarga boshqa (alternativ) yakun yozish.

Shuningdek, bu bosqichda **adabiyot va boshqa fanlar integratsiyasini ta'minlash** – asarni o‘qish natijasida olingan bilimlarni boshqa fanlar bilan bog‘lash va boshqa fanlardan olingan bilimlarni o‘qilgan asarga tatbiq qilish muhim rol o‘ynaydi.

Asar bilan ishlashning so‘nggi bosqichida **kulminatsion topshiriqlar** berish mumkin. Kulminatsion topshiriqlarda o‘quvchilar:

– guruh bo‘lib ishlashadi va guruhning har bir a'zosining o‘z vazifasi bo‘ladi;

– nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlardan ham olgan bilim va ko‘nikmalarini qo‘llashadi;

– ijodiy qobiliyatlarini ishga solishadi;

– konkret bir mahsulot yaratishadi.

Asarni yoki uning bir qismini sahnalashtirish, asar asosida boshqa asar (she'r, rasm, ssenariy, saundtrek, asarning kino variantiga reklama plakati va hokazo) yaratish, asar asosida taqdimot, gazeta yoki jurnalga maqola tayyorlash, taqriz yozish, asar asosida viktorina o‘tkazish, asar muallifi (qahramoni) bilan xayoliy intervyu o‘tkazish singari topshiriqlar kulminatsion topshiriqlarga misollar bo‘lishi mumkin. Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" hikoyasida Hamida aytgan Chexovning "Uyqu istagi" asari asosida go‘dakni o‘ldirgan qizni sud qilish jarayoni kulminatsion topshiriqning bir namunasidir.

Adabiyot saboqlarida badiiy tahlilning rang-barang usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘qituvchi muayyan asar tahlili yuzasidan barcha o‘quvchilarning bir xil fikrga kelishiga yoki darslikdan, o‘qituvchidan olgan ma'lumotlarini qaytarish bilan cheklanishiga yo‘l qo‘ymasligi lozim. Ayni bir badiiy hodisadan o‘quvchilarning **turlicha estetik-axloqiy ma'no** topishlariga imkon yaratish bolalarning betakror shaxs sifatida shakllanishiga omil bo‘ladi.

Tahlilda asosiy e'tibor asar mohiyatini anglash bilan birga, uning **estetik qimmatini** ko‘rsatishga, **badiiyligini ta'minlagan omillarni** idrok etishga qaratilishi zarur. Puxta va chuqur o‘quv tahliligina o‘rganilayotgan asarning o‘quvchilar hissiyotiga ta'sir qilishini ta'minlaydi. Hissiyotga ko‘rsatilgan ta'sir, albatta, shaxsning ma'naviy sifatiga evriladi.

Darsliklarda o‘quvchini badiiy asar olamiga olib kirish, asarni mustaqil tahlil qilish ko‘nikmasini shakllantirishning bunday usuli bejiz tanlanmagan. Bu usul **konstruktivizm** va **ijtimoiy konstruktivizm** nazariyalariga asoslangan bo‘lib, mazkur nazariyalarning **asosiy g‘oyalari** quyidagilardir:

– o‘quvchilar bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasliklari kerak;

– bilimlar ta'lim jarayonida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish o‘quvchilar tomonidan **"yaratilishi", "kashf qilinishi"** lozim;

– bunda o‘quvchilarning **o‘zaro muloqoti** muhim rol o‘ynaydi.


Ushbu nazariyalarga ko‘ra, darsning maqsadi ma'lumotlarni o‘quvchilarga singdirish emas, balki ularga bilimni o‘zlari hosil qilishlariga imkon yaratib berishdir. O‘qituvchining vazifasi esa tayyor bilimlarni bolalarga yetkazib berish, so‘zlab berish emas, balki o‘quvchilarning faoliyatini tashkil qilish va to‘g‘ri yo‘naltirishdan iborat bo‘ladi. Zero, XX asrning taniqli pedagog va psixolog olimi, konstruktivizm nazariyasining asoschilaridan biri Jan Piaje *(Jean Piaget)* aytganidek[2], "maktab-

[2] Qarang: Kohn, A. (2000) The Schools Our Children Deserve: Moving Beyond Traditional Classrooms and Tougher Standards, New York, NY: Houghton Mifflin Company.

ning asosiy vazifasi oldingi avlodlar yaratgan narsalarni shunchaki qaytarish emas, balki o‘zlari **yangi narsalar yaratishga, kashfiyotlar qilishga qodir, kreativ, tanqidiy fikrlay oladigan shaxslarni** tarbiyalashdan iboratdir”.

Bevosita adabiyot fanini o‘qitish metodikasi esa asosan **retseptiv estetika** nazariyasi asosida quriladi. Ushbu yondashuv o‘quvchi va matn munosabatlariga, matnni estetik-emotsional qabul qilishning psixologik asoslarini kuzatish orqali har bir o‘quvchiga xos individual badiiy sezgilarni kashf qilishga qaratiladi. Matnni idrok etgan o‘quvchi uni o‘z uslubida qabul qiladi, **yaratadi va qayta yaratadi.** “Kitobxon javobi” yondashuvi o‘quvchini badiiy asarda “faol ayg‘oqchi” sifatida belgilab beradi. Natijada o‘quvchi asar voqealari ichiga sho‘ng‘ib, ularga real guvoh bo‘ladi va asar syujetini o‘zining talqini orqali “tuzadi”. Bunda adabiyot ijro san’ati sifatida qaralib, har bir o‘quvchi mutolaa tajribasi asosida o‘ziga xos, ehtimol, noyob matnni yaratadi.

Adabiyotshunoslikka “kitobxon javobi” nazariyasini olib kirgan olimlardan biri, nemis adabiy tanqidchisi Volfgang Izer *(Wolfgang Iser)* fikriga ko‘ra, asar **yozilgan** va **yozilmagan** qismlardan iborat. Kitobxon asarni o‘qiy boshlar ekan, undan ma’lum bir narsani kutadi. Ko‘pincha, kitobxon kutgan narsasini to‘liq olmaydi (muallif ko‘p savollarga javoblarni ochiq qoldiradi), bunday holda bo‘shliqlarni o‘quvchining o‘zi to‘ldiradi. Bu bo‘shliqlar asarning yozilmagan qismidir. Bo‘shliqlarni qanday to‘ldirish esa o‘quvchining o‘ziga bog‘liq, demak, har xil kitobxon bu bo‘shliqlarni turlicha to‘ldiradi. Bu jarayonni Izer yulduzlar turkumiga qarash bilan solishtiradi: “Tunda yulduzli osmonga qaragan ikki kishi bir xil yulduzlar turkumiga qarayotgan bo‘lishi mumkin, lekin biri omochni ko‘rsa, ikkinchisi cho‘michni tasavvur qilishi mumkin”.[3]



“O‘quvchi javobi” nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi, matn va kontekst o‘rtasidagi aloqaga ta’sir qiluvchi omillar

[3] Iser W. The Reading Process: a Phenomenological Approach. // New Literary History, 1972, Vol. 3, No. 2, p. 287.

Aslida ham badiiy asar mutolaasi **faol jarayon** bo‘lib, o‘quvchi o‘z tafakkur sarhadi, dunyoqarashi, hayotiy tajribasi, avvaldan mavjud bilimlari va badiiy asarni o‘qiyotgan paytdagi ruhiy-emotsional holatidan kelib chiqib badiiy asardagi yashirin ma’nolarning yangi talqinlarini yaratadi. Masalan, 18–20 yoshlardagi kitobxonda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani qahramonlari Kumush yoki Otabek “ideal shaxs” sifatida tasavvur uyg‘otsa, yillar o‘tib oila, muhabbat, nafrat, rashk kabi tushunchalarda anchayin tajribaga ega bo‘lgan 30–35 yoshli ayni kitobxon-retsipiyent (qabul qiluvchi) endi Kumushni xudbinlikda ayblashi, Zaynabni esa “chorasiz zaifa, muhabbat qurboni” sifatida ko‘rib, uning harakatlarini hatto oqlashi ham mumkin bo‘ladi. Yoki O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi onaning harakatlarini o‘quvchi o‘z hayotiy vaziyatlaridan kelib chiqib oqlamasligi, Umri xolani hatto fojianing asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatishi ham mumkin. Demak, “kitobxon javobi” yondashuvi yozuvchi estetikasi emas, **kitobxon (retsipiyent) qarashi, tafakkur hosilasi** sifatida diqqat markazda bo‘ladi. O‘quvchi adabiy aloqaning yakunlovchi bo‘g‘iniga aylanadi[4]. O‘quvchi o‘z fikrlari bilan asarning “yozilmagan qism”larini yaratadi.

Adabiyot o‘qitish metodikasiga “tranzaksiya nazariyasi”ni (inglizcha *transaction theory*) olib kirgan amerikalik olima Luiza Rozenblatt *(Louise Rosenblatt)* badiiy matn mutolaasiga **estetik hodisa**[5] sifatida qaraydi. Uning fikricha, o‘qilayotgan asardan ma’no yasash o‘quvchi shaxsi – uning bilimi, his-tuyg‘ulari, xohish-istaklari bilan asar matni sintezidan kelib chiqadi. Bu sintez jarayoni quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– asardagi voqelik o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi bilan organik tarzda birlashadi: bir tarafdan, asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashi ta’siri ostida shakllanadi, ikkinchi tarafdan esa asardan kelib chiqadigan ma’no o‘quvchi bilimi va dunyoqarashiga ta’sir qiladi;

– asar o‘quvchi his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi;

– o‘quvchining tasavvurini uyg‘otadi: tasavvur orqali o‘zgalarning hayoti bilan emotsional va intellektual bog‘liqlikni his qiladi, bu esa o‘quvchiga boshqalarni tushunish hamda o‘zini boshqalar o‘rniga qo‘yib ko‘rish yoki asardagi voqealarning muqobil (boshqacha) rivojlanishini tasavvur qilish orqali o‘z hatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilishga o‘rgatadi.

Asar mutolaasi jarayonida o‘quvchi boshqa bir hayotni “yashab o‘tadi”. Bu hodisaga o‘quvchining hayotiy tajribasi ta’sir qiladi, shuning uchun ham asarni har safar qayta o‘qishda asar o‘quvchiga boshqacha ta’sir qiladi. “Boshqa hayotga sho‘ng‘ish” mutolaaning estetik hodisa sifatida shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Asar o‘quvchining hayotiy tajribasi, hozirgi qiziqishlari va his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq bo‘lmasa, uni qiziqtirmasa, estetik hodisa ro‘y bermaydi. Shu bilan birga, Rozenblattning fikricha, “qiziq” tushunchasini tor talqin qilish va faqat o‘quvchining bevosita hayoti bilan bog‘liq asarlarni tanlash noto‘g‘ridir. Adabiyot darslari uchun tanlanadigan asarlar xilma-xil, stereotiplardan xoli bo‘lishi kerak va o‘quvchi asar orqali boshqa madaniyatlar, boshqa dunyolarga qadam qo‘yishni ham o‘rganishi kerak.

---

[4] А.Н. Ковылкин. Вопросы рецептивной эстетики: Филологические науки // Омский научный вестник, № 2 (54) 2007, стр. 153.

[5] Rosenblatt, L. Literature as Exploration. London: Heinemann, 1970.

Albatta, bunday metodika samarali bo‘lishi uchun bir qancha talablar ham hisobga olinishi zarur:

– har bir sinfda **o‘quvchining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishiga mos asarlar** tanlanishi kerak;

– asarlarni **to‘liq o‘rganish va tahlil qilish uchun yetarlicha soatlar** ajratilishi lozim;

– **turli muammolar ko‘tarilgan, turli madaniyat vakillari tomonidan yaratilgan va turfa dunyoqarashlar aks etgan asarlarga** ham dasturda keng o‘rin ajratilishi zarur – bunday asarlar o‘quvchi dunyoqarashini charxlaydi va mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi;

– adabiyot dasturlariga **variativlik tamoyili** singdirilishi kerak – majburiy, o‘qilishi shart (“kanon”) asarlar bilan birga o‘qituvchi bevosita o‘zi dars beradigan sinfning qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlab olishi mumkin bo‘lgan asarlar ro‘yxati ham tavsiya qilinsa, bu adabiyot darslarining o‘quvchilar uchun yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi (shuningdek, bu holat turli darsliklar mualliflari o‘rtasida sog‘lom raqobat shakllanishiga va pirovardida darsliklar sifati ortishiga ijobiy ta’sirini o‘tkazadi).

ADABIYOT FANINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Adabiyot inson ma’naviy dunyosini shakllantirish va axloqiy qiyofasini tarkib toptirishning eng samarali vositasidir. Turli davrlarda turli ijodkorlar tomonidan yaratilgan **sara badiiy asarlar** “Adabiyot” o‘quv predmetining o‘rganish obyekti hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishdan **bosh maqsad** sog‘lom e’tiqodli, keng dunyoqarashli, nozik didli, o‘zga inson tuyg‘ularini his qiladigan, o‘z xatti-harakatlarini asoslay oladigan, **mustaqil fikrga va keng dunyoqarashga ega** shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Maktab adabiy ta’limida bosh maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** bajarilishi ko‘zda tutiladi:

o‘quvchilarda badiiy adabiyot olamiga chuqurroq olib kirish va adabiyotga mehr uyg‘otish orqali kitobxonni tarbiyalash;

ularni badiiy asar o‘qiydigan, adabiy-nazariy tushunchalarga, o‘z bilim va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarlarni **tahlil qiladigan va baho beradigan** darajaga keltirish;

badiiy asar va unda aks etgan hayotiy holat hamda adabiy qahramonlar haqidagi fikrlarini **ham og‘zaki, ham yozma shaklda to‘g‘ri ifodalay oladigan** qilib tarbiyalashdan iboratdir.

“ADABIYOT” DASTURI MAZMUNI VA TUZILISHI

Umumiy o‘rta ta’lim maktabi adabiy ta’limi uch bosqichdan iborat:

– ***boshlang‘ich***: 1–4-sinflar;

– ***tayanch***: 5–9-sinflar;

– *o‘rta:* 10–11-sinflar.

Umumta’lim o‘rta maktablari adabiy ta’limining ikkinchi, ya’ni tayanch bosqichi bo‘lmish 5–9-sinflarda adabiy ta’lim ***adabiy o‘qish*** shaklida tashkil etiladi. Bunga ko‘ra, o‘quv dasturlarida o‘quvchilarga o‘rgatiladigan badiiy matnlar xronologik yoki janriy belgilariga qarab emas, balki umumlashtiruvchi ***ruknlar*** bo‘yicha joylashtirildi. Har bir sinfda to‘rttadan rukn va ushbu ruknlar mavzusiga mos turli davrlarda, turli mualliflar tomonidan yaratilgan, turli janrlarga xos asarlar tavsiya qilindi. Matnlarni tanlash va o‘rinlashtirishda asarlar yordamida o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ma’naviy-axloqiy fazilatlar tizimi ko‘zda tutiladi.

Har bir sinfda adabiy asar va didaktik materiallar ifoda yo‘sini, uslubiy yaqinligi, mavzusi, til xususiyatlari, janr rang-barangligi hisobga olingan holda joylashtirilgan. Materiallarni joylashtirishda soddadan murakkabga tomon borish va janriy xilma-xillikni saqlash tamoyiliga imkoni boricha amal qilingan. Shuningdek, o‘quvchilarda milliy va jahon adabiyotining ko‘lami haqida umumiy tasavvur paydo qilishga ham e’tibor qaratilgan.

DASTURDA VARIATIVLIK VA O‘QITUCHI ERKINLIGI

O‘qituvchi savol va topshiriqlar yordamida o‘quvchilarning biror badiiy asarni tahlil qilishlariga zamin yaratishda sinfdagi o‘quvchilarning intellektual imkoniyatlari, ruhiy holati, asarning ta’sir darajasini hisobga olgan holda ish ko‘rishi zarur. Shuni hisobga olgan holda, dasturda **variativlik** ko‘zda tutildi: ayrim o‘rinlarda o‘rganilishi va tahlil qilinishi tavsiya qilingan asarlardan birini tanlash imkoni berildi. Asarlarni o‘rganishda dasturda nomlari keltirilganlarning barchasini emas, bittasini chuqur tahlilga tortish orqali o‘quvchi adib ijodining o‘ziga xosligini tushunishiga erishish tavsiya qilinadi.

Ushbu dasturda o‘qituvchilar tashabbuskorligini uyg‘otish, ularning erkin fikrlashlariga sharoit yaratish hamda adabiy ta’limda o‘lkashunoslik materiallaridan (xususan, o‘quvchilar yashab turgan hudud adabiy muhitida yaratilgan asarlardan) foydalanib ta’limni hayotga yaqinlashtirish maqsadida har bir sinfda o‘rganilishi ko‘zda tutilgan adabiy materiallarni 10 foizgacha bo‘lgan miqdorda mahalliy sharoit talabi, o‘qituvchi va o‘quvchilarning xohishlariga muvofiq istalgan adabiy siymoning istalgan badiiy yuksak asari bilan **almashtirish** mumkinligi hisobga olindi. Buning uchun dasturda bo‘lmasa-da, o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rgatilishi zarur deb hisoblagan asarni yillik mavzuli o‘quv rejasiga kiritishi va uni qaysi asar o‘rniga o‘tishni mo‘ljallaganini ko‘rsatishi kerak.

Shu bilan birga, ayni shu maqsad – o‘qituvchilarga erkinlik berish, ularning o‘zlari dars beradigan sinf qobiliyatlarini hisobga olishlari uchun sharoit yaratish maqsadida har bir asarni o‘rganish uchun **soatlar taqsimoti** *tavsiyaviy shaklda* berildi. O‘qituvchilar konkret sinfning shart-sharoitarini hisobga olgan holda soatlarni asar tahliliga (shunchaki asarni o‘qib, faktologik ma’lumotlarni eslab qolishga emas) imkon beradigan tarzda taqsimlashlari tavsiya etiladi.

DARSDAN TASHQARI MUTOLAA

Badiiy adabiyotga yaqinlik sinfdagi mashg‘ulotlar bilangina tugamasligi kerak. O‘qituvchilar bir qancha asarlarning sinfdan tashqarida, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtlari hisobiga o‘qib chiqilishiga imkon qadar erishishlari va o‘qilganlar yuzasidan har bir o‘quv choragida kamida bir marta yalpi suhbat o‘tkazib turishlari, o‘quvchilarning mustaqil o‘qigan asarlari bo‘yicha fikr-mulohazalarini eshitishga, taqdimotlarini muhokama qilishga vaqt ajratishlari lozim. Sinfdan tashqari o‘qishni uyushtirishda o‘qituvchi tashabbuskor bo‘lmog‘i, o‘quvchilarning yoshiga munosib yangi chiqqan badiiy yuksak asarlar bilan tanishishni bolalarga tavsiya etishni unutmasligi darkor. Sinfdan tashqari o‘qilgan yangi asarlar o‘quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqelik tufayli tug‘ilgan hayotiy savollarga javob topishga o‘rgatadi. Adabiy ta’limda sinfdan tashqari o‘qish orqaligina bolalarda badiiy asar mutolaasiga qiziqish qat’iylashadi, badiiy did shakllanadi, ularning mustahkam e’tiqodli, pokiza axloqli, barkamol ma’naviyatli shaxslar bo‘lishiga erishiladi.

Dastur o‘rta maktabda adabiyot o‘qitishning dars shaklidan tashqari fakultativ mashg‘ulotlar, adabiy kechalar, adabiy bahslar, ijodiy uchrashuvlar, to‘garak mashg‘ulotlari, adabiy quroq (montaj)lar, adabiy ko‘rgazmalar, adabiy sayohatlar, kitobxonlar anjumani singari ish turlaridan ham foydalanish mumkinligini ko‘zda tutadi.

ADABIYOT FANI BO‘YICHA
6-SINF YAKUNIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

AK 1 – asarning asosiy va ikkilamchi g‘oyasini (g‘oyalarini) aniqlaydi va munosabat bildiradi, bunda adabiyot va boshqa fanlardan olgan bilimlariga, shu jumladan, asar yaratilgan kontekst (tarixiy, ijtimoiy, siyosiy, adabiy) haqidagi bilimlariga hamda o‘z hayotiy tajribasiga tayanadi	
AK1-2	asarning asosiy g‘oyasini aniqlaydi; fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltiradi, boshqa fanlardan olgan bilimlari va hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g‘oyasiga o‘z munosabatini bildiradi.
AK2 – asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi, asardan xulosalar chiqaradi va bu xulosalarini asoslab beradi	
AK2-2	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) fikrlarni tushunadi; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘aydi; asardan xulosalar chiqaradi.
AK3 – asarning syujetini tushunadi, syujet elementlarini ajratadi va asarning qurilishiga munosabat bildiradi	
AK3-2	asar syujetini qayta hikoya qiladi; syujetdagi voqealar ketma-ketligini to‘g‘ri qo‘yadi.
AK4 – muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini, shuningdek, lingvistik (leksik, grammatik, fonetik) xususiyatlarni tahlil qiladi hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi	
AK4-2	muallif qo‘llagan tasviriy vositalarni (o‘xshatish, metafora, jonlantirish) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik xususiyatlarni topadi; notanish so‘zlar ma’nosini lug‘atlar yoki boshqa manbalardan aniqlaydi.
AK5 – asardagi obrazlarni tahlil qiladi, ularga munosabat bildiradi hamda munosabatini matn, boshqa manbalar va hayotdan olingan misollar yordamida asoslab beradi	
AK5-2	asardagi asosiy va ikkilamchi obrazlarni sanab beradi; ularning bir-biriga munosabatini aytib beradi; obrazlarga o‘z bahosini beradi.
AK6 – asarning turli talqinlarini (masalan, kino, teatr, tasviriy san’atdagi talqinlarini) solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aytadi, munosabat bildiradi	
AK6-2	asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarni tasvirlaydi; asar asosida ishlangan illyustratsiyalar va rasmlarning asarning asosiy g‘oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berishiga munosabat bildiradi; asar va u asosida ishlangan multfilm yoki badiiy filmlarni solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini topadi.

6-SINF UCHUN TAQVIM-MAVZUVIY REJA (TAVSIYAVIY)
Haftasiga 2 soatdan. Jami yillik soat – 68

1-chorak		
1-2	Kirish: Badiiy matnni tahlil qilish bosqichlari	2
	1-fasl: “Har bir kun – saboq”	
3	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
4	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
5	Abdulla Qahhor: “O‘g‘ri” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy asar tili.	1
6	G‘afur G‘ulom: “Shum bola” qissasidan parcha. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
7	G‘afur G‘ulom: “Shum bola” qissasidan parcha. Asar matni bilan ishlash. Asarda voqealar bayoni	1
8	G‘afur G‘ulom: “Shum bola” qissasidan parcha. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar va filmdagi obrazlarni solishtirish. Yumoristik asar	1
9	Takrorlash	1
10	Odil Yoqubov: “Yaxshilik” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
11	Odil Yoqubov: “Yaxshilik” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
12	Odil Yoqubov: “Yaxshilik” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. O‘xshatish. Loyiha taqdimoti	1
13	O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
14	O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob. Asar matni bilan ishlash	1
15	O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari	1
16	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
17–18	Nazorat ishi va uning tahlili	2
2-chorak – 2-fasl: “So‘zda sehr bor”		
19	Xalq qo‘shiqlari va ularning turlari	1
20	Xalq qo‘shiqlari bo‘yicha loyiha taqdimoti	1
21	Alisher Navoiy hayoti va ijodi. Alisher Navoiy ruboiylari	1
22	Qofiya va fard	1
23	Alisher Navoiy hikmatlari	1

24	Abay: “Yoshlikdan bilim izlab”. Avaz O‘tar: “Har tilni biluv emdi”. She’rlarni solishtirib tahlil qilish	1
25	Abay va Avaz O‘tar she’rlarini solishtirish	1
26	Lengston Hyuz: “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
27	Lengston Hyuz: “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
28	Lengston Hyuz: “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar qahramonlari tavsifi	1
29	Fanlararo aloqa: adabiyot va ona tili	1
30–31	Nazorat ishi va uning tahlili	2
32	Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
3-chorak – 3-fasl: “Fantastika va sarguzashtlar olami”		
33	Hojiakbar Shayxov: “Birinchi sinov” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. Ilmiy fantastika haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
34	Hojiakbar Shayxov: “Birinchi sinov” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
35	Hojiakbar Shayxov: “Birinchi sinov” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
36	Hojiakbar Shayxov: “Birinchi sinov” hikoyasi. Loyiha	1
37	Rey Bredberi: “Bir kunlik yoz” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
38	Rey Bredberi: “Bir kunlik yoz” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash	1
39	Rey Bredberi: “Bir kunlik yoz” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Sifatlash. Loyiha	1
40	Rey Bredberi: “Bir kunlik yoz” hikoyasi.	1
41	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar. Muallif hayoti va ijodi. Sarguzasht asar haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
42	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar. “Dik Send” bobi. Portret	1
43	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar. “Kapitan Send” bobi.	1
44	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar. “Nima qilish kerak” bobi	1
45	Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1

46	Artur Konan Doyl: “Mallalar uyushmasi” hikoyasi. Muallif hayoti va ijodi. Detektiv haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
47	Artur Konan Doyl: “Mallalar uyushmasi” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash (1-qism)	1
48	Artur Konan Doyl: “Mallalar uyushmasi” hikoyasi. Asar matni bilan ishlash (2-qism)	1
	Artur Konan Doyl: “Mallalar uyushmasi” hikoyasi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
49	Fanlararo aloqa: adabiyot va texnologiya	1
50–51	Nazorat ishi va uning tahlili	2
52	Xatolar ustida ishlash. Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1
4-chorak – 4-fasl: “Rangin tuyg‘ular”		
53	Rahmat Fayziy: “Hazrati inson” romanidan bob. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
54	Rahmat Fayziy: “Hazrati inson” romanidan bob. Asar matni bilan ishlash	1
55	Rahmat Fayziy: “Hazrati inson” romanidan bob. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1
56	Rahmat Fayziy: “Hazrati inson” romanidan bob. Nasr va nazmning farqlari	1
57	Ibroyim Yusupov: “Qadrdon so‘qmoqlar”. Xurshid Davron: “Vatan devorlari” she’rlarini tahlil qilish	1
58	Ibroyim Yusupov: “Qadrdon so‘qmoqlar”. Xurshid Davron: “Vatan devorlari” she’rlarini solishtirish. Metafora	1
59	Ibroyim Yusupov va Xurshid Davron lirikasini solishtirish	1
60	Oskar Uayld: “Baxtli shahzoda” ertagi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	
61	Oskar Uayld: “Baxtli shahzoda” ertagi. Asar matni bilan ishlash	1
62	Oskar Uayld: “Baxtli shahzoda” ertagi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Jonlantirish	1
63	Azim Suyun: “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi”. Omon Matjon: “Osmon sog‘inch kabi”. Tahlil	1
64	Azim Suyun: “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi”. Omon Matjon: “Osmon sog‘inch kabi”. Solishtirish. Ijodiy ish	1
65	Azim Suyun va Omon Matjon lirikasini solishtirish	1
66	Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san’at	1
67–68	Nazorat ishi va uning tahlili	2



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

1-fasl.
HAR BIR KUN – SABOQ

Abdulla Qahhor. “O‘g‘ri”
G‘afur G‘ulom. “Shum bola”
Odil Yoqubov. “Yaxshilik”
O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari”

Adabiy tushunchalar:
– badiiy asar tili
– badiiy asarda voqealar bayoni
– badiiy tasvir vositalari: o‘xshatish
– yumoristik asar

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tarix

ABDULLA QAHHOR.
“O‘G‘RI”

Bu mavzuda biz:
– hikoyaning asosiy g‘oyalarini tahlil qilamiz;
– muallif tiliga xos xususiyatlarni aniqlaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy asar tili.	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga yangi mavzu Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi ekanligini va uni birgalikda o‘qib tahlil qilishingizni ayting.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida, uning bolalik yillari va ijodkor sifatida shakllanishi to‘g‘risida ma’lumotlar bering. Ijodkorning xotiralaridan olingan parchaga, rus adibi Anton Chexovni o‘ziga ustoz sanaganligi, Chexov singari hajman qisqa hikoyalariga katta ma’noni singdira olganiga e’tibor qarating. (Chexov ijodi bilan o‘quvchilar yuqori sinflarda tanishadilar, bu o‘rinda uning qisqa hikoyalar ustasi bo‘lganligini, oddiy xalqning hayotini tasvirlaganini aytib o‘tish mumkin.)

3. O‘quvchilar bilan ijodkor haqidagi ma’lumotdan keyin darslikda berilgan quyidagi savolni muhokama qiling.

O‘ylab ko‘ring-chi, muallif nega bolaligidagi voqealarni “chalakamchatti tush”ga o‘xshatyapti?

O‘quvchilarning javoblarini tinglashda:

– har bir o‘quvchining fikrini oxirigacha diqqat bilan eshiting, erkin fikriga daxl qilmang;

– fikrlarini hayotiy misollar bilan dalillashi lozimligini eslating;

– muhokama so‘ngida fikrlarni umumlashtiring, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantiring va o‘zingiz ham o‘qituvchi sifatida o‘z xulosangizni berib o‘ting.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling.

Biror-bir qadrli narsangizni yo‘qotib qo‘yganingizda qanday holga tushgansiz?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy kechinmalarini yodga solishlari talab etiladi. Savolni oydinlashtirish uchun “Sizning eng qadrli narsangiz nima? U narsa nega siz uchun qadrli?” singari qo‘shimcha savollar bilan murojaat qilishingiz mumkin.

5. O‘quvchilarni asarda tasvirlangan davr kontekstini tushunishga tayyorlash maqsadida XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti haqida qisqacha ma’lumot bering va darslikdagi eskirgan so‘zlar ma’nosini izohlang. Ma’lumot berishdan oldin o‘quvchilarning bu davr haqida tarix darslari, mustaqil o‘qigan asarlari yoki tomosha qilgan filmlari orqali olgan tasavvurlarini so‘rash mumkin.

6. Asar sarlavhasidan kelib chiqib o‘quvchilarning “o‘g‘ri”, “o‘g‘rilik” tushunchalari haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling. “Kimlarni “o‘g‘ri” deymiz? Qanday sabablar odamlarni o‘g‘rilik qilishga majburlashi mumkin? Hayotingizda o‘g‘rilarni uchratganmisiz?” kabi savollar bilan yuzlaning, berilgan fikrlarga munosabat bildiring va ularning qarashlarini umumlashtirib, asarni tushunishga tayyorlang. Shundan so‘ng darslikda berilgan savolni muhokama qiling. Bunda asar voqealari XIX asr oxirlari – XX asr boshlarida kechishini eslating.

O‘ylab ko‘ring-chi, nima uchun muallif hikoyani “O‘g‘ri” deb nomlagan? O‘g‘ri kim bo‘lishi mumkin? Asarni o‘qib bo‘lgach, yana shu savolga qayting. Avvalgi va keyingi javoblaringizni qiyoslang.

Asar bilan tanishgandan keyingi fikrlari bilan taqqoslash imkoniyati bo‘lishi uchun mazkur savolning javobini o‘quvchilar daftarlariga qisqa qilib qayd qilishlari mumkin.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Bunda darslikda QR kod shaklida berilgan havoladan hikoyaning O‘zbekiston xalq artisti Nabi Rahimov ijrosidagi audio variantini eshittirish va tegishli o‘rinlarda to‘xtatib, muhokama qilish mumkin.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
“Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. … Ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi”. O‘ylab ko‘ring-chi, nega ho‘kiz dehqon uchun juda muhim hayvon bo‘lgan? *– Bu davrda ho‘kiz ularning daromad manbai bo‘lgan, dehqonlarning ho‘kizsiz ishlari unmagan, tabiiy ravishda kam hosil ko‘rishgan, bu esa oilaning qashshoqlashishiga, och qolishiga olib kelgan;* *– uyi kuysa kuysin, deyilishining sababi – dehqon uchun boshpana tiklab olish osonroq bo‘lgan (matnda bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish yetarli, deyilmoqda), ya’ni uy qurish ho‘kizni yo‘qotish darajasida fojia bo‘lmagan;* *– dehqonning uyini oddiy, ortiqcha hashamatlardan xoli, arzon narsalardan ko‘tarsa bo‘ladi;* *– ho‘kiz olish uchun oila ancha vaqtgacha qozonni suvga solishi – yemay-ichmay pul to‘plashi kerak bo‘lgan.*	Kampir tong qorong‘isida xamir qilgani turib, ho‘kizidan xabar oldi. O!.. Ho‘kiz yo‘q, og‘il ko‘cha tomondan teshilgan... Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi. *O‘quvchilarning e’tiborini kampir tong sahardan ho‘kizdan xabar olganiga qaratish mumkin: nega u shunday qilyapti? (Odatda inson bunday paytda o‘zi uchun, oilasi uchun qimmatli narsadan xabar oladi.)* *Shuningdek, “dod ovoziga o‘rganib qolgan” odamlarning kampir dodiga tez to‘plangani sababini ham izohlashni so‘rang: bu oiladan dod ovozi chiqishi noodatiy hol bo‘lishi mumkin yoki kampirning dodi boshqalarnikidan ayanchliroq, e’tiborni tortadigan bo‘lishi mumkin.*
Qobil boboning holatiga e’tibor bering. Nega u “titraydi, tizzalari bukilib ketadi, ko‘zlari javdiraydi”? *– Qo‘rquvdan titrar edi, o‘sha daqiqalarda u hech narsani o‘ylay olmas va ko‘zlariga ishonmas edi;* *– g‘azab va xo‘rlikdan – o‘g‘ridan g‘azablanar va ayni vaqtda o‘z holidan xo‘rligi kelar edi (nega aynan uning ho‘kizi…);* *– dod-voy ovozini eshitib chiqqandagi tashqi ko‘rinishiga (egni boshiga) nazar soladigan bo‘lsak, yupqa yaktak kiygan holda bo‘lgan, yoz kunlarida ham sahar vaqtida odam etini junjiktiruvchi sovuq bo‘ladi (egni yupqa bo‘lgani uchun sovqotib titragan);* *– bo‘sh og‘ilxonani ko‘rib, aqli boshidan uchgan va oyoqlari yerni his qilmas darajada gangigan edi (shok holatida).*	Qobil bobo yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan og‘il eshigi yonida turib dag‘-dag‘ titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi; ko‘zlari javdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko‘rmaydi.
Amin “Yo‘qolmasdan ilgari bormidi?”, “Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa, keta beradimi?” kabi savollarni nima maqsadda berdi deb o‘ylaysiz? Ho‘kizning qanday yo‘qolganini surishtirmoqchimi yoki Qobil boboning ustidan kulyaptimi?	Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi.

– Cholning ustidan kulish va “sendek kambag‘alda ho‘kiz nima qilsin?” degandek munosabatini ko‘rsatmoqchi.	– Ha, sigir yo‘qoldimi? – Yo‘q... sigir emas, ho‘kiz, ola ho‘kiz edi. – Ho‘kizmi?.. Ho‘kiz ekan-da! Himm... Ola ho‘kiz? Tavba!.. – Bori-yo‘g‘im shu bitta ho‘kiz edi... Amin chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kuldi. – Yo‘qolmasdan ilgari bormidi? Qandaqa ho‘kiz edi? – Ola ho‘kiz... – Yaxshi ho‘kizmidi yo yomon ho‘kizmidi? – Qo‘sh mahali... – Yaxshi ho‘kiz birov yetaklasa, keta beradimi?
Sizningcha, amin qanday odam? Nega u Qobil boboga “Yig‘lama” yoki “Yig‘lamang” emas, “Yig‘lanmasin!” deyapti? Uning Qobil boboga biror yordami tegadi deb o‘ylaysizmi? *– Amin juda befarosat, qo‘pol va manman odam;* *– o‘zining ijtimoiy mavqeyidan foydalanib odamlardan pora oladigan, poraxo‘r amaldor;* *– cholni “siz” desa mavqeyi tushib qoladi, chunki uning ijtimoiy mavqeyi cholnikidan ancha yuqori, “sen” deb murojaat qilsa, unga nisbatan go‘yoki hurmatsizlik qilgan bo‘ladi – har qalay yoshi katta. Zotan, u odamlarning ko‘zida “kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qiladigan odobli amin”, shu sabab u har ikki jihatni birdek saqlab turish uchun cholga “yig‘lanmasin” deb buyruq bermoqda;* *– shunaqa savollar berib surishtiruv olib borsa, ho‘kiz topilguncha chol adoyi tamom bo‘lsa kerak (hali-beri topa olmaydi);* *– cholning haqiqatdan og‘ir vaziyatda ekanini anglasa, cholning chuqur samimiyatini his qilsagina, ho‘kizni topib beradi...*	– O‘zi qaytib kelmasmikin?.. Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo‘yilmagan ekan-da! Nega yig‘lanadi? A? Yig‘lanmasin! Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi. Amin chinchalog‘ini ikkinchi bo‘g‘inigacha burniga tiqib kuldi.
Egamberdi paxtafurushning Qobil boboga qo‘ygan “kichkinagina” sharti nima bo‘lishi mumkin? Qobil bobo bu shartni bajara oladi deb o‘ylaysizmi?	Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin “kichkinagina” sharti bor. Bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi...

– Kuzda ungan hosiliga sherik bo‘lish; *– ishlab berish sharti;* *– bajarmasdan iloji yo‘q, bu qarz ilmog‘iga bir ilindingmi, chiqishning hech imkoni yo‘q, o‘lgunicha shart bajaradi;* *– bajara olmaydi, shikoyat qilib yana amaldorlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘ladi.*	

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

Asar matnini tahlil qilib bo‘lgandan so‘ng oldingi darsda muhokama qilingan “Nima uchun muallif hikoyani “O‘g‘ri” deb nomlagan? O‘g‘ri kim bo‘lishi mumkin?” savoliga qaytib, muhokama qilish tavsiya qilinadi. “Hikoya aslida ho‘kizning o‘g‘irlanishi haqidami?” singari yo‘naltiruvchi savollar berish mumkin.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
“O‘g‘ri” hikoyasida o‘sha davrga xos qanday muammolar tasvirlangan? Jadvalni daftaringizda davom ettiring.	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish
Qobil boboning sarson-sargardon bo‘lishiga ko‘proq kim aybdor deb o‘ylaysiz? Bunday holatga tushmaslik uchun nima qilish kerak?	obrazlarga o‘z bahosini berish, asardan xulosalar chiqarish
Asar matnidan oldin keladigan va uning asosiy g‘oyasini ochib berish uchun ishlatiladigan maqol yoki hikmatli so‘z **epigraf** deyiladi. “O‘g‘ri” hikoyasiga “Otning o‘limi – itning bayrami” maqoli epigraf qilib tanlangan. Bu hikoyada “ot” va “it” kim? Hikoyaga tayangan holda maqolning mazmunini tushuntirib bering.	asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, epigrafning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlash, asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni aniqlash

“Muhokama qilamiz” ruknidagi 1-topshiriqni o‘quvchilar daftarga bajarishlari kerakligini ayting. Bu jadvalni to‘ldirishda sinfda o‘qish davomida qilingan tahlillarga asoslanishlari talab etiladi va asar matni bilan ishlash, tahlil qilish nazarda tutiladi.

1. “O‘g‘ri” hikoyasida o‘sha davrga xos qanday muammolar tasvirlangan? Jadvalni daftaringizda davom ettiring.

Muammo	Hikoyadan misol
Poraxo‘rlik (amaldorlarning arz bilan kelgan fuqarolar muammolarini hal qilish uchun pul yoki sovg‘a olishi)	Qobil bobo ho‘kizni topib berishi uchun ellikboshi, amin, pristavga pul va sovg‘a beradi
Savodsizlik	

Hikoya matniga sinchkovlik bilan yondashilsa, unda XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi xalqimiz hayotiga oid ko‘plab muammolar detallar vositasida ko‘tarilganini payqash mumkin:

– oddiy xalqning og‘ir turmushi (“Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish – uy”, “Odamlar dod ovoziga o‘rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi”);

– amaldorlarning xalq vakillarga pisandsizlik bilan munosabat qilishi (“amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi”, “O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan”);

– puldorlarning kambag‘allar boshiga tushgan mushkullardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishi (“birovning uyi xatga tushadi”, “bu shart kuzda ma’lum bo‘ladi”).

Keyingi savol (“Qobil boboning sarson-sargardon bo‘lishiga ko‘proq kim aybdor deb o‘ylaysiz? Bunday holatga tushmaslik uchun nima qilish kerak?”) muhokamasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, hayotiy tajribasi va kuzatuvlariga tayanishlariga e’tibor qarating.

O‘quvchilarga epigraf haqida qisqacha ma’lumot bering. “O‘g‘ri” hikoyasiga epigraf qilib tanlangan maqolning mazmunini muhokama qiling. “Otning o‘limini bayram qilayotgan itlar” kimligini, hikoyani o‘qish davomida o‘quvchilar ularga nisbatan qanday hislar tuyganligini so‘rang.

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz, o‘quvchilar nazardan qochirgan jihatlarni izohlashingiz lozim.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

1. Guruhlarga bo‘lining. “O‘g‘ri” hikoyasidagi o‘zingizga ma’qul bo‘lgan epizodni tanlang va shu asosda rasm chizing. Ijodingiz asosida taqdimot tayyorlang va uni guruhlarda muhokama qiling.

Ushbu topshiriqni bajarishda o‘quvchilarning o‘ziga xos individual xususiyatlarini inobatga oling, rasm chizishda iqtidorli o‘quvchi, tasavvur qilish qobiliyati kuchli o‘quvchi va taqdimot qilib bera oladigan nutqi ravon o‘quvchilarni guruhlarda teng taqsimlashga e’tibor qarating. O‘quvchilar ishlarini muhokama qilishda ularning obrazlar holatini qay darajada ochib bera olganiga e’tibor qarating.

ADABIYOT NAZARIYASIGA OID TUSHUNCHALARNI O‘RGANISH: BADIIY ASAR TILI

O‘quvchilarga adabiyot so‘z san’ati ekanligi, ya’ni adib obrazlarni so‘zlar vositasida yaratishi, muallif tanlagan so‘zlar uning voqea-hodisalarga munosabatini ham aks ettirishi, o‘quvchida ma’lum bir kayfiyat yaratishi haqida ma’lumot bering. “Dahshat” hikoyasidan berilgan parcha va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi Pavel Benkov ishlagan suratdagi kuz tasvirlarini solishtirishni so‘rang: Har ikki san’at asarida kuzni tasvirlash uchun mualliflar qanday vositalardan foydalanishgan? Bu vositalar o‘quvchilarga qanday ta’sir qiladi?

O‘quvchilarning berilgan ma’lumotlarni qay darajada tushunganliklarini tekshirish maqsadida ularni guruhlarga bo‘lib, har bir guruhga rasm yoki biror predmet (qalam, kitob, telefon va hokazo) berish va ulardan shu rasm yoki predmet asosida kichik matn tuzishlarini so‘rash mumkin. Bunda o‘quvchilarning yozma nutqlarida so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalanishi, badiiy tasvir vositalarini qo‘llay olishiga e’tibor qarating.

Keyingi ikki topshiriq (qahramonlar tasviridan ularga xos xususiyatlarni aniqlash hamda matndagi maqol va iboralarning asar g‘oyasini ochishdagi ahamiyatini izohlash) orqali o‘quvchilar Qahhor tiliga xos xususiyatlarni aniqlashga harakat qiladilar.

Asardagi ayrim maqol va iboralar:

– Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi.

– Quruq qoshiq og‘iz yirtadi.

– Berganga bitta ham ko‘p, olganga o‘nta ham oz.

– O‘ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan.

G‘AFUR G‘ULOM.
“SHUM BOLA”

Bu mavzuda biz:
– yumoristik asar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz;
– asar va uning kino talqinini solishtiramiz;
– asarda voqealar bayonini tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash. Asarda voqealar bayoni	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar va filmdagi obrazlarni solishtirish. Yumoristik asar haqida tushuncha	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot bering. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga, ijodkor bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillarga ahamiyat bering. Muallif hayotidagi tirikchilik qiyinchiliklari, yashagan davriga ham to‘xtaling.

3. Asar sarlavhasidan kelib chiqib o‘quvchilarning shum bola haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling va ularning qarashlarini umumlashtirib, asarni tushunishga tayyorlang. Bunda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish ham tavsiya etiladi.

O‘ylab ko‘ring: “shum bola” deganda qanday bolani tasavvur qilasiz? “Shum bola” va “sho‘x bola” o‘rtasida qanday farqlar bor? Mahallangizda yoki sinfdoshlaringiz orasida ham shum bolalarni uchratganmisiz? Ularda boshqa bolalarga o‘xshamaydigan qanday xususiyatlarni kuzatgansiz?

A. Madvaliyev tahriri ostidagi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “shum” va “sho‘x” so‘zlariga quyidagicha ta’rif berilgan:

Shum (arabcha “baxtsizlik, musibat; balo, ofat” so‘zidan):

1) yomon fikrdagi; niyati buzuq; yomon, yaramas;

3) qo‘lidan har qanday yomonlik keladigan; ayyor, makkor, quv, qilvir;

4) yaramas qiliqlar qiladigan, o‘ta sho‘x, to‘polonchi;

Sho‘x (forscha “o‘ynoqi; go‘zal sevgili” so‘zidan):

1) vaqtini o‘yin bilan o‘tkazadigan, o‘yinqaroq; to‘polonchi;

2) o‘yin-kulgini, hazil-huzulni yaxshi ko‘radigan; xushchaqchaq, quvnoq.

Yuqoridagi savolni muhokama qilishda o‘quvchilar shaxsiy kuzatishlariga tayanishlari talab etiladi. Savolning birinchi qismida “shum bola” tushunchasi haqida fikr bildirish so‘ralgan bo‘lsa, ikkinchi qismida “shum” va “sho‘x” so‘zlarining farqli va o‘xshash jihatlarini tahlil qilish talab etilgan. Savolning mazkur qismini muhokama qilishda “shum” va “sho‘x” so‘zlarining lug‘aviy ma’nolarini berib, ular o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish hamda asar sarlavhasidagi “shum” so‘zi qaysi ma’noda ishlatilgani bo‘yicha farazlarini so‘rash, asar muhokamasidan keyin esa bu farazga qaytib, oldingi va keyingi tasavvurlarni solishtirish mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilardan atrofdagilarni kuzatishlari oqibatida yuqorida anglashilgan ta’riflarga mos kishilarni (do‘stlar, tanishlar, mahalladoshlar va hokazo) tasvirlashlari, ulardagi boshqalardan farqli xususiyatlarga to‘xtalishlarini so‘rang.

4. Keyingi savolni muhokama qilishda o‘quvchilardan asar syujetini bashorat qilish talab etiladi. O‘quvchilardan buni daftarga yozishlarini so‘rang, asar bilan tanishgach, bashoratlar bilan solishtirishlarini ayting. O‘quvchilarning bashoratlari qay darajada asar syujeti bilan o‘xshash ekanligini taqqoslang (o‘quvchilar bilan birgalikda).

Asardagi “shum bola”ni qanday tasavvur qilyapsiz? Uni tasvirlang va berilgan parchani o‘qib bo‘lgach, avvalgi va keyingi xulosalaringizni qiyoslang. Asar qahramoni haqidagi tasavvuringizda nimalar o‘zgardi?

Bunda asar voqealari tasvirlangan davrga (Birinchi jahon urushi payti, XX asrning 10-yillari) e’tibor qaratishni, asar tasvirlangan davrdagi turmush tarzi hozirgidan keskin farq qilganini hisobga olishni so‘rang.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

G‘afur G‘ulom “Shum bola” ustida yigirma yildan oshiqroq vaqt davomida ishlagan. Asarning dastlabki “Shum bolaning sarguzashti” nomli bo‘limi 1936-yil yozilgan va “Mushtum” jurnalida chop qilingan edi. Mazkur bo‘lim “Dovdirash” sarlavhasi ostida alohida kitob shaklida ham nashr etildi. Asarning keyingi bo‘limlari 1938- va 1941-yillarda e’lon qilindi. 1960-yillarda esa qissa muallif tomonidan jiddiy qayta ishlandi: ayrim voqealar qisqartirildi va yangi voqealar qo‘shildi, voqealarning qiziqarli bayonidan ko‘ra realistik yondashuv kuchaytirildi, qahramonning yoshi ham o‘n yetti yoshdan o‘n to‘rt yoshga o‘zgartirildi. Qissada muallifning hayoti bilan bog‘liq unsurlar (joylar, kishilar nomlari, ayrim epizodlar) mavjud bo‘lsa-da, u avtobiografik asar emas.

Darslikka kiritilgan parcha uchinchi bo‘limdan olingan. “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Bolaning yoshiga u qadar to‘g‘ri kelmaydigan mazkur xalq qo‘shig‘ini shum bola tilidan ayttirish orqali muallif nimani maqsad qilgan deb o‘ylaysiz? *– Yozuvchi bolaning fikrlashi, dunyoqarashi, tajribasi kattalarnikidan kam emasligini (ko‘rsatmoqchi bo‘lgan ro‘zg‘or qiyinchiliklari uni erta kattalar orasiga qo‘shgan, u ham kichik jussali bir katta odamdek);* *– bolaning ayni daryodan o‘tish vaqtidagi psixologik holatini tasvirlash, ichki kechinmalarini ifodalash uchun (she’rdagi yorga emas, tayini yo‘q bu yo‘lchilikning uzunligiga, qiyinligiga diqqat qaratgan bo‘lishi mumkin).*	Daryo toshqin, suvlar to‘lqin, O‘tolmayman-a, yor-yor. Otim oriq, manzil uzoq, Yetolmayman-a, yor-yor. Otginamni oriq qilgan Shu mayda tosh-a, yor-yor. Rangginamni sariq qilgan U qalamqosh-a, yor-yor... Daryolarning ul yuzida Uylaringiz-a, yor-yor. Oqarishib ko‘rinadi Bo‘ylaringiz-a, yor-yor. Ipdanmidi, ipakmidi Kiyganingiz-a, yor-yor. Bizlardan ham ortiqmidi Sevganingiz-a, yor-yor... Daryolarning ul yuzida Oltin ko‘za-ya, yor-yor. Oltin ko‘za ko‘tarmakka Bilak kerak-a, yor-yor. Bu daryodan kechish uchun Yurak kerak-a, yor-yor...
Nima uchun Shum bola Sariboyga avvaldan aybini aytib qo‘yishni istadi? Nega boy uning yolg‘onchiligini bila turib ham ishga yolladi? *– Kelgusida biror korimga yaraydi deb, agar biror bir xato qilib qo‘ysa, aybini oldindan aytib qo‘yganligi orqali jazodan qutilish uchun;* *– o‘zining haqiqatdan yolg‘onni ko‘p ishlatishini aytish orqali yolg‘on gapirganda ham aybli bo‘lib chiqmaslik uchun, “aytgandim-ku” deyish uchun;* *– arzon, yosh, chaqqon ishchi bo‘lgani uchun. Boy Shum bola uni o‘ldirar darajada aldashi mumkinligini o‘ylamagan, uning aybini tan olishi, ya’ni yolg‘on gapirish xususiyati borligiga yengil qaragan, pisand qilmagan;* *– boyning yolg‘ondan davlati kamaymas, ishi to‘xtamasdi, uning uchun muhim narsa qo‘l ostidagi ishchilarining rostgo‘yligi emas edi.*	– Boy buva, – dedim, – endi-ku, savdomiz pishdi. Shariat yuzasidan mol sotganda hamma aybini aytib sotsa, halol bo‘lar ekan. Mening ham bir aybim bor, shuni boshdan aytib qo‘yganim yaxshi. – Xo‘sh, nima aybing bor? Siyg‘oqmisan, tutqanoqmisan? – Yo‘q, aybim bu emas, aybim shuki, yoshligimdan odat bo‘lib qolgan, har zamon-har zamonda beixtiyor yolg‘on gapirib qo‘yaman, shunda koyimasangiz bas. Xizmat haqi, mayli, siz aytgancha bo‘lsin. – Obbo bachchag‘ar-ey, quv ko‘rinasan-a, ha, mayli-mayli. Lekin ko‘p yolg‘onlamagin!

Nima uchun Shum bola gapni Sariboyning “dandon sopli pichog‘ining sinishi”dan boshladi? Uning ezma boyning g‘azabidan omon qolish sabablarini qanday izohlaysiz? *– Dandon sopli pichoq Sariboy uchun juda qadrli edi, loqayd, dunyoni suv bossa, to‘pig‘iga kelmaydigan, o‘zidan boshqani o‘ylamaydigan ochko‘z boyning e’tiborini tortish uchun shum bola gapni mana shu pichoqning sinib qolishidan boshladi;* *– “innaykeyin”lar juda ko‘p berilishini bilgani uchun gapni uzoqdan olib kelishga majbur bo‘ldi;* *– yolg‘onlar zanjiri mayda detaldan boshlanib, yirik detallargacha olib borishini, ya’ni oddiy pichoqdan boshlangan yolg‘on bir-biriga bog‘lanib, katta yolg‘onlarni paydo qilishini ko‘rsatish uchun;* *– boyni “pichoqsiz so‘ygan” yolg‘onlar aynan pichoqdan boshlandi;* *– boyning bunday vaziyatga tushishiga o‘zi sababchi, chunki bo‘lar-bo‘lmasga beradigan “innaykeyin”lariga javob berolmaganni urib, do‘pposlar edi;* *– boshida shart qilib qo‘yilgan aybidan foydalanishi mumkinligini eslagani boyning savoliga javob qaytara olish imkonini beradi;* *– bolaning maqsadi boshidayoq boyni shu savolni berishga ham majoli qolmas holga keltirish edi.*	Shu paytda boyga xizmatkor yurishda qo‘ygan shartim esimga tushib qoldi. “Shart qilgan yolg‘onni endi gapirmasang, qachon gapirasan”, dedim-da, gap boshladim: – Anavi, haligi, dandon sopli pichog‘ingiz sinib qolib edi, shuning xabarini bergani keldim. Ana shu so‘zdan keyin menga “innaykeyin” savoli yog‘ila boshladi. – Xo‘sh, innaykeyin, qanday qilib sindi? Ro‘zg‘orda mening pichog‘imdan boshqa pichoq qurib ketgan ekanmi? – Tozi itingizning terisini shilayotgan edim, suyakka tegib sinib qoldi.
Shum bolaning yolg‘oni oshkor bo‘lgach, u Sariboyga bu “hammasi emas”ligini aytadi. Suhbat uzilib qolmaganda, Shum bola uni yana qay tartibda davom ettirishi mumkin edi? *– Badal aravakash qizingizning qo‘lini so‘ramoqchi ekan…*	– Hoy itdan tarqagan, bu qilig‘ing nimasi?! – Axir, boshida bay qilishgan edik-ku, aylanay, xo‘jayin, har zamonda bir yolg‘on gapiraman, deb. – Bu o‘sha yolg‘oningmi? – Lekin hammasi emas edi. – Agar hammasi bo‘lmasa, butun yolg‘on qilsang, men xonavayron bo‘lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la’nat seni, qorning oshga to‘ymasin, juvonmarg bo‘l! Haydang bu kazzobni!

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: ASARDA VOQEALAR BAYONI

O‘quvchilarni asarning birinchi shaxs (qahramonlardan biri) yoki uchinchi shaxs (chetdan kuzatuvchi, begona) nomidan bayon qilinishi haqidagi nazariy ma’lumot bilan tanishtirishdan oldin “Muhokama qilamiz” ruknidagi ikkinchi savolni (“Sizningcha, davr muammolari, xalqning og‘ir turmushi, insonga xos ijobiy va salbiy xislatlar nima uchun aynan yetim bola nigohi orqali tahlil qilinadi?”) berib, o‘quvchilarning fikrlarini bilish va yozuv taxtasida umumlashtirish mumkin.

O‘quvchilar “Shirin qovunlar mamlakati” romani va “Yomg‘ir” hikoyasidan olingan parchalarni o‘qib, ular asosida voqealarning birinchi shaxs va uchinchi shaxs tilidan bayon qilinishidagi farqlarni tahlil qilishlari uchun vaqt bering. Belgilangan vaqt tugagach, ularning javoblarini eshiting, lozim o‘rinlarda yo‘nalish bering yoki noto‘g‘ri izohlarni tuzating.

“Shum bola”da voqealar bosh qahramon tilidan hikoya qilinishi o‘quvchiga qanday ta’sir qilishini o‘quvchilar bilan muhokama qiling. So‘ng o‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va Sariboyni aldash voqeasini uchinchi shaxs nomidan bayon qilish vazifasini topshiring. Ayrim guruhlarning bayonini sinf bilan birgalikda eshiting hamda birinchi shaxs va uchinchi shaxs nomidan bayon qilishda nimalar o‘zgarganini muhokama qiling.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
“Shum bola” asarining siz mutolaa qilgan bobida qanday muammolar ko‘tarilgan deb o‘ylaysiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillashga harakat qiling.	asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish
Sizningcha, davr muammolari, xalqning og‘ir turmushi, insonga xos ijobiy va salbiy xislatlar nima uchun aynan yetim bola nigohi orqali tahlil qilinadi?	tasviriy vositalarni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish
Shum bolaning harakatlarini qanday baholaysiz? Asarni o‘qishdan avvalgi va keyingi tasavvurlaringizni qiyoslang. Nimalar o‘zgardi? Shum bola Sariboyni aldab to‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida bo‘lganingizda qanday yo‘l tutardingiz? Shum boladan nimalarni o‘rgandingiz? Sariboydan-chi?	obrazlarga baho berish, asardan xulosalar chiqarish

Asarda ko‘tarilgan muammolarni muhokama qilishda asarda tasvirlangan davr bolalarining hayotini hozirgi kun bolalari hayoti bilan solishtirish mumkin. Shuningdek, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasi bilan solishtirib, har ikki asarda oddiy odamlarning turmushi qanday tasvirlanganini, “O‘g‘ri”dagi amaldorlar va “Shum bola”dagi Sariboyning kambag‘allarga munosabatini qiyoslash mumkin.

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim.

JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

“Shum bola” asaridan berilgan parchani qismlarga ajrating. Har bir qismga sarlavha toping. Nima uchun aynan shunday sarlavha qo‘yganingizni izohlang.

Juftliklarda ishlash uchun berilgan topshiriqni bajarishda o‘quvchilardan qismlardagi eng muhim nuqtalarni topish va nomlash talab etiladi. O‘quvchilar, shuningdek, qismlarga berilgan sarlavhalarni asoslab berishlari ham kerak: nafaqat sarlavhalarga, balki ularning asoslanishiga ham e’tibor qarating va eng yaxshi nomlagan juftliklarni rag‘batlantiring.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Shum bola” filmidan siz mutolaa qilgan bob lavhasini tomosha qiling. Shum bola va Sariboy obrazlarining badiiy asar va uning kinotalqinidagi farqli hamda o‘xshash jihatlarini topib, jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. “Shum bola” filmidan (rejissyor – Damir Salimov, “O‘zbekfilm” kinostudiyasi, 1977-yil) Shum bolaning Sariboyni aldashi epizodini qo‘yib bering va jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Guruhlar o‘z jadvallarini taqdim qiladilar. Shuningdek, guruhlardan Sariboy va Shum bola rollariga sinfdan kimlarni tavsiya qilishlarini hamda tavsiyalarini asoslashni so‘rash mumkin.

Mazkur topshiriqni mavzuga ajratilgan ikkinchi soatdan uyga vazifa (individual topshiriq) sifatida berish va uchinchi soat boshida ayrim o‘quvchilarning taqdimotini eshitib, umumlashtirish ham mumkin.

YUMORISTIK ASAR HAQIDA BILIB OLAMIZ

Yumor va uning asosiy xususiyatlari haqida ma’lumot bering. Berilgan nazariy ma’lumotlarga asoslanib “Shum bola” asarida yumoristik o‘rinlarni topishlarini so‘rang, fikrlarini matn bilan izohlashlariga e’tibor qarating.

ODIL YOQUBOV.
“YAXSHILIK”

Bu mavzuda biz:
– badiiy asarda obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar tasvirini muhokama qilamiz;
– badiiy matndan o‘xshatishlarni topishni o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish: muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. O‘xshatish. Loyiha taqdimoti	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot bering. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga, xususan, bolalik va o‘smirlik davri sinovlariga ahamiyat bering.

3. Asar sarlavhasidan kelib chiqib, o‘quvchilarning yaxshilik haqidagi fikrlarini bilishga harakat qiling va ularning qarashlarini umumlashtirib, asarni tushunishga tayyorlang. Bunda “Aqliy hujum” metodidan foydalanish ham tavsiya etiladi.

4. O‘quvchilardan Ikkinchi jahon urushi haqida nimalarni bilishlarini, bu davr haqida yoshi ulug‘lardan nimalarni eshitganliklarini, urush bilan bog‘liq qanday asarlarni o‘qishgani yoki filmlar tomosha qilishganini so‘rang. Darslikda berilgan ma’lumotlar bilan tanishtiring. Odil Yoqubovning xotiralaridan parchada berilgan urush davri mashaqqatlariga e’tibor qarating.

O‘ylab ko‘ring-chi, urush paytida yaqinlari frontga ketgan insonlar uchun eng katta yaxshilik nima bo‘lishi mumkin? Eng katta yomonlik-chi?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilar oila ulug‘laridan eshitgan turli yodnomalarga tayanib javob berishlari mumkin. Yurtimiz hududida urush bo‘lmagan bo‘lsa ham, xalqimiz chekkan qiyinchiliklar, yo‘qchiliklar urush bo‘layotgan hududlarnikidan aslo kam bo‘lmagan. Bu savolga javob berishda o‘quvchilarning bugungi

tinch-totuv kunlar qiymatini bilish kerak ekanligini ta’kidlovchi, his ettiruvchi quyidagi savollar bilan ham yuzlanishingiz mumkin.

– Tinchlik siz uchun nima?

– Tinchlikning qadri nimada?

– Inson tinchlikning qadriga qachon yetishi mumkin?

– Kattalarning tinchlik haqidagi fikrlarini eshitganmisiz? Bu fikrlarning qadri nimada?

Shuningdek, o‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘lib, urush davri yoritilgan biror filmni tanlash va mazkur filmdagi voqealar rivoji, davr dahshati va eng ta’sirli nuqtalar haqida qisqa og‘zaki taqdimot qilish vazifasini berish mumkin. Bu orqali o‘quvchilarda bu davrni ko‘z oldilarida yanada yaxshi jonlantirish imkoniyati vujudga keladi.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Muallif qanday og‘ir voqea haqida hikoya qilib beradi deb o‘ylaysiz? *– Yuqoridagi berilgan ma’lumotlarga asoslanib (asar Ikkinchi jahon urushi davri qiyinchiliklari haqida hikoya qiladi) urushda kimidir (o‘g‘li, turmush o‘rtog‘i, aka-ukasi yoki dadasi) vafot etgan bo‘lishi mumkin;* *– uyga o‘g‘ri tushgan, kelinoyisi uchun qadrli biron narsani o‘g‘irlagan bo‘lishi mumkin;* *– ochlikdan kimdir o‘lgan bo‘lishi mumkin.*	Men har safar Munavvar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro‘y bergan bu og‘ir voqea emas, dilimda sal ma’yus va iliq hislar uyg‘ongan yoz kuni esimga tushadi.
Mansurning kelinoyisi sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakteri haqida nimalarni bilib oldingiz? *– Og‘ir-bosiq, samimiy, erini hurmat qiluvchi itoatkor ayol, muloyim, aqlli, kerak o‘rinlarda biroz hazilkash;* *– negadir g‘amgin, ma’yus (balki ota-onasi uni qishloqqa turmushga berishini istamagandir, ma’yusligi boisi shunda bo‘lishi mumkin);* *– o‘qigan, ziyoli, ammo agar “sevdim” deya bolaning tog‘asi bilan qochib kelgan bo‘lsa, u qadar mulohazali deb bo‘lmas, chunki sevgi ko‘zini ko‘r, aqlini falaj qilgan.*	...Tog‘am ertaga urushga ketadi. U kecha kechqurun kelinoyimni Toshkentdan “olib qochib kelgan”. Qulog‘imga chalingan shivir-shivirlarga qaraganda, ular institutda birga o‘qishar ekan. Kelinoyim novcha, hatto tog‘amdan ham novcharoq, – men buni tog‘am yuvinib bo‘lib, qaddini rostlaganida payqadim, – uzunchoq yuzli, nozikkina qiz edi. Meni ayniqsa uning xiyol ma’yus qora ko‘zlari hayratda qoldirdi. Umuman uning butun vujudida, ochiq, muloyim chehrasida, o‘ychan tikilib turishida bo‘lakcha bir g‘amginlik bor edi.

Bolaning kelinoyisi haqiqatdan ham to‘y udumlari sababli yig‘lagan deb o‘ylaysizmi? Mansurning ko‘ngli nima uchun buzildi? *– Yo‘q, asl sabab ertaga turmush o‘rtog‘ining urushga ketishi edi (ketmang, deya olmaydi, zero u ketishga majbur, shuning uchun ko‘zyoshlariga arzimas bahonalarni sabab qilib ko‘rsatyapti);* *– kelin-kuyov juda zamonaviy qarashga ega, odatlarni eskilik deb qaraydigan insonlar, ular shunchaki oila kattalarining ra’yiga qarshi chiqishni istamaganliklari uchun bu rasm-rusumlarni qilishmoqchi edi;* *– Mansur bu ikki bir-birini sevuvchi insonlarni uzoq ayriliq kutayotgani uchun ich-ichlaridan g‘am cheka-yotganliklarini bilganligi uchun ham ko‘ngli buzildi;* *– Mansur arzimas bahonalar ortiga berkitilayotgan asl masalani tushungani uchun ko‘ngli buzildi;* *– tog‘asining zo‘r berib ayolining yuziga biroz bo‘lsa-da kulgi yugurtirish uchun o‘zi kulayotganini ko‘rib ko‘ngli buzildi.*	Men uzumni ularning oldidagi dasturxonga qo‘yarkanman, kelinoyimning ko‘zlarida halqa-halqa yosh ko‘rdim. Uzumni qo‘yib, darhol orqamga qaytmoqchi edim, kelinoyim ko‘rsatkich barmog‘i bilan ko‘z yoshlarini sidirib tashladi-da, qo‘limdan ushladi. – Bilasanmi, nimaga yig‘layapti kelinoying! To‘y eskicha bo‘lsin emish, chimildiqqa kirarmishlar... – Ha, kirmoqchiman, – dedi kelinoyim. – Ikki bukilib amma-xolalaringga salom bermoqchi emishlar...
Mansur pochtachi kelishini aytib noto‘g‘ri ish qildimi? Siz uning o‘rnida nima qilgan bo‘lardingiz? *– Shu vaziyat uchun to‘g‘ri edi, chunki ertalabdan kelinoyisi yaxshi tush ko‘rganini, bugun yaxshi xabar kelishiga shu qadar ishonar ediki, Mansur ham kelgan xabar yomon bo‘lishi mumkinligini hatto xayoliga ham keltirmadi;* *– noto‘g‘ri qildi, avval pochtachi bilan gaplashib olishi, keyin uydagilarni chaqirishi kerak edi;* *– men ham balki shunday qilgan bo‘lar edim;* *– men xushxabarni o‘z qo‘lim bilan berish niyatida ham avval pochtachi bilan o‘zim uchrashgan, xat bo‘lsa olgan bo‘lar edim.*	O‘rnimdan sakrab turdim. O‘sha vahimali va qaynoq tuyg‘uga bo‘ysunib bog‘ga otildim. – Buvijon! Kelinoyi! Xat! Tog‘amdan xat!

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

LOYIHA

Hikoyadan Ikkinchi jahon urushi davri haqida nimalarni bilib oldingiz? Hikoyadagi qaysi o‘rinlar sizga urush paytidagi hayotni, insonlarning kechinmalarini yaxshiroq tasavvur qilishga yordam berdi?

Ikkinchi jahon urushi paytidagi hayot haqida ma’lumot to‘plang. Buning uchun kitoblarga yoki kinolarga murojaat qilishingiz, u davr haqida yoshi ulug‘ kishilardan so‘rab olishingiz mumkin. To‘plagan ma’lumotlaringiz va “Yaxshilik” hikoyasi asosida taqdimot tayyorlang.

Loyihani uy ishi sifatida o‘quvchilarga bering. Loyihani bajarishda o‘quvchilardan mustaqil izlanish talab etiladi. Loyihani tayyorlashda media materiallardan, kitob va internet ma’lumotlaridan foydalanish mumkin.

Bunda o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, loyiha ustida guruh bo‘lib ishlash vazifasini topshirish mumkin. Darsdan tashqari vaqtda o‘quvchilarning birga ishlashlari ularda jamoa bo‘lib ishlash, vazifalarni taqsimlash, vaqtni boshqarish singari muhim ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Keyingi dars boshida taqdimotlarni sinf bilan birga tinglang, ulardagi o‘xshash va o‘ziga xos fikrlarga e’tibor qarating. Taqdimot uchun material to‘plash va ma’lumotlarni umumlashtirish jarayonida o‘zlari uchun qanday muhim xulosalarga kelganliklarini so‘rang.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Hikoya nima uchun “Yaxshilik” deb nomlangan? Sizningcha, muallif bu hikoya bilan nima demoqchi?	asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, matndagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash
“Har safar kelinoyimni eslaganimda keyinchalik ro‘y bergan bu og‘ir voqea emas, dilimda sal ma’yus va iliq hislar uyg‘ongan yoz kuni esimga tushadi”, – deydi Mansur. Nima uchun uning xotirasida bu mudhish voqea emas, balki iliq yoz kuni muhrlanib qolgan? Nega kelinoyisi Mansurdan qattiq xafa bo‘ldi? Nega uni kechira olmadi? Sizningcha, kelinoyisi uni kechirishi uchun Mansur nima qilishi mumkin edi?	obrazlarga baho berish, ularning bir-biriga munosabatini tahlil qilish; asar matnidagi implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish

Mansurning kelinoyisi haqidagi tasavvuringiz hikoyani o‘qib bo‘lgach, o‘zgardimi? Agar “ha” bo‘lsa, qanday o‘zgardi?	
Siz birovga chin dildan yaxshilik qilmoqchi bo‘lib, lekin natijasi kutganingizdek chiqmagan holatlarga duch kelganmisiz? Shunda siz qanday yo‘l tutgansiz?	hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g‘oyasiga o‘z munosabatini bildirish

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim.

JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

Tasavvur qiling, bir necha yildan keyin Mansur va kelinoyisi uchrashishdi. Ular nima haqida gaplashishlari mumkin? Ular o‘rtasidagi suhbatni yozing. Sinfdoshlaringizga o‘qib bering. Qaysi juftlikning suhbati eng ishonarli va ta’sirchan chiqdi?

Juftliklarda ishlash ruknida berilgan topshiriqni bajarishda o‘quvchilar tasavvurlarini ishga solishlari talab etiladi. Asarning keyingi syujet liniyasi qanday rivojlanishi mumkin? Qahramonlarning keyingi hayoti qanday kechgan bo‘lishi mumkin? Mazkur topshiriq orqali o‘quvchilar obrazlarni chuqurroq tushunish, shuningdek, asarning mantig‘idan kelib chiqqan holda keyingi voqealar rivojini tasavvur qilish ko‘nikmalarini mashq qilishadi.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: O‘XSHATISH

O‘quvchilarga o‘xshatish haqida ma’lumot bering, uning badiiy tasvir vositasi sifatidagi ahamiyatiga to‘xtaling. Adabiyotda (nazm, nasr) qo‘llangan o‘xshatishning go‘zal namunalaridan misollar keltirish orqali o‘quvchilarga berilgan nazariy ma’lumotlarni mustahkamlang. Sinf xonasidagi narsa-buyumlardan foydalanib o‘xshatishga oid misollar aytishlarini so‘rang. Berilgan misollarni qanchalik asosli ekanligiga ko‘ra rag‘batlantiring, kamchilikli misollarni tuzatishga yo‘nalish bering. O‘quvchilarning mavzuni yaxshi tushunganliklariga amin bo‘lganingizdan so‘ng quyidagi topshiriqni bering.

“Yaxshilik” hikoyasidan o‘xshatishga misollar toping. Bu o‘xshatishlarda yozuvchi tasvirlanayotgan shaxs, narsa yoki holatning qaysi xususiyatiga urg‘u bergan? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

O‘xshatishga misol	Shaxs, narsa yoki holatning xususiyati

Bu topshiriqni bajarish o‘quvchilardan bevosita asar matni bilan ishlashni talab etadi. Bu orqali o‘quvchida o‘zi o‘qigan asarini badiiy tahlil qilish ko‘nikmasi shakllanadi. O‘quvchilarning javoblarini, asardagi o‘xshatishlardan ko‘zlangan maqsadni va ularning o‘quvchiga ta’sirini muhokama qiling.

O‘TKIR HOSHIMOV.
“DUNYONING ISHLARI”

Bu mavzuda biz:
– hikoya g‘oyasi va undan olgan xulosalarimizni muhokama qilamiz;
– badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob: Asar matni bilan ishlash	1 soat
O‘tkir Hoshimov: “Dunyoning ishlari” qissasidan bob: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Badiiy matnning o‘ziga xos xususiyatlari	1 soat
Mustaqil o‘qilgan asarlar muhokamasi	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqidagi ma’lumotlarni mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. Ijodkorning ota-onasi haqidagi xotiralariga, bolalik davri qiyinchiliklariga e’tibor qarating. O‘quvchilar muallif haqida yana nimalarni bilishlarini, uning qaysi asarlarini mustaqil mutolaa qilishganliklarini so‘rang. Fikrlarni umumlashtirib, faol ishtirok etgan o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

3. O‘quvchilarga asarning onalar haqida ekanligini ayting va asarni tushunishga tayyorlang. O‘quvchilardan o‘z onalarini ta’riflashlarini so‘rang. “Eng zo‘r ona – mening onam” mavzusida suhbat uyushtirib, o‘quvchilarning onalari haqidagi sifatlarni eshiting. Onalari haqida asar yozishsa, unda nimalarni yozishgan bo‘lardi? Shu va shu kabi savollarga javob bo‘luvchi suhbatni shakllantiring.

4. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollar bilan murojaat qiling.

Siz biror marta onangizning qanday ayol ekani haqida o‘ylaganmisiz? Onalarda bir-biriga o‘xshaydigan qanday umumiy jihatlarni ko‘rasiz? Onalarni oftobga o‘xshatilishini yana qanday sabablar bilan izohlagan bo‘lardingiz?

Ushbu savolga javob berishda o‘quvchilardan kuzatishlariga tayanishlari so‘raladi. Bu savollarga javob berish orqali ular uchun “ona” timsolining o‘z onalari misolida qanday shakllanganligini bilish mumkin. Onalarning oftobga o‘xshatilganiga berilgan ta’riflarni umumlashtiring va xulosalang.

5. Ikkinchi savol esa qissadan berilgan parcha yuzasidandir. Eng og‘ir gunoh nimaligi haqida o‘quvchilarda turli fikrlar bo‘lishi tabiiy va o‘quvchilarning bu hikoya nima haqida bo‘lishi mumkinligi to‘g‘risidagi fikrlariga e’tibor qarating. Kimning fikri to‘g‘ri ekanligini hikoya bilan tanishgandan keyingina birgalikda aniqlashingiz mumkinligini ayting.

“Eng og‘ir gunoh” jumlasini eshitganingizda xayolingizdan nimalar o‘tdi? Nima uchun hikoya “Eng og‘ir gunoh” deb atalgan bo‘lishi mumkin? Unda yozuvchi qanday gunoh haqida hikoya qiladi deb o‘ylaysiz?

Ushbu savolni muhokama qilishni “gunoh” so‘zining lug‘aviy ma’nolarini muhokama qilishdan boshlash mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “gunoh” so‘ziga quyidagicha ta’rif berilgan:

1) shariat qonuniga, diniy aqidalarga xilof ish, xatti-harakat;

2) odob-axloq doirasiga sig‘maydigan ish, nojo‘ya xatti-harakat; jinoyat; ayb.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Nega yozuvchi hikoyani “xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emasligi” bilan boshladi? Bu tasvirlarning keyin bo‘ladigan voqealarga qanday aloqasi bo‘lishi mumkin? *– Yozuvchi bolalik kunlaridagi bir voqeani aytib berishda voqeaga sababchi narsaga to‘xtalmoqchi bo‘lishi mumkin, ya’ni hikoyada yong‘oqning ahamiyati katta;* *– voqea erta kuzda sodir bo‘lgan va uncha yaxshi pishmagan yong‘oqlarning po‘stini qiynalib tozalagan bola yong‘og‘ini juda qadrlaydi, uning uchun ancha “ter to‘kkani” sabab (bu o‘rinda yong‘oq bilan nimadir sodir bo‘lishi (yo‘qolishi, sinishi, o‘g‘irlanishi) mumkin).*	Yong‘oq hali “paqqa” bo‘lib ajralmasdan turib, daraxtga tarmashib ketamiz. Xom yong‘oqning po‘stini tozalash oson emas. G‘adir-budir g‘isht topib, ishqalayverasiz, ishqalayverasiz. Oxiri sap-sariq yong‘oq ajralib chiqadi. Ammo qo‘lingiz ham xina qo‘ygandek sarg‘ayib ketadi. Loy bilan ming marta ishqalab yuvsangiz ham foydasi yo‘q. Pishmagan yong‘oqning bitta yaxshi tomoni bor: og‘ir bo‘ladi.

Bolaning yong‘oq o‘yinidan asl maqsadi nima edi? *– Shunchaki bolalar bilan o‘ynaydigan asosiy o‘yinlaridan biri edi;* *– bola o‘zi aytganidek, u ham o‘yin, ham ovqat edi;* *– onasini hayratga solish uchun, hammani yutib, ko‘p yong‘oq terishga urinar edi.*	Bir kuni Xo‘ja, Toy, Vali to‘rtovlashib rosa soqqaquvar o‘ynadik. Jimitdekkina soqqam bilan bir do‘ppi yong‘oqni yutib oldim. O‘yinga jo‘raboshimiz ham aralashgan edi, uyam bir cho‘ntak yong‘og‘idan ayrildi. Bundan keyin olma, uzum, kuzda – yong‘oq. Ham ovqat, ham o‘yin.
Nima uchun bolaning “ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi”? *– Chunki boshida aytganidek, juda qiynalib yong‘oqni soqqa holiga keltirgani uchun onasi uni ham tolqon qilganligini o‘ylab;* *– yutadigan soqqasini yo‘qotgani uchun.*	Bir qoshiq tolqon yeyishim bilan to‘satdan soqqam esimga tushib qoldi. U cho‘ntagimni qarayman – yo‘q, bu cho‘ntagimni qarayman – yo‘q. – Nima bo‘ldi? – dedi oyim tipirchilayotganimni ko‘rib. – Soqqam qani? – Qanaqa soqqa? – Yutadigan soqqam! Birdan ko‘nglimga g‘ulg‘ula tushdi. Oyim soqqamniyam qo‘shib chaqib qo‘ygan bo‘lsa-ya!
Onaning shu paytdagi holatini tasvirlovchi so‘zlarga e’tibor qiling. Nima uchun tolqonning to‘kilishi unga shunchalik qattiq ta’sir qildi? Nega o‘g‘lini urmoqchi bo‘lib, urmadi? *– Urushdan keyin hali iqtisodiyot yaxshi bo‘lmagan, yo‘qchilik davrlarida non juda qadrlangan. Uni tejash va to‘yimli qilish uchun talqon holiga keltirishgan, bu uvolni ko‘rib, onasining juda jahli chiqadi;* *– bu yerda onasining xarakteri ko‘rsatilgan: u qancha jahl qilmasin, bolalariga qo‘l ko‘tarmaydigan, mehribon, ko‘ngilchan ayol bo‘lgan.*	Tolqon yer bilan bitta bo‘lib sochildi-da, tuproqqa qorishib ketdi. Birdan oyimning ko‘zida g‘azab chaqnadi. Shapalog‘ini yozib quloq-chakkamga yaqin keltirdi. Qo‘rquvdan ko‘zimni yumib oldim. Yo‘q, urmadi. Biroq labi titrab pichirladi: – Non-ku bu, ahmoq! Gunoh bo‘ladi-ku! U sekin yerga tushdi. Sochilgan tolqonni kafti bilan sidirgan edi, tuproq aralashib chiqdi. Onam boshini ko‘tarib menga qaradi. Ko‘zlarida alam, ta’na bor edi.

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirilgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz? Yozuvchining onalar haqida bunday ta'sirli asar yozishi sabablarini qanday izohlagan bo'lardingiz? Asar sarlavhasi bilan bog'liq avvalgi va keyingi xulosalaringizda qanday farqlarni ko'rdingiz? Nimalar o'zgardi? "Eng og'ir gunoh" deganda muallif nimani nazarda tutmoqda? Asardagi gunohkor kim?	asarning asosiy g'oyasini aniqlash, asardan xulosalar chiqarish
Onasining haqorat eshitishini ko'rib turib ham bolaning sukut saqlaganini oqlaysizmi? Bolaning o'rnida siz qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?	obrazlarga baho berish
O'z onangiz va asarda tasvirlangan ona obrazida qanday o'xshash va farqli jihatlarni kuzatdingiz? Fikrlaringizni matn asosida dalillashga harakat qiling.	obrazlarga baho berish, hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g'oyasiga o'z munosabatini bildirish

"Juft bo'lib ishlaymiz" ruknidagi topshiriq o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Bu topshiriq orqali o'quvchilar o'z fikrlarini (his-tuyg'ularini) qog'ozga tushirishni o'rganishadi. O'quvchilar ichidan xohlovchilar yozgan maktubini o'qib berishi mumkinligini ayting.

JUFT BO'LIB ISHLAYMIZ

Onangizga maktub yozing. Unda onangizga aytmoqchi bo'lgan, ammo shu paytga qadar aytolmagan gaplaringiz aks etsin. Maktubingizni sinfdagi eng yaqin dugonangiz yoki do'stingizga o'qib bering.

"Guruhlarda ishlaymiz" ruknidagi topshiriqni dars jarayonida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, bajarishingiz mumkin. Bu topshiriqni bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish va baholash ko'nikmasiga ega bo'lishadi. Guruhlarda o'quvchilarning teng ishtirok etishlariga diqqat eting.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Onalarni ranjitishi mumkin bo'lgan yana qanday gunohlar bor? Bu gunohlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Ularni qilmaslik uchun qanday tavsiyalar berasiz? Jadvalni daftaringizda to'ldiring.

Og‘ir gunohlar	Oqibatlari	Tavsiyalar
Yolg‘on gapirish	Ishonch yo‘qoladi	Har qanday holatda ham rost gapirishni o‘rganing

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: BADIIY MATNNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

“Badiiy tahlil asoslarini o‘rganamiz” ruknidagi berilgan nazariy ma’lumotga diqqat qarating. Badiiy matnda muallifning tasvirlanayotgan kishilar, narsalar yoki voqealarga munosabati aks etishini misollar bilan tushuntiring (bunda oldingi darslarda o‘tilgan matnlarga ham tayanishingiz mumkin). Misol uchun:

“Sariboy bo‘lis haligacha xo‘jayinlarimning ichida **eng Xudo urgan badbaxti**, ziqnasi edi. Uning oldiga bir ish bilan borsangiz, **bo‘lar-bo‘lmas** yerda “innaykeyin” deb so‘raydigan odati bor edi” (G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasidan). Ushbu parchadagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar Sariboyga nisbatan salbiy munosabatni ko‘rsatish uchun xizmat qilyapti.

“Mehribon buvim! U mening iztiroblarimni tushundi. Kelinoyim bilan gaplashadigan bo‘ldi, yig‘lay-yig‘lay peshanamdan o‘pib, boshimni silab tinchitib qo‘ydi” (Odil Yoqubovning “Yaxshilik” hikoyasidan). Ushbu parchada buviga nisbatan ijobiy munosabatni sezishimiz mumkin.

Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun berilgan matn va savol-topshiriqlarni sinfda dars jarayonida o‘quvchilar bilan birgalikda bajaring. O‘quvchilarning yangi ma’lumotlarni o‘zlashtirganliklariga amin bo‘ling. Faol o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

Mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan, yozuvchining boshqa “Urushning so‘nggi qurboni” nomli hikoyasini o‘quvchilarga o‘qib kelishlarni ayting va ikki asardagi “ona” obrazlarini taqqoslab, o‘xshash va farqli tomonlarini topishni vazifa qilib berishingiz mumkin.



FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TARIX

Bu mavzuda biz:
– badiiy asardagi tarixiy haqiqat va badiiy to‘qimani farqlashni o‘rganamiz.

Har bir faslning oxirida berilgan “Fanlararo aloqa” darslari adabiyot va fanning biron sohasi yoki san’atning bir turi aloqasini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarda badiiy matnni tushunish va tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Darslikning birinchi fasli ruknidan (“Har bir kun – saboq”) kelib chiqqan holda mazkur darsda o‘quvchilar tarixiy voqealar tasvirlangan badiiy asarlarda tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima elementlarini farqlashni o‘rganadilar.

“Tarixiy roman fan bilan san’atni uyg‘unlashtirgan nuqtadir”, – degan edi mashhur rus munaqqidi Vissarion Belinskiy. Tarixiy asarda ham muallif o‘z badiiy maqsadidan kelib chiqqan holda, qalamga olingan davr ruhiga mos keladigan, uning ijtimoiy-siyosiy muammolarni yaqqol ochib beradigan to‘qima obrazlar va to‘qima voqealar qo‘shadi. Umuman, badiiy to‘qima badiiylikning muhim talablaridan bo‘lgan shartlilik (badiiy voqealikning reallikdan farq qilishi) va butunlikni ta’minlash imkonini beradi.

O‘quvchilar tarixiy va badiiy asarni farqlay olishlari, tarixiy voqealar tasvirlangan badiiy asarda to‘qima elementlari mavjud bo‘lishini tushunishlari ularning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

1. O‘quvchilardan tarixiy voqealar tasvirlangan qanday badiiy asarlar o‘qishganliklarini yoki filmlar tomosha qilishganini, bu asarlar yoki filmlarda qanday voqealar tasvirlanganini, qaysi tarixiy shaxslar ishtirok etishini so‘rang.

2. Quyidagi savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qiling:

– Tarix darslarida nimalarni o‘rganamiz? Tarixchilar ilgari bo‘lib o‘tgan voqealar, yashab o‘tgan shaxslar haqida qanday bilib oladilar?

– Tarixiy voqealar tasvirlangan badiiy asarlar bizga tarixni o‘rganishda yordam berishi mumkinmi? Nima uchun “ha” yoki nima uchun “yo‘q”?

3. O‘quvchilar ensiklopediyadan olingan matnni o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. Quyidagi savollarga javob berishni so‘rang:

– Ulug‘bek nima uchun Samarqandda rasadxona qurgan?

– Ulug‘bek rasadxonasida u bilan birga qaysi olimlar faoliyat olib borishgan?

– Rasadxonadagi izlanishlar natijasida qaysi asar dunyoga keldi?

4. O‘quvchilarni juftliklarga bo‘ling. Tohir Malikning “Falak” qissasidan olingan parchani o‘qib, matndan keyingi savollarni muhokama qilishlari uchun vaqt bering. Belgilangan vaqt tugagach, juftliklarning fikrlarini eshiting.

– Sizningcha, “Falak” qissasidan olingan parchada qaysi qahramonlar haqiqatda yashagan tarixiy shaxslar, qaysilarini esa yozuvchi o‘ylab topgan?

Miram Chalabiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi – tarixiy shaxslar, Shamsibek obrazini esa, katta ehtimol bilan, muallif o‘ylab topgan.

Tarixiy shaxslardan odatda bizgacha biron “iz” (ularga tegishli buyumlar, hujjatlar, ularning qilgan ishlari) yetib keladi, ular haqida o‘sha zamonda yashagan tarixchi olimlarning kitoblarida o‘qishimiz mumkin.

– Sizningcha, biz o‘qigan parchada yozuvchi tasvirlagan ziyofat voqeasi haqiqatda bo‘lganmi? Nima uchun?

Bo‘lishi mumkin. Lekin bu ziyofat haqiqatda bo‘lgan taqdirda ham, uning tafsilotlarini (kim nima degan, qanday harakatlar qilgan, qanday kiyimda bo‘lgan) yozuvchi o‘ylab topgan: odatda tarixchilar voqealarni bu darajada batafsil tasvirlamaydilar.

– Ensiklopediyadan va qissadan olingan parchalarni solishtiring. Tarixchi olim va yozuvchining tarixiy shaxslar va voqealarni tasvirlashida qanday farqlarni sezdingiz? Bu farqlarning sabablari nimada deb o‘ylaysiz?

Tarixchi olim faktlarni tasvirlaydi, uning tasviri hissiyotlardan xoli, “quruq”. Yozuvchi tasviri esa qahramonlarni, bo‘layotgan voqealarni tasavvur qilish, “his qilish” imkonini beradi. Umuman, badiiy asarning, san’atning muhim xususiyatlaridan biri – uning inson his-tuyg‘ulariga ta’sir qila olishi.

Yozuvchi tarixchilar tasvirlagan faktlarga tayangan holda ko‘p tafsilotlarni, detallarni o‘ylab topadi. Yozuvchi tasvirida tarixiy shaxslar o‘ylab topilgan (to‘qima) obrazlar bilan ham muloqotga kirishishi, birgalikda harakat qilishlari mumkin.

5. O‘quvchilar bildirgan fikrlarni xulosalang. “Badiiy to‘qima” haqida qisqacha ma’lumot bering. Dars boshida muhokama qilingan “Tarixiy voqealar tasvirlangan badiiy asarlar bizga tarixni o‘rganishda yordam berishi mumkinmi?” savoliga qaytib, o‘quvchilarning oldingi va keyingi fikrlarini solishtiring.

TAKRORLASH

Takrorlash darslari o‘quvchilarning badiiy matnni tushunish va tahlil qilish, shuningdek, chorak davomida o‘rganilgan adabiy-nazariy tushunchalarni badiiy matn tahlilida qo‘llay olish kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Bu darslarga 2 soat ajratish tavsiya etiladi:

Birinchi soatda o‘quvchilar darslikda berilgan topshiriqlarni bajaradilar. Topshiriqlar javoblari alohida daftarda yoki darslikning tegishli betlaridan ko‘chirilgan kseronusxalarda qayd qilinishi mumkin. O‘quvchilar egallagan kompetensiyalarga obyektiv baho berish maqsadida ularning bir-birlari bilan gaplashmasliklari, sinfdoshlari yoki o‘qituvchidan yordam olmasliklarini ta’minlash tavsiya qilinadi.

Ikkinchi soatda o‘quvchilar bilan topshiriqlar javoblarini muhokama qilib, xatolar ustida ishlash mumkin.

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari O‘tkir Hoshimovning “Jintepa” hikoyasidan olingan parcha asosida shakllantirilgan.

Izoh: ochiq (javob variantlarisiz) topshiriqlarga berilgan javoblarni baholashda ularning quyidagi keltirilgan taxminiy javoblarga so‘zma-so‘z mosligiga emas, balki mazmuniga e’tibor bering.

Topshiriq	Javob	Izohlar
1	B	“O‘sha zahoti Adhamning dahshat to‘la tovushi eshitildi: – Rustam! Boshing yonyapti, Rustam!”
2	D	“O‘sha kuni yakshanba edi. O‘rtog‘im Adham bilan Jintepaga chiqib, ravochlarga tosh bostirib tushadigan bo‘ldik”.
3	B	“Ammo bu cho‘qqiga chiqishga har kimning ham yuragi betlayvermasdi. Biz kichkina paytimizdanoq Jintepa haqidagi har xil vahimali gaplarni eshitaverib, yurak oldirib qo‘ygandik”. “Nima? Jintepa? ... Ikkalangniyam jin chalib, og‘zingni qiyshaytirib ketadi”.
4		*Javoblar turlicha bo‘lishi mumkin. Javoblarning matnga asoslanganligiga e’tibor bering. Misol uchun: “Nevarasiga mehribon – unga biron kor-hol bo‘lishini istamaydi”.*
5	Shundoqqina oyoq ostida; nafas olmay; tanho, vazmin	
6	Bolalarni tog‘dagi lolalar chiroyi o‘ziga maftun qildi.	“Ammo cho‘qqi ustidagi yalanglikka chiqishimiz bilan bulutni ham, shamolni ham unutdik. Har yer-har yerda to‘da-to‘da bo‘lib ochilgan lolalar shamolda chayqalib turar, xuddi olovdek lovullab ko‘zni olardi”.
7	Bolalarga bir-birla-rining boshlari yona-yotganday (sochlari orasidan cho‘g‘ otilayotganday) ko‘rindi.	“O‘sha zahoti Adhamning dahshat to‘la tovushi eshitildi: – Rustam! Boshing yonyapti, Rustam! Hayron bo‘lib Adhamga qaradim-u dahshatdan qotib qoldim. Adhamning sochlari tikka-tikka bo‘lib ketgan, negadir sochi orasidan ko‘kimtir cho‘g‘ sachrab osmonga otilardi.”
8	Qahramonlarning Jintepaga chiqishdan maqsadini oydinlashtirish uchun; voqealar rivojini Jintepaga ulash uchun	
9–10	Olovdek	“Har yer-har yerda to‘da-to‘da bo‘lib ochilgan lolalar shamolda chayqalib turar, xuddi olovdek lovullab ko‘zni olardi” – lolalarning rangi tasvirlanmoqda.
9–10	Qanotdek	“Uning peshanasi terlagan, katak ko‘ylagining etagi shimidan chiqib ketgani uchun shamolda qanotdek silkinar edi” – Adhamning ko‘ylagini tasavvur qilish imkonini beradi.
11	Yo‘q	Parchada yumoristik asarga xos xususiyatlar (ha-yotdagi ayrim nuqsonlar, ba’zi kishilardagi kamchi-liklar, salbiy jihatlar ustidan kulish) mavjud emas.



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

2-fasl.
SO‘ZDA SEHR BOR

Xalq og‘zaki ijodi: xalq qo‘shiqlari
Alisher Navoiy. Ruboiylar
Abay. “Yoshlikdan bilim izlab…”
Avaz O‘tar. “Har tilni biluv emdi…”
Lengston Hyuz. “Rahmat sizga, xonim”

Adabiy tushunchalar:
– xalq qo‘shiqlarining turlari
– qofiya va radif
– asar qahramonlari tavsifi

Fanlararo aloqa:
adabiyot va ona tili

XALQ OG‘ZAKI IJODI: XALQ QO‘SHIQLARI

Bu mavzuda biz:
– xalq qo‘shiqlariga xos xususiyatlarni o‘rganamiz;
– xalq qo‘shiqlarini turlarga ajratishni o‘rganamiz;
– bir qo‘shiqning turli variantlarini solishtiramiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Xalq qo‘shiqlari va ularning turlari bilan tanishish va tahlil qilish	1 soat
Xalq qo‘shiqlari bo‘yicha loyiha taqdimoti bilan ishlash	1 soat

XALQ QO‘SHIQLARI VA ULARNING TURLARI BILAN TANISHISH VA TAHLIL QILISH

1. O‘quvchilarga milliy boyligimiz, xalqimiz urf-odatlarining bir qismiga aylangan xalq qo‘shiqlari bilan tanishishingiz va tahlil qilishingizni e’lon qiling. Agar ob-havo imkon bersa, darsni maktab hovlisida tashkil etishingiz mumkin. Dars jarayonida o‘zingiz va o‘quvchilaringiz do‘ppi, atlas nimcha va qiyiqlarda bo‘lsangiz, nur ustiga nur bo‘ladi.

2. Darslikda berilgan savolni o‘quvchilar bilan muhokama qiling: ulardan maqollar va topishmoqlarni eslashni so‘rang, “Bu maqol va topishmoqlarning muallifini bilasizmi?” deb murojaat qiling.

Qanday maqollar yoki topishmoqlarni eslay olasiz? Ularning mualliflarini bilasizmi?

Albatta, xalq maqollari va topishmoqlarning aniq muallifi yo‘q. Bu holat o‘quvchilarni “xalq og‘zaki ijodi” tushunchasiga olib kirishga yordam beradi. Xalq og‘zaki ijodi haqida va unga qaysi janrlar kirishi haqida qisqacha ma’lumot bering.

3. “Tangalik bolalar” filmining ilk lavhasini (“Sust xotin” qo‘shig‘i) qo‘yib bering. (Agar dars maktab hovlisida tashkil qilinayotgan bo‘lsa, buning uchun mobil telefon, planshet yoki noutbukdan foydalanish mumkin.) Avval ham shunday qo‘shiqlarni eshitganlari yoki yo‘qligini so‘rang, bunday qo‘shiqlar o‘quvchilarda qanday his-tuyg‘ularni uyg‘otishini muhokama qiling.

4. Xalq qo‘shiqlari va ularning turlari haqida qisqacha ma’lumot bering. Ma’lumot berish asnosida har bir turga misol sifatida berilgan qo‘shiqlar namunalarini tahlil qilishga qaratilgan, o‘quvchilarni fikrlashga majbur qiladigan savollar berib borishingiz mumkin.

Qo‘shiq	Tavsiyaviy savollar
O‘rog‘im	Nima uchun jonsiz narsaga “tolmas” sifati berilyapti? Nega o‘roq olmosga o‘xshatilgan?
Mayda-yo mayda	“Ayri tuyoqqa poshna tagiga qoqiladigan ayri taqacha mos bo‘lsa, sayqallangan quloqqa zirak mos”. Bu fikr xirmon yanchish jarayoniga qanday aloqador bo‘lishi mumkin?
Sust xotin, suzma xotin	“Sust xotin” kim bo‘lishi mumkin? Ajdodlarimiz nega undan yomg‘ir so‘rashgan? (Bu o‘rinda yurtimizda islom dini kirib kelishidan oldin turli diniy qarashlar mavjud bo‘lganligi, ayrim qo‘shiqlarda bu diniy qarashlarning unsurlarini ko‘rish mumkinligi haqida qisqacha tushuncha berish mumkin.)
Ramazon aytib keldik	O‘choqda kul bo‘lishining karmonda pul bo‘lishiga qanday daxli bor?
Hazorali	“Davlat” deyilganda nima nazarda tutilgan? Himmatning qo‘lda bo‘lishi nimani anglatadi?

5. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va darslikda berilgan xalq qo‘shiqlarini turlarga ajratishni so‘rang. O‘quvchilar fikrlarini matn asosida dalillashlariga e’tibor bering.

Qo‘shiq	Qaysi guruhga tegishli?	Kim tomonidan aytilgan?
Havodagi hulkarman…	Mehnat qo‘shiqlari (Uch kunlikcha ishim bor, O‘roq o‘rgani ketdi, To‘qson qop chiqsin donasi)	Kattalar (dehqonlar)
Oq terakmi, ko‘k terak?	Mavsum-marosim qo‘shiqlari (O‘yin paytida ijro etilgan)	Bolalar
Omonyor	Lirik qo‘shiq (mehnat jarayonida ham aytilgan) (Davradagi raqqosaning, omonyor, Yuraklari jo‘shibdi-yey, omonyor)	Kattalar
Bizlar yor-yor aytaylik...	Mavsum-marosim qo‘shiqlari (to‘y paytida ijro etilgan) (To‘y qila ko‘r, yor-yor)	Kattalar (xotin-qizlar)
Boychechak	Mavsum-marosim qo‘shiqlari (bahorda ijro etilgan) (Ayroningdan bermasang, Qozon-tovog‘ing vayrondir. Qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak)	Bolalar

6. Xalq qo‘shiqlari turli insonlar tomonidan turli vaziyatlarda va turli xil shaklda ijro etilishi tufayli bir qo‘shiqning turli variantlari (talqinlari) yuzaga kelishi mumkinligini tushuntiring. Darslikdagi “alla” bilan bog‘liq savolni muhokama qiling.

Bolaligingizda qanday allalar eshitgansiz? Nima uchun allani “sehrli qo‘shiq”lar qatoriga kiritishimiz mumkin?

O‘quvchilarni juftliklarga yoki kichik guruhlarga bo‘lib, darslikda berilgan alla variantlarini solishtirish va ularni musiqaga solib ko‘rish vazifasini bering. Belgilangan vaqt tugagach, o‘quvchilarning ijrolarini va allaning ikki talqini haqidagi fikrlarini eshiting.

7. Dars so‘ngida o‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, loyiha ishini uyga vazifa sifatida bering.

XALQ QO‘SHIQLARI BO‘YICHA LOYIHA TAQDIMOTI BILAN ISHLASH

Darsning ikkinchi soatida o‘quvchilar tayyorlab kelgan materiallar bilan ishlang. Imkoni bo‘lsa, bu darsga bobo va buvijonlarni taklif eting.

O‘quvchilarning materiallari bilan ishlashdan avval quyidagi topshiriqni bajaring. Har bir guruh o‘zi yig‘ib kelgan qo‘shiqlar haqida ma’lumot yozsin.

Qo‘shiq	Mazmuni	Qaysi guruhga tegishli?	Kim tomonidan aytilgan?	Ahamiyati

O‘quvchilar materiallarni topshiriq asosida aniqlashtirib olgan ma’lumotlar bilan taqdim etishadi.

Sinf bilan xalq qo‘shiqlari fondini boyitishga harakat qiling. Mavzu tanlang va uni yozuv taxtasiga qayd qiling. Kim yaxshi she’riy jumla topsa, taxtaga yozsin. O‘quvchilar shu she’riy jumla mavzusi va qofiyasiga mos keladigan satrlar yozsin. Eng ma’qullarini birgalikda saralang va taxtaga yozib boring. Yakunda bolalar hayotiga mos qo‘shiqqa ega bo‘ling.

O‘quvchilarga qo‘shiqni yodlab olish, aytib yurish topshirig‘ini bering. Qo‘shiq bolalar orasida tarqalsa, o‘zgarishlarga uchrasa, boyitilsa, turli variantlarga ega bo‘lishni boshlasa, ular ham xalq qo‘shig‘ini yaratgan xalqqa aylanishi mumkinligini aytib ruhlantiring.

ALISHER NAVOIY.
RUBOIYLAR

Bu mavzuda biz:
– Alisher Navoiyning ayrim ruboiylarini tahlil qilamiz;
– qofiya va radif haqida bilib olamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Alisher Navoiy shaxsi, Navoiy davri tili, ruboiy haqidagi bilimlarni takrorlash)	1 soat
Alisher Navoiy ruboiylari tahlili. Qofiya va fard.	1 soat
Loyiha. Hikmatlar	1 soat

KIRISH

1. Buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy shaxsi va ijodi bilan yuzlashish vaqti kelganini ma’lum qiling. Navoiy ijodidan namunalar yod biladigan o‘quvchilaringiz ijrosi bilan darsni boshlashingiz mumkin.

2. Multimedia mahsulotlari asosida darsni tashkillashtiring. “Alisher Navoiy” filmi, islom.uz portalining “Navoiyni anglash sari” nomli suhbatlari, “Madaniyat va ma’rifat” telekanalining Navoiy ijodiga bag‘ishlangan turkum ko‘rsatuvlari (telekanalning ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida mavjud) va boshqalar Navoiy ijodini anglashingiz va o‘rgatishingiz borasidagi ajoyib manbalar bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Darslikdagi Navoiy ijodi haqidagi ma’lumotlarni taqdimotlar asosida o‘quvchiga anglating.

Alisher Navoiy hayoti va ijodiga daxldor qaysi ma’lumotlardan hayratlandingiz? Nima uchun? Buyuk inson bo‘lish uchun nimalar qilish lozim deb o‘ylaysiz?

Savolning birinchi qismiga javob berishda o‘quvchilar darslikda berilgan quyidagi ma’lumotlarni aytishlari mumkin:

– to‘rt yoshidan maktabda ta’lim olishni boshlagani;

– yetti yoshida “Qush tili” asarini, olti mingdan ortiq hadisni yodlagani (“Qush tili”ning she’riy usulda bitilgani va bola Navoiy uchun asar tilining qiyinligiga, 6000 hadisning katta hajmiga e’tibor bering);

– yetti yoshidan boshlab g‘azallar mashq qilgani;

– ikki tilda (o‘zbek va fors) birdek ijod qila olgani;

– o‘z hisobidan kutubxonalar va madrasalar qurdirgani, iste’dodli yoshlarning ilm olishlariga homiylik qilgani (shoirning mamlakatning adabiy va madaniy taraqqiyoti uchun qo‘shgan moliyaviy hissasi).

O‘quvchining har bir javobini vizual lavhalar bilan tasdiqlab borishingiz mumkin. Zero, o‘quvchi Navoiy zakosini tasavvur etsin, chuqur anglasin. Buning uchun oldindan slaydlar tayyorlang va ularda Navoiyning bolaligi, ikki tilda yaratgan asarlari, qurdirgan imoratlari aks etgan suratlar, video lavhalardan foydalaning.

3. Savolning uchinchi qismini (“Buyuk inson bo‘lish uchun nimalar qilish lozim deb o‘ylaysiz?”) o‘quvchilar bilan muhokama qilinadi.

Darhaqiqat, Navoiyni faqat o‘zbeklar emas, butun dunyo ahli buyuk inson sifatida e’tirof etadi. O‘quvchilaringizga o‘zlariga xolis baho bergan holda o‘zining muvaffaqiyat darajasini hisoblashni topshiring. Hisob-kitoblarni o‘quvchining amaldagi holatiga taqqoslang, izohlar bering. Bu amal orqali ularda muvaffaqiyatli inson bo‘lish maqsadini uyg‘oting, o‘quvchini Navoiy shaxsiga yaqinlashtiring, shoir ruboiylari muvaffaqiyat pillapoyasidan ko‘tarilish qo‘llanmasi ekanligini uqtiring.

Ko‘ngildan jahl ranji daf’in istasang gar, bordir
Navoiy bog‘i nazmi shakkaristonida ul gulqand.

4. “Alisher Navoiy ruboiylarini o‘qishga tayyorlanamiz” ruknida berilgan ma’lumotlar yordamida o‘quvchilarni Navoiy davri tilining hozirgi o‘zbek tilidan asosiy farqlari bilan tanishtiring.

5. O‘quvchilardan ruboiy nimaligini, uning asosiy xususiyatlarini, boshqa janrlardan farqini so‘rang. Agar o‘quvchilar javob berishga qiynalishsa, Bobur qalamiga mansub, tili nisbatan oson ruboiyni yozuv taxtasiga yozib, yo‘naltiruvchi savollar berish mumkin.

* * *

Ko‘pdin berikim yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.

* * *

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

– Necha misradan iborat?

4 misra.

– Ruboiy qanday qofiyalanadi?

a-a-a-a, ya’ni hamma misralari qofiyalanadi, yoki a-a-b-a, ya’ni 1-2-4 misralari qofiyalanadi.

– Qanday mavzularga bag‘ishlanadi?

– Muallifning hayotiy xulosalari, falsafiy, axloqiy, ta’limiy qarashlari aks etishi, ishqiy mavzuda ham bo‘lishi mumkin.

O‘quvchilarda hali she’riy vaznlar, xususan, aruz haqida tushuncha bo‘lmagani uchun ruboiyning vazn talablari haqida to‘xtalish tavsiya qilinmaydi.

6. O‘quvchilardan darslikda berilgan “Har kim suchuk so‘z ...” ruboiysini hozirgi o‘zbek tilida ifodalashni so‘rang.

Har kimki elga shirin so‘z gapiradi,

Har qanday dushmanni do‘stga aylantiradi.

So‘z qattig‘i el ko‘ngliga ozor yetkazadi,

Yumshog‘i (yumshoq so‘z) ko‘ngillarni band (asir) qiladi.

Ruboiyni berilgan savollar yordamida o‘quvchilar bilan birgalikda tahlil qiling.

Shoir bu ruboiy bilan nima demoqchi?	Kimki shirin so‘z sohibi ekan, u dushmanni do‘stga aylantira oladi. Qattiq so‘z ko‘ngilga ozor beradi, yumshoq so‘z esa dillarni o‘ziga asir etadi.
Uning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang.	Shirin so‘z bilan kishining ishonchi va qalbini egallash mumkin.
Qaysi kalit (asosiy) so‘zlar ruboiyning g‘oyasini tushunishga yordam beradi?	Suchuk so‘z, ag‘yor – yor, so‘z qattig‘i – yumshog‘i, ozor aylar – giriftor aylar.

ALISHER NAVOIY RUBOIYLARI TAHLILI. QOFIYA VA FARD

1. O‘quvchilarni juftliklarga yoki kichik guruhlarga bo‘ling. Darslikda berilgan ruboiylar namunalarini o‘qib, tahlil qilish va jadvalni to‘ldirish uchun vaqt bering. O‘quvchilar ishini kuzating, lozim o‘rinlarda yo‘nalish yoki tavsiyalar bering. Juftliklarning (guruhlarning) taqdimotlarini sinf bilan birgalikda tinglang, o‘xshash va farq qiluvchi fikrlarni qayd eting, xulosalang. Quyidagi tahlillar sizga yordam berishi mumkin.

Ruboiylar tahlili

1) Yaxshi odat – muruvvat isboti. Qo‘pollik va jahl yovvoyilik, ya’ni inson tomonidan boshqarilmagan kuchdan kelib chiqadi, shu bois inson o‘zini nazorat qilishni o‘rganishi kerak. Navoiy ta’biri bilan aytganda, inson o‘ziga muruvvat qilmog‘i lozim. Muruvvat mehr-shafqat ko‘rsatmoqlikdir. Insonning yomonlikdan tiyilishi, yaxshi odatlarni kasb qilishi o‘ziga bo‘lgan shafqati va yaxshiligidir. Yomon qiliqli, yomon niyatli inson xotirjam bo‘lolmaydi, ko‘ngil vahimasi, xavf-u xavotiri ichida yashaydi. Bunday insonlar elni ham xavotirga soladi. Oddiygina misol,

mahallangizda o‘g‘ri paydo bo‘lsa, xayolingiz doim uyda bo‘ladi, halovatingiz yo‘qoladi. Navoiy bizni yomon qiliqli insonlar bor jamiyat najot (ravnaq) topmasligidan ogoh etadi.

2) Xalqimizda “qon-qoniga singgan” iborasi mavjud. Poya ildiz bilan barg orasida moddalar harakatini ta’minlaydi. Shoir o‘simlik poyasini inson qon tomiriga qiyos etayotgan bo‘lsa, demakki, ilk misrada egrilik egri inson qoniga singganiga ishorat etadi. Egri insonning boyligi ham egrilik bilan to‘planadi, bunday kishilarning topgan foydasida halollik bo‘lmaydi. Aslida, soya hammada bir xil bo‘ladi, ammo mutafakkir egri insondan egri soya tushib turishini tasvirlaydi. Bu hol, albatta, egrini jamiyatda yaqqol ajratib turadi. Shundan kelib chiqadiki, o‘g‘ri, poraxo‘r, birovning haqqidan qo‘rqmaydigan yoxud yomonlik ko‘chasida saroy qurgan insonlar qilmishlarini qancha berkitmasinlar, bu xalqqa ayon bo‘ladi.

3) Yaxshilarning suhbati qalb kirlaridan xalos qiladi, shu sababdan shoir yaxshi insonlar bilan oshno bo‘lishga harakat qilmoqlikni tavsiya etadi. Shunda ular yordamida poklangan ruhiyat egasi suhbatini ham istab keluvchilar ko‘payadi. Istab keluvchilarga so‘zni shirin qilish zabon egasini holvafurush kabi yoqimli qilsa, so‘zni yumshoq qilish lutf qiluvchini asal kabi sevimli qiladi.

4) El bir yoqadan bosh chiqardimi, demak, bu bejiz emas. Navoiy xalq tomonidan istalmaydigan inson elning yomoni bo‘lishini aytadi. El yomon hisoblaganning ayon belgisi uning baxtsizligi yomon xulq-atvoridir. Alloma bunday inson xulqi faqat o‘z elining emas, butun dunyo ellarining “yamon-yamoni”, ya’ni zarar keltiruvchi ofati ekanligini ta’kidlaydi.

5) Har kimga o‘zi tug‘ilib o‘sgan yeri aziz, ammo Ona-Vataniga mehr tuymaydiganlar ham bor. Navoiy ularga o‘git beradi: musofirlikda musofir xursand bo‘lolmaydi, chunki begona eldan o‘z yurtdoshi, qardoshi, qo‘shnisi-yu uzoq-yaqin birodarlari bergan issiq mehrni topishi dargumon. Hatto bulbul ham saroydagi gulga emas, o‘z chakalakzorlariga oshuftadir.

6) Farzand otaga itoat qilmoqlikni odat qilsa, bu uning baxt va xotirjamlikni qo‘lga kiritganidir, Navoiy nega uni baxt va saodat egasi sifatida ta’riflaydi? Shu sababdanki, bu qaytar dunyo yaxshilikni ham, yomonlikni ham yoddan chiqarmaydi. Otasiga hurmat ko‘rsatgan kishi xulqi uning farzandiga ta’sir o‘tkazadi. Natijada hurmat qiluvchi qobil farzand qobil farzandning pushti panohiga aylanadi. Albatta, har qanday ota-ona farzandiga faqat ezgulikdan ta’lim beradi, farzandining yaxshi inson bo‘lishini istaydi, qabul qiluvchi bola bor yaxshilikni o‘ziga singdiradi. Yaxshi insonni tarbiya qila olgan ota katta saodatni qo‘lga kiritadi.

7) Alloh “Bo‘l” dedi va butun olam, barcha maxluqot yaraldi. Faqat inson yaralmadi. Alloh inson tanasini qo‘li bilan bunyod etdi va o‘zining ruhidan jon pufladi, keyin Odam paydo bo‘ldi. Bu uning sharaflanganligidan dalolat va hayvondan ilk farqidir. Alloh ne’mat in’om etdi va kam narsani man qildi. Va inson man qilingan narsalardan tiyilmog‘i lozimligi qat’iy tayin etildi. Tiyilmoqlik aqlning nishonasi bo‘lib, o‘zni tiyish va yuksak aql insonning hayvondan keyingi farqlaridir. Tiyilmoqlik – Allohni tanimoqlikning bayoni, hidoyatning ishorati, iymonning dalolati. Navoiy islom olamining bilimdoni edi. Uning asarlari buning isbotidir. Shunday olim, albatta, quyidagi mazmundagi oyatni yoddan bilgan: “To ular chumolilar vodiysiga yetgan

vaqtlarida bir chumoli: “Ey chumolilar, uyalaringizga kiringlar, yana Sulaymon va uning lashkarlari o‘zlari sezmagan hollarida sizlarni bosib-yanchib ketmasinlar”, degan edi” (“Naml” surasi, 18-oyat). Bu ma’lumotlarni keltirishimizga sabab shundaki, ushbu ruboiyda so‘z ramziy ma’nolarda qo‘llangan. Hazrat Navoiy insonni hayvondan farq qilishiga gapira olishini dalil qilishi, boz ustiga, insonga gapira olgani uchun boshqa maxluqotlardan sharifroq ta’rifini berishi mantiqdan yiroq. Alloh puflangan ruh (so‘z) ila jonsiz tanaga jon bitdi. Iymon ilm (so‘z), yuksak aql-zako (so‘z)i inson (jon)ga Alloh (jonon)ni tanitdi. Iymon belgisi – Alloh man etgan narsalardan harakat va so‘zi ila tiyilganida inson hayvondan farq qildi. Mana shuning uchun ham inson yaratiqlarning eng sharif gavharidir (“Isro” surasi, 70-oyatga qarang). Siz o‘quvchiga u uchun man etilgan narsalardan o‘zini tiya olish xususiyati uni hayvondan ustun qilishini tushuntiring. Ko‘p yemaslik, ko‘p demaslik, g‘azabni tiyish, ko‘p telefon o‘ynamaslik kabilar.

8) Nodonning nodonligiga hasad qo‘shilsa, u elda baxt ko‘radi-yu, o‘zida ko‘rmaydi. Nur o‘ynagan ko‘zlarga baxtsiz ko‘zlarini almashtirish uchun jabr xanjarini ishga soladi, oqibatda o‘zining ko‘zini ham, o‘zganing ko‘zini ham o‘yadi. “Hasad” lug‘atda “biror narsaning terisini shilmoq yoki qirmoq” degan ma’noni bildiradi. Uning istilohiy ma’nosi quyidagicha: “Hasad – birovga yetgan ne’matga rashk bilan qarash va o‘sha ne’matning o‘z sohibdan ketib, hasadchiga yetib kelishini qattiq xohlash”. Navoiy hasad qiluvchini ham, hasad qilinuvchini ham hasad omon qo‘ymasligidan bashariyatni ogoh etadi. Zero, dushmanlik, ig‘vo hasaddan tug‘iladi. Ibn Hibbon rivoyati: “Bir bandaning ichida iymon bilan hasad jam bo‘lmaydi”. Demak, hasadgo‘y kishidan yaxshilik kutib bo‘lmaydi.

Ruboiy	Asosiy g‘oya	Asosiy g‘oyani ifodalaydigan kalit so‘zlar
1	Yaxshi odatlarni kasb etish orqali inson avvalo o‘ziga yaxshilik qilmog‘i lozim.	yaxshi qiliq, badxo‘ylik, vahshat, xaloslik yo‘q
2	Egri hayot – halovatsiz bugun va halokatli kelajakdir.	poyasi, tuzluk ermas, egridur soyasi
3	Yaxshi bilan yursang, yetarsan murodga.	xub el bila, xub o‘lg‘il
4	Yomon xulq insoniyat fojiasidir.	el qochsa, idbor, fe’l ichra, ulus baloyi
5	O‘zga yurt ona Vataning bo‘lolmaydi.	g‘urbat, g‘arib, shodmon bo‘lmas, mehribon bo‘lmas
6	Qobil farzandning farzandi ham qobil bo‘ladi.	ato qullug‘in, kasbi saodat, siroyat qilg‘ay
7	Inson o‘zini idora eta olishi bilan hayvondan farqlidir.	jon, jonon, judo hayvondin, sharifroq
8	Hasadchi o‘ziga ham, o‘zgaga ham jabr yetkazadi.	johil, hasad, nur, olishmoqqa, tig‘i sitam, el ko‘zi, o‘z

2. Alisher Navoiy hikmatlarini o‘qib, ulaning g‘oya jihatidan qaysi ruboiylarga mosligini topishni so‘rang. Bu vazifani frontal bajarish ham mumkin.

Hikmatlar	Ruboiylar
Vatan tarkini bir nafas aylama, Yana ranji g‘urbat havas aylama.	G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish...
Yaxshi kishilar birla tutar bo‘l suhbat, To bergay amon sharirdin ul suhbat.	Xub el bila suhbat tutubon xub o‘lg‘il...
Agar tuzluk o‘lsa kishining ishi, Ne vasf aylay olg‘ay ishini kishi.	Kim egri erur, tuzluk emas poyasi ham...
Ham so‘z ila elga o‘lumdan najot, Ham so‘z ila topib o‘luk tan hayot.	Har kimki suchuk so‘z elga izhor aylar...
Tiling bilan ko‘nglingni bir tut.	Xub el bila suhbat tutubon xub o‘lg‘il...

3. Qatorlar o‘rtasida talaffuzi hamda shakli o‘xshash so‘zlar topish musobaqasini o‘tkazing. Qofiya va radif haqida qisqacha ma’lumot bering. Quyidagi savol orqali radif she’r g‘oyasining kitobxonga ta’sirini kuchaytiruvchi vosita ekanligini tushuntirish mumkin:

– Xalqimiz nima uchun qariyalar bor uyda o‘sgan bola boshqalarga qaraganda tarbiyali bo‘lishini e’tirof etadi? Nima uchun tarbiya berishda qayta-qayta takrorlardan foydalanadilar?

– *Keksalar ko‘pni ko‘rgan, nabirasiga u bilmaganlarini batafsil o‘rgatadi va o‘rganmagunicha erinmasdan qayta-qayta takrorlaydi. Ko‘p takror insonga kuchli ta’sir etadi.*

4. O‘quvchilarni kichik guruhlarga bo‘ling va quyidagi qoliplardan birini tanlab, shu asosda to‘rtlik tuzish topshirig‘ini bering. Guruhlar tuzgan to‘rtliklarni eshiting va eng yaxshi to‘rtliklarni e’tirof eting.

Tabiat tasviri aks etgan to‘rtlik	Pand-nasihat ruhidagi to‘rtlik
……a ……a ……b ……a	Aytilmoqchi bo‘lgan fikr……..……a Birinchi misraga qarama-qarshi fikr……..a To‘rtinchi misrada aytilmoqchi bo‘lgan fikr ko‘prigi……..b Xulosa……..a

Radifga ega to‘rtlik	
……a	radif
……a	radif
……b	
……a	radif

5. Alisher Navoiy ruboiylaridan yod olishni uy ishi sifatida bering va darsni yakunlang.

LOYIHA.
HIKMATLAR

1. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Loyiha ustida ishlang**.** Har bir guruh Alisher Navoiy ruboiylaridan birini tanlab, mazkur ruboiyning asosiy g‘oyasini tushunishga yordam beradigan rasm chizadi yoki hikoya tuzadi. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlar o‘z ishlarini sinfga taqdimot qiladi. Eng original ishlarni e’tirof eting. Ishlar tanlangan ruboiy g‘oyasini qay darajada ochib bera olganiga e’tibor qarating.

2. Hikmat, uning xalq hayotidagi ahamiyati, Alisher Navoiy hikmatlarining shoir ijodida tutgan o‘rni, shaxs kamolotidagi xizmati haqida ma’lumot bering. Navoiy-ning darslikda berilmagan hikmatlaridan keltirib, sharhlang.

“Donolikning boshlanishi shubhadadir; Shubha bilan biz so‘roq qilamiz va izlab, haqiqatga erishamiz”, – degandi Pyer Abyelar. Ushbu hikmatli so‘z orqali topshiriq mohiyatini anglating: mustaqil ravishda hikmat bayonini yozing, jadval asosida ularni tadqiq qiling.

G‘oya	*Xalqqa keltirgan foydang o‘zingga keltirgan foydangdir.*
Tushuntirish	*Inson xalqning bir bo‘lagidir, shunday ekan, xalqning muvaffaqiyati uni ham chetlab o‘tmaydi.*
Misol	*Muloyim, yumshoq gapirishimiz janjallarning oldini oladi, janjallar xalq halovatini o‘g‘irlaydi, shuning uchun el ko‘p suyadigan insonlar yumshoq so‘zli insonlardir. Demak, oddiygina muloyimligimiz ham xalqqa foyda keltiradi, ham – o‘zimizga.*
Qarshi savol	*Xalqqa ziyon keltiradigan, shu sababli bizni el nazaridan qoldiradigan ishlar nimalar?*
Javob	*Masalan, jamoat joyida baland ovozda gapirish. Avtobusda baland ovozda gaplashish atrofdagilarga aziyat beradi, natijada tanbeh eshitib, ko‘pchilik orasida izza bo‘lishingizga sababchi bo‘ladi.*
To‘ldiruvchi savol	*Xalqqa foyda beradigan va foyda bermaydigan ishlar qaysilar?*
Javob	*Astoydil mehnat qilib, bug‘doy yetishtirsak, xalqimiz arzon bug‘doyga ega bo‘ladi, biz ham uni sotib, foyda olamiz.* *Bo‘lar-bo‘lmas videolar olib, pul topishni kasb qilganlar o‘zining va yoshlarning vaqti behuda sarflanishiga, ma’naviyat inqiroziga sabab bo‘lmoqda.*

O‘quvchilar yuqoridagi namuna asosida Navoiy hikmatlarini tahlil qiladilar.

Naf’ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.	*Xalqqa foyda keltirsang, aniq bilki, bundan o‘zing ko‘proq manfaat topasan.*
Ilmni kim vositayi joh etar, O‘zini-yu xalqni gumroh etar.	*Kimki ilmni mansabga erishish vositasiga aylantirsa, u o‘zini va xalqni yo‘ldan adashtirdi.*
Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo, O‘zingga ravo ko‘rmaganni ravo.	*Xaloyiqqa baxtsizlik tilama yoxud baxtsizlik keltiruvchi ishlarni qilma, o‘zingga ravo ko‘rmaganni o‘zgaga ham ravo ko‘rma.*
Odami ersang, demagil odami, Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.	*Xalq g‘ami bilan yashamaydigan odam bo‘lsang, sen bashardan emassan.*
Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon, Ko‘p yemak birla bo‘lmag‘il hayvon.	*Ko‘p gapirish bilan nodonga aylanma, ko‘p yeyish bilan – hayvonga.*
Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani, Qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani.	*Yigitlik chog‘ingda ilm xazinasini yig‘ va qariganingda uni sarf et.*
Adab kichik yoshlig‘larni ulug‘lar duosig‘a sazovor etar.	*Odob kichiklarni kattalar duosiga sazovor etadi.*

ABAY. “YOSHLIKDAN BILIM IZLAB…” AVAZ O‘TAR. “HAR TILNI BILUV EMDI…”

Bu mavzuda biz:
– Abay va Avaz O‘tar she’rlaridagi g‘oyalar ifodasini qiyoslaymiz;
– fikrni dalillovchi esse yozishni mashq qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Abay: “Yoshlikdan bilim izlab”. Avaz O‘tar: “Har tilni biluv emdi”. She’rlarni solishtirib tahlil qilish	1 soat
Abay va Avaz O‘tar she’rlarini solishtirish. Esse	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Abayning “Yoshlikdan bilim izlab” hamda Avaz O‘tarning “Har tilni biluv emdi” she’rlarini solishtirib tahlil qilishingizni ma’lum qiling.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknini **ma’rifatparvarlik** so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari haqida ma’lumot berish bilan boshlang.

– ma’rifat (arabcha, “bilim, fan; ma’lumot, tanishish”) – ta’lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, diniy, falsafiy g‘oyalar asosida kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan).

O‘quvchida ikki shoir yashagan davrda Markaziy Osiyo, xususan, hozirgi O‘zbekiston hududi Rossiya davlatining mustamlakasi bo‘lganligi, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda, ilm-fan va texnika taraqqiyotida Yevropa davlatlaridan orqada qolganligi haqida qisqacha ma’lumot bering. Buning sabablari to‘g‘risida o‘quvchilar fikrlarini biling.

XVIII–XIX asrlarda Yevropa mamlakatlari ko‘plab Osiyo va Afrika xalqlari ustidan nazorat o‘rnatdi. Sizningcha, bir davlatning boshqa bir davlat mustamlakasiga aylanishi zamirida qanday sabablar bo‘lishi mumkin?

– Ilm-fan, texnikaning orqada qolganligi, shu jumladan, harbiy qurollarning zamondan orqada qolganligi;

– harbiy salohiyat yetishmasligi;

– mayda davlatlarning bir-biri bilan birlashib, dushmanga qarshi kurasha olmasligi;

– xalq va uning boshqaruvchilari soddaligi, ular bosqinchilarning nayranglariga osongina ilingani kabilar.

O‘quvchilar fikrlarini tinglang va umumlashtiring:

Endi o‘ylab ko‘ring-chi, bu sabablarning zamirida qanday asosiy sabab yotishi mumkin?

Javoblarni ilmning ahamiyatiga qarab yo‘naltiring. Bilim olmaslikning oqibatlarini birgalikda ko‘rib chiqing. O‘quvchilarga oqibatlardan qanday oqibatlar yuzaga kelganini aniqlashni topshiring.

Ilmsiz odam – chuqur mulohaza bilan ish yurita olmaydi – oqibatda mustaqil fikrlarni yo‘qotadi – birovning ortidan ergashishga o‘rganadi – har narsaga darrov ishonaveradigan laqmalik, chiroyli qilib aytganda, soddalik qolipiga tushadi, natijada unda o‘ziga ishonchsizlik shakllanadi – ishonchsizlik uni qo‘rqoqqa aylantiradi – qo‘rqoqlik unda faqat o‘zi haqida o‘ylaydigan manfaatparastlikni o‘stiradi – manfaatparastlik noto‘g‘ri bo‘lsa ham, o‘zinikini ma’qullaydigan johillarni yetishtiradi yoki o‘zim tinch bo‘lsam bo‘ldi, deydigan xudbinlarni yaratadi.

Quyidagi savollar muhokamasi bilan esa shoirlarning asl dardini, maqsadini anglatish sari boring, o‘quvchilarni mutolaaga tayyorlang:

Xalq nega birlasha olmadi?

– Ilmsizlikning natijasi o‘laroq ko‘rinmaydigan, ammo ilmsizlik oqibati bo‘lgan qo‘rqoqlik va faqat o‘zini o‘ylash tufayli.

Xalqning nega harbiy qurollari eski edi?

– Chunki unda ilm rivojlanmagan, natijada iqtisod ham rivojlanmagan, iqtisod rivojlanmagani bois katta hajmli tovarlar ayirboshlanmagan, oqibatda til o‘rganilmagan, dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlardan bebahra yashalavergan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ayting-chi, ma’rifatparvar shoirlar xalq fojialariga eng asosiy sabab deb nimani bilishgan?

– Ilmsizlikni

Endi xulosa sifatida ayting-chi, bilimning ahamiyati nimada? Bilimli bo‘lish nima uchun kerak deb o‘ylaysiz?

Darslikdan mualliflar haqida berilgan ma’lumotlarni o‘qib chiqib, ularga xos umumiy jihatlarni aniqlash uchun vaqt bering (har ikkala ijodkor ham o‘qimishli bo‘lgan, bir necha tilni bilgan, ma’rifatni targ‘ib qilgan).

Javoblardan kelib chiqib, umumlashma xulosa chiqaring: insonlar qachonki bir-birining g‘ami bilan birlashsa, xalq bo‘ladi, birlashmagan, bir-birini o‘ylamagan olomon xalq bo‘lolmaydi. Navoiy hikmatini yod eting:

Odami ersang demagil odami,

Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Abay va Avaz O‘tar xalq g‘amini unutgan olomonga qarata xalqqa aylan, o‘zligingga ilm bilan qayt, demoqchi bo‘ladi, shuning uchun ham shoirlar she’riyatining yetakchi mavzusi ilm targ‘ibidir.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

1. Jo‘rlikda she’rlarni o‘qing. Bu sinf kayfiyatini xalqi ravnaqi uchun ilm olish istagiga moslaydi.

2. Sinfni to‘rt guruhga ajrating. Guruhlar “Muhokama qilamiz” ruknidagi savollar asosida she’rlardan birini tahlil qilishadi. Ikki guruh Abay she’rini (bir-biridan mustaqil ravishda), ikki guruh Abay she’rini tahlil qilishini nazorat qiling. Belgilangan vaqt tugagach, og‘zaki muhokamaga o‘ting. Muhokamada bir guruh javob bersa, xuddi shu she’rni tahlil qilgan ikkinchi guruh javoblarni matn va hayotiy misollar bilan dalillasin yoki qarshi fikr bildirsin. Muhokamalarni xulosalang, guruhlar tahlillaridagi o‘xshash va farqli jihatlarni qayd eting.

3. O‘quvchilarni juftliklarga bo‘ling. Juftliklar “Solishtiramiz” ruknidagi savol va topshiriqlar asosida ikki she’rni solishtiradilar: jadvalni to‘ldiradilar, she’rlarga sarlavhalar tanlaydilar va qaysi she’rni yod olishni istashlarini aytadilar. Juftliklar ishini kuzating, lozim o‘rinlarda yo‘nalish bering. Juftliklar ishini yakunlagach, ularning fikrlarini eshiting. Sarlavhalarni yozuv taxtasiga yozdiring. Hamma sarlavhalar yozilgach, o‘quvchilardan ikki she’r g‘oyasi uchun eng mos keluvchi ikki sarlavhani ajratib olishni va nima uchun bu sarlavhalarni tanlaganliklari borasida izoh berishni so‘rang.

ABAY VA AVAZ O‘TAR SHE’RLARINI SOLISHTIRISH. ESSE

1. O‘quvchilarga Abay va Avaz O‘tarning mustaqil o‘qish uchun tavsiya etilgan she’rlarini solishtirishlarini ayting. Bunda “Zigzag” usulidan foydalanishingiz mumkin. Buning uchun sinfni ikki yoki to‘rt guruhga (o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda) bo‘ling.

Bir guruh Abay, ikkinchi guruh Avaz O‘tar she’rining asosiy g‘oyalari, shakli, tili, mavzuni yoritish uchun qo‘llagan jumlalari va obrazlarini tahlil qiladi. So‘ngra guruhlar bir-birlariga o‘z tahlillarini taqdim qiladilar. Shundan so‘ng ikki guruh birlashib, bir-birlaridan o‘rganganlari asosida Abay va Avaz O‘tar she’riyatining o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qiladilar va xulosalarini sinfga taqdim qiladilar.

Ruhshunoslikda isbotlangan haqiqatlardan biri shuki, o‘z fikringni tinglovchingga singdirishni istasang, o‘z kamchiliklaring haqida gapir, o‘zingni ozgina masxara et. Abay bejizga faylasuf, deya e’tirof etilmaydi. U o‘quvchisiga shunchaki bilim olishni nasihat qilmaydi, u bilim olmagani bois qo‘lidan ketgan narsalar haqida gapiradi, chunki o‘quvchi ham u kabi ilmning xayrini biladi, ammo ilm olish uchun yugurmaydi. Ilm olmagani shoirning yoshlikdagi aybi edi, biroq u katta bo‘lib ham ayb qildi. Qanday? Ilm orqali mansab-u hurmat orttirishni maqsad qildi. Shoir birinchi xatosini yoshlarni ogohlantirish uchun aytsa, ikkinchisini ota-onalarning xatosini ko‘rsatish uchun keltiradi. Ha, orzuga ayb yo‘q, deydilar. Bu iborani o‘zlariga qurol qilib olgan bilimsiz ota-onalar farzandlarini moddiylik manbasi bo‘lishi uchungina o‘qitadilar. Navoiy hikmatini eslang: “Ilmni kim vositayi joh etar, O‘zini-yu xalqni gumroh etar”. Mavzu oxirgi satrlarda kulminatsion nuqtaga chiqadi, Abay xalqi-

ning rivojlanishda dunyodan ortda qolayotgani, millati hali ham qoloqlik iskanjasida ekanidan qon yutib yozgan o‘lanlarini kim tushunsin?! Xalq bo‘la olmayotgan olomon buni anglay oladimi? Ha, mana shuning uchun ham Abay qadr topmayotgani, ya’ni bilimsizlik va beg‘amlik komidan insonlarni uyg‘ota olmayotganidan afsusda. Shoirning Navoiy xazinasidan oziq olgani uning o‘lanlarida tez-tez ko‘zga tashlanib turishi bejiz emas, haqiqatan, ma’rifatparvarlik she’riyatining bayroqdorlaridan biri Navoiydir.

Avaz O‘tar sharqona an’analarga mos tarzda ko‘tarilgan mavzuning foydasi haqida fikr yuritish bilan boshlaydi. Fitrat “Hind sayyohining qissasi” asarida xalqimiz har bir sohada allaqachon foyda bermay qo‘ygan eski asboblarni ishlatishi, ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini bilmasligi, sohalarning kasod bo‘lib, odamlarning nochor ahvolga tushayotganini gapiradi. Avaz O‘tarni ham shu dard qiynaydi va ilm-u hunarning yangiliklari tilni bilish orqali ayon bo‘lishini so‘zlaydi. Haqiqatan, til bilish jahon eshiklarini ochadi. Til yuzaki emas, ona til kabi egallansa, foydaning koniga aylanadi. Avaz O‘tar ham Abay kabi ertaning egalari – bolalar bilan bilvosita muloqot qilgach, so‘nggi satrlarda ota-onalarga murojaat etadi. Chunki, “yaktoyi zamona”, ya’ni zamonaning eng oldi, ilg‘or odamlarini yaratish ota-onalar qo‘lida. Avaz ikki yosh toifasidagi o‘quvchisiga ham tilni bilmaslikning oqibatini “zor o‘lmasun”, “bag‘ri to‘la qon” jumlalari orqali o‘zining taqdiri misolida ko‘rsatadi va xalqini bilim olishga chorlaydi.

2. Esse yozish qoidalarini tushuntiring, darslikdagi namunadan tashqari yana bir qancha namunalar bering. Essening hajmiga qo‘yiladigan minimal va maksimal chegaralarni (masalan, 350-400 so‘z) e’lon qiling va o‘quvchilarga esse yozishlari uchun vaqt bering. Yozilgan esselarni yig‘ib olib, tekshiring va keyingi darslarda qisqacha izohlaringiz, tavsiyalaringiz bilan mualliflariga qaytaring. Esselarni baholashda fikrlarning asoslanganligi, mantiqiy izchilligi, misollarning aniqligiga e’tibor qarating.

LENGSTON HYUZ.
“RAHMAT SIZGA, XONIM”

Bu mavzuda biz:
– “Rahmat sizga, xonim” hikoyasida ilgari surilgan g‘oyalarni muhokama qilamiz;
– qahramonlar xarakterini tasvirlovchi vositalarni topishni o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Asar qahramonlari tavsifi	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga dars mavzusini (Lengston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi) e’lon qiling.

2. O‘quvchilarga Lengston Hyuzning “Men ham Amerikani kuylayman” she’rini o‘qib bering. Hozircha she’r muallifi yoki she’rning asosiy g‘oyasi haqida ma’lumot bermang. Shunchaki she’rni tinglashlarini so‘rang.

I, too, sing America.	**Men ham Amerikani kuylayman.**
I am the darker brother. They send me to eat in the kitchen When company comes, But I laugh, And eat well, And grow strong. Tomorrow, I’ll be at the table When company comes. Nobody’ll dare Say to me, “Eat in the kitchen,” Then. Besides, They’ll see how beautiful I am And be ashamed – I, too, am America.	Biroz qora qardosh edim, Biroq mehmon kelganida mehmonko‘rmas oshxonaga ovqatlanish bahonada quvildim. Biroq kuldim. Yaxshi yedim. Kuchli bo‘ldim. Ertasiga Mehmon kelar. Joylashaman stolga, Kim buyruqqa jur’at qilar: “Ovqat uchun oshxonaga!” Keyin. Yana, boz ustiga, Ular ko‘rar: men ham go‘zal, va uyalar – Axir men ham Amerika!

O‘quvchilardan she’rni qanday tushunganliklarini, u nima haqida ekanligini so‘rang.

She’r necha zamonlardan beri oq tanlilar orasida kamsitilgan, ezilgan qora tanlilarning yurak dardi ifodasidir. Shoir yashagan davrda ham ularga bo‘lgan munosabat ayanchli ahvolda edi. Bog‘cha bolasidan tortib hayotning achchiq-chuchugini tatigan qariyalarigacha ularning qullik maqomidan yuqoriga ko‘tarilishiga qarshi edilar. Bu holdan oz sonli islohotchilar xoli edi xolos. Bu barcha afro-amerikaliklarning fojiasiga aylangandi.

Shoir nafaqat bu she’ri, balki butun ijodi bilan odamlarning tashqi ko‘rinishiga, diniga, mintaqasiga qarab ajratmaslik kerakligini dunyoga uqtirishga urindi. Zero, turli kelib chiqishi uchun birovni mazax qilish noinsoniylikdir. Bu qora o‘tmish izlarining shoir hayotidagi dog‘larini o‘quvchilar bilan birgalikda she’r asosida tahlil qiling, dalillang.

Muhokama va tahlil jarayonida quyidagicha jadvaldan foydalanishingiz mumkin. Bunda she’rda ilgari surilgan g‘oyalar va bu g‘oyalarni ochib berish uchun ishlatilgan obrazlar, metaforalar tahlilga tortiladi.

Namuna:

Tahlil obyekti	Ma’no
Men ham Amerikani kuylayman	Demak, u ham Amerika fuqarosi
Qora qardosh	Qora tanli inson
Ular	Oq tanlilar
Oshxonaga jo‘natish, quvish	Boshqalardan ajratib qo‘yish, teng deb qaramaslik
Stol	Amerika hayoti
Stolda o‘tirish	Amerikada teng huquq bilan yashashga intilish
Ular ko‘rar: men ham go‘zal	Qora rang ham go‘zalligi ifodasi, qora ranglilarni o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish da’vati
Uyalar	Qora tanlilarga o‘zligidan uyalmasligi kerakligi haqida xitob Oq tanlilar o‘z qilmishidan uyalishi kerakligi haqida xitob
Xulosa	Qora birodar o‘zi orzu qilgan narsadan voz kechmadi, kuchli bo‘ldi, ishonchi kelajakda haqiqatga aylandi.

3. O‘quvchilar she’r muallifi Hyuzni qanday inson sifatida tasavvur qilishganini so‘rang. Lengston Hyuz hayoti haqida darslikda berilgan ma’lumotni o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. Berilgan ma’lumotlardan qaysilari “Men ham Amerikani kuylayman” she’rini tushunishga yordam berishini so‘rang.

Bu paytda AQSHda qora tanlilarga nisbatan adolatsizlik, ularni “quyi tabaqa” sifatida ko‘rish odati hukmron edi.

Buvisining tarbiyasi keyinchalik Hyuzga o‘z asarlarida “qora tanli ekanidan uyalmasdan o‘zligini ifoda etishiga” yordam berdi.

O‘rta maktabni bitirganidan keyin nufuzli Kolumbiya universitetiga o‘qishga kirdi, lekin jamiyatdagi qora tanlilarga bo‘lgan munosabat tufayli bu oliygohdan ketishga majbur bo‘ldi.

3. Darsning “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” qismini quyidagi savollar bilan boshlang.

Qora tanlilarga bo‘lgan munosabatdan kelib chiqib, o‘sha davrda ularning yashash sharoiti qanday bo‘lgan deb o‘ylaysiz?	*Ular daromadli ishlarda ishlay olmagan, kam pul topgan bo‘lsa kerak.*
Tasavvur qiling-chi, qora tanli bolalarning ahvoli qanday bo‘lgan?	*Ular biz kabi erkin ta’lim olmagan, shoirning o‘zi ham irqchilik tufayli o‘qishdan ketgan.*
Qora tanli bolalarning oq tanli bolalar kabi istagan narsasi bo‘lgan, deyish mumkinmi?	*Yo‘q. Qora tanli bolalar xizmatkorlardek ulg‘aygani she’rning tahlilida ayon bo‘ldi.*
Siz hech kamsitilish hissini tuyganmisiz? Bu inson uchun eng og‘ir his, desam, fikrimga qo‘shilasizmi?	*Ha, bo‘lishi mumkin, bu juda alamli bo‘ladi.*

E’tiborni Muhammad Ali rasmiga qarating, dunyo sahnasida katta muvaffaqiyatga erishgan insonlarni birgalikda eslang. Masalan, AQSHning sobiq prezidenti Barak Obama, futbol yulduzlari – Pele, Kilian Mbappe, 2022-yilning eng boy aktrisasi Opra Uinfri va boshqalar.

4. Darslikda berilgan quyidagi savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qiling.

O‘ylab ko‘ring-chi, oxirgi marta kimga va nima uchun rahmat aytgansiz?

Biron nojo‘ya ish qilganingizda atrofingizdagilar qanday tanbeh berishgan? Bu ishingiz to‘g‘ri emasligini tushuntirishda qanday yo‘l tutishgan?

5. Quyidagi vazifani berib, darsni yakunlang:

Daftaringiz sahifasini ikkiga bo‘ling. Birinchi qismida o‘zingizning yomon odatlaringiz, ulardan qutulish uchun qanday chora ko‘rganingiz yoki ulardan xalos bo‘lish uchun nima turtki bergani haqida yozing. Ikkinchi qismiga yaqinlaringizdan birining ayni shu boradagi tajribasini qayd eting. Oila a’zolaringiz bilan dildan suhbatlashishingiz lozim!

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

1. O‘quvchilarga Lengston Hyuzning “Rahmat sizga, xonim” hikoyasi matni bilan ishlashingizni ma’lum qiling. Uy ishlarini dars so‘ngida yig‘ib olib, o‘qib chiqing va keyingi darsda bolalardan va ularga vaqt ajratgani uchun yaqinlaridan minnatdor bo‘lganingizni ayting va baho bilan rag‘batlantiring. Baholashda tajribalarning haqiqiy ekanligiga, bolaning chora-tadbirlari hayotida ham aks etganiga e’tibor qarating.

2. Matnni o‘qish davomida savollar ustida ishlab boring.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Ayolning xatti-harakatlari sizda qanday taassurot qoldirdi? U haqidagi dastlabki fikringiz qanday? *– Kambag‘al bo‘lsa kerak – kechgacha ter to‘kib ishlab, uyiga bozorlik qilib qaytayotgan bo‘lishi mumkin.* *– U jahldor bo‘lsa kerak, bolani jahl bilan turg‘azdi.* *– U og‘ir narsalar ko‘tarishga odatlangan bo‘lsa kerak – u ko‘tarib yurgan sumka og‘irligidan bola muvozanatni yo‘qotib qo‘ydi.*	To‘ladan kelgan bir ayol yo‘lak bo‘ylab ichiga hamma narsa sig‘adigan katta sumkasini ko‘tarib ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo‘q narsaning o‘zi yo‘q edi, albatta, odamning jonidan boshqa. ... Ayol esa bolaning yelkasidan ushlab jahl bilan turg‘azdi. – Qani, mening sumkamni olib bergin-chi, – dedi.
Sizningcha, ayolning maqsadi nima? U bolani qayerga olib ketyapti? *– U bolaning yaqinlari yo‘qligini bilib oldi. Bu ayolni jahlidan tushirgan bo‘lishi mumkin. Ayol Rojerni, haqiqatan, yuvintirish uchun olib ketyapti.* *– Balki u bolani jazolamoqchidir, “yuvinish” deb so‘z o‘yini qilayotgandir.*	Xo‘o‘sh, juda kirligidan aftingga qarab bo‘lmaydi. Seni o‘zim bir ozoda qilib qo‘ymasammi? Nima, uyingdagi birortasi yuzingni yuvib yur, deb aytmaydimi? Unda bekorga uchrashmabmiz. Bugun yuvinadigan kuning ekan.
Rojer nima uchun ochiq eshik – ko‘cha tomonga emas, yuvinish uchun yo‘l oldi? *– Ovqatlanish va yuvinish taklifi Rojerda xonimga nisbatan mehr uyg‘otdi.* *– Ayolning eshikni ochiq qoldirishi – bolaga nisbatan ishonch va niyatlari samimiyligi ifodasi edi. Bu holat Rojerga ta’sir qildi.*	Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverishda kichikkina oshxona joylashgan edi, ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. ... Nihoyat ayol bolani qo‘yib yubordi. Rojer bir ochiq eshikka, bir ayol tomonga, keyin yana ko‘cha eshigiga qaradi-da, beixtiyor yuvinish uchun yo‘l oldi.
Rojer nega: “Meni politsiyaga topshirasizmi?” deb so‘radi? Nima uchun uning xayoliga bunday fikr keldi deb o‘ylaysiz? *– “Uzoq eslab yurasan”, “Senga nima yaxshi-yu nima yomonligini o‘rgatishim kerak” jumlalari Rojerning xavotirlanishiga sabab bo‘ldi.* *– Bola noto‘g‘ri ish qilganini, qonunni buzganini bilardi.* *– Bola bundan oldin ham o‘g‘irlik qilgani uchun politsiyaga tushgan bo‘lishi mumkin.*	– Issiq suv tushguncha biroz kutib tur, – dedi ayol, – mana, toza sochiq. – Meni politsiyaga topshirasizmi? – so‘radi bola yuzini yuvayotib.

Rojer Luella xonimning gapidan nega hayratlandi? Ayol eshikni nima maqsadda ochiq qoldirdi deb o‘ylaysiz? *– Rojer aybini tan oldi, ammo ayol unga nasihat qilmadi. Bola xonimning pulni begona bolaga shunchaki berib yuborishi mumkinligidan hayratlandi.* *– Ayol eshikni bolani sinash uchun yoki unga ishonchini ko‘rsatish uchun ochiq qoldirgan bo‘lishi mumkin.*	– Tufli olish uchun hamyonimni o‘g‘irlash shart emasdi, o‘zimdan so‘rasang ham bo‘lardi, – dedi Luella xonim, – bir og‘iz so‘rasang bo‘ldi edi... – Rostdanmi... xonim?!. – yuzidan suv tomib turgan bolakay ajablanib so‘radi beixtiyor. Ular jim qolishdi... Uzoq jimlik cho‘kdi. Nihoyat bola yuzini artdi, keyin nima qilishini bilmay, sochiqni olib, yana artdi. Eshik hamon ochiq. Bir harakat qilsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...
“Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim”. Luella xonim bu gapni nima maqsadda aytdi deb o‘ylaysiz? *– Ayol ham Rojer kabi ahvolda yashagan. Uning hozir uyi, ovqati, xohlagan narsalari bor. Rojer buni bilishi kerak edi.* *– Rojerning qilib yurgan ishlarini ko‘rib, o‘zining ham yoshligi esiga tushib ketdi.* *– Rojerga vaqti kelib hozir qilayotgan ishlaridan afsus chekishini anglatmoqchi bo‘ldi.*	– Lekin... hech kimning hamyonini o‘g‘irlamaganman, deyishimni kutyapsanmi? Yo‘q, bu haqda gapirmoqchi emasman. Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim...
Luella xonim nima maqsadda hamyonini Rojerning oldiga tashlab ketdi? Rojer nima uchun ayolga yordamlashmoqchi bo‘ldi? *– Luella xonim bolani hamon sinayapti, qaysi yo‘lni tanlashini tekshiryapti.* *– U bolaga ishonch bildiryapti.* *– U bolaga mehnat qilib o‘zi xohlagan narsalarga erishishi mumkinligini ko‘rsatdi. Endi mehnat qilish yoki o‘g‘rilikda davom etish tanlovini bolaning o‘zi qilishi kerak.* *– Rojer unga saboq bergan mehribon xonimga o‘zining tanlovini hamda undan minnatdorligini shu tariqa ko‘rsatishni istadi.*	Xonaning narigi chetida gaz plita va muzlatkich bor edi. Ayol o‘rnidan turib, o‘sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kursiga sumkasini **atay** tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib, qochib ketishi mumkin bo‘lsa-da, ayol ortiga qarashni istamasdi. **Bola buni sezdi** va ayol uni ko‘rib turishi mumkin bo‘lgan joyga borib o‘tirdi. U Luella xonimning ishonchini yo‘qotishni istamasdi.
“Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo‘lga boshlamasin”. Bu gapni qanday tushundingiz? *– Ayol uning o‘g‘rilik qilishini istamaydi.* *– Hamma narsaga halol yo‘l bilan erishish kerak.* *– Biron narsaga erishish uchun shunday yo‘l tutish kerakki, vaqti kelib bu yo‘ldan uyalmagin, afsus chekmagin.*	Lekin keyingi safar bu xatoni takrorlama – menga o‘xshagan birortasining cho‘ntagiga qo‘lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo‘lga boshlamasin. Bugungi kun sen uchun unutilmas saboq bo‘lishiga umid qilaman, o‘g‘lim!

“Bo‘laklarga ajratib tahlil qilish” usuli bilan o‘quvchilar oldingi darsda, “Men ham Amerikani kuylayman” she’rini tahlil qilishda tanishgan edilar. Hikoyani chuqurroq tahlil qilish maqsadida yana bir marta shu metodga murojaat qilish mumkin. Buning uchun jadvalning “Tahlil obyekti” qismini to‘ldirib bering va o‘quvchilardan “Mazmuni” qismini to‘ldirishni so‘rang. Yoki “Mazmun” qismini sinfga moslab soddaroq tarzda to‘ldirib berish va o‘quvchilardan “obyekt”ni topishni so‘rash mumkin. Quyidagi jadval namuna sifatida berilgan, o‘quvchilardan aynan shunday javoblarni talab qilmang.

Namuna:

Tahlil obyekti	Mazmuni
11 da ishdan qaytayotgan ayol	Qora tanlilarning uzoq mehnat kuniga ishora qiladi.
O‘g‘rilik qilmoqchi bo‘lgan bola	Birinchi darsda qora tanlilarning og‘ir sharoitlarda yashagani ma’lum bo‘ldi. Demak, u kambag‘al.
Bolaning ishidan so‘ng ham bosiqlikni yo‘qotmagan ayol	“Harlem”da kambag‘allar ko‘pligi ayolning bosiqligidan ham bilinadi, chunki u bunday holatni avval ham ko‘rgan yoki eshitgan.
Ichida hamma narsa bor sumka egasi	Ruhiy notinchlik va vahimani bildirishi mumkin. Nimadir kerak bo‘lganida uni o‘sha zahoti topa olmasa, vahimaga tushadigan insonlar sumkasida kerak-nokerak narsalarni ko‘tarib oladi. Masalan, uzoq och qolgan odam qurbi yetgan zahoti uyini oziq-ovqatga to‘ldirib oladi.
Zamsha uchun o‘g‘rilik	Unga ovqat yoki biror joyda tunab qolish uchun emas, zamsha tufli uchun pul kerak. Demak, u zamsha tufli bilan kimgadir maqtanmoqchi. Unga obro‘ kerak, chunki u kamsitilgan bo‘lishi mumkin. Balki, oq tanlilarga qora tanlilar ham zamsha tufli kiyishini ko‘rsatib qo‘ymoqchidir.
Baqirish yoki bolani urish o‘rniga uning kir yuziga ko‘proq e’tiborni qaratish	Hamdardlik, mehribonlik, chunki bolaning kir yuzi bolaning oilasi yo‘q ekanligini yoki ular juda nochor ekanligini ko‘rsatib turibdi.
Yuzni yuvish	O‘tmish odatlardan qutulishga ishora.
Ochiq eshik	Bola uchun qoldirilgan tanlov: unga ovqat va yuvinib olishni taklif qilayotgan ayolga hurmat ko‘rsatish, unga bildirilayotgan ishonchni oqlash yoki hurmatsizlik qilib qochish.
Uni to‘namoqchi bo‘lgan bolani uyida ovqatlantirish	Kechirimlilik kuchini ko‘rsatadi.
Bolaning o‘tmishini so‘ramaslik	Uning diqqatini bo‘lmaslik uchun ishlatilgan tadbir va shaxsni hurmat qilishni anglatadi.
Xonimning ayblari haqida so‘z ochishi	Bolaga u ham qiyin ahvolda yashagani, ammo hozirgidek yaxshi kunlar kelishi mumkinligi haqida xabar beryapti.

Xonimning Xudodan ham yashirishni istaydigan gunohlari	Demak, ayol ham qiyin kunlarni boshidan kechirgan, u ham Rojer singari nojo‘ya ishlarga qo‘l urganini, lekin bu yo‘ldan qaytganini shu bilan bildirmoqchi
Bola oldiga qo‘yilgan hamyon	Bola uchun qoldirilgan tanlov: u ayolning tajribasidan xulosa chiqaradimi yoki o‘g‘rilikda davom etadimi?
Bola o‘g‘rilik maqsadini tan olishi	Mehribonlik va ishonch mehribonlik va ishonch uyg‘otadi.
Ayolning pulni berishi haqidagi javobi	Hal qiluvchi javob. Chunki bola yomonlik ko‘chasida. Odatda bu ko‘chada yaxshilikni ko‘rmaganlar bo‘ladi. Bola hayotda yaxshilik, yaxshi insonlar borligini ko‘rdi.
Bolaning ko‘chaga chiqib ketmasligi	Bola bo‘lgan voqealarni mulohaza qilib ko‘rgani, shu asosda ijobiy xulosa chiqargani ifodasi.
Xonimga qilgan taklifi	Unga berilgan saboq uchun rahmat belgisi.
10 dollarning berilishi	Ibrat va to‘g‘ri hayotga yo‘naltirish.

Javoblarni tekshirib chiqing va asosli javob egalarini rag‘batlantiring. Darsni yakunlang.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

ASAR QAHRAMONLARI TAVSIFI

Hikoyaga oid savol va topshiriqlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan:

Savol va topshiriqlar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Asarda qanday g‘oyalar ilgari surilgan? Bu g‘oyalardan qaysisini eng muhimi deb o‘ylaysiz? Fikringizni matn asosida dalillang.	asarning asosiy g‘oyasini aniqlash
Luella xonim nima uchun Rojerni uyiga olib keldi? Faqat ovqatlantirib, pul berish uchunmi? Uning Rojerga nisbatan munosabati sabablari nimada deb o‘ylaysiz?	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish
Luella xonim haqidagi fikringiz asarni o‘qish davomida qay darajada o‘zgardi? Rojer haqida-chi?	obrazlarga baho berish
Hikoyada tasvirlangan voqea Rojerning keyingi hayotiga qanday ta’sir qiladi deb o‘ylaysiz? U yana o‘g‘irlikka qo‘l uradimi?	asardan xulosalar chiqarish

Hikoya asosan Luella xonimning Rojerga bergan sabog‘i to‘g‘risida. Ayol sumkasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lgan bolaga insoniy munosabat orqali uni to‘g‘ri yo‘lga qaytarmoqchi, u yo‘l qo‘yishi mumkin bo‘lgan, kelajakda pushaymon qilishi mumkin bo‘lgan xatolardan qaytarishni niyat qiladi. Hikoyada bir qancha masalalar ko‘tarilganini kuzatish mumkin:

– ishonch: hikoya davomida Luella xonim bir necha marta Rojerga ishonch bildiradi (ochiq eshik, atay ko‘rinadigan joyga tashlab ketilgan hamyon);

– empatiya – o‘zgalarni, ularning his-tuyg‘ularini tushunish, hamdardlik (“Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim”);

– yaxshilik, g‘amxo‘rlik (“Tufli olish uchun hamyonimni o‘g‘irlash shart emasdi, o‘zimdan so‘rasang ham bo‘lardi”, Luella xonimning Rojerni yuvintirib, ovqatlantirishi, unga pul berishi – hikoya yozilgan paytda o‘n dollar katta pul hisoblangan, ayniqsa, Luella xonimga o‘xshagan kishilar uchun);

– insonga hurmat bilan munosabatda bo‘lish (Luella xonim Rojerga biron marta ham bolani xijolatga solishi mumkin bo‘lgan savollar bermaydi);

– tanlov va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish (hikoya davomida Luella xonim Rojerni bir necha marta tanlov qarshisida qoldiradi: ochiq eshik, ko‘rinadigan joyga qo‘yilgan hamyon; “Shunday ishlar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim”, “Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo‘lga boshlamasin”);

– javobgarlik, o‘zgalar taqdiriga loqayd bo‘lmaslik (Luella xonim Rojerni politsiyaga topshirib yuborishi yoki sumkasini undan tortib olib, yo‘lida davom etishi mumkin edi).

Hikoyadan va umuman mavzudan o‘quvchilar chiqarishi mumkin bo‘lgan yana bir xulosa: har qanday diskriminatsiyaning (insonni biron-bir belgisiga – jinsi, terisining rangi, tashqi ko‘rinishi, millati va hokazo xususiyatlariga ko‘ra ajratish, kamsitish) mumkin emasligi. Hikoya voqealari shaharning asosan qora tanlilar yashaydigan qismida bo‘lib o‘tmoqda. Muallif hayoti bilan tanishish jarayonida u yashagan davrda qora tanlilarga munosabat qanday bo‘lganligi haqida bilib olgan edik. Rojerga o‘xshagan bolalar tersining rangi tufayli o‘z holiga tashlab qo‘yilsa, hech kim ularga yordam qo‘lini cho‘zmasa, noto‘g‘ri yo‘ldan qaytarmasa, kambag‘allik, jinoyatchilik zanjirini uzish imkonsiz bo‘ladi.

Asarni muhokama qilish jarayonida hikoyaning nima uchun darslikning “So‘zda sehr bor” ruknida berilganligi haqidagi fikrlarini ham bilish mumkin.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Voqealarning birinchi shaxs yoki uchinchi shaxs nomidan bayon qilinishi kitobxon idrokiga qanday ta’sir qilishi haqida o‘quvchilar oldingi mavzularda muayyan tasavvurga ega bo‘lgan edilar. Mazkur topshiriq shu tushunchani mustahkamlash bilan birga voqea qahramonlarining (Rojer yoki Luella xonim) kechinmalarini tushunishga yordam beradi.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: ASAR QAHRAMONLARI TAVSIFI

Badiiy asarda qahramonlarni tavsiflash uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan vositalar (qahramon nutqi va xatti-harakatlari, uning yashash joyi yoki unga tegishli buyumlar tasviri) haqida ma’lumot bering. Darslikdagi misollarni muhokama qiling. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirishni topshiring. Turli guruhlar jadvallarini solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlariga e’tibor qarating.

Namuna:

Luella xonim		Rojer	
Qanday inson?	**Qanday bilib olamiz?**	**Qanday inson?**	**Qanday bilib olamiz?**
Bosiq, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan	Rojer sumkasini o‘g‘irlamoqchi bo‘lganida o‘zini yo‘qotib qo‘ymadi.	Zaif, nimjon	Sumkaning og‘irligidan muvozanatini yo‘qotib yiqildi.
Kechirimli	– Meni politsiyaga topshirasizmi? – Qo‘rqmay yuvinaver, bunaqa kir holingda sen bilan ko‘chaga chiqib bo‘larmidi?	Kambag‘al	Xo‘o‘sh, juda kirligidan aftingga qarab bo‘lmaydi. Cho‘pdek ozg‘in.
G‘amxo‘r va mehribon	-Yana biroz yeb ol, o‘g‘lim, – dedi mehribonlik bilan.	Mehribon, odamlardan minnatdor bo‘la oladi.	– Do‘konga chiqib, biror narsa olib kelib beraymi? – so‘radi bola. – Sut yoki biror yegulikmi... Bola unga nimadir yaxshi gap aytgisi keldi, lekin munosib so‘zlarni topolmadi.
Mehmo‘ndost	Ayol muzlatkichdan lima loviyalari va go‘sht oldi. Yegulik, kakaoli ichimlik tayyorladi va hammasini dasturxonga qo‘ydi.	Mulozamatli	– Ajoyib fikr, xonim.
Jonkuyar, loqayd emas	Lekin keyingi safar bu xatoni takrorlama – menga o‘xshagan birortasining cho‘ntagiga qo‘lingni suqma. Bugungi kun sen uchun unutilmas saboq bo‘lishiga umid qilaman, o‘g‘lim!	Qilmishlari uchun uyat hissini tuya oladi.	U ayolning uyiga kirib ketishini kuzatib qolarkan, pichirlab: “Rahmat sizga...” deya oldi xolos.

Farosatli, mulohazakor	Ayol boladan uni noqulay ahvolga solishi mumkin bo‘lgan qayerda yashashi, o‘tmishi, yaqinlari haqidagi savollarni so‘ramadi. Bolaga berilgan ajoyib saboq ham buning isboti.	Farosatli, mulohaza-kor	Bola uni hoziroq olib, qochib ketishi mumkin bo‘lsa-da, ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va ayol uni ko‘rib turishi mumkin bo‘lgan joyga borib o‘tirdi. Ayolning sabog‘ini ilg‘ay oldi, chamamda.
Vaziyatga baho bera oladi	Saboq berish uchun to‘g‘ri yo‘l tanlay oldi.	Vaziyatga baho bera oladi	Qochib ketmadi, ayolning unga zarar bermasligini angladi.
Samimiy, ochiq	– Lekin... hech kim-ning hamyonini o‘g‘irla-maganman, deyishim-ni kutyapsanmi? Yo‘q, bu haqda gapirmoqchi emasman. Shunday ish-lar qilganmanki, imkoni bo‘lsa, ularni Xudodan ham yashirgan bo‘lardim, o‘g‘lim...	Samimiy, ochiq	– Men faqat zamsha tufli olmoqchi edim... – Rostdanmi, xonim?! – yuzidan suv tomib turgan bolakay ajablanib so‘radi beixtiyor. Ular jim qolishdi...
Qo‘rqoq emas	O‘smir o‘g‘ri bolani qo‘rqmay uyiga olib keldi.	Qo‘rqoq emas	Bola begona ayol unga nima qilishi mumkinligini bilmasdi, ammo u qolishni tanladi.
Boy emas	Go‘zallik salonida kechgacha ishlaydi, katta sumka olib yuradi (boy xonimlar odatda kichkina, bejirim sumka olib yurishadi).		

IJODIY ISH

“Birinchi va ikkinchi darsda berilgan uy ishlari ijodiy ish yozishga tayyorgarlik bosqichi edi”, “Siz buni yuqori saviyada bajara olasiz” kabi gaplar bilan o‘quvchilarni ruhlantirgan holda ijodiy ishni uyga vazifa qilib topshiring.



FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA ONA TILI

Bu mavzuda biz:
– badiiy uslubga xos xususiyatlarni farqlashni o‘rganamiz.

Mazkur darsda o‘quvchilar badiiy uslubga xos xususiyatlarni o‘rganadilar.

Badiiy uslubning muhim xususiyatlaridan biri – o‘quvchiga (tinglovchiga) emotsional ta’sir qilishi, estetik zavq bag‘ishlay olishi. Buning uchun badiiy tasvir vositalari, emotsional bo‘yoqdor so‘zlardan foydalaniladi. Darsdagi topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilar badiiy uslubning aynan shu xususiyati haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

1. Darsni muhokama bilan boshlang. Badiiy asar mutolaasining darslik yoki ensiklopediya o‘qishdan farqini, o‘quvchilarning bu mutolaa turlarida ko‘zlagan maqsadlari va emotsional holatlaridagi farqlarini muhokama qiling.

Darslik yoki ensiklopediyani nima uchun o‘qiysiz? Badiiy asarni-chi? Badiiy kitob o‘qiganda his qilgan narsalaringizni darslik yoki ensiklopediya o‘qiganda ham his qilasizmi?

2. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Ensiklopediyadan olingan matn va Abdulla Oripov she’ridagi bahor tasvirlarini berilgan savollar asosida solishtirishni topshiring. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlarning fikrlarini eshiting, lozim o‘rinlarda yo‘nalish bering, aniqlashtiruvchi savollar bilan murojaat qiling.

Quyida namunaviy javoblar keltirilgan. O‘quvchilarning javoblari namunadan farq qilishi mumkin, albatta. Bunda o‘quvchilarning fikrlarini asoslay olishlari, she’rda qo‘llangan badiiy tasvir vositalarini to‘g‘ri topib, sharhlay olishlariga e’tibor qarating.

“Yilning bu faslida havo isiydi, kunlar uzayadi…”

Bu holat she’rda qanday tasvirlangan?

“Oftob ham yuksaldi – tik kelar quyosh” – bahor faslida tabiatda bo‘ladigan o‘zgarishlarni tasvirlash uchun jonlantirishdan foydalanmoqda.

Qaysi misralarda shoir bahorda o‘simliklar uyg‘onishini, gullar ochilishini tasvirlagan? Bu tasvirlar qaysi xususiyatlari bilan o‘quvchiga bahordagi holatni aniq tasavvur qilishga yordam beradi?

“Bezavol maysa ham silkitadi bosh. Tarnovlar bo‘g‘zida lola ham ko‘rkam” – bu o‘rinda ham jonlantirish qo‘llangan. Maysaning shamolda chayqalishini “bosh silkitar” sifatida tasvirlash orqali, “bezavol”, “ko‘rkam” singari sifatlashlar orqali shoir o‘quvchiga holatni aniq tasavvur qilishga yordam beradi.

“Terak uchlarida izg‘ir mavjudot” misrasida qanday jarayon tasvirlangan? Nima uchun shoir “izg‘ir” fe’lini tanlagan?

Bu misrada hasharotlarning bahordagi faolligi aks etgan. “Izg‘imoq” fe’li hasharotlarning o‘zlariga yemish topish, nasl ko‘paytirish maqsadidagi faollashuviga ishora qilmoqda.

Qaysi matnda muallifning tasvirlanayotgan hodisaga munosabatini bilishimiz mumkin? Bu munosabat qanday namoyon bo‘ladi?

She’rdagi “ajib go‘zallik”, “ajib bayot”, “ulug‘ dam”, “muzaffar hayot” singari ijobiy ma’no tashuvchi jumlalar, “bezavol”, “ko‘rkam” singari sifatlashlar, jonlantirishlar, oxirgi misralardagi zidlantirish (“tuyg‘usiz, chirik xazon” – “bog‘labdi qanot”) shoirning bahor kelib, tabiat jonlanganidan quvonchini his qilishga yordam beradi.

3. Guruhlarga tabiatda suvning aylanishini tasvirlab badiiy matn yaratish topshirig‘ini bering. Guruhlar o‘z matnlarini sinfga o‘qib berayotganlarida badiiy matnning ta’sirchanligi, munosabatni yetkazishi qaysi vositalar yordamida ta’minlanganligini so‘rang. Darsni xulosalang.

.

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi o‘quvchilarning ikkinchi faslda o‘rgangan asarlari asosida olgan nazariy bilimlari va shakllantirilgan kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Topshiriqlar o‘zbek xalq qo‘shiqlaridan parchalar, Alisher Navoiy ruboiylari va Saida Zunnunovaning “Buvi” hikoyasi asosida tuzilgan.

Topshiriq	Javob	Izohlar
1	B	“Bosilib qolsin quv shamol” – shamolni to‘xtatish uchun o‘tkaziladigan marosimlarda ijro etilgan
2	D	“Oshiq yor”, “do‘st bilan dushman” – mazkur qo‘shiqda muallif (ijrochi)ning kechinmalari ifodalangan
3	D	“Muncha meni kuydirasiz”, “kuydirasiz”, “yaxshini topganing qani” – mazkur qo‘shiqda muallif (ijrochi)ning kechinmalari ifodalangan
4	A	“Xamir etar”
5		Mazkur ruboiyda to‘g‘ri bo‘lish, egrilikdan qochishga da’vat qilinmoqda.
6	a-a-a-a	ovoza durur – oza durur – andoza durur – toza durur
7	durur	
8		Mazkur ruboiyda tilga ehtiyot bo‘lish targ‘ib qilinmoqda.
9	a-a-a-a	hangomimni – xudkomimni – xomimni – nomimni
10–13		Javoblar turlicha bo‘lishi mumkin. Ularning qay darajada asoslanganligiga e’tibor qarating. *Misol uchun:* Umriniso buvi – mehribon, nevaralari uchun ovqat pishirib qo‘ydi, “choy damlab beraymi?” deb so‘radi. Nargis – o‘ziga bino qo‘ygan, buvisiga “Pedagogikani bilmaysiz”, deydi.



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

3-fasl. FANTASTIKA VA SARGUZASHTLAR OLAMI

Hojiakbar Shayxov. “Birinchi sinov”
Rey Bredberi. “Bir kunlik yoz”
Jyul Vern. “O‘n besh yoshli kapitan”
Artur Konan Doyl. “Mallalar uyushmasi”

Adabiy tushunchalar:
– ilmiy-fantastik asar
– sarguzasht asar
– detektiv asar
– portret
– badiiy tasvir vositalari: sifatlash

Fanlararo aloqa:
adabiyot va texnologiya



HOJIAKBAR SHAYXOV.
“BIRINCHI SINOV”

Bu mavzuda biz:
– sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tishga yordam beradigan xususiyatlarni muhokama qilamiz;
– ilmiy-fantastik asarlarga xos jihatlarni tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish: muallif hayoti va ijodi. Ilmiy fantastika haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Loyiha ustida ishlash	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Hojiakbar Shayxovning “Birinchi sinov” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqishi uchun vaqt bering. Darslikdagi savollar bilan o‘qigan ma’lumotlarini mustahkamlang. Hojiakbar Shayxovning qaysi janrda ijod qilganligiga e’tibor qarating.

3. Ilmiy fantastika janri haqida ma’lumot bering. Har qanday tasavvur, xayolot mahsuli ham ilmiy fantastika bo‘la olmasligiga, ilmiy fantastikaning asosida ilm-fan yangiliklari turishiga e’tibor qarating. Masalan, ertaklarda ham qahramonlar noodatiy makon va vaziyatlarga tushib qolishi mumkin, lekin ularni “ilmiy fantastika” deya olmaymiz, sababi – ertaklarda tasvirlangan voqealarni ilmiy yo‘l bilan, ilm-fan qonuniyatlari bilan tushuntirib bo‘lmaydi.

Darslikdagi rasmlarga ham e’tibor qarating, ilmiy fantastikaga oid yangi bilimlar asosida “Dunyolar jangi” va “Elektronik – chamadondan chiqqan bola” asarlarida voqealar qanday rivojlanishi mumkinligi haqida o‘quvchilardan so‘rang. O‘quvchilarga quyidagi savollarni ham berishingiz mumkin:

– Nima deb o‘ylaysiz, sehrli asarlarni yozish mushkulroqmi yoki ilmiy fantastikani?

– Sizningcha, nima uchun ilmiy fantastik asarlar va ularga tayanib ishlangan filmlar odatda muvaffaqiyat qozonadi?

– Hojiakbar Shayxovning ilmiy fantastika janrida ijod qilishiga nima turtki bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Nima uchun?

4. O‘quvchilardan qanday ilmiy-fantastik asarlarni o‘qiganliklari, badiiy filmlarni tomosha qilganliklarini, ularda qanday ilmiy ixtirolar tasvirlanganligini so‘rang.

Bu asarlarda ilmiy fantastikaga xos qaysi jihatlarni kuzatishganlarini muhokama qiling.

5. O‘quvchilarga “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savol bilan murojaat qiling. Qanday vaziyatlarni biz odatda “sinov” deb atashimiz haqidagi o‘quvchilar fikrini umumlashtiring. O‘quvchilarga turtki berish maqsadida “sinov” so‘zining o‘zagiga (“sina”) ham e’tibor qaratishingiz mumkin.

6. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini bering.

Namuna

Xususiyat	Nima qilish kerak?
Qo‘rqmaslik	Inson o‘ziga ishonsa, qo‘rquv yo‘qoladi.
Vaziyatni baholay olish	Mavjud sinov vaziyatining sabablari, hozirgi holati va oqibatlarini aniqlashtirish va mulohaza yuritish kerak.
To‘g‘ri qaror qabul qila olish	Mavjud muammoning yechimiga qaratilgan qat’iy qaror chiqara olish kerak.

Belgilangan vaqt tugagach, guruhlar o‘z jadvallarini taqdim qiladilar. Guruhlarning fikrlaridagi o‘xshash va farqli jihatlarini yozuv taxtasiga qayd qilib boring. Fikrlarni umumlashtiring.

Quyidagi savolni muhokama qiling:

Siz qanday sinovlarga duch kelgansiz va o‘sha vaziyatda o‘zingizni qanday tutgansiz?

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

“Asar matni bilan ishlash” ruknida o‘quvchilar bilan birgalikda hikoya matnini o‘qib tahlil qiling. Mutolaa jarayonida savollar bilan ishlang.

Hikoyada insoniyat yashashi uchun yangi manzillarni topishga umrini sarflayotgan fidoyi oilaning sarguzashtidan lavha beriladi. Ularning farzandi fazoda tezlik bilan aqlan va jismonan ulg‘ayadi. Unda ota-onasi tomonidan mehr, g‘amxo‘rlik, mehnat, ilm, tasavvur, tushunchalari teng rivojlantirib boriladi. Natijada qizcha o‘n yoshidayoq hayotdagi o‘rni va vazifasi haqida tafakkur qiladi, tahlikali vaziyatga tushganida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydi. Ota-onasidan olgan o‘rnak asosida shakllangan fidoyilik (oilasi insoniyat foydasi uchun noma’lum va xavfli safarga yo‘l oldi) va oilani asrab-avaylashga intilish xususiyati (otasi kutilmagan falokat kelganida ham birinchi navbatda rafiqasidan xabar oldi) tufayli sinovdan muvaffaqiyatli o‘tdi. Hikoyada qizning murakkab vaziyatda qo‘rquvni yengib, o‘zini munosib tuta olishi bilan birgalikda farzand tarbiyasi, oila muqaddasligi, hayotda insoniyatga foyda keltiruvchi maqsadga ega bo‘lish kabi muhim mavzular aks etgan.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Koinotda, kosmik kemada yashashni siz qanday tasavvur qilasiz? Nima uchun ota-ona qiziga dars tayyorlashdan avval baliq boqish, gullarga qarash vazifasini yuklagan edi deb o‘ylaysiz? *– Kosmik kemada biz kundalik hayotimizda o‘rgangan ko‘p odatiy narsalar (Quyosh nuri, toza havo) bo‘lmaydi;* *– kosmik kemada zerikkan paytlarida tashqariga chiqib bo‘lmaydi;* *– kosmosda hayot qiziq bo‘lishi mumkin – yulduzlarni, noma’lum sayyoralarni yaqindan kuzatish imkoniyati bo‘ladi;* *– qizlari koinotda tug‘ilgan bo‘lsa ham, Yer farzandi ekanligini his qilishi uchun;* *– qizda tabiatga mehrni tarbiyalash uchun.*	Ertalab turib dadasi va onasi bilan birga badantarbiya qilar, nonushtadan so‘ng zalga qo‘yilgan zangori akvariumdagi tilla rangli baliqlarni qotgan non ushoqlari bilan boqar, tuvaklardagi ra’nogul, na’matak, tizimgul, sebarga, lolaqizg‘aldoq kabi rang-barang gullarga o‘zining idishidan suv quyardi.
Nima deb o‘ylaysiz, Shahnozaning ota-onasiga bunday savol berishi to‘g‘rimi? *– Shahnoza o‘zi kabi bolalar bilan katta bo‘lishga haqli, ammo unda ota-onasiz ulg‘ayardi. Shahnoza insoniyat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan vazifaning oilasiga yuklatilganini hali his etmasdi, shuning uchun oilasi bilan cheksiz fazoda yolg‘iz ekanliklariga norozilik bildirishi mumkin edi.*	Qizcha o‘n yoshga to‘lganida kema ekipajining aytarli mustaqil bir a’zosiga aylangandi. Endi u ona Yer, o‘zlari uchib borayotgan olis yulduz, odamlar va umuman hayot haqida kattalardek jiddiy mulohaza yurita olardi. …sen onang ikkalamizning yurak parchamizsan. Shuning uchun mashaqqatli, olis safarimizga seni ham sherik qilarkanmiz, ozgina bo‘lsa-da, bunga haqqimiz bor deb hisobladik. – Axir nima uchun men yigirma besh yil umrimni mana shu kichik va diqqinafas kemada o‘tkazishim kerak ekan? Nima uchun yerlik bolalar, o‘rtoqlarim bilan birga o‘ynashga, dengizlarda cho‘milishga, tengdoshlarim qatori o‘qishga haqqim yo‘q?
Kemadagilar qanday sinovga duch kelishadi deb o‘ylaysiz? *– O‘zga sayyoraliklar ekipaji hujum qilishi mumkin;* *– kemada biron nosozlik kelib chiqishi mumkin;* *– ekipaj a’zolaridan birining tobi qochishi mumkin.*	Darhaqiqat, oldinda naqadar jiddiy sinovlar turganini Shahnoza hali tasavvur ham qilolmasdi... Shu suhbatdan so‘ng yarim yil o‘tar-o‘tmas “Kamalak” ekipaji Somon yo‘lida fazoning ilk ayovsiz sinoviga duch keldi.

Ikkinchi dars uchun quyidagi vazifani berishingiz mumkin:

Oila a'zolaringiz (ota-onangiz) bilan suhbatlashing. Daftaringizning bir sahifasini ikki ustunga ajrating. Hayotingizda sinov deb bilgan voqealarni va shu vaziyatda o'zingizni qanday tutganligingizni varaqning bir ustuniga, oila a'zolaringiz (ota-onangiz) duch kelgan sinovlar va shu vaziyatda qabul qilgan qarorlarini ikkinchi ustunga yozing. Solishtiring va oqibatlarini oilangiz bilan muhokama qiling.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Mutolaadan keyingi bosqich savol va topshiriqlar orqali asarda ilgari surilgan asosiy g'oyani aniqlashga harakat qiling.

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Shahnoza qanday qiz? U sizda qanday taassurot qoldirdi?	obrazga baho berish
Hikoyani o'qishdan oldin sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish uchun insonga kerak bo'ladigan xususiyatlarni yozgan edingiz. Shahnozaning o'zini qo'lga olib, qo'rquvni yengishiga qanday xususiyat yordam berdi deb o'ylaysiz?	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma'nolarni) tushunish; asardan xulosalar chiqish
Hikoya nima uchun "Birinchi sinov" deb atalgan? Hikoyaga yana qanday nom qo'yish mumkin?	asarning asosiy g'oyasini aniqlash

Qo'shimcha savollar yordamida o'quvchilarni tajribasi, dunyoqarashi, avvalgi bilimlari asosida xulosa chiqarishga undang.

– Qizga berilgan erkinliklar haqida qanday fikrdasiz? Agar Shahnoza Yerda bo'lganida, unga berilgan erkinliklar uning tarbiyasiga qanday ta'sir qilishi mumkin edi?

– Otaning qizi haqidagi o'ylariga qanday munosabat bildirasiz?

– Nima uchun qizning ko'ziga robot to'rt shoxli maxluq kabi ko'rindi?

– Qiz qo'rquv ostida bo'lsa ham, ahdidan qaytmagani oddiy holmi? Bu kabi sifat sizda ham bormi?

– Qiz otasi kelib qolmaganida ham vazifani uddalay olar edimi?

– Sizningcha, fidoyi insonlar qanday bo'ladi? Shahnozaning oilasini qanday sabab bilan fidoyi insonlar qatoriga qo'shish mumkin? Shahnozani ham fidoyi deyish mumkinmi? Nima uchun?

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O'RGANAMIZ

O'quvchilarni juftliklarga bo'ling va "Badiiy tahlil asoslarini o'rganamiz" ruknidagi topshiriqlarni bering. Mazkur topshiriqlar o'quvchilarda janrga xos xususiyatlarni va asar tilini tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Namuna:

Ilmiy-fantastik asarlarga xos jihatlar	Hikoyadan misollar
Noodatiy makon va vaziyatlar	Qora Kit burjiga yo‘l olgan “Kamalak” kosmik kemasi, kosmik kemada tug‘ilib katta bo‘lgan qizaloq...
Insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, yaxshilik va yomonlik, burch, adolat singari masalalar talqini	“Bizning maqsadimiz Qora Kit burjiga yetib borib, inson yashay olishi mumkin bo‘lgan biror sayyorani izlab topish”. Shahnozaning ota-onasi bilan suhbati. Shahnozaning ota-onasiga yordam berish harakatlari.
Ilm-fandagi yangiliklar, yutuqlar, ixtirolardan foydalanish	Bu – tepasi gumbaz shaklida maxsus qalin shisha bilan yopilgan va aylana ko‘rinishidagi xona bo‘lib, o‘rtasida usti turli elektron va kibernetik asboblarga to‘la stol turar, gir aylanasi esa gravitomer, dozimetr, barometr, radiatsiya schyotchigi kabi turli ko‘rinishdagi son-sanoqsiz asbob va anjomlar mahkamlangan odam bo‘yi baravar shchitlar bilan band edi. Shu chog‘ koridorda robot-navigator paydo bo‘ldi.
Fan qonunlari	Biz fazoda infratovush to‘lqinlari, ya’ni uzunligi juda qisqa bo‘lgani uchun biz eshita olmaydigan tovush to‘lqinlariga duch keldik, – deb izohlay boshladi onasi, – ular odamning miyasiga, psixikasiga qattiq ta’sir qilishi, uni hushdan ketkazishi, kuchliroq chastotaga ega bo‘lganlari esa hatto halok etishi ham mumkin.

Hikoyadagi ilmiy-texnik so‘zlar ham (Bosh Pult, gravitomer, dozimetr, barometr, radiatsiya schyotchigi, tumbler va boshqalar) asar voqealari sodir bo‘layotgan muhitni tasavvur qilish imkonini beradi.

LOYIHA

Tasavvur qiling, hikoya asosida badiiy film yoki multfilm ishlamoqchisiz. Guruhlarga bo‘lining.

1-guruh	Rassomlar	Film uchun dekoratsiyalar (atrof-muhitni ko‘rsatuvchi rasmlar) chizing.
2-guruh	Libos ustalari	Qahramonlar uchun kiyimlar chizing.
3-guruh	Bastakorlar	Film uchun musiqa tanlang yoki bastalang.

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va topshiriqni bajarish uchun vaqt bering. Guruhlar o‘z ishlarini taqdim qilishi jarayonida chizilgan dekoratsiya va kiyimlari hamda tanlangan (bastalangan) asar mohiyatini ochib berishda qay darajada yordam berishini muhokama qiling.

REY BREDBERI.
“BIR KUNLIK YOZ”

Bu mavzuda biz:
– hikoyaning asosiy g‘oyasini muhokama qilamiz;
– badiiy asarda sifatlash ishlatilgan o‘rinlarni topishni o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Sifatlash. Loyiha	1 soat 1 soat

KIRISH

Darsga tayyorlanish uchun “Madaniyat va ma’rifat” telekanali tomonidan tayyorlangan Rey Bredberi hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rsatuvni ko‘rib chiqishingiz mumkin.

“Dunyo adabiyoti: Rey Bredberi” ko‘rsatuvi havolasi

1. O‘quvchilarga Rey Bredberining “Bir kunlik yoz” hikoyasini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. Bu yozuvchi haqida o‘quvchilar nimani bilishlarini, biron-bir asarini o‘qiganliklarini so‘rang. Bredberining ilmiy fantastika janrida barakali ijod qilganiga e’tibor qarating. O‘quvchilarning oldingi mavzuda (Hojiakbar Shayxovning “Birinchi sinov” hikoyasi) o‘rganlari, mustaqil o‘qigan asarlari, tomosha qilgan kino yoki filmlari asosida “Fantastika deganda qanday asarlarni tushunasiz? Fantastika bizga nima beradi?” savolini muhokama qilib ko‘ring.

3. Rey Bredberi haqida darslikda berilgan ma’lumotlarni o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. Bredberining yozuvchi bo‘lishiga nima turtki berganligini so‘rang. O‘quvchilarning bu bo‘yicha fikrlarini eshitgach, quyidagi savollarni muhokama qiling:

“Abadiy yasha” gapi sizda qanday taassurot qoldirdi? Yozuvchi bo‘lishning abadiy yashashga qanday daxli bor? Sizningcha, qanday insonlar abadiy yashashi mumkin? Abadiy yashash uchun nima qilmoq kerak?

Muhokamani insoniyat uchun foyda keltirgan insonlarning “umri” uzoq bo‘lishi mazmunidagi xulosaga qarab yo‘naltirish mumkin.

4. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknida darslikda berilgan savollar orqali o‘quvchilarda hikoya haqida tasavvur uyg‘oting.

Yoz siz uchun qanday fasl? O‘ylab ko‘ring-chi, yoz ham bir kun bo‘lishi mumkinmi? Agar yoz bir kun davom etsa, shu kuni nima qilgan bo‘lar edingiz?

5. “Bir kunlik yoz” hikoyasi voqealari Venera sayyorasida bo‘lib o‘tishini ayting va o‘quvchilarning bu sayyora haqida nimalarni bilishlarini so‘rang. Ensiklopediyadan olingan ma’lumotni o‘qib, Venera sayyorasining Yerdan asosiy farqlarini topish va bu sayyorada inson yashay olish-olmasligini o‘ylab ko‘rish uchun vaqt bering.

– Venera Yerdan ko‘ra Quyoshga yaqinroq, demak, havo harorati Yerga qaraganda ancha issiq.

– Veneradagi bir yil (sayyoraning Quyosh atrofida to‘liq aylanib chiqishi uchun ketadigan vaqt) Yerga nisbatan qisqaroq.

– Veneraning atmosferasi zich, quyuq, deyarli butunlay karbonat angidriddan iborat.

– Bunday sharoitlarda (o‘ta yuqori harorat, karbonat angidriddan iborat atmosfera) inson yashay olmaydi.

Uyga vazifa sifatida o‘quvchilarning Venera haqidagi bilimlari asosida hayratlanarli, g‘ayrioddiy hodisa tasvirlangan kichik hikoya yozib kelishni topshirish mumkin. Bunda keyingi dars boshida bir-ikki o‘quvchining hikoyasini eshitib, munosabat bildirish, qolganlarning hikoyalarini yig‘ib olib, o‘qib chiqishingiz va ularning ishlariga fidbek (sharh) berishingiz kerak bo‘ladi.

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Ilk marta 1954-yilda e’lon qilingan “Bir kunlik yoz” hikoyasida Bredberi o‘smirlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar va bulling (maktab o‘quvchilarining bir tengdoshini chiqishtirmasligi, ajratib qo‘yishi, unga nisbatan og‘zaki yoki jismoniy zo‘ravonlik ishlatishi) masalalarini ko‘targan. Xalqaro UNCEF tashkilotining 2019-yilda o‘tkazgan tadqiqotiga ko‘ra, o‘zbekistonlik o‘quvchilarning uchdan bir qismidan ortiqrog‘i bulling qurboni bo‘lgan va bu holat ularning o‘qishiga salbiy ta’sir qilgan. Turli shakldagi bullingga (har xil laqablar qo‘yish, narsalarini sindirish, zo‘ravonlik va hokazo) duch kelgan o‘quvchilarning o‘qish ko‘rsatkichlari va imtihon natijalari bulling hodisasiga duch kelmaydigan o‘quvchilarnikiga qaraganda sezilarli darajada pasayishi aniqlangan[6].

Hikoyada ham Margo shunday bulling qurboni bo‘ladi: sinfdoshlari uni boshqalardan farq qilgani uchun yoqtirishmaydi va yetti yilda bir marta bo‘ladigan Quyoshning chiqishini ko‘rish imkoniyatidan mahrum qilishadi.

Hikoyani o‘qish davomida o‘quvchilarga muallif tasvirlagan Venera sayyorasining haqiqiy Venera sayyorasidan farqlarini daftarlariga qayd qilib borishni topshiring:

[6] Qarang: Uzbekistan Education Sector Analysis: 2021, UNICEF Uzbekistan. https://uzbekistan.un.org/sites/default/files/2022-05/Edu%20Sit%20An_UNICEF%202022_0.pdf

Haqiqiy Venera sayyorasi	Asardagi Venera sayyorasi

Hikoya matnini o‘qib, tahlil qilish jarayonida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga, fikrlarini matn asosida va hayotiy tajribalari, shaxsiy kuzatuvlaridan kelib chiqib, dalillay olishiga e’tibor qarating.

Savollar, o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar, izohlar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Bolalar nima haqida gapiryapti deb o‘ylaysiz? Nima sodir bo‘lishi kerak? *– Venera haqida ma’lumot berilganiga qaraganda, kosmonavtlar Veneraga uchib ketayotgan bo‘lishi mumkin.* *– Qandaydir muhim tabiiy hodisa sodir bo‘lishi mumkin (“Olimlar aniq bilisharkanmi?”).*	Olimlar aniq bilisharkanmi? Bu aniq bugun sodir bo‘larkanmi?
“So‘lg‘in”, “rangpar”, “ezib” so‘zlari o‘quvchida qanday kayfiyat uyg‘otadi? *– G‘amginlik kayfiyatini uyg‘otadi.*	Ezib yomg‘ir yog‘ardi. U uzluksiz yetti yil to‘xtamay yog‘ar...
Margo quyoshni nega bir soat ochiladigan gulga o‘xshatmoqda? *– Bir soat ochiladigan gulni ko‘rish imkoni kam, gulni ko‘rish uchun uning ochilishini poylab o‘tirish kerak. Yomg‘ir yetti yildan beri yog‘gani bois bolalar quyosh chiqishini poylab o‘tirganga o‘xshaydi.*	Ularning yoshi bor-yog‘i to‘qqizda bo‘lib, agar vaqt roppa-rosa yetti yil ortga qaytsa ham, o‘sha soatlarda quyoshni ko‘rganlarini baribir eslolmasdilar.
Sinfdagi bolalarning Margoga munosabati qanday? Bunday munosabatning sabablari nimada bo‘lishi mumkin? *– Yaxshi emas. Ular Margoni yakkalashadi, unga ishonishmaydi, unga nisbatan kuch ishlatishadi.* *– Margo ularga o‘xshamaydi, quyosh haqida ulardan ko‘proq biladi va yomg‘irdan boshqa narsani ko‘rmagan bolalardan farqli bo‘lgani uchun ular bilan chiqishib keta olmaydi.* *– Margoning o‘zi ham odamovi bo‘lishi mumkin.*	... Bu she’rni o‘zing yozmagansan! ... Ular charxpalakdek bir joyda tinmay aylanishar, faqat Margo yolg‘iz o‘zi bir chetda qaqqayib turardi. ... Uilyam uni turtib yubordi. Ammo u joyida turaverdi – faqat munkib ketdi xolos. ... Margo abadiy yomg‘irlardan boshqa narsani bilmaydigan bolalardan chetroqda turardi. ... Ba’zida kechalari Margo ularni uyquda g‘o‘ldirashlarini, tushlarida qalam bilan chizilgandek sap-sariq... tilla tangani ko‘rishlarini his qilardi.
Margo nima uchun dushni yoqtirmasdi deb o‘ylaysiz? *– Dush unga yetti yil tinimsiz ezib yog‘adigan yomg‘irni eslatardi.* *– U suvdan charchagan bo‘lishi mumkin.*	Bir safar, bundan bir oy avval, ularni dushxonaga olib borishganini esladi. O‘shanda u suv tomchilari tagiga kirishga aslo rozi bo‘lmay, boshini yashirar, quloqlarini kaftlari bilan berkitib olgan edi – ishqilib, suv boshidan oqmasa bas!

Ko‘zingizni yuming. Bolalar ko‘rgan manzarani tasavvur qiling. Nimalarni his qildingiz?	So‘ng esa allakim boshqa bir tasvirni uzilgan yerdan ulagandek – sokin va yoqimli tropik manzara namoyon bo‘ldi. Barcha tosh qotdi – na bir nafas va na titroq bor edi. Bu shunday bir kuchli sukunat ediki, hammaning qulog‘i batang bo‘lib qolgandek edi. Eshik tabaqasi bir yonga surilganda hammaning dimog‘iga sukunatga qorilgan toza havo urildi. Ana shunda quyosh ko‘rindi. U tilla tangadek porlab turar va juda ham bahaybat edi. Osmon esa xuddi och zangori shishadek yaltirardi. O‘zlariga kelgan bolalar quyosh nurida tovlanayotgan changalzor tomon shodon hayqiriqlar bilan yugurdilar.
Sizningcha, bolalar nega o‘zgarib qolishdi? Qizaloq: “Nima qilib qo‘ydik!” – deganda nimani nazarda tutdi? *– Bolalar quyoshni ko‘rishdi, bundan juda xursand bo‘ldilar. Margo quyoshni eslab qolgani uchun ham u quyoshni juda ko‘rgisi kelganini tushunishdi.* *– Quyosh yana yetti yildan so‘ng ko‘rinadi. Bolalar Margoning quyoshni ko‘rishiga yo‘l qo‘yishmadi. Ular qilgan ishi juda yomon ish ekanligini angladilar.*	Ular muzlab qolgan oyoqlarini poldan uza olmay haykaldek qotgandilar. Bir-birlaridan javob izlasharkan, derazaga termilib qolishdi – tashqarida tinmay yomg‘ir yog‘ar, unda tiyiqsiz bir g‘azab yashirin edi. Bolalar bir-birlarining ko‘zlariga qarashga botinisholmasdi. Barchasi birdan jiddiy va rangpar tusga kirgan, chehralardan baxtli bolalik jilvasi yo‘qolgandi. Hamma zax polga cho‘kkalab qolgandi.
Sizningcha, Margoga nima bo‘ldi? *Javoblarni tinglang va izohlashni so‘rang*.	Eshik ortini butkul sukunat qamrab olgandi. Ular mangulikka asir bo‘lgan mahbusni ozodlikka chiqargandek qaznoq eshigini ochishdi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

SIFATLASH. LOYIHA

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Bolalar Margoni yoqtirmasligi sababi nimada? Fikringizni matn asosida izohlang. Hikoya yakunida bolalarning Margoga munosabati qanday o‘zgardi? Bu o‘zgarishning sababi nimada?	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish, fikrini asoslash uchun asar matniga tayangan holda dalillar keltirish; asardan xulosalar chiqish
Hikoya voqealari Zuhro (Venera) sayyorasida bo‘lib o‘tadi. Sizningcha, muallif voqea uchun nega aynan o‘zga sayyorani tanlagan? Bunday voqea Yer sayyorasida, oddiy maktabda ham sodir bo‘lishi mumkinmi?	Muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini tahlil qilish hamda ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish

Birinchi savolning (Bolalar Margoni yoqtirmasligi sababi nimada?) javobini topishda sinf bilan birga quyidagicha shakldagi jadvalni to‘ldirish mumkin. Bunda sinfning salohiyatiga qarab uch ustunni ham ochiq qoldirish yoki ustunlardan birini to‘ldirib ko‘rsatishingiz mumkin.

Namuna:

Sabab	Matn	Izoh
Margoning xarakteri	U yerto‘lalarda berkinmachoq – quvlashmachoq o‘ynamas, mabodo kimdir uni tutib, so‘ng qochishga shaylansa ham, u... qochoqning izidan termilib qolar, ammo izidan quvmasdi. Bolalar qalin deraza oldiga tiqilib olishgan, Margo bir chetda qaqqayib turardi. Suv tomchilari tagiga kirishga aslo rozi bo‘lmadi.	Odatda insonlar o‘zlariga o‘xshamaydigan insonlarni yoqtirmaydi. Buning asosiy sababi ularning fe’l-atvorini, fikrlash tarzini tushunmaganligidadir. Tushunish qiyin bo‘lgan murakkab hodisa, shaxs, narsalar insonda yoqimsiz his uyg‘otadi.
Tashqi ko‘rinishi	U shu qadar zaif va rangpar bo‘lib qolgan ediki, bir paytlardagi chiroyini mana shu yomg‘irlar yuvib ketgan edi go‘yo. Moviy ko‘zlar, pushtirang lablar, olovrang sochlar – barchasi xira tortib qolgandek edi. U eski daftardan chiqib qolgan moviy surat kabi sukutda edi, bexosdan tilga kirsa ham, ovozi zo‘rg‘a eshitilardi. ... Ramaqijon, rangpar.	Inson zoti go‘zallikka talpinadi, ochiq va kulib turadigan chehralarni yoqtiradi. Va odatda sherigining kayfiyati uning kayfiyatiga ham ta’sir qiladi. Doim ma’yus ko‘rinishda yuradigan inson boshqalarning kayfiyatiga ham ma’yuslikni singdirishi mumkin.

Hasad	…bundan besh yil muqaddam Yer sayyorasidan bu yerga uchib kelgan… Oftob qanday charaqlab turishini to‘rt yoshidayoq eslab qolgan. Bu bolalar esa... Oftobni ikki yoshida ko‘rgan yoki ko‘rmaganlar, buni ham aniq eslasholmaydi. – Oftob xuddi tilla tangadek... – Yolg‘on gapiryapsan... Mish-mishlarga qaraganda kelasi yili uni ota-onasi Yerga qaytarib olib ketisharkan – garchi bu ularga minglab dollarga tushsa ham. Bu bolalar esa Zuhroda yashashga mahkumlar.	O‘zida bo‘lmagan yaxshi narsalar boshqa odamda bo‘lsa, ba’zi insonlarning bu holga g‘ashi keladi. Boshqalar egalik qilgan narsalar o‘zida bo‘lishini istaydi, unga raqib bo‘ladi, ko‘rolmaydi, hasad qiladi. Margo ulardan quyoshni ko‘rish borasida ustun bo‘lgani uchun uni ikki bor yolg‘onchiga chiqarishdi. Bolalar Margoga teng yoki undan ustun bo‘lish uchun quyoshni faqat o‘zlari ko‘rishni istashdi. Margoda Yerga qaytish imkoniyati bor-u, ularda yo‘q bo‘lgani uchun uni qattiq yomon ko‘rib qolishdi.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

Mazkur topshiriqlar o‘quvchilarga hikoyaning asosiy g‘oyasini yaxshiroq tushunish, bulling hodisasining oqibatlari, uning bulling qurboniga va atrofdagilarga ta’siri haqida chuqurroq o‘ylashga yordam beradi.

Birinchi topshiriqda o‘quvchilar hikoyani voqeaning turli ishtirokchilari nomidan bayon qilib ko‘radilar. Bu topshiriq o‘quvchilarni bir voqeani turli tomondan tahlil qilish bilan birga empatiyaga (o‘zgalarni tushunishga) o‘rgatadi.

Ikkinchi topshiriqda o‘quvchilar bullingning ayanchli oqibatlari to‘g‘risida ta’sirchan nutq tayyorlashlari kerak. O‘quvchilar nutqlarni eshitgach, yakunda o‘zingizning nutqingizni havola qilishingiz mumkin.

Zo‘ravonlikning har qanday ko‘rinishi jinoyatdir. Bolalar zulmatdan qo‘rqadigan qizni qorong‘i joyga qamab qo‘yishdi. Quyoshsiz o‘lib borayotgan qizni quyoshdan bebahra qoldirishdi. Men buni inson hayotiga tajovuz deb atagan bo‘lar edim. Agar Margo ular kabi zulmat joylarda o‘ynab yurganida ham, agar Margo zaif bo‘lmaganida ham, men bolalarning bu harakatini aslo oqlamayman. Bu shunchaki sho‘xlik emasdi, ongli tarzda ojiz qizchani tahqirlash edi. Ayniqsa, Margoga qilingan munosabatning ko‘pchilik tomonidan amalga oshirilganini kechirib bo‘lmaydi. Shuncha bolaning birontasida Margoning yolvorishlaridan so‘ng ham shafqat hissi uyg‘onmadi.

Bolalar bilan birgalikda xulosa qiling: biz har qanday bezorilik, zo‘ravonlik va jinoyatlarga qarshimiz!

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: SIFATLASH

Sifatlash haqida ma’lumot bering, misollar keltiring. O‘quvchilarga jadvalni to‘ldirish uchun vaqt bering. Vazifani tekshiring va rag‘batlantiring.

LOYIHA

Darslikda berilgan loyiha ustida ishlang. Bunda o‘quvchilarni guruhlarda ishlab, vatman qog‘ozida piramidani to‘ldirishlari va sinfdoshlariga taqdim etishlari tavsiya qilinadi. O‘quvchilaringizning ishlarini xulosalang va eng yaxshi (original) ish mualliflarini e’tirof eting.

Dars yakunida o‘quvchilarga quyidagi savollar ustida mushohada yuritib, esse yozish vazifasini topshirish mumkin:

Siz atrofdagilaringizga shafqatsizlik (qo‘pol muomala, ko‘ngilni og‘ritadigan so‘zlar aytish, xafa bo‘lishga sabab bo‘ladigan harakatlarni qilish, jismoniy jarohat yetkazish kabi) bilan munosabatda bo‘lganmisiz? Nima uchun bu sodir bo‘lgan deb o‘ylaysiz? Sabablarini chuqurroq tahlil qilishga harakat qiling. Siz nima uchun o‘zingizni aybdor yoki aybsiz his qilgansiz? Bu hodisadan keyin sizda ruhiy iztirob bo‘lganmi? Nima uchun deb o‘ylaysiz? Sizning noto‘g‘ri munosabatingizga uchragan insonga bu hol qanday ta’sir qilgan? Bu munosabatning natijasi nimalarga olib kelgan deb o‘ylaysiz?

JYUL VERN.
“O‘N BESH YOSHLI KAPITAN”

Bu mavzuda biz:
– sarguzasht asar haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz;
– badiiy asarda portret tushunchasini bilib olamiz;
– asarning davomini tasavvur qilishni mashq qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**5 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. Sarguzasht asar haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash: “Dik Send” bobi. Portret	1 soat
Asar matni bilan ishlash: “Kapitan Send” bobi	1 soat
Asar matni bilan ishlash: “Nima qilish kerak?” bobi	1 soat
Jyul Vern: “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan parchalar: “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat

KIRISH

1. Kichik viktorina o‘tkazing: Jyul Vernning qalamiga mansub asarlar bilan bog‘liq tasvirlarni (kitoblar muqovalari, asarlarga ishlangan illyustratsiyalar, asarlar asosida ishlangan filmlar yoki multfilmlardan lavhalar) o‘quvchilarga namoyish qiling va asarning nima haqida bo‘lishi mumkinligini so‘rang. (Asarlar muallifini oshkor qilmang.)

– “Dunyo bo‘ylab sakson kun” – butun Yer sharini sakson kunda aylanib chiqishga garov boylagan janob va uning yordamchisining g‘aroyib sarguzashtlari;

– “Kapitan Grant bolalari” – Janubiy yarimsharda kemasi halokatga uchragan Kapitan Grantning farzandlari “Dunkan” kemasida otalarini qidirib yo‘lga chiqishadi;

– “Yerdan Oygacha” – bir guruh olimlar Oygacha uchib borishi mumkin bo‘lgan snaryad yasashadi va uch kishini oyga jo‘natishadi;

– “Sirli orol” – Amerikadagi fuqarolik urushidan havo sharida qochgan kishilar kimsasiz orolga tushib qolishadi.

Viktorinada Jyul Vern qalamiga mansub boshqa asarlardan ham foydalanishingiz mumkin.

2. O‘quvchilardan mazkur asarlarning muallifini bilishlarini so‘rang. Bu asarlar muallifi Jyul Vern qalamiga mansub “O‘n besh yoshli kapitan” romanidan olingan parchalarni birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

3. Jyul Vern haqidagi ma’lumotlarni mustaqil o‘qib chiqish uchun o‘quvchilarga vaqt bering. Quyidagi jadval orqali o‘quvchilarning yozuvchi haqidagi tasavvurlarini mustahkamlang.

Jyul Vern haqidagi ma’lumot	Jyul Vernga xos xususiyat	Natija
Sambin xonim o‘quvchilariga dengiz kapitani bo‘lgan turmush o‘rtog‘i haqida ko‘p gapirib berardi. Ustozining hikoyalari kichik Jyulda sayohat va sarguzashtlarga qiziqish uyg‘otdi.	Ta’sirchanlik, boy tasavvur	Asar yozish uchun turtki
... U hatto o‘n bir yoshida otasiga bildirmay kemaga yordamchi bo‘lib ishga kirmoqchi bo‘ldi.	Mustaqillik, o‘ziga ishonch, qo‘rqmaslik, o‘z hayoti uchun qaror qabul qila olish	Sayohatlar qilishiga, sarguzashtlarga boy ko‘plab asarlar yozishiga, jasur qahramonlar yaratishiga olib keldi
Keng qamrovli bilimga ega Jyul Vern haqida o‘sha davrda “bir odam bunchalik ko‘p bilimga ega bo‘lishi mumkin emas, uning asarlarini katta jamoa yozsa kerak”, degan fikrlar ham bo‘lgan edi.	O‘tkir zehn, boy tasavvur, keng qamrovli bilim, g‘ayrat, tirishqoqlik, mehnatkashlik	Mantiqli, ilmiy asoslarga tayangan asarlarining dunyo bo‘ylab sevib o‘qilishiga, yangi ixtirolar qilinishiga turtki

3. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknida berilgan ma’lumot bilan tanishtiring va savolni muhokama qiling. Asarda qanday voqealar tasvirlanishi mumkinligini taxmin qilishni so‘rang. O‘quvchilar fikrlarini jamlang, lekin tasdiqlamang yoki inkor qilmang.

4. O‘quvchilarga sarguzasht asar haqida ma’lumot bering. “Bir kunlik yoz”, “Birinchi sinov” hikoyalari va “O‘n besh yoshli kapitan” romani voqealari ro‘y bergan makon va zamonni solishtirishni so‘rang. Qay biri haqiqatan ro‘y berishi mumkinligini aniqlashtiring. Bu orqali siz o‘quvchilaringizda fantastika va sarguzashtni farqlay olish, sarguzasht asarlar tabiatini aniqlay olish ko‘nikmalarini rivojlantirib olishingiz kerak.

IKKINCHI DARS

“Asar matni bilan ishlash” ruknida o‘quvchilar bilan birgalikda matnni o‘qib chiqing. Mutolaa jarayonida savollar bilan ishlang. Asar matni bilan ishlash jarayonida sarguzasht asarga xos xususiyatlarni asardan topib, daftarlariga qayd qilib borishni o‘quvchilarga topshiring.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Negoro qanday odam bo‘lishi mumkin? Nega kapitan Gul uni yoqtirmay qoldi deb o‘ylaysiz?	Portugaliyada tug‘ilgan bo‘lsa-da, lekin u ham inglizchani yaxshi bilar edi.

– U oshpaz bo‘lmasa kerak, biror narsani rejalashtirib qo‘ygan bo‘lishi mumkin. *– Uning kim ekanligini kapitan bilmaydi, jamoa inoq, uning esa doim qovog‘i soliq. Bundan tashqari, ko‘zlarini javdiratib qaraydiganlar odatda biror narsani yashirayotgan yoki yolg‘on gapirayotgan bo‘lishi mumkin.*	Qovog‘i soliq va kamgap Portugaliyalikning tashqi qiyofasi va ayniqsa ko‘zlarini javdiratib qarashlari kapitanga unchalik yoqmas edi. Biror notanish kishini kemaga olishdan ilgari uning o‘tmish hayotini tekshirib bilish zarur.
“Odam bo‘lish” deganda nimani tushunasiz? “Odam bo‘lish” uchun nimalar qilish kerak? *– Kasb-u kor, odamlar orasida hurmat, vijdon, insof, mas’uliyat kabilarga ega bo‘lish.* *– Mehnat, harakat, ilm, tarbiya, insoniy fazilatlarga ega bo‘lish.*	Dik aksar tengqurlariga o‘xshab hadeb gapiraverishni va har xil qiliqlar qilishni yoqtirmasdi. Boshqa bolalar hali o‘z kelajagi haqida o‘ylashga qodir ham bo‘lmagan bir yoshda Dik o‘z qismati haqida o‘ylar va kelgusida albatta “odam bo‘laman” deb ahd qilgan edi.
Dik sizda qanday taassurot qoldirdi? Ueldonlar oilasi nima uchun uni yaxshi ko‘rardi? Qaysi xislatlari bilan Dik kapitan Gulning nazariga tushdi? *– U yosh bo‘lishiga qaramasdan, mustaqil qaror qabul qiladi, vaziyatlarga o‘z fikrini bildiradi, o‘zi uchun foydali narsalarni farqlay oladi, unga qilingan yaxshilikning qadriga yeta oladi.* *– Dik fazilatlari qatorida o‘z homiylariga bo‘lgan hurmati e’tiborga molik. Mana shuning uchun ular ham Dikni yaxshi ko‘rar edi.* *– Tirishqoq, g‘ayratli, uddaburon, qat’iyatli va katta odamlar kabi xarakterli bo‘lgani uchun Gulning nazariga tushdi.*	U o‘n besh yoshidayoq biron ishni niyat qilishga va qilgan niyatini oxirigacha yetkazishga qodir bir kimsa edi. Boshqa bolalar hali o‘z kelajagi haqida o‘ylashga qodir ham bo‘lmagan bir yoshda Dik o‘z qismati haqida o‘ylar va kelgusida albatta “odam bo‘laman” deb ahd qilgan edi. U to‘rt yoshidayoq o‘qishni o‘rgandi. Sakkiz yoshida janubiy mamlakatlarga qatnaydigan kemaga yunga bo‘lib ishga kirdi. Dik aksar tengqurlariga o‘xshab hadeb gapiraverishni va har xil qiliqlar qilishni yoqtirmasdi. Dik singari chaqqon, serharakat va baquvvat odamlarni ikkita o‘ng qo‘l va ikkita chap oyoq bilan tug‘ilgan deyish mumkin; bunday kishilar nimaiki ish qilmasinlar – uddasidan chiqadilar, kim bilan birga yurmasinlar – baravar qadam tashlab keta oladilar. … Maktabda oliy matematika bilan navigatsiya nazariyasini o‘qitma-ganliklariga juda-juda achinar edi.

Portret haqida qisqacha ma’lumot bering.

Darslikdagi topshiriqlar ustida ishlang.

	Dik	Negoro
Tashqi ko‘rinishi	– O‘n besh yosh. …O‘rta bo‘yli, baquvvat, qora soch bir yigit bo‘lib, ko‘m-ko‘k ko‘zlari uning hadsiz irodali bir kimsa ekanidan darak berardi. – Uning oqilona chehrasida g‘ayrat nafasi ufurib turar edi. Uning qiyofasi dovyurak odamninggina emas, hatto qahramon bir odamning qiyofasiga o‘xshar edi.	– Qirq yoshlarga borgan. – Qotma, juda chaqqon, qora soch va qoracha yuzli bu kishining bo‘yi baland bo‘lmasa-da, juda baquvvat odamday ko‘rinar edi.
Xarakteri	– Biron ishni niyat qilishga va qilgan niyatini oxirigacha yetkazishga qodir. – Hadeb gapiraverishni va har xil qiliqlar qilishni yoqtirmasdi.	– Qovog‘i soliq va kamgap. – O‘zining o‘tmishi va oilasi to‘g‘risida hech qachon og‘iz ochmasdi. – O‘zini boshqalardan chetga olib yursa ham, o‘z ishini yaxshi bilar edi.
Odatlari	– U yoshligidanoq dengizga ishqiboz edi. – Dik o‘zining hamma bo‘sh vaqtlarini doim kichkina Jek bilan birga o‘tkazardi.	– Ko‘zlarini javdiratib qarashlari. – U kun bo‘yi ko‘pgina joyini plita egallab yotgan torgina kambuzda band edi. Qorong‘i tushishi bilan u plitadagi o‘tni o‘chirib, kemaning burnidagi o‘z hujrasiga kirib yotar edi. u yerda birpasda dong qotib uxlab qolar edi.
Muallifning munosabati	– Dik bu maqsadiga erishdi ham: uning tengqurlari hali bola bo‘lgan paytda, u katta kishi bo‘lib qolgan edi. – Dik singari chaqqon, serharakat va baquvvat odamlarni ikkita o‘ng qo‘l va ikkita chap oyoq bilan tug‘ilgan deyish mumkin; bunday kishilar nimaiki ish qilmasinlar – uddasidan chiqadilar, kim bilan birga yurmasinlar – baravar qadam tashlab keta oladilar. ***ijobiy***	– Uning ma’lumoti qanday ekan? Ba’zi-ba’zida og‘zidan chiqib ketadigan so‘zlariga qaraganda, ma’lumoti ham bo‘lsa kerak. ***salbiy***

UCHINCHI DARS

Asar matni bilan ishlashda davom eting.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Negoro nima sababdan o‘zini bunday tutyapti deb o‘ylaysiz? Uning maqsadi nima bo‘lishi mumkin? *– U kapitanlikni qo‘liga olmoqchi bo‘lgani halok bo‘lgan odamlarni so‘raganidan ma’lum. U bu ishi bilan Dikning yosh bola ekanligini, kapitanlikka o‘zi ko‘proq loyiqligini pisanda qildi.* *– Dik gapirganda orqaga tislangani uning o‘zidan xavfsirayotganini, biror aybi borligini ko‘rsatadi.*	Men kapitan Gul bilan yoki hech bo‘lmasa botsman Govik bilan gaplashmoqchi edim. – Endi kemaga kim kapitan bo‘ladi? – deb hayosizlarcha so‘radi Negoro. – Siz-a?! – deb yelkasini qisdi Negoro. ... Negoro ta’zim qildi va zaharxanda aralash bir nima deb ming‘illadi-da, kambuziga qarab jo‘nadi. Uning nimalar deganini hech kim tushunolmadi.
O‘ylab ko‘ring-chi, astronomiya – osmon jismlari haqidagi fan qanday qilib dengizchilarga yordam beradi? *– Shimoliy qutb yulduzi orqali kenglikni aniqlash mumkin.* *– Orion yulduzlar burji orqali janub tomonni aniqlasa bo‘ladi.* *– Yulduzlar qaysi tomonga qarab harakatlanayotganiga e’tibor berish kerak, yulduzlar ham Quyosh kabi sharqdan g‘arbga qarab harakatlanadi.*	Quyosh uning yaxshi maslahatchisi edi. Oy bilan yulduzlar unga: “Kemangiz falon joyda turibdi!” deb aytardilar. Eng aniq va sira xato qilmaydigan soat bo‘lgan osmon va undagi soat millari bo‘lmish yulduzlar har kuni qancha yo‘l yurganini aytib berar edi.
Sizningcha, Dik kemani boshqarish mas’uliyatini o‘z bo‘yniga olib to‘g‘ri ish qildimi? *– Ha, undan boshqa hech kim dengizchilikni bilmas edi. Negoroning ham bu ishni bilmasligi avvalroq aytib o‘tilgan. Bundan tashqari, unda dadillik va ishonch bor edi. Bu – katta narsa.* *– Yo‘q, u hali yosh va tajribasiz. Tajribaliroq dengizchilardan biri kapitanlikni zimmasiga olishi kerak edi.*	Bilaman. Men ularni dengiz ishlariga o‘rgataman-da, keyin hammamiz birga kemani boshqaramiz. Havo yaxshi bo‘lib turganda bu qiyin ish emas. Basharti, havo aynib qolsa... nima qipti, hech gap emas, missis Ueldon, yomon havoda ham ishning uddasidan chiqamiz, sizni ham, kichkina Jekni ham, boshqalarni ham qutqaramiz! Bu ish qo‘limdan keladi!

O‘quvchilarga o‘zi va Dikni solishtirib kelish va xulosalar chiqarish topshirig‘ini bering.

	Men	Dik	Men Dikdan qanday fazilatni olishim mumkin?	Dik mendan qanday fazilatni olishi mumkin edi?
Xulosa				

TO‘RTINCHI DARS

Uyga vazifani tekshiring va o‘ziga xos fazilatlarni yozgan o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlang.

“Asar matni bilan ishlash” ruknini davom ettiring.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Sizningcha, Dik va uning hamrohlari o‘zlari o‘ylagan manzilga kelishdimi? *– Bu boshqa joy bo‘lishi mumkin.* *– Dik Peru sohili deb taxmin qilmoqda, baobab daraxti esa Afrikada tarqalganini “Madagaskar” multfilmida ko‘rganmiz.* *– Qushlarning o‘zini tutishiga qaraganda bu joylarga ilgari odam kelmagan. Qirg‘oqda ham odam yashashining izi ko‘rinmaydi. Dik esa kemani aholi yashaydigan joyga boshlamoqchi edi.*	Missis Ueldon bilan Dik Send qushlarning odamlardan unchalik qo‘rqmaganini sezib qoldilar. Ular odamlarning yaqin kelishidan sira hayiqmas edilar. Nahotki ular odam zotini sira ko‘rmagan bo‘lsalar va odamdan qochish degan narsani bilmasalar-a? Nahot hech qanday miltiq ovozi bu qirg‘oqning tinchligini sira buzmagan bo‘lsa? ... Dengiz tomondan uchib kelgan baliqchi qushlar “Piligrim” parchalari ustida aylanib uchardilar. Qushlar qirg‘oqning bu joyidagi birdan bir jon egalari bo‘lsalar kerak. ... Ammo bu yerda hech qanday aholi yo‘q edi. Bironta ham odamzod ko‘rinmasdi. Na qo‘rg‘on, na uylar va na bironta chayla ko‘rinsaydi. Na shimol tomondagi soy orqasida, na janub tomonda va na qit’aning ichkarisiga kirib ketgan qalin o‘rmon orasida, xullas, hech qayerda tutun chiqqan joy ko‘rinmas edi. Ilgari bu qirg‘oqqa odamzod kelganini ko‘rsatadigan biror nishona ham yo‘q edi.
Dingo va Negoroning o‘zini bunday tutishi sabablari nimada bo‘lishi mumkin? *– Negoro kompasni buzib qo‘ydi, u o‘zi biladigan joyga keldi, faqat o‘zi xohlagan joyning qayeriga kelganini aniqlash uchun u sohilni ko‘zdan kechirayotgan bo‘lishi mumkin. Dingo uchun ham bu yerlar tanish bo‘lsa kerak.*	Qiziq-a! Biron iz qidirayotganga o‘xshaydi-ya. U ham Dingo singari qirg‘oqni kezib yuribdi. Negoro ilgarilari bu yerlarni bilib, keyin esidan chiqarib yuborgan odam singari qumloqni, soyni va qirg‘oqdagi qoyalarni sinchiklab tekshirib yurar edi.

Nima deb o‘ylaysiz, Dikning taklifi bu vaziyatda to‘g‘ri edimi? Siz uning o‘rnida bo‘lsangiz, nima qilar edingiz? *– Qaysi tomonga yurish kerakligini aniqlab, keyin yo‘lga tushish oqilona fikr. Ularning orasida qari enaga Nan, Ueldon xonim va kichkina Jekning qiynalib qolmasligi uchun bu ayni muddao edi.*	Menimcha, qayerdaligimizni aniq bilmasdan turib, g‘orni tashlab ketmasligimiz kerak. Ertaga, dam olgandan keyin ikkitamiz atrofni tekshirib, aniqlab kelgani kuzatuvga jo‘nasin. Ular bu yerdan uncha uzoqqa ketib qolmasliklari kerak va yerlik aholini qidirib topib, biz uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olgandan keyin qaytib kelishlari lozim.
Negoro o‘zi uchun qanday xulosalar chiqarayotgan bo‘lishi mumkin? *– U kompasni bejiz buzmadi. Uning biror yovuz rejasi bor, shuning uchun u ularning kelgusi rejalarini bilib olishga urinmoqda, shunga qarab harakat qilishni reja qilgan.*	Negoro hamma bilan baravar nonushta qilsada, lekin kelgusi ishlar to‘g‘risida qilinayotgan suhbatga sira aralashmasdan o‘tirardi. Ammo u hamrohlarining gapini diqqat bilan tinglab o‘tirardi, aftidan, bundan o‘ziga zarur bo‘lgan xulosani chiqazardi.
Sizningcha, Dik Negorodan gumonsirab to‘g‘ri ish qilyaptimi? *– Jek dalillarni ko‘rib chiqdi va keyin Negorodan gumon qildi. Dalillar unga qarshi bo‘lgani uchun undan gumonsirash to‘g‘ri qaror edi.* *– Noto‘g‘ri. Aynan Negoro pulni olganligini tasdiqlaydigan hech qanday dalil yo‘q.*	Bu kishi to‘g‘risida Dik nima bilardi? Shunigina bilardiki, Negoro odamlarga aralashmay yolg‘iz yurishni yaxshi ko‘rardi va boshqalarining boshiga tushgan kulfatdan miyig‘ida kulib qo‘yardi xolos. Ammo buning uchun uni jinoyatchi deb bo‘larmidi? Dik nima deyishini ham bilmas edi. Xo‘p, bo‘lmasa, o‘g‘irlikda kimdan gumonsirash mumkin edi? Negrlardan biridanmi? Ammo ular juda halol odamlar edi va shu bilan birga qirg‘oqqa chiqqandan keyin missis Ueldon bilan Jekning yonidan hech qayoqqa jilmagan edilar. Negoro esa qirg‘oqda anchagina o‘ralishib yurdi. Yo‘q, Negorodan bo‘lak hech kim o‘g‘irlagan emas, o‘g‘ri xuddi o‘shaning o‘zi!

Romandagi sarguzasht asarlarga xos xususiyatlarni o‘quvchilar bilan muhokama qiling.

– Kutilmagan voqealar: kapitanning halok bo‘lishi natijasida o‘n besh yoshli Dikning kema kapitaniga aylanishi, kemaning noma’lum joyga kelib qolishi;

– voqealarning kundalik hayotdagi voqealardan farq qilishi: voqealar dengizda va noma’lum o‘lkalarda sodir bo‘lmoqda, qahramonlar turli xavf-xatarlarga duch kelishmoqda;

– voqealarning tez rivojlanishi: har bir bobda yangi voqealar sodir bo‘ladi;

– bosh qahramon xarakteriga xos xususiyatlarning takomillashib borishi: kapitanlikni qo‘lga olgandan keyin Dikdagi o‘zgarishlar.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Asarga oid darslikdagi savol va topshiriqlar quyidagi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan:

Savollar	Kompetensiyalar
Asar boshidagi Dik va Negoro haqidagi taassurotlaringiz keyinchalik qay darajada mustahkamlandi yoki o‘zgardi? Nima uchun?	obrazlarga baho berish
Asarni o‘qishdan oldin muallif bu asarni o‘g‘li Mishelga sovg‘a sifatida yozganini bilib olgan edik. Sizningcha, Jyul Vern o‘g‘lining qanday xislatlarga ega bo‘lishini istagan? Asar Mishelning bu xislatlarga ega bo‘lishida qay jihatdan yordam berishi mumkin?	asarning asosiy g‘oyasini tushunish, obrazlarga baho berish, asardan xulosalar chiqarish
Dengizchilar uchun qanday bilimlar muhim? Dengizchi bo‘lish uchun qanday xislatlarga ega bo‘lish kerak? Sizningcha, Dikdan yaxshi dengizchi chiqadimi?	asar matnidagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) tushunish
Muallif asarni yozishda qaysi sohadagi bilimlariga suyangan? Sizningcha, bu bilimlar asarning qiziqarli va ishonarli chiqishiga qay darajada yordam bergan?	asar qurilishiga baho berish

Ayrim savollarga javob berishda matndagi quyidagi o‘rinlarga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi:

Savollar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Asar boshidagi Dik va Negoro haqidagi taassurotlaringiz keyinchalik qay darajada mustahkamlandi yoki o‘zgardi? Nima uchun? – *Odatda sir bermaslikka uringan odamlar odamlarga qo‘shilmaydi, Negoro xato qilmaslikka, ko‘zga tashlanmaslikka harakat qildi. Uning sirli maqsadi borligi shu harakatlaridan ayon edi, keyinroq kema yo‘nalishini burib yuborganida bu aniq bo‘ldi.* *Dik qat’iyatli edi va qaror qabul qila olardi, keyinchalik u boshqalar uchun ham qaror qabul qila oldi.*	Qovog‘i soliq va kamgap bo‘lgan bu odam o‘zini boshqalardan chetga olib yursa ham… Gul yangi oshpazning o‘tmishi haqida biror ma’lumot olishga ulgurolmaganiga juda achinar edi. Portugaliyalikning tashqi qiyofasi va ayniqsa ko‘zlarini javdiratib qarashlari kapitanga unchalik yoqmas edi. U o‘n besh yoshidayoq biron ishni niyat qilishga va qilgan niyatini oxirigacha yetkazishga qodir bir kimsa edi. – Endi kemaga kim kapitan bo‘ladi? – deb hayosizlarcha so‘radi Negoro. – Men, – dedi yosh matros dadillik bilan. Boshqa kemaga o‘tirishsa, missis Ueldon bilan uning bolasi bexavotir bo‘lishar, shunda bu ikki kishining hayoti uchun Dik tashvish tortmasdi. Har holda Dik o‘z kuchiga ortiqcha baho bermas edi.

Asarni o‘qishdan oldin muallif bu asarni o‘g‘li Mishelga sovg‘a sifatida yozganini bilib olgan edik. Sizningcha, Jyul Vern o‘g‘lining qanday xislatlarga ega bo‘lishini istagan? Asar Mishelning bu xislatlarga ega bo‘lishida qay jihatdan yordam berishi mumkin?

– Qat’iyatli, bosiq, o‘ziga ishonchi bor, maqsadga ega, qiyinchilikdan qo‘rqmaydigan, mehnatdan qochmaydigan, mas’uliyatli, g‘amxo‘r, ziyrak, mushkul vaziyatda o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan inson bo‘lishini istagan deyish mumkin, shuningdek, Mishel undan oila, kasb borasida boshqaruvchanlikni o‘rganishi mumkin. Dik vaziyatlarni tahlil qildi va oqibatlarini ko‘ra olgan holda qaror chiqardi, odamlarni ishontira oldi, xotirjamlikni saqladi, vazifalarni taqsimlay oldi, havolanmadi.

Asardan dengizchilar hayoti haqida nimalarni bilib oldingiz? Dengizchilar uchun qanday bilimlar muhim? Dengizchi bo‘lish uchun qanday xislatlarga ega bo‘lish kerak? Sizningcha, Dikdan yaxshi dengizchi chiqadimi?

– Ular hayotini xavfga qo‘yadi.
– Kema va kemani boshqarishga oid bilimlarga ega bo‘lish, navigatsiyani aniqlash va kemani boshqarishni bilish.
– Turli vaziyatlarga tayyor turish va chidamli bo‘lish kerak. Ha, u 15 yoshidayoq 75 kun kemani boshqardi va ekipajni sog‘-omon sohilga olib chiqdi.

Bu o‘smir zimmasiga olgan vazifasi qanchalik og‘ir va mas’uliyatli bo‘lishiga qaramasdan, undan bo‘yin tovlashga o‘zini haqli emas deb bilar edi.
…Biron ishni niyat qilishga va qilgan niyatini oxirigacha yetkazishga qodir.
Avvalo u kemani yaqin yerdagi biror portga olib borish chorasini ko‘radi.
Xavf-xatarning kuchliligidan ko‘z yummaslik, o‘zini aldamaslik kerak edi.
Har holda Dik o‘z kuchiga ortiqcha baho bermas edi.
…Havo aynib qolsa... nima qipti, hech gap emas, missis Ueldon, yomon havoda ham ishning uddasidan chiqamiz, sizni ham, kichkina Jekni ham, boshqalarni ham qutqaramiz! Bu ish qo‘limdan keladi!
Men tavakkaliga ish qilmayman…
U yerning kema turgan joydan necha yuz millab uzoqda ekanini bilardi. Ammo, shunga qaramasdan, uning shashti sira bo‘shashmadi.
Dastavval, missis Ueldon, biz qayerdaligimizni bilib olishimiz kerak. Amerikaning Tinch okean qirg‘og‘ida bunday qattiq toshqinlar bo‘lmasligini bilar edi.

Kema jamoasidagi beshta mohir va tajribali matros juda inoq va hamjihat yashar edilar.
Dengizchining og‘ir ishi uni kelgusidagi turmush qiyinchiliklariga bardoshli bo‘lishga o‘rgatdi.
Gul yo‘lda Kozerog tropigiga tushib qolib, kemaning uzoq vaqt to‘xtab qolishi mumkinligidan xavotirlanar edi.
…sekstant…, xronometr…, Quyosh…, Oy bilan yulduzlar unga: “Kemangiz falon joyda turibdi!” deb aytardilar.
– Do‘stlar, – deb so‘z boshladi u, – “Piligrim”da sizdan bo‘lak matros yo‘q. Siz yordam bermasangiz, bir o‘zim hech nima qilolmayman. Albatta, sizlar dengizchi emassizlar, ammo qo‘llaringiz kuchli. Siz kuchingizni ayamasangiz, “Piligrim”ni bemalol boshqara olamiz. Hayot-mamotimiz ana shunga bog‘liq. Qani, endi ishni boshlaymiz, do‘stlar! Hozir grotni ko‘tarish kerak. Nima qilishni o‘zim aytib turaman. Aytganlarimni esa aniq qilib bajarishlaring zarur.

Muallif asarni yozishda qaysi sohadagi bilimlariga suyangan? Sizningcha, bu bilimlar asarning qiziqarli va ishonarli chiqishiga qay darajada yordam bergan? – *Biologiya, gidrogeografiya, geografiya, astronomiya, kemasozlik, dengizchilik, okeanografiya, gidrometerologiya.*	Bu yerda bir necha ming yil umr ko‘radigan baland baobab daraxtlari, dengiz qarag‘aylari, hind xurmosi, murch daraxti bor edi. Qirg‘oq ustida baqiroq qushlar va aksari qoramtir ko‘k tusli hamda bo‘z kallali qaldirg‘ochlar galasi uchib yurardi. …sekstant…, xronometr…, Quyosh…, Oy bilan yulduzlar unga: “Kemangiz falon joyda turibdi!” deb aytardilar. Amerikaning Tinch okean qirg‘og‘ida bunday qattiq toshqinlar bo‘lmasligini bilar edi.

Quyidagi savollar bilan tahlilni davom ettiring va xulosalar chiqaring.

Nima uchun muallif Negoroni yevropalik, Dikka yordam bergan jamoani esa qora tanli qilib tasvirladi deb o‘ylaysiz?

Kit ovlash nima uchun fojiali yakun topdi deb o‘ylaysiz?

Dik o‘ziga qariya Tomni yordamchi qilib olishi Dikka xos qanday jihat haqida darak beradi? Dikning tashlab ketilganligi uning tarbiyasi, yashashi, ta’lim olishiga to‘sqinlik qildimi? Nima uchun?

Dik va kichik Jek, Dik va ekipaj a’zolari munosabatlarini solishtirish orqali Dik haqida yana qanday ma’lumotlarga ega bo‘la olamiz?

Dikni yetim sifatida tasvirlash, kapitansiz kemada qoldirish orqali yozuvchi bolalarga nima demoqchi bo‘ladi?

Jyul Vern butun dunyo ahlini hayratga solib kelayotgan zakovat egalaridan biridir. Uning asarlarida ilmiylikka qorilgan sarguzashtlar yuqori bo‘lgani uchun uning kitobxonga yetkazmoqchi bo‘lgan falsafasini aniqlab olish mushkulroqdek. Ammo ozgina e’tibor bilan qaralsa, Jyul Vern asarlarni yozishdan asosiy maqsadi sarguzashtni tasvirlash emas, sarguzasht ortiga yashirin muammolarni insoniyatga ko‘rsatish va hal etish ekanligini anglash mumkin. “O‘n besh yoshli kapitan” asari ham bundan mustasno emas. Bolaning tashlab ketilganligi Dik qobiliyatlari va insoniy fazilatlari fonida yanada ta’sirli namoyon bo‘ladi. Jamiyatda insonga tashqi ko‘rinishga qarab emas, ichki olamiga qarab baho berish lozimligi Negoro va Tom jamoasi, ayniqsa, Gerkules orqali namoyon bo‘ladi. Yozuvchi pul uchun har qanday yovuzlikdan toymaydigan Negoro qilmishlarining naqadar jirkanch ekanligini bir paytda ham Tom jamoasi, ham Dingoga solishtirish orqali yoritib boradi. Sodiqlik va berilgan yordamga javob qaytara olish fazilati Dik, Gerkules va hatto itda ham namoyon bo‘ladi, biroq moddiyatni aziz bilguvchi Negoro kabi kimsalarda bu hech qachon ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Shuning uchun Jyul Vern kitobxonni Negoro kabi kimsalardan ogoh bo‘lishga chaqiradi. Bu ogohlikni Dik orqali o‘rgatishga harakat qiladi. Dik xarakteri, albatta, asarning asosiy mavzusi. Jyul Vern inson har doim ham g‘amxo‘rlik baxtiga muyassar bo‘lmasligi mumkinligi va u “suyanchiqsiz” ham yashashda davom etishi kerakligini uqtiradi. Dik sakkiz yoshidayoq mustaqil qaror qabul qildi va hayot yo‘lini tanladi, mashaqqatlarda dovdirab qolmadi va natijada ta’limni, ishni, kapitanlikni, oilani qo‘lga kiritdi. Eng asosiysi – jonini asrab

qoldi va munosib yashashda davom etdi. Afsuski, shunday insonlar bor: butun umr mustaqil qaror qabul qila olmaydi, o‘ziga ham, jamiyatga ham foyda keltirmaydi, mushkul vaziyatlar tug‘ilsa, jonini-yu molini asrash uchun chetga qochadi yoki Negoroga aylanadi. Ulardan farqli o‘laroq Dik boshpanasiz bo‘lsa ham, tilanchilik yoki o‘g‘rilikni emas, mehnatni tanladi. Dik chidamlilik, qat’iylik, ziyraklik, zakovat, bosiqlik, vaziyatni baholash va muammoga chora ko‘rish kabi sifatlarni o‘zi tanlagan hayot orqali o‘zida tarbiyaladi. U xarakterini, fazilatlarini, bilimini, hozirgi hayoti va kelajagini nazorat qila oldi. Vaholanki, u oddiy yetim bola edi. Jyul Vern asari orqali insonlarga yetkazmoqchi bo‘lgan asosiy g‘oya mana shu “nazorat”da mujassam bo‘ladi. Yozuvchi fikricha, har kim qanday sharoitda yashamasin, o‘z taqdirini o‘zi hal qila oladi, yarata oladi. Omadsiz, qo‘rqoq, baxtsiz yoki jinoyatchi bo‘lish ham, ilmli, baquvvat, sabrli, mulohazali, omadli inson bo‘lish ham insonning o‘z qo‘lida. Faqat u hatto xayollari-yu tiyiqsiz istaklarini ham boshqarishga harakat qilishi kerak. Agar u ezgu qahramonlar kabi sifatlarga va ular erishgan baxtga erishishmoqchi bo‘lsa, o‘z ruhiyati, xulq-atvori, aqli, farosati, jismini tarbiya qila olishi kerak!

O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va “Nima qilish kerak?” bobidagi ishoralarni topib, ular asosida voqealar rivojini taxmin qilish topshirig‘ini bering. Guruhlarning fikrlarini tinglash jarayonida eng qiziqarli va kutilmagan bashoratlar mualliflarini rag‘batlantiring.

Dars yakunida quyidagi vazifalardan birini uy ishi qilib berish mumkin:

O‘qigan asarlari, tomosha qilgan filmlari, multfilmlarining yovuz qahramonlari nomlarini yozsin va ulaning yovuzligi oqibatidagi taqdirini solishtirsin hamda bugun qanday yovuz niyatli kishilar bo‘lishi mumkinligi haqida oilasi bilan suhbatlashsin.

O‘quvchilar mustaqil tarzda yaxshi qahramonlarni yozsin, bugungi kun yovuzlaridan himoyalanish va jabr ko‘rmaslik uchun o‘zida qanday xususiyatlarga rivojlantirishi kerakligini aniqlasin.

ARTUR KONAN DOYL.
“MALLALAR UYUSHMASI”

Bu mavzuda biz:
– detektiv asarlarga xos jihatlarni o‘rganamiz;
– hikoyadagi voqealar rivojiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. Detektiv haqida tushuncha. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash (1-qism)	1 soat
Asar matni bilan ishlash (2-qism) “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat 1 soat

KIRISH.
ASAR MATNI BILAN ISHLASH

1. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling va “Zakovat” o‘yini tashkil qiling. Ularga quyidagi boshqotirmalarni o‘qing. Har bir boshqotirmadan keyin uning javobini muhokama qilish uchun bir daqiqa vaqt bering. Belgilangan vaqt tugagach, 10 soniya vaqt davomida har bir guruh vakili qog‘ozga guruh nomini, boshqotirma javobini yozadi va sizga uzatadi. 10 soniyadan kech qolgan guruh javoblari qabul qilinmaydi. Barcha guruhlarning javobini qabul qilib olgach, to‘g‘ri javobni e’lon qiling va uni topgan guruhga ball bering. Eng ko‘p ball yig‘gan guruh g‘olib deb e’lon qilinadi.

Boshqotirmalar:

Doktor Uotson hikoya qiladi: “Bir kuni do‘stim bilan Londondagi arzon tamaddixonalardan biriga choy ichgani kirdik. Xolms choyga shakar aralashtirar ekan, unda pashshani ko‘rib qoldi va ofitsiantni chaqirib, ko‘rsatdi. Ofitsiant uzr so‘rab, Xolmsning choy solingan finjonini olib ketdi. Ofitsiant uzoqlashgach, Xolms dedi: “Ko‘rasiz, azizim Uotson, ofitsiant xuddi shu choyni qaytarib olib kelib beradi”. Birozdan keyin ofitsiant Xolms oldiga bir finjon choy olib kelib qo‘ydi va yana bir bor uzr so‘rab, oshxonaga ketdi. Finjonda pashsha yo‘q edi. Xolms choydan ho‘plab, “Aytmadimmi, Uotson?” dedi”.

Xolms ofitsiant xuddi o‘sha finjon choyni qaytarib olib kelganini qanday bildi?

Javob: Xolms ofitsiant choyni olib ketishidan oldin unga shakar solgan edi. Ofitsiant ikkinchi marta olib kelgan choy shirin edi.

Doktor Uotson hikoya qiladi: “Bir kuni uyga qaytayotganimda yo‘ldan o‘tayotgan keb ustimga suv sachratib, hammayog‘imni shalabbo qildi. Xolms uyda meni bu ahvolda ko‘rib, bir savol berdi: “Nima quritayotganida ho‘l bo‘ladi?” Savolning javobini topib ko‘ring-chi?

Javob: sochiq.

Doktor Uotson hikoya qiladi: “Bir kuni missis Hadsonning (missis Hadson – Xolms va Uotson ijarada yashaydigan uyning bekasi) jiyani keldi. U xolasining muhim bir qog‘ozini Hadsonning sumkasidan olibdi. Biz uni bu qilmishi uchun koyisak, o‘zini oqlashga tushdi: “Men bu qog‘ozni tasodifan kitob orasidan topib oldim, xolam solib qo‘ygan ekan. 47- va 48-sahifalar orasiga”. Xolms uning yolg‘on gapirayotganini darhol payqadi. Qanday qilib?

Javob: kitob sahifalari o‘ng tarafdan boshlab raqamlanadi. 48-bet 47-betning orqa tarafida bo‘ladi, demak, ular orasiga hech narsa solib bo‘lmaydi.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknidagi ma’lumotlarni o‘quvchilar mustaqil o‘qib chiqishi uchun vaqt bering. Darslikdagi savollar bilan o‘qigan ma’lumotlarini mustahkamlang. Artur Konan Doylning qaysi janrda ijod qilganiga e’tibor qarating.

3. O‘quvchilarga Sherlok Xolms va uning doimiy hamrohi doktor Uotson haqidagi qiziqarli hikoyalardan biri – “Mallalar uyushmasi”ni birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling. Hikoya muallifi Artur Konan Doyl haqidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiring. Uning asl kasbiga, izquvarlik bilan shug‘ullanib, begunoh insonlarni asossiz jazodan qutqarib qolganiga, Sherlok Xolmsga bo‘lgan munosabatiga (yozuvchi Xolms haqidagi hikoyalarini o‘zi unchalik yoqtirmagan), lekin aynan shu qahramon ishtirokidagi asarlar uning nomini butun dunyoga mashhur qilganiga e’tibor qarating.

4. Detektiv janri haqida ma’lumot bering. Klassik detektivning muhim xususiyati – o‘quvchi asar boshida jinoyat haqida bilib oladi, bu jinoyatni kim sodir qilgani esa asar so‘ngida ochiladi. Darslikda berilgan savolni o‘quvchilar bilan muhokama qiling.

Detektiv asarlar o‘qiganmisiz? O‘ylab ko‘ring-chi, bunday asarlar o‘quvchi diqqatini oxirigacha ushlab turish uchun qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

Qiziqarli detektiv asarlarning o‘ziga xos xususiyatlari:

– jinoyat sirli, hech kim kutmagan tarzda sodir etiladi (masalan, “Chipor lenta” hikoyasida jinoyatchi merosga ega chiqish maqsadida o‘gay qizlarini sandiqda saqlangan qo‘lga o‘rgatilgan ilon bilan zaharlaydi) yoki jinoyat bir qarashda ahmoqona hazilday yoki tentakning qilmishiday ko‘rinishi mumkin (masalan, “Olti Napoleon” hikoyasida noma’lum shaxs turli joylardan Napoleon haykallarini o‘g‘irlab sindiradi, keyinchalik Xolms uning shu yo‘l bilan haykalga yashiringan o‘g‘irlangan qimmatbaho toshni qidirayotganini fosh qiladi);

– jinoyatni kim sodir etganligi asar oxirigacha ma’lum bo‘lmaydi va odatda kutilmagan shaxs jinoyatchi bo‘lib chiqadi;

– voqealar rivoji o‘quvchini jinoyat va jinoyatchi haqidagi farazlarini o‘zgartirib borishga majbur qiladi.

5. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi ma’lumotlar bilan o‘quvchilarni tanishtiring. Sherlok Xolms obrazining bu qadar mashhurligi sabablarini muhokama qiling.

Aqlli, oliyjanob, adolatni hamma narsadan ustun qo‘yadigan, kerak paytda kambag‘allarga tekinga ham yordam beradigan, biroz takabbur izquvar Sherlok Xolms obrazi ilk bor Konan Doylning 1887-yilda yaratilgan “Oqqa qizil bilan” qissasida paydo bo‘ldi. Ayrim tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, Konan Doylning Edinburg shifoxonasida ishlaydigan hamkasbi Jozef Bell mazkur obraz uchun prototip bo‘lib xizmat qilgan – u mayda detallar asosida insonning xarakteri, kasb-kori, o‘tmishi haqida bilib olish qobiliyatiga ega bo‘lgan. Shu bilan birga, ayrimlar Xolms obrazida muallifning ham ayrim qirralarini ko‘rish mumkin, deb hisoblashadi – Konan Doyl ham ayrim o‘rinlarda izquvarlik bilan shug‘ullanib, begunoh insonlarning oqlanishiga yordam bergan. Shunday ishlardan biri – yosh yurist Jorj Edaljining tunda birovlarga tegishli otlar va mollarni o‘ldirib yurganligi haqidagi ish edi. Konan Doyl 8 oy bu ishni o‘z hisobidan tadqiq qiladi va Jorjning begunoh ekanligini isbotlaydi. Bunga, xususan, uning shifokorligi ham qo‘l keladi – Konan Doyl bir qarashdayoq Edaljining ko‘zi xiraligini, u tunda bunday ishlarni qila olmasligini sezadi.

Xolms obrazi jami 4 qissa va besh turkumga birlashtirilgan 56 hikoyada ishtirok etadi. Shulardan biri – “Mallalar uyushmasi” Konan Doyl tomonidan Xolms haqidagi 12ta eng yaxshi hikoyadan biri sifatida e’tirof etilgan. Xolms haqidagi hikoyalarda aksar hollarda voqealar Xolmsning do‘sti, u bilan bir uyda ijarada turadigan doktor Uotson nomidan bayon qilinadi. Uotsonning Xolmsday o‘tkir zehnli emasligi, laqmaligi Xolmsning zakovatini yanada yaqqolroq ochish imkonini beradi. (G‘arb adabiyotshunosligida bu usul – bir qahramon vositasida ikkinchisini (asosiy obrazni) bo‘rttirib ko‘rsatish “foil” deyiladi.)

6. Asar matni bilan ishlash jarayonida berilgan savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qilib boring. Savollarning aksarini voqealarning keyingi rivojini taxmin qilish yoki asarda tasvirlangan sirli jinoyat haqida o‘quvchilarning farazlarini bilishga qaratilgan. Bunday savollarni muhokama qilishda o‘quvchilardan o‘z farazlarini asoslashni so‘rang, lekin asardagi voqealarning keyingi rivojini yoki jinoyat bilan bog‘liq ma’lumotlarni oshkor qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni bermang. Hikoyani to‘liq o‘qib bo‘lgandan keyin o‘quvchilar farazlarini asar bilan solishtirish, eng zukko o‘quvchilarni alohida qayd etib, rag‘batlantirish mumkin.

Darslikdagi QR kodda O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan hikoya asosida ishlangan radiospektaklga havola berilgan. Siz mazkur radiospektaklni eshittirishingiz, tegishli o‘rinlarda to‘xtatishingiz va darslikda berilgan savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qilishingiz ham mumkin.

Hikoyaning birinchi qismidan keyin “Guruhlarda ishlaymiz” ruknida berilgan topshiriq Xolmsning deduktiv usuli mohiyatini tushunishga qaratilgan. Bu usul ko‘rinib turgan detallar asosida mantiqiy xulosalar chiqarishga asoslanadi. Xulosalar zanjiri bir-biriga ulanib, umumiy kartinani hosil qilishga yordam beradi. Misol uchun, Xolms mister Uilsonni ko‘rganida u haqida quyidagi xulosalarini aytadi: jismoniy

mehnat bilan shug‘ullangan, frankmasonlardan, Xitoyda bo‘lgan, so‘nggi oylarda ko‘p xat yozishiga to‘g‘ri kelgan. Keyin esa qaysi detallar bunday xulosalarga kelishiga yordam berganligini izohlaydi:

– o‘ng qo‘li chap qo‘lidan kattaroq, shu qo‘li bilan ishlagani uchun uning mushaklari baquvvatroq bo‘lib qolgan;

– Frankmasonlar jamiyatining qat’iy nizomiga amal qilmay, yarim doira va doira tasviri bor ilgakli tugma taqib yuribdi;

– yiltirab ketgan o‘ng yengi bilan chap yengi tirsagi atrofidagi movut taqir bo‘lib qolgan;

– o‘ng bilagida ko‘rinib turgan baliqcha tasviri Xitoydagina chekilgan bo‘lishi mumkin – baliq tangachalarini nafis pushtirang bilan bo‘yash odati faqat Xitoygagina xos; soatining zanjiriga Xitoy tangasi osilgan.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Sherlok Xolms haqidagi asarlardan birida “u inson emas, mashina” degan fikr yangraydi. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi?	obrazlarga baho berish
Sherlok Xolms haqidagi aksar hikoyalar doktor Uotson tilidan bayon qilinadi. Voqeani doktor Uotson nomidan bayon qilishda qanday maqsad ko‘zlangan bo‘lishi mumkin? Xolms va Uotson obrazlarining farqli jihatlari nimada? Hikoya qanday tuzilgan? Unda detektiv janriga xos qanday xususiyatlarni ko‘rdingiz? Artur Konan Doyl bu hikoyani mashhur izquvar haqidagi asarlari ichidan eng saralari ro‘yxatiga kiritgan edi. Siz muallifning bu bahosiga qo‘shilasizmi? Nima uchun? Ayrimlar detektiv janridagi asarlarni haqiqiy adabiyot qatoriga qo‘shishmaydi. Siz bu fikrga qo‘shilasizmi? Sizningcha, detektiv janridagi asarlardan nimalarni o‘rganish mumkin?	muallif qo‘llagan badiiy tasvir va ifoda vositalarini tahlil qilish, ularni asarda qo‘llashdan ko‘zlangan maqsadni, ularning o‘quvchiga ta’sirini tushuntirib berish; asar qurilishiga baho berish



FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TEXNOLOGIYA

Bu mavzuda biz:
– adabiyot va texnologiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganamiz.

Mazkur darsda o‘quvchilar ilm-fan va texnologiya yutuqlarini badiiy adabiyotga tatbiq qilib, kichik hikoya yaratadilar.

1. Darsni muhokama bilan boshlang.

Fantastik va sarguzasht asarlar mualliflari o‘z asarlari uchun g‘oyalarni qayerdan olishadi deb o‘ylaysiz? Qanday qilib ular ko‘pincha kelajakdagi ixtirolarni oldindan bashorat qila olishadi?

2. O‘quvchilarga ensiklopediyadan olingan matnlarni o‘qib chiqish uchun vaqt bering. Birinchi matn sanoat robotlari haqida, ikkinchi matn esa Oy haqida. O‘quvchilar bilan matnlar mavzularini muhokama qilib olishingiz mumkin:

“Mexanik odam” to‘g‘risidagi fikr odamzodni qadimgi vaqtlardan beri bezovta qilib keladi. Odamning xatti-harakatini bajara oladigan “mexanik odam” yaratish ustida o‘tgan asrdayoq ishlar olib borilgan, lekin ularning eng takomillashganlari ham qo‘pol bo‘lgan, imkoniyatlari cheklangan edi. XX asrda texnika rivojlanishi bilan ular qat’iy dastur bo‘yicha ishlaydigan, odam-operator boshqaradigan, odam ishtirokisiz aniq ishlarni bajaradigan turlarga bo‘lingan. Mashinasozlikning rivojlanishi, avtomatika va avtomatik boshqarishning takomillashishi bilan ular odam bilan tashqi o‘xshashligini yo‘qota boshladi, lekin ularning harakati xilma-xillashdi va ularda “ixtisoslik” paydo bo‘ldi.

“Bolalar ensiklopediyasi”dan

* * *

U Yerning tabiiy yo‘ldoshi bo‘lib, yaqin qo‘shnimiz hisoblanadi. Bu yirik tosh chang qatlamlari bilan qoplangan. Unda havo, suv, shamol va Yerdagi kabi tabiat yo‘q. Unda birorta ham tirik jonzot yoki o‘simlik o‘smaydi. Kunduzlari holdan toydiruvchi issiq bo‘lsa, kechalari o‘ta sovuq. U aslida o‘zidan nur chiqarmaydi, balki Quyosh nurini qaytaradi. 1969-yil 20-iyulda amerikalik Nil Armstrong va Edvin Oldrin insoniyat tarixida birinchi bo‘lib unga qadam qo‘ydilar.

“Siz bilgan, bilmagan dunyo” ensiklopediyasidan

– Sanoat robotlariga duch kelganmisiz? Ular qaysi sohalarda ishlatiladi? Insonlarga ular qanday foyda keltiradi?

– Oy haqida insonlarning tasavvuri asrlar davomida qanday o‘zgargan? Oyni tadqiq qilish insonlarga qanday foyda keltirishi mumkin?

3. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Darslikda berilgan parchalardan birini tanlab, hikoyani davom ettirish vazifasini topshiring. Bunda ensiklopediyalardan olingan ma’lumotlarga va boshqa fanlardan olgan bilimlaringizga suyanish mumkinligini ayting. Belgilangan vaqt tugagach, guruhlar o‘z hikoyalarini sinfdoshlariga o‘qib beradilar. Qaysi guruhning hikoyasi eng ishonarli chiqqanini, qaysi omillar hikoyaning ishonarli chiqishiga yordam berganini muhokama qiling. Darsni xulosalang.

Genri Kuper xato bo‘lgan nimanidir topmasidan oldin ikki hafta Oyda bo‘ldi. Dastlab unda tushuntirib bo‘lmaydigan noma’lum bir tuyg‘u paydo bo‘ldi, biroq u o‘ylab ish qiladigan, aqlli ilmiy muxbir edi, shuning uchun ham bundan ko‘p xavotirga tushmadi. Uni bu yerga kelishini Birlashgan Millatlar Tashkilotining Fazoni tadqiq etish ma’muriyati so‘ragan edi. Fazoni tadqiq etish ma’muriyati hamisha aqlli, mas’uliyatli odamlarni Yerga axborot jo‘natish uchun Oyga yuborar edi.

Artur Klark,
“Oydagi sinoat” hikoyasidan

* * *

Siz android nima, aniqrog‘i, kim ekanini bilasizmi? Ishonaman, bilasiz. Lekin, iltimos, faqat eng zamonaviy qo‘l telefonlarining elektron aql qismi deb o‘ylamang. Tasavvuringizni yuqoriroqqa ko‘taring. Iloji bo‘lsa, inson darajasiga. Chunki siz uni har kuni ko‘rasiz va oddiy odam sifatida qabul qilasiz. Istasangiz, ular haqidagi bor haqiqatni aytib beraman. Lekin bir shartim bor! Bu gaplarning hammasi o‘rtamizda qolsin. Hech kimga churq etmang! Kelishdikmi? Bo‘pti, eshiting.

Android – odamsifat aqlli robot. Mutaxassis bo‘lmagan kimsa uning tashqi qiyofasidan, yurish-turishidan, gap-so‘zlaridan “homo sapiens”dan, ya’ni ongli insondan farqlay olmaydi. Biroq biron-bir yeridan terisini ko‘chirib, vujudiga nazar tashlasangiz, yurak, mushak, tomir, jigar yoki miyani emas, balki turli simlar, mitti sxemalar, chiplar, mexanizmlar va murvatlarni ko‘rasiz. U juda aqlli, yuksak ong egasidir. Hasharotni eslatuvchi sanoat robotlari bu android oldida bir hujayrali jonivorga monand, men sizga aytsam.

Ozod Mo‘min Xo‘ja,
“Robot-android” hikoyasidan

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi o‘quvchilarning uchinchi faslda o‘rgangan janrlarni ajrata olish, shuningdek, olgan nazariy bilimlari va shakllantirilgan kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan.

Topshiriq	Javob	Izohlar
1	A	***ilmiy ixtiro*** Ushbu annotatsiya Tohir Malikning “Falak” qissa haqida
2	B	***kimsasiz orol, tabiat kuchlariga qarshi kurash*** Ushbu annotatsiya ingliz yozuvchisi Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” romani haqida
3	C	***izquvar, jinoyatlarni fosh qilish*** Ushbu annotatsiya “detektivlar qirolichasi” Agata Kristi qalamiga mansub hikoyalar to‘plami haqida
4	A	***saqlanib qolgan bir guruh yirtqich, fanni yangiliklar bilan boyitgan kishilar*** Ushbu annotatsiya ingliz yozuvchisi Artur Konan Doylning “Yo‘qolgan dunyo” romani haqida
5	B	***sirli xazinalar oroli, qaroqchilar to‘dasi, qiziqarli sarguzashtlar*** Ushbu annotatsiya ingliz yozuvchisi Robert Luis Stivensonning “Xazinalar oroli” romani haqida
6	baland bo‘yli, soqol-mo‘ylovi silliq qilib olingan, ikki yuzi anordek qip-qizil bir jentlmen; chaqmoqdek ko‘zlari va gul-gul yashnagan chehrasi	ijobiy taassurot qoldiradi; ozoda, istarasi issiq kishiga o‘xshaydi
7	kichkina, jimitday	*Izohlar turlicha bo‘lishi mumkin.*
8	tarvaqaylagan (shoxlar), o‘rmonsimon (bog‘), uloqchi (suv), yaydoq (dasht), o‘rkachdor (yaylovlar)	*Izohlar turlicha bo‘lishi mumkin.* *O‘quvchilar sifatlashlardan bittasini topib, izohlashlari talab etiladi.*



MAVZULAR USTIDA ISHLASH BO‘YICHA TAVSIYALAR

4-fasl.
RANGIN TUYG‘ULAR



Rahmat Fayziy. “Hazrati inson”
Ibroyim Yusupov.
“Qadrdon so‘qmoqlar”
Xurshid Davron. “Vatan devorlari”
Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda”
Azim Suyun. “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi...”
Omon Matjon. “Osmon sog‘inch kabi...”

Adabiy tushunchalar:
– nasr va nazmning farqlari
– badiiy tasvir vositalari:
metafora, jonlantirish

Fanlararo aloqa:
adabiyot va tasviriy san’at

RAHMAT FAYZIY.
“HAZRATI INSON”

Bu mavzuda biz:
– asar sarlavhasi va mazmuni o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilamiz;
– qahramonlar nutqi va xatti-harakatlari orqali ularga ta’rif berishni o‘rganamiz;
– nasriy va she’riy asarlarni qiyoslaymiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**4 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish (Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash)	1 soat
Asar matni bilan ishlash	1 soat
“Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Nasr va nazmning farqlari	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanidan bobni birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot qarating. Bu jarayonda yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga ahamiyat bering. O‘quvchilarni yozuvchi mualliflik qilgan badiiy filmlar (“Sen yetim emassan”, “Yor-yor”) bilan tanishtiring.

3. O‘quvchilardan shu vaqtga qadar Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqimiz hayoti, frontdagi va front orti qahramonliklari haqida hikoya qiluvchi qanday asarlarni mutolaa qilishganini so‘rang. Rasmdagi haykal haqida (qayerga o‘rnatilgan, kimlar tasvirlangan, Ikkinchi jahon urushiga qanday aloqasi bor) savollar bering.

Ikkinchi jahon urushi yillarida turli millatlarga mansub bo‘lgan o‘n besh nafar bolani o‘z qanotiga olgan Shomahmudovlar oilasi (Shoahmad Shomahmudov, uning turmush o‘rtog‘i Bahri Akramova va asrab olingan farzandlari) jamlangan haykal Toshkentdagi “Istiqlol” san’at saroyi (sobiq “Xalqlar do‘stligi” saroyi) maydoniga 1982-yilda o‘rnatilgan. Uning mualliflari – haykaltarosh D. B. Ryabichev va arxitektorlar L.T. Adamov, S.R. Odilov.

4. Haykal haqida, haykalda tasvirlangan oila haqida o‘quvchilarga qisqacha ma’lumot bering. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” ruknidagi savollarni o‘quvchilar bilan muhokama qiling. “Hozirgi jamiyatimizda insonparvarlikni qaysi jabhalarda ko‘rishimiz mumkin? Siz o‘zingizni insonparvar shaxsman, deya olasizmi?” kabi qo‘shimcha savollar berish orqali o‘quvchilarning so‘zlar mohiyatini qay darajada tushunganligini tekshirish mumkin (javob berishda asos keltirishi muhim).

ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Savollar va o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Mahkam aka bolalar uyiga nima maqsadda keldi? Nima uchun bu joyga kelganda Vityaning kayfiyati o‘zgardi? *– Yana bola asrab olish uchun;* *– Vitya taniydigan odamlarni topish va Vityaning oilasi haqida ma’lumot bilish uchun;* *– bolalar uyi tarbiyalanuvchilaridan xabar olish uchun;* *– bolalar uyiga yordam taklif qilish uchun;* *– Vitya uni bolalar uyiga qaytarib olib kelib tashlab ketishlaridan qo‘rqqani uchun kayfiyati buzildi;* *– Vitya ko‘p qiyinchilik ko‘rgan va yana tashlandiqqa aylanib yangi oilasidan ham ayrilishni istamagani uchun kayfiyati o‘zgardi;* *– bolalar uyi yo‘qotgan oilasi va boshidan o‘tgan dahshatlarni xotirlatgani uchun uning kayfiyati buzildi.*	Ular bolalar uyiga yaqinlashib qolishganda dadasining qo‘lidan ushlab borayotgan Vitya taqqa to‘xtadi. Qo‘lini tortib oldi. Mahkam aka hayron bo‘lib unga qaradi. Qovoqlari osilgan, to‘rsayib turardi. Hozirgina javrab kelayotgan bolaga o‘xshamasdi avzoyi. – Ha, nega to‘xtading? – O‘zingiz... – dedi-yu yig‘lab yubordi. – Gapir. Et-beting og‘rivottimi? – O‘zingiz haydamayman demabmidingiz? – Kim seni haydadi? – Nega bu yerga olib kelasiz bo‘lmasa? – dedi Vitya bolalar uyining darvozasini ko‘rsatib.
Bu parchadan urush davridagi bolalar haqida nimalarni tasavvur qildingiz? “Yoqasi qolsa ham, beqasam, deyilganidek, duch kelgan narsani ilib olishgan, birontasining egnidagini kiyim qatoriga qo‘shib bo‘lmasdi” jumlasi bilan muallif nima demoqchi? *– Bu orqali urush davridagi yo‘qchilikni akslantirgan;* *– bolalarning ota-onalari yo‘q, yetim edilar (ota-onalargina farzandining yurish-turishidan tashvishlanadi va e’tibor qaratadi). Bu bolalar kiyimidan, yuz-ko‘zidan, to‘q-ochligidan doim xavotir oladigan ota-onalarini yo‘qotgan edilar;* *– u davrda eng muhimi – jon saqlash, omon qolish bo‘lgani uchun bolalar topganini kiyib ketaverishgan.*	Usti qalinroq bolalar issiqdan burqsib, kiyimlarini yechib yerga tashlagan, eslilari qo‘llarida ushlab turardi. Yoqasi qolsa ham, beqasam, deyilganidek, duch kelgan narsani ilib olishgan, birontasining egnidagini kiyim qatoriga qo‘shib bo‘lmasdi.

Mahkam aka “Odamdan odamning farqi bor”, deganda nimani nazarda tutgan edi? Mahkam akadan qanday bola olmoqchiligini so‘ragan ayol bilan Nazarova o‘rtasida qanday farqlarni sezdingiz? *– Mahkam aka “Odamdan odamning farqi bor”, degan gapni ikki ayolning bu yetim bolalarga qarashi nuqtayi nazaridan aytdi. Chunki birinchi ayolning maqsadi bu bolalarni oilalarga tarqatib, qutilish edi. U bir inson bolasiga, xuddi mahsulotdek qarayotganini hatto o‘zi ham fahmlamas edi. Ikkinchi ayol uchun esa bu bolalarning yuragidagi kemtiklikni to‘ldira oladigan oilalarga topshirish muhim edi. U saqlab olingan bolalarining oila bag‘rida, mehr-muhabbat bilan tarbiyalanayotganidan mamnun edi.*	– Shular xursand bo‘lsa, bizam xursandda, singlim. Hali ko‘chada bularning kelayotganini ko‘rib, uyda o‘tirolmadim. To‘g‘ri kelaverdim. – Ajab qilibsiz. Vityani bir o‘ynatay debsiz-da, shunaqami? – Vitya gapni eshitmadi, dadasining etagiga yashiringancha, ko‘zini bolalardan olmay turardi. Tarbiyachini kimdir “O‘rtoq Nazarova!” deb chaqirib qoldi. “Men shu yerdaman”, deganicha qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, Mahkam akaga iltifot qildida, o‘sha tomonga ketdi. “Odamdan odamning farqi bor, deyishgani shu-da. Boyagining muomalasi qayoqda-yu, buniki qayoqda?” – Bizam birontasini bag‘rimizga olsakmikin, deb keluvdik, – dedi Mahkam aka. – Juda yaxshi o‘ylabsiz, ota. Kennoyimlar ham shu yerdamilar? – Ishi chiqib qoldi. O‘zim kelaverdim. – O‘g‘il bolami yo qizcha olmoqchimisiz? – Baribir. – Yoshroq bo‘lsinmi yo eslikrog‘imi? – Baribir, qizim. – Qaysi millat bolasi bo‘lgani ma’qul? Mahkam akaning a’zoyi badani titrab ketdi. Rangi oqardi. Juvon buni payqadimi, yo‘qmi, qo‘lidagi daftarga allanimalarni yozishdan to‘xtamadi. – Qizim, – dedi zo‘rg‘a o‘zini bosib Mahkam aka, – men mol bozoriga kelganim yo‘q. Tushundingizmi?
Abram Galyaga nima degan bo‘lishi mumkin? *– Ketmasligini so‘ragan;* *– agar Vitya xafa qilsa, unga kelib aytishi kerakligini aytgan;* *– u ham Mahkam akanikiga ketishni istashini aytgan (o‘g‘il qilib asrab olishini nazarda tutgan).*	Abram indamay, boshini eggancha orqasiga burilib keta boshladi. Mahkam aka bir xil bo‘lib ketdi. Abram to‘rt-besh qadam yurib to‘xtadi. Orqasiga o‘girildi. Imlab Galyani chaqirdi. Galya ikki sakrab uning yoniga bordi. Bordi-yu, Abramning shivirlab gapirganini chalachulpa eshitib, orqasiga chopdi.

Matn bilan ishlash bosqichining qolgan savollariga javob berishda ham o‘quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga, har bir bildirgan xulosasini matn bilan, hayotiy tajribasi, avvalgi bilimlari asosida dalillashiga alohida e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi. Eng yaxshi fikr egalari o‘qituvchi tomonidan rag‘batlantirilishi maqsadga muvofiq.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Urush yillaridagi og‘ir sharoitga qaramay, Mahkam akaning ota-onasidan ayrilgan bolalarni o‘z oilasiga qabul qilishi sababi nimada deb o‘ylaysiz? Vitya, Galya va Abram xarakterlari o‘rtasida qanday farqlarni sezdingiz? Sizningcha, ular bir-birlari bilan do‘stlashib ketishi uchun Mahkam aka nima qilishi kerak?	obrazlarga baho berish
Asar nima uchun “Hazrati inson” deb nomlangan? “Hazrati inson” deganda muallif kimni yoki kimlarni nazarda tutgan? Asarni o‘qishdan oldingi va keyingi xulosalaringizni qiyoslang. Yon-atrofingizda Mahkam akaga o‘xshash insonlar bormi? Ularning qaysi jihatlarini asardagi Mahkam akaga o‘xshatish mumkin?	asarning asosiy g‘oyasini aniqlash, hayotiy tajribasiga tayangan holda asarning asosiy g‘oyasiga o‘z munosabatini bildirish

JUFT BO‘LIB ISHLAYMIZ

“Rahmat sizga, xonim” hikoyasi ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar badiiy asar qahramonlari xarakterining ular nutqi, harakatlari orqali ko‘rsatilishi haqida tushunchaga ega bo‘lgan edilar. “Juft bo‘lib ishlaymiz” ruknida berilgan topshiriq ustida ishlashda o‘quvchilar bu tushunchaga yana bir bor qaytadilar.

O‘quvchilarni juftliklarga bo‘ling va jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Bunda bevosita asar matni bilan ishlash kerakligini ogohlantiring. Belgilangan vaqt tugagach, juftliklar jadvallarini sharhlaydilar. O‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslab, dalillar bilan gapirishlariga diqqat qiling. Vazifani yaxshi bajargan, fikrini ifodalay olgan o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: NASR VA NAZMNING FARQLARI

“Badiiy tahlil asoslarini o‘rganamiz” ruknidagi nazariy ma’lumotlarga o‘quvchilar diqqatini qarating. Nazariy ma’lumotlarni to‘ldiring, sharhlang va darslikdagi misollardan tashqari misollar ham keltirib, tushuntiring. O‘quvchilar nazm va nasrni aniq farqlay olishlariga amin bo‘ling. Namuna sifatida berilgan asarlarni o‘quvchilar bilan birga tahlil qiling. She’rlardan keyin berilgan savollar bilan o‘quvchilarga yuzlaning va javoblarini to‘ldirib, umumlashtirib boring. Faol o‘quvchilarni rag‘batlantiring.

IBROYIM YUSUPOV. “QADRDON SO‘QMOQLAR” XURSHID DAVRON. “VATAN DEVORLARI”

Bu mavzuda biz:
– ikki she’riy asardagi bir g‘oyaga xizmat qilgan obrazlarni solishtiramiz;
– badiiy matndan metafora va o‘xshatishlarni topishni o‘rganamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Ibroyim Yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” va Xurshid Davronning “Vatan devorlari” she’rlarini tahlil qilish	1 soat
Ibroyim Yusupovning “Qadrdon so‘qmoqlar” va Xurshid Davronning “Vatan devorlari” she’rlarini solishtirish.	1 soat
Metafora. Ibroyim Yusupov va Xurshid Davron lirikasini solishtirish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Ibroyim Yusupov va Xurshid Davronning vatan haqidagi she’rlarini qiyoslab tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknida har ikki ijodkorning tarjimayi holini mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering, keyin fikrlarini rivojlantirishga, Ibroyim Yusupov va Xurshid Davron haqidagi tasavvurlarini ochiqlashga yordam beradigan savollar bilan murojaat qiling. Qiyoslash jarayonida ikki ijodkorning avtobiografiyasidan aniqlangan o‘xshash va farqli tomonlarni sanab ko‘rsating.

3. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknida darslikda berilgan savollar orqali o‘quvchilardan vatan bilan bog‘liq assotsiatsiyalari haqida so‘rang. Bu assotsiatsiyalarning quruq, balandparvoz so‘zlar emas, bevosita o‘quvchi hayotiga daxldor tushunchalar ekanligiga e’tibor qarating. Muhokama so‘ngida o‘quvchilarning qarashlarini xulosalab, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantirishni unutmang.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH

1. “Qadrdon so‘qmoqlar” she’ri tahliliga kirishishdan oldin she’rni ovoz chiqarib o‘qing. Chuqurroq ma’no topishga harakat qilishdan oldin she’rni bir necha marta o‘qish muhimdir. O‘quvchilaringizdan she’rni bir marta ichda, keyin esa ovoz chiqarib kamida ikki marta to‘liq o‘qib berishlarini so‘rang. She’rning ritmi va tinish belgilariga, urg‘u va urg‘usiz bo‘g‘inlarga jiddiy e’tibor bering, chunki bular shoir tomonidan rejalashtirib qilingan hodisalardir. She’r o‘qiganda ajralib tura-

digan narsalar, masalan, so‘z tanlash, she’rdagi qahramonlar va qofiya sxemasiga e’tibor bering. Ayni paytda tahlilingizni yozishni boshlashga tayyorsiz. Siz she’rni bir necha bor o‘qib chiqdingiz va she’rni ma’no bilan bezab turgan barcha tegishli tomonlarini ajratib ko‘rdingiz. Keyin sinfingiz bilan ularning birinchi taassurotlari haqida gaplashing. Shuningdek, she’rning tuzilishi va ritmini muhokama qiling. Misol uchun, satrlar qisqa va sekin yoki tez o‘qish uchun mo‘ljallanganmi, shunday bo‘lsa, nega?

– She’r kimning tilidan aytilgan?

– She’r so‘zlovchining shaxsiyati, nuqtayi nazari, yoshi yoki jinsi haqida biron-bir ma’lumot beradimi?

She’r yetkazadigan fikr yoki kayfiyatni, ohangni ko‘rib chiqish ham muhimdir. Bu yerda o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

– She’rning ohangi o‘zgarishi mumkin bo‘lgan joylar bormi va nima uchun? (Bu o‘rinda ba’zi so‘zlarning bizga ta’siri haqida gapirish mumkin)

– Muallifning ovozi asar davomida o‘zgaradimi?

– She’rning kayfiyati qanday?

– She’r davomida kayfiyat o‘zgaradimi? Nega shoir ushbu o‘zgarishni yaratdi?

– Shoir bu kayfiyatni yetkazishda qanday so‘zlardan foydalangan?

– She’rning ohangi qanday?

– So‘z tanlash she’r ohangiga qanday ta’sir qilgan?

Bu o‘rinda ba’zi so‘zlarning ta’sir kuchi haqida gapirish mumkin.

– Bu she’rning yosh doirasi bormi yoki hammamizga tegishlimi?

– She’r yozilgan payt, shoir xos bo‘lgan joyning madaniyati, she’r shakli va mazmuniga qandaydir ta’sir ko‘rsatganmi?

– Shoirning adabiy vositalardan foydalanishi she’rning yaxshiroq va mazmunli bo‘lishiga qanday yordam beradi?

– She’r an’anaviymi yoki zamonaviymi?

– She’r qofiya sxemasiga yoki ritmga mos keladimi?

Birinchi soat yakunida ushbu jadvalni to‘ldirishni uyga vazifa qilib berishingiz mumkin:

Asarning lingvistik xaritasi

Ot	Sifat	Fe’l	Ravish	O‘xshatishlar	Shaxslantirish

Darsning ikkinchi soatida Xurshid Davronning “Vatan devorlari” she’rini o‘qib, tahlil qilishingiz va dars jarayonida har ikki shoirning bir mavzudagi she’rlariga xos o‘xshash va farqli jihatlarni tahlil qilishingizni ma’lum qiling.

Sinfda she’rni ifodali o‘qiydigan 8 o‘quvchini doskaga kitoblari bilan taklif qiling. Ulardan she’rni ifodali o‘qishini so‘rang. She’r o‘qib bo‘lingach, darslikdagi savollar yordamida uni muhokama qilishni boshlang.

O‘quvchilarning javoblarini eshitgach, o‘z xulosalaringiz bilan ularning fikrlarini umumlashtirishingiz, o‘ziga xos fikr bildirgan o‘quvchilarga alohida e’tibor qaratishingiz lozim.


SOLISHTIRAMIZ

Darslikning keyingi “Solishtiramiz” ruknida berilgan savol va topshiriqlar yordamida o‘quvchilar “Qadrdon so‘qmoqlar” va “Vatan” she’rlaridagi umumiy tushunchalar, obrazlarga, lirik qahramon kechinmalariga e’tibor qaratadilar hamda she’rlardagi o‘xshash va farqli jihatlarni topadilar.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Guruhlarda ishlaymiz” rukni topshirig‘i o‘quvchilar she’rlardagi kayfiyatni ranglarda aks ettirishga harakat qilib ko‘radilar.

Ikkinchi soat yakunida o‘quvchilarga yuqoridagi jadvalni to‘ldirishni uyga vazifa qilib berish mumkin. Bunda ular she’rning ohangini ta’minlab beruvchi so‘zlarni guruhlarga bo‘lib yozishlari kerak.



www.idum.uz saytidan yuklab olindi

UCHINCHI SOAT

O‘quvchilarga metafora haqida ma’lumot bering. Metafora va o‘xshatishdagi umumiy va farqli jihatlarga e’tibor qarating. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘lib, “Qadrdon so‘qmoqlar” va “Vatan devorlari” she’rlaridagi metafora va o‘xshatishlarni topish hamda ularning qanday umumiy belgiga asoslanganini aniqlab, jadvalni to‘ldirish vazifasini bering. Guruhlarning javoblarini sinf bilan muhokama qiling.

Darsning qolgan qismida o‘quvchilar guruhlarda ishlashni davom ettirib, “Mustaqil mutolaa va tahlil uchun” ruknida berilgan she’rlarni tahlil qiladilar.

Quyidagi she’rlarni o‘qing. Ularda mualliflar qanday obrazlarga murojaat qilgan? Bu obrazlar qanday g‘oyaviy maqsadlarga xizmat qilmoqda? Jadvalni daftaringizda to‘ldiring.

Ibroyim Yusupov		**Xurshid Davron**	
Obraz	Obrazdan ko‘zlangan maqsad	Obraz	Obrazdan ko‘zlangan maqsad

OSKAR UAYLD.
“BAXTLI SHAHZODA”

Bu mavzuda biz:
– “Baxtli Shahzoda” ertagiga xos xususiyatlarni tahlil qilamiz;
– badiiy matnda jonlantirish haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**3 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda” ertagi. Muallif hayoti va ijodi. “Asarni o‘qishga tayyorlanamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash	1 soat
Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda” ertagi. Asar matni bilan ishlash	1 soat
Oskar Uayld. “Baxtli shahzoda” ertagi. “Muhokama qilamiz” bosqichi topshiriqlari bilan ishlash. Jonlantirish	1 soat


KIRISH

1. O‘quvchilarga Oskar Uayldning “Baxtli shahzoda” ertagini birgalikda o‘qib, tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Muallif bilan tanishamiz” ruknida o‘quvchilarga muallif haqida ma’lumot bering. Ma’lumot berish jarayonida yozuvchi hayotidagi eng muhim nuqtalarga ahamiyat bering.

3. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Ularga shu paytgacha o‘qigan, eshitgan ertaklarini eslab, “Muhokama qilamiz” ruknidagi jadvalni davom ettirish vazifasini topshiring. Guruhlar jadvallari asosida sinfda taqdimot qiladilar. Guruhlarning fikrlarini umumlashtiring. Shundan so‘ng “Baxtli shahzoda” ertagining o‘quvchilar shu paytgacha o‘qigan ertaklardan qaysi jihatlari bilan farq qilishi mumkinligini so‘rang. Bunda o‘quvchilar darslikdagi asar bilan birga berilgan suratlarga ham e’tibor qaratishlari mumkin.

4. Agar dars vaqti imkon bersa, o‘quvchilarga “Baxtning konsept xaritasi”ni tuzishni topshirishingiz va tuzilgan xaritani o‘quvchilar bilan muhokama qilishingiz mumkin.



ASAR MATNI BILAN ISHLASH

Darslikning “Asar matni bilan ishlash” bosqichida o‘quvchilarning matn bilan ishlash, har bir fikrni matn asosida dalillash, asar parchasidagi eng muhim nuqtalar, kalit so‘zlar, badiiy tasvir vositalari asosida mustaqil fikr berish ko‘nikmasini rivojlantirishga ahamiyat bering.

Asosan she’rlari, dramatik asarlari va romani bilan mashhur bo‘lgan Oskar Uayld ikkita ertaklar to‘plamini ham yaratgan. Bu ertaklarni Oskar Uayld o‘z farzandlari uchun yozgan. “Baxtli Shahzoda” ertagi 1888-yilda chop etilgan “Baxtli Shahzoda” va boshqa ertaklar to‘plamiga kiradi. Ertak g‘oyaviy jihatdan muallifning shoh asari bo‘lmish “Dorian Grey portreti” romaniga yaqin: romanda tashqi go‘zalligini, maftunkorligini saqlab qolgan Dorianning qalbi tubanlashib borsa, ertakda bora-bora tashqi go‘zallikdan, hashamdan mahrum bo‘lib borayotgan haykalning qalbi go‘zal bo‘lib qoladi. Har ikkala asarda ham muallif “Haqiqiy go‘zallik nimada?” degan savolga javob izlaydi.

Savollar, o‘quvchilar berishi mumkin bo‘lgan javoblar, izohlar	Matnda e’tibor qaratish lozim bo‘lgan o‘rinlar
Shaharda nima uchun hamma Baxtli Shahzodadan hayratlanar, uni o‘rnak qilib ko‘rsatar edi? *– U go‘zal bo‘lgani uchun, go‘zallik timsoli bo‘lgani uchun.* *– Baxtli Shahzoda qo‘l yetib bo‘lmas ideal, orzu edi.* *– Har kim Baxtli Shahzodada o‘zida yoki yoki yaqinlarida yo‘q xislatlarni ko‘rardi.*	Shahzodaga butun shahar maftun edi. – U xo‘roz-parrakdek ajoyib! ... Ammo xo‘roz-parrakdek foydali emas, albatta ... – Baxtli Shahzodadan o‘rnak olsang bo‘lmaydimi? Baxtli Shahzoda hech qachon injiqlik qilmaydi! ... – Qarang-a, dunyoda to‘la baxtga erishgan kimsa ham bor ekan, bu juda quvonarli hol! ... – Xuddi farishtaning o‘zi-ya! ...
Baxtli Shahzoda nima sababdan yig‘layapti deb o‘ylaysiz? *– Balki yolg‘izlikdan yig‘layotgandir: axir u shahar uzra bo‘y cho‘zgan baland ustunda yolg‘iz turibdi.*	Baxtli Shahzodaning ko‘zlari jiqqa yoshga to‘lib, zarrin yonoqlaridan oqib tushardi. Oy nurlari tushayotgan yuzi shu qadar fusunkor ediki, buni ko‘rib Qaldirg‘ochning ko‘ngli buzilib ketdi.
Bolalarni jini suymaydigan Qaldirg‘och nima uchun chevar ayolning betob bolasi yuziga shabada taratdi? *– Qaldirg‘och “bolalarni jini suymasa” ham, aslida rahmdil, yaxshilik tuyg‘usi unga begona emas. Aks holda u Baxtli Shahzodaning iltimosini bajarish uchun yo‘lidan qolmagan bo‘lardi. Isitmadan to‘lg‘anayotgan bolani ko‘rib uning rahmi keldi.*	Qaldirg‘och daryo uzra uchayotib kema machtalaridagi chiroqlarni ko‘rdi. Nihoyat u boyagi kulbaga yetib keldi va ichkariga boqdi. Bola isitmada to‘lg‘anar, onasi esa toshdek qotib uxlab yotardi: axir u qattiq charchagandi-da. Qaldirg‘och xonaga kirib, la’lni stolda yotgan angishvonaning yoniga qo‘ydi. So‘ng to‘shak uzra qanot qoqib, bolaning cho‘g‘dek yuziga shabada tarata boshladi. – Qanday maza! Endi tuzalib ketsam kerak, – deb shivirladi bola va uyquga ketdi.

Baxtli Shahzoda nima uchun Qaldirg‘ochdan ikkinchi ko‘zini ham o‘yib olib, qizchaga berishni iltimos qilmoqda? U butunlay ko‘r bo‘lib qolishdan qo‘rqmaydimi? *– Gugurtfurush qizga otasi berishi mumkin bo‘lgan jazo unga ko‘zsiz qolishdan ham dahshatliroq tuyulmoqda.*	– Pastda, maydon chetida gugurtfurush qizcha turibdi. U gugurtlarini ariqqa tushirib yuborib, yaroqsiz qilib qo‘ydi. Endi uyiga pulsiz borsa, otasi uni o‘lguday do‘pposlaydi. Shuning uchun ham qizcha yig‘layapti. Oyog‘ida na kavushi, na paypog‘i bor; buning ustiga boshi ham yalang. Narigi ko‘zimni ham o‘yib olginda, qizchaga eltib ber. Shunday qilsang, otasi uni jazolamaydi.
Qaldirg‘ochning endi butunlay Shahzoda bilan qolish qaroriga qanday baho berasiz? U to‘g‘ri yo‘l tutyaptimi? *– Bu xavfli edi: Yevropa shaharlarida qish qattiq bo‘ladi va Qaldirg‘och sovuqqa dosh bera olmasligi mumkin.* *– Uning bu qarori asar boshida yengiltabiat ko‘ringan Qaldirg‘ochning qanchalik fidoyi, do‘sti uchun jonini qurbon qilishga tayyorligini ko‘rsatadi.*	– Endi butunlay ko‘zlaring ko‘rmaydigan bo‘lib qoldi; shunday ekan, umrbod sen bilan qolaman. – Yo‘q, jajji Qaldirg‘och, – dedi sho‘rlik Shahzoda. – Sen Misrga uchishing kerak. – Umrbod sen bilan qolaman, – so‘zini qaytardi Qaldirg‘och va haykalning oyoqlari ostiga yotib, uyquga ketdi.
Nima uchun Shahzoda Qaldirg‘ochdan Misrdagi hayratomuz narsalar haqida emas, shahardagi hayot haqida eshitishni istamoqda? *– U tirikligida xalqiga begona, xalqining azob-uqubatlaridan xabarsiz yashadi, endi esa xalqiga yaqin bo‘lishni istamoqda.* *– Shahzoda ko‘zlarini yo‘qotganidan keyin ham ko‘proq odamlarga yordam berishni xohlardi, buning uchun esa Qaldirg‘och unga ko‘rgan narsalari haqida gapirib berishi kerak.*	– Qadrli Qaldirg‘och! – dedi Baxtli Shahzoda, – sen hayratomuz narsalar haqida so‘zlayapsan. Ammo odamzod kulfatidan ham lol qiladigan narsa bormi? Dunyoda eng mushkul jumboq nochorlikdir. Jajji Qaldirg‘och, shahrimni kezib chiqib, ko‘rgan-eshitgan narsalaring haqida so‘zlab bergin.
Shahzodaning yuragi havo sovuqligi tufayli bo‘linib ketdi, deb o‘ylaysizmi? *– Do‘sti, o‘z jonini xatarga qo‘yib, yonida qolgan, hamma iltimoslarini bajargan Qaldirg‘ochning o‘limini yuragi ko‘tara olmadi.* *– Uning qalay yuragi g‘am-g‘ussani ortiq ko‘tara olmasdi.* E’tibor bering: haykalning qalay yuragida odamlar ko‘ksida urib turgan jonli yurakdan ko‘ra ko‘proq insoniylik, rahm-shafqat bor.	– Misrga emas, marhumlar diyoriga ketayotibman, – dedi Qaldirg‘och. Shunday deya Qaldirg‘och Baxtli Shahzodaning oyoqlari ostiga yiqilib, jon berdi. Xuddi shu paytda haykalning ichidan qandaydir narsaning singan tovushiga o‘xshash ovoz eshitildi. Bu – cho‘rt bo‘lingan qalay yurakning tovushi edi. Haqiqatan havo juda sovuq edi-da.

Ertakning yakuni sizda qanday taassurot qoldirdi? Nega Estetika Professori tomonidan “go‘zallikdan butunlay mahrum” deb baho berilgan haykalning singan yuragi va o‘lik qaldirg‘ochni farishta eng noyob narsalar sifatida tanladi? *– Baxtli Shahzoda va Qaldirg‘och o‘z jonlarini o‘zgalar xursandchiligi uchun fido qilishdi. Ular fidoyilik, oliyjanoblikning noyob namunasidir.* *Ertak so‘ngidagi kontrastga e’tibor bering: estetizm vakili, go‘zallikni yuqori darajada qadrlagan Uayld haykalning singan yuragi va o‘lik qaldirg‘ochga eng noyob narsa sifatida baho bermoqda. Bunday yuqori bahoning sababi – ichki go‘zallik, qalb go‘zalligi. Bu yurak shunchalik kuchli, hatto uni otashdonda eritish ham imkonsiz.*	– Bu shahardagi ikkita eng noyob narsani keltirgin, – farishtalaridan biriga amr qildi Xudo. Farishta unga qalay yurak bilan o‘lik qushni keltirdi. – Juda to‘g‘ri tanlabsan, – dedi Tangri. – Zotan bu qushcha mening jannat bog‘larimda abadulabad xonish qiladi, Baxtli Shahzoda esa oltin ko‘shkimda menga madhiyalar to‘qiydi.

Agar darsda asar matni bilan ishlashga ulgurilmasa, hikoyaning qolgan qismini uyda o‘qib kelishni topshirish mumkin. Asarni o‘qib bo‘lgandan keyin o‘quvchilarga quyidagicha “sabab va oqibatlar zanjiri” jadvalini tuzish topshirig‘ini berish mumkin.

Namuna:

Sabab	Natija
Qaldirg‘och Shahzodaning ikkinchi ko‘zini ham o‘yib, qizchaning tepasiga uchib keldi va **jajji qo‘lchasiga g‘aroyib zabarjadni tashladi.**	– Qanday ajoyib shishacha! – **quvonib ketdi qizaloq** va sevinchini yashirolmay, kulgancha uyiga chopqilladi.
Baxtli Shahzoda **ko‘r bo‘lib qoldi.**	– Endi butunlay ko‘zlaring ko‘rmaydigan bo‘lib qoldi; shunday ekan, **umrbod sen bilan qolaman.**
Qaldirg‘och parvoz qilib, ulkan shaharni boshidan oxirigacha kezib chiqdi: muhtasham saroylarda ziyofat-bazm qilayotgan davlatmandlarni va ularning ostonalarida o‘tirgan kambag‘allarni ko‘rdi; qorong‘i va tor ko‘chalar ustidan o‘tayotib qop-qora ko‘chalarga g‘amgin boqayotgan qoqsuyak bolalarning za’faron yuzlarini ko‘rdi. Ko‘prik ostida ikki bolakay bir-birining pinjiga kirib, sovuqdan qaqshab yotardilar. – Qornimiz ochqab ketyapti! – deb zorlanishardi ular.	– **Meni asl oltindan yasashgan,** – **dedi Baxtli Shahzoda.** **– Ustimdagi hamma oltinni qavatma-qavat ko‘chirib olginda, beva-bechoralarga ulashib bergin.** Nachora, odamlar baxt – oltinda deb o‘ylashadida. Qaldirg‘och bu safar ham haykalning istagiga qarshi borolmadi.
– U endi **go‘zallikdan butunlay mahrum!** – der edi Estetika Professori universitetda.	Haykalni **otashdonda eritib yuborishdi**. **Farishta** unga qalay yurak bilan o‘lik qushni keltirdi.

MUTOLAADAN KEYINGI BOSQICH
SAVOL VA TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASH

Savollar	Rivojlantiriladigan kompetensiyalar
Ertakdan qanday saboq chiqardingiz? Uning asosiy g‘oyasini bir gap bilan ifodalang. Ertak nima uchun “Baxtli Shahzoda” deb nomlangan? Shahzodani haqiqatan ham baxtli deya olamizmi? Fikringizni matn asosida dalillang. Shahardagi hayot tasvirlangan o‘rinlarni topib, qayta o‘qing. Bu manzaralar asarning g‘oyasini ochib berishda qanday ahamiyat kasb etadi?	asarning asosiy g‘oyasini aniqlash; asardan xulosalar chiqarish
Qaldirg‘ochning ertak boshidagi va oxiridagi harakatlarini qiyoslang. Unda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘ldi? Bu o‘zgarishlarning sababi nima edi?	obrazlarga baho berish
Nega har safar Shahzoda Qaldirg‘ochdan yana bir kecha qolishni iltimos qilganida Qaldirg‘och Misrdan gap ochadi? Muallif asarga Misr bilan bog‘liq tasvirlarni kiritish orqali qanday maqsadni ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?	asardagi eksplitsit (ochiq aytilgan) va implitsit fikrlarni (tagma’nolarni) ilg‘ash

Ertakda bir qator o‘ziga xos ramzlar qo‘llangan. Shunday ramzlardan biri – Misr. Qaldirg‘och Misrga ketish yo‘lida Baxtli Shahzodaga duch keladi. Qaldirg‘ochga ko‘ra, u yerda ulkan nilufarlar o‘sadi, serhasham tobutda Ulug‘ Shoh yotadi, qamishzorlarda gippopotamlar yashaydi, ulkan marmar taxtda Memnon o‘tiradi. U yerda quyosh charaqlab, xurmo daraxtlarining yashil yaproqlarini ilitadi, timsohlar loyqaga cho‘zilib, erinchoqlik bilan atrofga boqishadi, ulkan Zangori Ilon xurmo daraxtida uxlaydi va uni yigirma nafar kohin asal kulchalar bilan boqadi. Xullas, Misr – g‘aroyibotlar yurti. U Qaldirg‘och uchun shunchaki qishlash maqsadida boriladigan issiq o‘lka, real manzildan ko‘ra o‘zi uchun yashash, rohat va farog‘at ramzi. Qishi sovuq bo‘ladigan Yevropada Baxtli Shahzoda bilan qolish, uning istaklarini bajo keltirish, unga shahri haqida gapirib berish, Baxtli Shahzoda shaharning faqirlariga yordam berishiga ko‘maklashish uchun Qaldirg‘och shu rohat-farog‘atdan voz kechadi.

GURUHLARDA ISHLAYMIZ

“Baxtli Shahzoda” ertagi siz o‘qigan boshqa ertaklardan qaysi xususiyatlari bilan farq qiladi? Bu asarda boshqa ertaklarga o‘xshamaydigan qanday jihatlarni kuzatdingiz?

Ertakning o‘ziga xos xususiyatlarini jadval ko‘rinishida daftaringizda aks ettiring.

“Baxtli Shahzoda” ertagiga xos xususiyatlar	Matndan misollar
Ertak g‘amgin yakun topadi	*… Xuddi shu paytda haykalning ichidan qandaydir narsaning singan tovushiga o‘xshash ovoz eshitildi. Bu cho‘rt bo‘lingan qalay yurakning tovushi edi.*

O‘quvchilar birinchi darsda guruhlarga bo‘linib, ertaklarga xos xususiyatlarni jadvalga tushirgan edilar. Xuddi shu guruhlarda “Baxtli shahzoda” ertagining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash vazifasini topshiring. Bu topshiriq matn bilan yaqindan ishlash, asarning va muallif uslubining o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ertakning o‘ziga xos xususiyatlarni muhokama qilishda uning strukturasiga (masalan, an’anaviy ertaklar singari boshlanmasligi va tugamasligi), undagi obrazlarga, tiliga (asar Oskar Uayldning boshqa asarlari singari nafisligi bilan ajralib turadi), badiiy tasvir vositalariga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi. Yana bir o‘ziga xos jihat: an’anaviy ertaklarda go‘zallik ezgulik bilan va yozuvlik xunuklik bilan birga kelsa (ijobiy obrazlar odatda kelishgan, tashqi ko‘rinishi chiroyli bo‘ladi, salbiy obrazlar esa xunuk qiyofada tasvirlanadi), Oskar Uayld ertagida ichki go‘zallik tashqi go‘zallik bilan har doim ham mos kelmaydi (o‘lik qush va singan yurakni Farishta eng noyob narsa sifatida tanlaydi).

BADIIY TAHLIL ASOSLARINI O‘RGANAMIZ: JONLANTIRISH

Insonlarga xos xususiyatlarni jonsiz narsalar, tabiat hodisalari, hayvonlarga ko‘chirish, ularni gapiradigan, insonlardek harakatlanadigan qilib tasvirlash **jonlantirish** (**tashxis** – “shaxsga aylantirish”) deyiladi. Jonlantirish o‘ziga xos, takrorlanmas badiiy obraz yaratishga, tasvirlanayotgan voqea-hodisa yoki narsaga muallifning munosabatini aks ettirishga yordam beradi. Misol uchun:

“Shitir-shitir o‘ynar shabboda, Barglar musiqasi bir shirin...” (Usmon Nosir)

Bu misolda shabbodaning “shitir-shitir o‘ynashi” o‘ynoqilik, quvnoqlik kayfiyatini yaratmoqda. Boshqa bir misol:

“Maysalar lol egdi boshini, Qizg‘aldoqlar to‘kdi yoshini…” (Azim Suyun)

O‘quvchilarga jonlantirish haqida ma’lumot bering, misollar bering. “Baxtli Shahzoda” ertagida ishlatilgan jonlantirishlarni topib, ularning ahamiyatini izohlashni so‘rang.

AZIM SUYUN. “YOMG‘IR YOG‘IB O‘TDI…”
OMON MATJON. “OSMON SOG‘INCH KABI…”

Bu mavzuda biz:
– “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi...” va “Osmon sog‘inch kabi…” she’rlarida ifodalangan tuyg‘ularni solishtiramiz;
– sinkveyn (besh qatorli she’r) tuzishni mashq qilamiz.

Mavzuga ajratilgan jami soat:	**2 soat**
Mavzuga ajratilgan soatlarning taqsimlanishi (tavsiyaviy):	
Kirish. Azim Suyunning “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi” she’rini tahlil qilish	1 soat
Omon Matjonning “Osmon sog‘inch kabi” she’rini tahlil qilish. Solishtirish. Ijodiy ish	1 soat

KIRISH

1. O‘quvchilarga Azim Suyun va Omon Matjon ijodidan namunalarni qiyoslab tahlil qilishingizni e’lon qiling.

2. “Mualliflar bilan tanishamiz” ruknida Azim Suyun va Omon Matjon hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni o‘qishdan avval o‘quvchilardan ular haqida bilgan, eshitganlarini so‘rang. Shundan so‘ng har ikki muallifning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarni mustaqil o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. Qaysi ma’lumotlar ularning e’tiborini tortganligini so‘rang va fikrlarini dalillashiga e’tibor qarating. Har bir ijodkorga xos xususiyatlarni o‘quvchilaringiz bilan birga muhokama qiling. Muhokamadan so‘ng o‘quvchilarga quyidagi grafik orqali ijodkor hayotini solishtirishni ayting.

Ikki ijodkorga xos xususiyatlarni solishtiring	
Azim Suyun	**Omon Matjon**

Oila a’zolaringiz, do‘stlaringiz bilan tabiat qo‘yniga dam olishga chiqqanmisiz? Shunday paytlarda o‘zingizni qanday his qilgansiz?

Guruhlarda ishlang.
Tabiat biz uchun nimasi bilan muhim? Chizmani daftarda davom ettiring.

Tabiat biz uchun muhim, chunki ... → ... biz ham tabiatning bir bo‘lagimiz. → _____ _____ → _____ _____

3. “Mutolaaga tayyorlanamiz” ruknida darslikda berilgan savollar orqali o‘quvchilarni tabiat lirikasini tushunishga tayyorlang. Ularning tabiat haqidagi fikrlarini tinglang. Bildirilgan fikrlarning mantiqan asoslanganligiga alohida e’tibor bering. Muhokama so‘ngida o‘quvchilarning qarashlarini xulosalab, eng yaxshi fikr egalarini rag‘batlantirishni unutmang.

SHE’RLARNI MUTOLAA VA TAHLIL QILISH


Azim Suyunning “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi” she’rini ifodali o‘qib bering, so‘ng o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qing. Darslikda berilgan savollar asosida she’rni tahlil qilishni boshlang. O‘quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko‘nikmasiga egaligiga e’tibor bering.

O‘quvchilardan savollarga javob olgach, ularning javoblarini umumlashtiring va o‘zingizning fikrlaringiz bilan xulosalang. Shundan so‘ng o‘quvchilarga “Akrostix she’r” nomli quyidagi topshiriqni uyga vazifa qilib bering.

Izoh: akrostix she’r – she’rning mazmuniga aloqador so‘zlar yozilib, o‘sha so‘zlarning xususiyati, sifatlari va unga tegishli bo‘lgan jumlalar keltiriladi.

Masalan:

T – tog‘lar
A – adirlar
B – bulut
I – ifloslanish
A – anhor
T – toshlar



T –
O –
G‘ –



Q –
U –
Y –
O –
SH –



B –
U –
L –
U –
T –



IKKINCHI SOAT

Omon Matjonning “Osmon sog‘inch kabi” she’rini bitta o‘quvchiga ifodali o‘qiting. Shundan so‘ng o‘quvchilarga “Mening tabiatga sayohatim” nomli topshiriqni bering. Bunda ular she’rni tinglagandan so‘ng nimalarni ko‘rdi, nimalarni eshitdi va hokazolarni jadvalga joylashtirishadi.

“Muhokama qilamiz” ruknidagi savollar asosida she’rni tahlil qilish bosqichiga o‘ting. O‘quvchilarning javoblarini baholashda fikrini hayotiy misollar bilan yoki matn asosida dalillash ko‘nikmasi mavjudligiga e’tibor bering. She’rni tahlil qilib bo‘lgach, o‘quvchilarning fikrlarini umumlashtiring.

Sinfni guruhlarga bo‘ling. Darslikdagi “Solishtiramiz” ruknidagi savollar yordamida she’rlarni solishtirish vazifasini bering. Guruhlarning fikrlarini tinglang va umumlashtiring.

Sinkveyn nimaligini tushuntiring, misol keltiring. Tabiat bilan bog‘liq obrazlardan (yomg‘ir, osmon, bulut, tog‘, lola va hokazo) birini tanlab, asosida guruhlarda sinkveyn tuzish vazifasini bering. Sinkveynlarni eshitib, muhokama qilish jarayonida ulardagi obrazlarga va o‘quvchida (tinglovchida) qanday hislar uyg‘otishiga e’tibor bering.



FANLARARO ALOQA: ADABIYOT VA TASVIRIY SAN’AT

Bu mavzuda biz:
– kechinmalarning tasviriy san’at va adabiyotda tasvirlanishini solishtiramiz.

Mazkur darsda o‘quvchilar inson kechinmalarining badiiy adabiyotda va tasviriy san’atda tasvirlanishini solishtiradilar hamda rasm asosida hikoya tuzishni mashq qiladilar. Mazkur dars o‘quvchilarga adabiyotning so‘z san’ati sifatidagi vazifasini va unda qo‘llanadigan vositalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

1. Darsni muhokama bilan boshlang. So‘ralayotgan vaziyat deyarli har bir o‘quvchi uchun tanish bo‘lishi kerak. Muhokama jarayonida o‘quvchilarning kechinmalariga e’tibor qarating.

Bironta fandan “ikki” baho olib, uydagilardan dakki eshitganmisiz? Shunday paytda o‘zingizni qanday his qilgansiz? Ko‘nglingizdan nimalar kechgan?

2. O‘quvchilarni guruhlarga bo‘ling. Rasmda tasvirlangan vaziyatni, ona va o‘g‘il kechinmalarini, ularning kechinmalarini tasvirlash uchun rassom qo‘llagan vositalarni tahlil qilib, jadvalni to‘ldirish vazifasini bering.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab ijod etgan rus rassomi Aleksey Korinning “Yana yiqildi” asarida gimnaziyadagi imtihondan yiqilib kelgan o‘g‘il va uning oila a’zolari holati tasvirlangan. Asarda realistik plastika va nozik ranglar jilosi orqali xonaga cho‘kkan og‘ir sukunat aks etgan. Imtihondan o‘ta olmagan o‘g‘il boshini ko‘tarishga jur’at qila olmay, stoldagi bir nuqtaga tikilgancha, qo‘li qaychida turibdi. Ona o‘ychan, qo‘lini chakkasiga tiragancha boshqa nuqtaga tikilmoqda. Uning o‘g‘lidan hafsalasi pir bo‘lganligini sezish mumkin. U o‘g‘liga qaramaydi, o‘g‘il esa unga. Faqat singil akasiga qaramoqda: balki, u akasining ko‘nglini ko‘tarmoqchi, “Hammasi yaxshi bo‘ladi”, demoqchidir? Deraza va ochiq eshikdan xonaga kirayotgan nur ham ko‘ngillarga yorug‘lik bag‘ishlaydi, kelajakka umid uyg‘otadi.

Guruhlarning javoblarini tinglang, sinf bilan muhokama qiling, turli guruhlar e’tibor qaratgan detallarni solishtiring.

3. O‘quvchilarga matnni o‘qib chiqish uchun vaqt bering. Rasm va matndagi holatning o‘xshash va farqli jihatlarini solishtiring.

Hikoyada ham rasmdagi kabi uch kishi: ona va ikki farzand. Farzandlardan biri – o‘g‘il “ikki” olgan. Suratdagi ona o‘ychan bo‘lsa, asardagi ona jahli chiqqanini yashirmayapti, farzandini koyiyapti. “O‘v, sen qachon odam bo‘lasan, lapashang”, “bez bo‘lib o‘tirmasdan javob ber”, “Go‘rni tayyorlaysanmi” singari jumlalar uning sabr kosasi to‘lganligini, jahl otiga minganligini ko‘rsatmoqda. Suratdagi onada jahl-

dan ko‘ra hafsalasi pir bo‘lish, og‘ir o‘ylarga cho‘mish holatini kuzatishimiz mumkin. Suratdagi o‘g‘il boshini eggancha bir nuqtaga tikilib turgan bo‘lsa, asardagi o‘g‘il o‘zini oqlashga, vaziyatni yumshatishga harakat qilmoqda.

Rassom ona va o‘g‘il kechinmalarini ularning yuz ifodasi va tana holati orqali ifodalagan bo‘lsa, adib ulardagi o‘zgarishlarga (“tomog‘imdan hech narsa o‘tmasdi”, “yorildim”, “ovozim xirillab zo‘rg‘a chiqdi”, “oyimning ranglari o‘zgardi”), nutqiga (onaning “shirin” so‘zlari, o‘g‘ilning o‘zini oqlashga harakat qilishi, xirillashi, ming‘illashi) e’tibor qaratgan.

4. Guruhlarda ishlashni davom ettiring. Rassom Abdulhaq Abdullayevning “Buvi va nevara” kartinasi asosida kichik hikoya tuzish vazifasini bering. Guruhlarning hikoyalarini eshitib, muhokama qilishda qahramonlar kechinmalarini tasvirlash uchun ishlatilgan vositalarga e’tibor qarating. Darsni xulosalang.

TAKRORLASH

Mazkur takrorlash darsi topshiriqlari Azim Suyunning “Darada (Manzara)” she’ri va G‘afur G‘ulomning “Soyalar” hikoyasidan olingan parcha asosida shakllantirilgan.

1. She’rda tong otishi, quyosh chiqishi, tunda daraga cho‘kkan tumanning quyosh chiqishi bilan tarqalishi tasvirlangan.

2. “G‘imirlamoqda”, “ko‘tarilmoqda”, “tarqalmoqda” – uch fe’l tumanning tong otishi arafasidagi va quyosh chiqqandan keyingi holatlarini ko‘rsatmoqda.

3–4. O‘xshatishlar: “Ona qornidagi go‘dakday”, “Qo‘radan chiqishgan suruvdek”, “Osmon qozonida sut kabi”.

Izohlar turlicha bo‘lishi mumkin.

5–6. Metaforalar: “ko‘rinmas olov” – quyosh, “qudratli pahlavon” – uyqu, “osmon qozoni” – osmon.

Izohlar turlicha bo‘lishi mumkin.

7–8. Jonlantirishlar: “tun erib borar”, “yulduz ko‘zlarin uyqu eltmoqda”, “quyosh qo‘shiq kuylab kelmoqda”.

Izohlar turlicha bo‘lishi mumkin.

ADABIYOT DARSLARIDA QO‘LLASH MUMKIN BO‘LGAN USULLAR

FAOL O‘QISH MODELI

Faol o‘qish modeli xorijda adabiyot darslarida keng qo‘llanadigan usullardan biri bo‘lib, o‘quvchini **turli janrlarga** mansub badiiy asar olamiga olib kirishga, o‘quvchining asarni chuqurroq tushunishiga yordam beradi.

Faol o‘qish modeli quyidagi strategiyalarni o‘z ichiga oladi:

– **Bashorat qilish**: bunda o‘quvchi muallif, davr va mavzu haqida bilganlaridan kelib chiqqan holda asar (yoki o‘qilayotgan parcha) nima haqida bo‘lishi mumkinligini bashorat qiladi. Asarni (parchani) o‘qish davomida esa o‘zining bashoratlari qay darajada to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini kuzatib boradi. Bu strategiya o‘quvchida asarni o‘qishga ishtiyoqni (motivatsiya) oshirish, shu bilan birga, mavjud bilimlarni (sxemalarni) faollashtirish imkonini beradi.

– **Savol berish**: bunda o‘quvchi o‘ziga-o‘zi “nima bo‘lyapti?”, “nimaga shunday bo‘lyapti?”, “bu nima degani?”, “bu muhim ma’lumotmi?” singari savollarni beradi va asarni qay darajada tushunayotganligini monitoring qilib (tekshirib) boradi. Bu strategiya o‘qishning interfaolligini ta’minlaydi va o‘quvchiga o‘qilayotgan asardan ma’no yaratishga yordam beradi.

– **Aniqlashtirish**: bunda o‘quvchi asarni o‘qish davomida tushunmagan joylarini qayta o‘qib, o‘zi uchun mavhum bo‘lgan jihatlarini oydinlashtirib oladi.

– **Tasavvur qilish**: bunda o‘quvchi qahramonlarni, joyni, voqeani xayolan tasavvur qiladi. Bu strategiya o‘quvchini muhim detallarga e’tibor qaratishga undaydi va kerakli ma’lumotlarni yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi.

– **Bog‘lash**: bunda o‘quvchi asarda tasvirlangan qahramonlar, voqea-hodisalar, joylar, kechinmalarni o‘z hayotiy tajribasi yoki o‘qigan boshqa asarlari bilan solishtiradi. “Sxemalar nazariyasi”dagi “yangi bilimlar mavjud sxemalarga mos tushganda samaraliroq o‘zlashtiriladi” tamoyili asosida bu strategiya o‘qilayotgan asarni yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

– **Tagma’noni tushunish (inferensiya)**: bunda o‘quvchi muallif ochiq aytmagan ma’noni ilg‘ab olishga harakat qiladi. Bu strategiya asar qahramonlarini va ularning xatti-harakatlarini, pirovardida asarda ko‘tarilgan mavzular va asar maqsadini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Inferensiya asardagi detallarga tayangan holda umumlashma xulosalar chiqarishga asoslanadi.

– **Takrorlash**: bunda o‘quvchi asarning o‘qilgan qismini o‘z so‘zlari bilan qayta hikoya qiladi. Agar o‘quvchi asarni o‘qish davomida biron-bir grafik organayzer (jadval, diagramma va hokazo) to‘ldirib borgan bo‘lsa, takrorlash jarayoni osonroq kechadi. Bu strategiya o‘quvchilarni muhim ma’lumotlarni saralab, umumlashtirishga va tahlil qilishga o‘rgatadi.

– **Xulosa yasash:** bunda o‘quvchi asarning har xil qismidan olingan ma’lumotlarni (detallarni) birlashtirib, asar qahramoni, voqea, hodisa haqida umumiy xulo-

saga keladi. Bu strategiya ham o‘quvchilarni muhim ma’lumotlarni saralab, umumlashtirishga va tahlil qilishga o‘rgatadi.

– **Reaksiya (munosabat) bildirish**: bunda o‘quvchi asarni o‘qish davomida ko‘nglida kechgan his-tuyg‘ulari, nima yoqqani va nima yoqmagani, asarning diqqat tortgan jihatlari bilan o‘rtoqlashadi. Ma’lumki, o‘quvchiga emotsional ta’sir qilgan narsa yaxshiroq o‘zlashtiriladi va esda qoladi, shuning uchun bu strategiya o‘quvchining emotsional reaksiyasi orqali asarning chuqurroq tushunilishini ta’minlaydi.

– **Baho berish**: bunda o‘quvchi asar qahramonlari, undagi voqea-hodisalar va umuman asarga nisbatan o‘z munosabatini shakllantiradi, ularga o‘zining bahosini beradi. Bu strategiya o‘quvchini kognitiv ko‘nikmalarning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga olib chiqishga yordam beradi.

She’riy asarlar bilan ishlashda faol o‘qish modelining o‘zgartirilgan variantini qo‘llash mumkin. Bu model quyidagi strategiyalarni o‘z ichiga oladi:

– **Eshitish:** she’rni ovoz chiqarib o‘qing. She’r qanday jaranglashiga va ritmiga e’tibor bering. Shoir tovushlardan qanday foydalanganligiga, ular tinglovchiga qanday ta’sir qilishiga diqqat qiling.

– **Tasavvur qilish:** she’r sezgi organlaringizga qanday ta’sir qilayotganini kuzating. She’rni o‘qish (tinglash) davomida nimalarni tasavvur qildingiz, nimalarni eshitdingiz, nimalarni his qildingiz?

– **Reaksiya bildirish:** she’r sizga qanday ta’sir qildi? Xayolingizdan nima o‘ylar, ko‘nglingizdan nima kechinmalar o‘tdi? Qanday xotiralarni yodga soldi?

– **Savol berish:** shoir nimalar demoqchiligini tahlil qiling. Bu qatorda (misrada, to‘rtlikda) nima haqda gap ketyapti? Shoir kimga (nimaga) murojaat qilyapti? Ushbu simvol (obraz) nimani bildiradi? Shoir nimaga ayrim so‘zlarni (misralarni) qaytaryapti?

– **Aniqlashtirish:** misralarni (to‘rtliklarni yoki butun she’rni) o‘z so‘zingiz bilan aytib bering.

– **Talqin qilish:** she’r sarlavhasi she’ring mazmunini ochib berishga qanday xizmat qiladi? Shoir o‘quvchiga qanday asosiy g‘oyani yetkazmoqchi? She’rning har xil ma’nolari bo‘lishi mumkinmi?

Dramatik asarlar bilan ishlashda esa faol o‘qish modelining quyidagi strategiyalarini qo‘llash mumkin (bunda o‘quvchilar asarni o‘qish davomida o‘zlari uchun har bir strategiyaning muhim savollariga javob izlaydilar):

– **Vizualizatsiya (xayolda tasavvur qilish**): sahnada nimani ko‘ryapman? Qahramonlar qanday kiyingan? Ular sahnada qanday harakat qilishadi, qanday gapirishadi, o‘zlarini qanday tutishadi?

– **Quloq tutish:** aktyorlar qanday gapirishi kerak? Rollarini ijro etayotganida qaysi so‘zlarga urg‘u berishi, obrazning ichki kechinmalarini ovoz orqali qanday yetkazib berishi kerak?

– **O‘ziga o‘zi savol berish:** nima bo‘lyapti o‘zi? Qahramon nega bunday deyapti yoki qilyapti? Uning maqsadi nima?

– **Hayot bilan bog‘lash:** hayotimda shu obrazga o‘xshagan insonlarga duch kelganmanmi? Shu vaziyatda men nima qilgan bo‘lar edim?

– **Bashorat qilish:** keyin nima bo‘ladi? Kim nima deydi, nima qiladi, o‘zini qanday tutadi?

– **Tahlil qilish:** bu obrazni muallif qanday tasvirlayapti? Sahnadagi voqealar bilan muallif tomoshabinlarga nima demoqchi?

– **Kechinmalarga quloq tutish:** Bu asar menda qanday taassurot qoldirdi? Bu asarda menga nima yoqdi? Nima yoqmadi?

Quyida taniqli amerikalik yozuvchi, Nobel mukofoti sovrindori Ernest Hemingueyning “Dahshatli kutish” hikoyasi misolida faol o‘qish modelining qo‘llanishi ko‘rsatilgan. Ushbu namunadan foydalangan holda modelni o‘quvchilar yoshiga mos boshqa asarlarda qo‘llab, adabiyot darslarida, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda va to‘garaklarda foydalanishi uchun materiallar yaratishingiz mumkin.

Ernest Heminguey

DAHSHATLI KUTISH

TASAVVUR QILING: Muallif qo‘llagan so‘zlar asosida bolaning yuz ifodasini tasavvur qiling. Uning kayfiyati haqida nima deya olasiz? **TAHLIL QILING:** Ota va o‘g‘il suhbatida qaysi so‘zlar va lingvistik vositalar gapirayotgan qahramonni aniqlash imkonini beradi?	O‘rinda yotarkanmiz, u derazani yopish uchun xonaga kirdi, ko‘zimga kasaldek ko‘rindi. Yuzlari bo‘zday oppoq, og‘riqning zo‘rligidan bazo‘r harakat qilar, qaltirardi. – Nima bo‘ldi, toychoq? – Boshim og‘riyapti. – Borib yot. – Yo‘q. Tuzukman. – Joyingga borib yot. Hozir kiyinib, oldingga tushaman. Men pastga tushganimda u kiyinib o‘choq yonida o‘tirardi. To‘qqiz yashar murg‘akning rangida rang yo‘q edi. Peshonasiga qo‘limni qo‘yib, harorati borligini bildim. – Kirib yot,– dedim unga. – Kasalsan. – Tuzukman, – dedi u. Ko‘p o‘tmay doktor keldi, bolaning isitmasini o‘lchadi. – Qancha? – deb so‘radim undan. – Haddan ortiq baland… Bir yuz-u ikki. Doktor ko‘rsatma berib, uch xil dori qoldirdi. Bolani tumov deb aytdi, o‘tib ketadi, harorati u qadar xavotirli emas, dedi. Xonamga qaytib, bolaning haroratini yozib qo‘ydim-da, dori berilgan vaqtni belgiladim. – Biron narsa o‘qib beraymi? – Mayli. Agar xohlasangiz, – dedi bola. Uning yuzi oppoq, ko‘zlari kirtayib ketgandi. To‘shakka mixlanib xayol suradi xolos. Men Hovard Paylning “Dengiz qaroqchilari haqida doston”idan eng qiziq hikoyani o‘qib berdim, biroq uning bunga mutlaqo e’tiborsizligi sezilib turardi. – Qalaysan, toychoq? – deb so‘radim undan. – Hamishagidek, – deya javob berdi u. Men uning oyoq tomoniga cho‘kib, keyingi dori berish vaqtiga qadar kitob o‘qidim. Uxlab qolar, deb o‘ylovdim, qaydam – karavot oyog‘iga tikilib, jimgina yotibdi.

BAHO BERING: Muallifning qisqa dialoglar orqali xarakterlar yaratish mahoratiga baho bering. **TAHLIL QILING:** Ushbu manzara o‘quvchida ijobiy tasavvur uyg‘otadimi yoki salbiy? Nima uchun?	– Nega uxlamayapsan? Dori ichiladigan payt o‘zim uyg‘otaman. – Uxlamaganim yaxshi… Siz ketavering, dada… agar malol kelayotgan bo‘lsa… – Yo‘g‘-e, nima deyapsan, o‘g‘lim. – Ha, anglashimcha… agar malol kelsa… yonimda turmaysiz… Ehtimol, u alahsirayotgandir deb o‘yladim va soat o‘n birda beriladigan dorisini ichirib, tashqariga chiqdim. Havo ochiq, kun sovuq edi. Qor muzga aylangan edi, go‘yo yalang‘och daraxtlar, kallaklangan butalar, o‘t-o‘lan, taqir yer – bari muz bilan qoplangan edi edi. Men itimni olib, muzlagan irmoq bo‘ylab ozgina sayohat qildirdim, biroq shishaga aylangan yo‘lda yurish qiyin edi: it sirpanib ketdi, men ham ikki marta yiqildim, bir marta miltig‘im muz ustida ancha masofaga ketdi. Uyga qaytsam, bola xonasiga hech kimni kiritmayapti, deb aytishdi. – Kirmang, kasali yuqishi mumkin,– deyishdi. Men ichkariga kirib, asta karavotga yaqinlashdim. Uning qovog‘i isitmadan pir-pir uchar, hanuz ko‘zi karavot oyog‘ida edi. Haroratini o‘lchadim. – Qancha?– deb so‘radi u. – Ancha tushibdi. – Demak, najot yo‘q…– deya xo‘rsindi u. – Kim shunday dedi? Harorating joyida… Qo‘rqinchli joyi yo‘q. – Qo‘rqayotganim yo‘q, – dedi u, – lekin… o‘ylaganim sari… – O‘ylama.
BASHORAT QILING: Bola nimadan siqilyapti deb o‘ylaysiz? Otasi unga yordam berish uchun nima qilishi mumkin?	– Bo‘lmayapti-da,– dedi u va menga qadaldi. U nimadandir qattiq siqilardi. – Manovini suv bilan ich. – Foydasi bormikan? – Albatta-da, foydasi bor. O‘tirib, yana “Qaroqchilar”ni o‘qiy boshladim, lekin uning quloq solmayotganini ko‘rib to‘xtadim. – Men qachon o‘laman, ota?– deb so‘radi u. – Nima?! – Men qachon o‘laman? – Sen… o‘lmaysan… Nima bo‘ldi o‘zi senga? – Mengami? Uning: “Haddan ortiq baland”, deganini eshitdim… – Odamlar qirq daraja isitmaga chidaydi-ku. Ahmoqona xayollarni qo‘y.

ANIQLASHTIRING: Bola nima uchun “o‘limini kutib” yotgan? Otasi “o‘lchagichlar har xil bo‘ladi” deganda nimani nazrda tutmoqda? **XULOSA QILING:** Bola sizda qanday taassurot qoldirdi? Uning xarakterini qanday tasvirlash mumkin?	– Men bilaman o‘lishimni, Farangistondaligimizda maktabdosh bolalar menga qirq to‘rt daraja harorat bilan yasholmaysan, deb aytishgan. Meniki – bir yuz-u ikki. U tun bo‘yi, hatto ertalabki soat to‘qqizgacha o‘zining o‘limini kutib yotgan ekan. – Ay, toychog‘im-a,– dedim men.– Sen o‘lmaysan. Axir o‘lchagichlar har xil bo‘ladi-ku. Xuddi milya bilan kilometrdek. U o‘lchagichda o‘ttiz yetti daraja binoyi harorat hisoblanadi, bunda esa to‘qson sakkiz daraja. – Rostdan-a?– dedi u hayratlanib. – Haqqast rost. O‘ylab ko‘r, mashinada o‘n yetti milya yursak, qancha kilometr bo‘ladi? – Ha… U bo‘lak karavot oyog‘iga tikilib xo‘rsinmay qo‘ydi. Yuziga ham rang kirgandek bo‘ldi. Keyingi kuni esa arzimas narsani ko‘ngliga olib, xarxasha qildi…

Ingliz tilidan O‘roq Ravshanov tarjimasi

“O‘YLAB KO‘RING – BIRGALIKDA ISHLANG – FIKR ALMASHING”

“O‘ylab ko‘ring – birgalikda ishlang – fikr almashing” usulida o‘quvchilar o‘qilgan matn bo‘yicha savollarga javob berish yoki muammoga yechim topish maqsadida birgalikda ishlaydilar. Ushbu metod o‘quvchilardan mavzu yoki muammo ustida individual fikr yuritish va sinfdoshlari bilan fikr almashishni talab qiladi. Shuningdek, mazkur usul o‘quvchilarni sinfdoshlari bilan fikr almashishga o‘rgatadi va og‘zaki muloqot ko‘nikmalarini shakllantiradi. Hamkor bilan muhokama qilish ishtirokni maksimal darajada oshiradi, diqqatni jamlaydi va o‘quvchilarga materialni tushunishda yordam beradi.

Usulni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

O‘qib, tahlil qilinishi kerak bo‘lgan matnni tanlang va uning mazmuniga qaratilgan savollar tuzing yoki muammoni ifodalang. Bunda aniq bitta javobga ega savollardan yoki bitta to‘g‘ri yechimi bo‘lgan muammolardan qochish tavsiya qilinadi. Qo‘yiladigan savol yoki muammo o‘quvchilarni o‘ylashga undaydigan bo‘lishi kerak.

O‘quvchilarga maqsadni tushuntiring va muhokama uchun yo‘nalish bering. O‘quvchilar ko‘rsatmalaringizni qay darajada tushunganliklarini tekshirish uchun jarayonni modellashtiring (namuna ko‘rsating).

O‘quvchilarning ishlarini kuzatib boring va lozim o‘rinlarda qo‘llab-quvvatlang:

Usulni qo‘llash bosqichlari:

Birinchi bosqich – “o‘ylab ko‘ring”. O‘qituvchilarga matn va u bilan bog‘liq savollar yoki muammoni bering. Matnni o‘qib, savollar yoki muammo yuzasidan mushohada yuritishlari uchun vaqt belgilang.

Ikkinchi bosqich – “birgalikda ishlang”. O‘quvchilarni juftliklarga yoki kichik guruhlarga bo‘ling. Ular savol yoki muammoni muhokama qilishlari va birgalikda yechim topishlari lozim.

Uchinchi bosqich – “fikr almashing”. Har bir juftlik yoki guruh o‘z javoblarini yoki muammoning yechimini sinfdoshlari oldida taqdimot qiladi. Buning uchun ikkinchi bosqichda tayyorlangan ko‘rgazmali materiallardan ham (jadval, diagramma, rasm va h.k.) foydalanish mumkin.

Usulni qo‘llash jarayonida quyidagi shakldagi tarqatma materialdan ham foydalanish mumkin:

Quyidagi matnni va savollarni o‘qing.

1) O‘ylab ko‘ring. Ushbu savol yoki muammo bo‘yicha uchta fikr (yechim) yozing:

1._____

2._____

3._____

2) Birgalikda ishlang. G‘oyalaringizni sherigingiz (sheriklaringiz) bilan muhokama qiling. Yuqorida yozgan fikrlardan qaysilarini sheringiz ham yozgan? Belgilang.

Sherigingiz (sheriklaringiz) sizda bo‘lmagan qanday fikrlarni (yechimlarni) taklif qilishyapti? Yozing.

1. _____

2. _____

3._____

3) Fikr almashing. Barcha fikrlarni (yechimlarni) ko‘rib chiqing va eng muhim deb hisoblagan fikrlaringizni doiraga oling. Ushbu fikrlarni (yechimlarni) sinfga taqdim qilasiz. Boshqa juftliklar (guruhlar) taqdimotini tinglash jarayonida o‘zingizga yoqqan yana uchta fikrni yozib oling:

1. _____

2. _____

3._____

“YO‘NALTIRISH – O‘QISH – MUSHOHADA YURITISH”

Mazkur usul matn bilan faol ishlash va uni tahlil qilishga yordam beradi.

Usulni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

Matn tanlang va uni qismlarga bo‘ling (o‘qish jarayonida o‘quvchilar to‘xtashlari lozim bo‘lgan nuqtalarni belgilab oling). Bunda o‘quvchilarning yoshi va bilim darajasini hisobga oling.

O‘quvchilarni darsning maqsadi bilan tanishtiring.

O‘qituvchilar matnni o‘qishdan oldin sarlavha, xatboshilar, rasmlar va matnning boshqa xususiyatlarini ko‘zdan kechiradilar. “Aqliy hujum” metodidan foydalangan holda o‘quvchilarning matn mazmuni va uning tuzilishi haqidagi taxminlarini biling.

Bunda “Sarlavhaga ko‘ra, matn nima haqida bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” yoki “Rasmlarga qarang. Asarda kimlar ishtirok etadi?” singari savollardan foydalanish mumkin.

Matnning boshini (birinchi gapini) o‘qib bering. O‘quvchilar bu qism nima haqida bo‘lishini, unda qanday voqealar sodir bo‘lishini bashorat qiladilar.

O‘quvchilar matnning birinchi qismini (birinchi to‘xtash nuqtasigacha bo‘lgan qismini) o‘qib chiqishlari uchun vaqt bering. O‘quvchilarning matnga oid bashoratlarini matn bilan solishtiring va muhokama qiling. O‘quvchilarning fikrlarini matn bilan dalillashlariga e’tibor qarating. Muhokama uchun quyidagicha savollardan foydalanishingiz mumkin:

– Qaysi bashoratlaringiz to‘g‘ri bo‘lib chiqdi? To‘g‘ri bashorat qilishda sizga nima yordam berdi?

– Qaysi bashoratlaringiz noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi? Nima uchun? Nimalarni hisobga olmagan edingiz?

– Qaysi bashoratlaringiz mavhum bo‘lib qoldi (ularni tasdiqlash yoki inkor qilish uchun matnda yetarli ma’lumot berilmagan)? Matnning keyingi qismlarida ular oydinlashadi deb o‘ylaysizmi?

Bu jarayon o‘quvchilar matn bilan to‘liq ishlab bo‘lguncha davom etadi.

Usulni qo‘llash jarayonida quyidagi shakldagi tarqatma materialdan ham foydalanish mumkin:

Matn (asar): _____

Bashorat	To‘g‘ri / Noto‘g‘ri / Mavhum	Matndan dalil

ODIL YOQUBOVNING “MUZQAYMOQ” HIKOYASI ASOSIDA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI


Quyida Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi asosida uch bosqichli yondashuvga asoslangan namunaviy dars ishlanmasi keltirilgan. Mazkur ishlanmani o‘rganib, undan keyin berilgan savollar yordamida tahlil qilishingizni tavsiya qilamiz. Umid qilamizki, bu sizga adabiyot darslari va to‘garaklari uchun qo‘shimcha materiallar tayyorlashda nimalarga e’tibor berish mumkinligi haqida muayyan tasavvurlar beradi.

MUTOLAADAN OLDIN

Quyida keltirilgan plakatda tasvirlangan va hujjatda keltirilgan davr haqida nimalarni bilasiz?

NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissarligi) degan tashkilot haqida eshitganmisiz? U qanday tashkilot edi?

Sizningcha, “xalq dushmani” iborasi nimani bildirgan bo‘lishi mumkin?

		
NKVD emblemasi	1930-yillar plakati. Mazmuni: “Ogoh bo‘l! Har qanday niqob ostidagi dushmanni fosh qil!”	Ichki Ishlar Xalq Komissari Beriyaning Iosif Stalin va Politbyuroga yozgan xati. Qisqacha mazmuni: “NKVD qamoqqa olingan xalq dushmanlari (457 kishi) ustidan tergovni tugatdi. 346 kishiga nisbatan otish jazosi, qolgan 111 kishiga nisbatan 15 yildan kam bo‘lmagan muddatga surgun jazosi. Ruxsat berishingizni so‘raymiz”.

MUZQAYMOQ

O‘sha oilamiz boshiga og‘ir kulfat tushgan kuni men, o‘n yashar bola, nimadandir ko‘nglim g‘ash, uyimiz ro‘parasidagi paxsa devorga chiqib, o‘zimcha go‘yo otga minib o‘tirardim.

U mahalda biz Turkiston shahrining eng so‘lim joylaridan biri – Lager ko‘chasida ikki xonadan iborat, oldi ayvon, o‘sha zamon imkoniyatiga ko‘ra tuzukkina uyda istiqomat qilardik. Bu uyning kattagina hovlisi ham bor edi. Ikki qavatli ulkan darvoza orqali kiradigan bu hovlida bizdan tashqari yana bir nechta xonadon yashardi. Darvozaning ustida quruq pichan saqlanadigan boloxona bo‘lar, biz, bolalar oqshom paytlari berkinmachoq o‘ynaganda boloxonaga chiqib pichan tagida “jon saqlardik”.

Oilamiz boshiga musibat tushgan o‘sha mash’um kundan bir necha oy muqaddam dadam uyimizdagi deyarli barcha kitoblarni uch-to‘rt qopga solib, beda tagiga yashirgan-u, boloxona eshigiga otning kallasidek qulf osib qo‘ygandilar. Endilikda boloxonaga hech kim kirolmas, faqat men goho-goho tuynukdan tushib, qoplardagi kitoblarni, ayniqsa sersurat, qalin kitoblarni tuynuk shu’lasiga solib, tomosha qilib o‘tirishni yoqtirardim.

O‘YLAB KO‘RING:
Nega bolaning dadasi kitoblarni boloxonaga yashirdi?

Bu suratlar ham juda g‘alati, ularning aksari charm palto kiyib, bellariga qilich va to‘pponcha taqib olgan harbiy, ba’zilari esa ot o‘ynatgan, qizil alvon ko‘tarib dushman sari ot surib ketayotgan mard-u maydonlar bo‘lsa ham, negadir barchasining ko‘zlari o‘yib olingan yoki yuzlariga ko‘k siyoh tortilgan edi. Nega shunday? Men bu sir-asrorning tagiga yetolmay qiynalardim, dadamlardan so‘rashga esa yuragim dov bermas, sababi dadamlar qahri qattiq odam edi, “bu kitoblarni senga kim ko‘rsatdi” deb dashnom berishlari mumkin edi.

TUSHUNTIRIB BERING:
Kitoblarda surati tasvirlanganlar kimlar? Nega ularning ko‘zlari o‘yib olingan yoki yuzlariga ko‘k siyoh tortilgan edi?

O‘sha qora kun ham, nimadandir ko‘nglim notinch, kitob titish esimga tushib tomga chiqdim. Ammo tanish tuynukka yaqinlashganimda ko‘chaning boshida qo‘sh ot qo‘shilgan chiroyli foytunga ko‘zim tushdi. Sal o‘tmay, foytun darvozamiz ro‘parasiga kelib to‘xtadi. Undan o‘sha paytlarda barcha kattalar uchun rasm bo‘lgan yashil rang galife shim va gimnastyorka kiygan o‘rta yashar ikki kishi bilan qizil ko‘ylakli, ko‘zlari qiyg‘och bir ayol tushdi. Erkaklardan biri tomda meni ko‘rib qolib:

– Egamberdi Jaqipovning uyi shulma? – deb so‘radi.

– Shu, – dedim men. Shu payt hovlidan chiqqan oyimlarning:

– Kelinglar, mehmonlar, xush kelibsizlar, – degan ovozi eshitildi. Men boloxona ustunidan sirpanib, yerga sakrab tushdim. Mehmonlar ichkariga kirishgan, oyimlar allaqanday hayajonda edilar.

– Dadangning mahkamasiga chop! – dedilar oyimlar negadir shivirlab – Ayt: SAKUda birga o‘qishgan og‘aynilaringiz kelishdi, de! Kutib o‘tirishibdi, tezroq kelar ekansiz, de! Ha aytmoqchi, biryo‘la maktabga borib, onang bilan pochchangga ham ayt – tezroq kelishsin. Dasturxon-pasturxonga qarashib yuborishsin!

Men negadir, aftidan “mehmon” so‘zidan ko‘nglim yorishib, ikki oyog‘imni qo‘limga olib chopa ketdim. Garchi pochcham bilan katta opamlar o‘qituvchilik qiladigan maktab dadamlar ishlaydigan mahkamadan xiyla narida bo‘lsa-da, avval o‘sha tomonga o‘tib, oyimlarning gapini opamlarga aytdim, so‘ng hamon ikki oyog‘im qo‘limda, yalangoyoq, yalangbosh, ko‘cha changitib dadamlarning mahkamasiga qarab chopdim.

Dadamlar bir mahallar Qozog‘iston Xalq komissarlari kengashi qoshida tuzilgan mayda millatlar (asosan o‘zbeklar) xalq komissari lavozimida ishlagan. SAKUni tugatganlaridan keyin esa hozirgi Chimkent viloyatining Sayram rayonida birinchi kotib, keyinroq esa Qozog‘iston temir yo‘li Siyosiy boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari vazifalarida xizmat qilganlar. Lekin keyingi yillar “Otang so‘fi bo‘lgan, sen buni yashirgansan” degan aybnoma bilan pastga surila-surila, yumalay-yumalay oxir-pirovardida Turkiston tumani moliya bo‘limiga mudir etib tayinlangan edilar.

BILIMINGIZNI ISHGA SOLING:
Komissar, so‘ngra rayonda birinchi kotib, hozir esa tuman moliya bo‘limiga mudir. Bu ma’lumotdan bolaning dadasi haqida qanday xulosa chiqarish mumkin?

Rahmatli buvamlar Yoqub (jonlari jannatda bo‘lg‘ay!) haqiqatan Qarnoq qishlog‘ining eng katta masjidida to inqilobgacha so‘filik qilgandilar. Odamlarning aytishicha, u kishining ovozlari shu darajada zo‘r bo‘lgan emishki, har subhidam masjid mezanasiga chiqib azon aytganlarida nafaqat o‘n ming kishilik Qarnoq ahli, balki o‘ttiz chaqirim naridagi Turkiston namozxonlari ham eshitgan emishlar. Shu boisdan Qarnoq ahli buvamlarning ismlariga “shayx” so‘zini qo‘shib, Yoqub shayx deb ataganlar... Lekin o‘n oltinchi yilgi qattiq qurg‘oqchilikda bobomiz Yoqub shayx og‘ir ahvolga tushganlar. Shu bois otamiz oilasini boqa olmay, bir-ikki qo‘y, bir-ikki qop g‘alla evaziga bir boyning o‘g‘li o‘rniga mardikorlikka ketganlar-u, uyoqdan bolshevoy bo‘lib qaytganlar. Shu-shu, ota-bola biri – shayx, biri – bolshevoy, qip-qizil sinfiy dushmanga aylanganlar.

ESLANG:
Mardikorlikka ketish, bolshevoy ...
Qaysi davr voqealari haqida gap ketmoqda?

Dadamlarning mahkamasi ulkan savdogar qurgan va endilikda partiya qo‘mitasi joylashgan ko‘rkam binoning shundoq biqiniga joylashgan edi. Men borganimda dadamlar ham idoradan chiqqan ekanlar. Meni uzoqdan ko‘rib darvoza oldida to‘xtadilar. Dadamlar to‘ladan kelgan, novcha, qirraburun, o‘sha davrda rasm bo‘lgan to‘mtoq mo‘ylovli, xushqad, salobatli kishi edilar. Egnidagi libosi hozir xotiramda yo‘q, agar yanglishmasam, o‘sha mahalda Stalinga taqlidan kiyiladigan ko‘krak

cho‘ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o‘sha zamonlarda rasm bo‘lgan g‘arch-g‘urch xrom etik.

Rahmatlik dadamlar, uyqusizlikdanmi, boshqami – ko‘zlari qizargan, allaqanday horg‘in ko‘rindilar menga. U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari sal yorishib:

– Yur, bolam! – dedilar boshimni silab. – Senga bitta muzqaymoq oberay!

Boya aytganimdek, dadamlar diydasi qattiqroq, o‘ktam, kamgap odam edilar. O‘sha kungacha men u kishining biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim. Aksincha, hanuz esimdan chiqmaydi: dadamlar ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala oxir pirovardida qishloqqa qaytib, uyda ko‘kragini zaxga berib yotgan paytlar. Bir kun oyimlar qo‘limga pul va ikki-uch litrli grafin (dadamlar katta lavozimlarda ishlagan mahalda orttirgan nodir matoh) tutqazib:

– Do‘konga kirib qimiz olib chiq, dadang aytdilar! – dedilar.

Do‘konga kirsam qimiz tugagan ekan. Men parvoyi falak, qo‘limdagi grafinni o‘ynatib uyga qaytdim. Yo‘lim yog‘och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozoridan o‘tardi. To‘satdan nimadir “shaq” etdi. Qarasam, qo‘limdagi grafin temir qoziqlardan biriga tegib, tangaday joyi o‘pirilib tushibdi. Yuragim orqamga tortib ketdi. Uyga qaytishga jur’at qilolmay anchagacha bog‘imiz poyidagi soy bo‘yida aylanib yurdim. Nihoyat yuragimni hovuchlab uyga kirib bordim. Oyimlar meni ko‘rib:

– Qayoqlarda daydib yuribsan, bevosh? Dadang sho‘rlik kutaverib diqqinafas bo‘p ketdilar-ku! – deb koyidilar, so‘ng grafindagi teshikka ko‘zlari tushib, qo‘limdan ushlagancha ichkariga sudradilar.

Dadamlar ulkan, chorxari uyimizning to‘rida kitob varaqlab, yonboshlab yotardilar..

– Do‘konda qimiz yo‘q ekan, bu ham yetmagandek, o‘g‘lingiz grafinni sindirib qo‘yibdi... – Oyimlar shunday deb grafinni dadamlarning oldidagi xontaxtaga qo‘ydilar.

Keyinchalik oyimlar bu ishlaridan pushaymon bo‘lib ko‘p gapirganlar. “Nega shunday qilganimni o‘zim ham bilmayman, bolam, dadanglarning nochor ahvoli hammamizni ezib qo‘ygan edi”, deguvchi edilar, rahmatlik.

Dadamlar shitob bilan qadlarini rostladilar-u xontaxtadagi grafinni olib, menga qarab otdilar. Zarb bilan otilgan grafin shundoq qulog‘im tagidan o‘tib (chamasi, jon holatda boshimni olib qochgan bo‘lsam kerak!) devorga tegib chil-chil sindi.

Men tura qochdim, qocharkanman, oyimlarning:

– Qimiz ham o‘lsin! Qimiz deb bolamni o‘ldirmoqchimisiz, adasi? – degan achchiq faryodini eshitdim.

XULOSA CHIQARING:
Bu epizoddan bolaning dadasi haqida qanday fikrga keldingiz?

Oyimlarning aytishicha, keyinchalik dadamlar ham bu qilmishidan pushaymon bo‘lganlar. Kim bilsin, ehtimol boshiga og‘ir musibat tushishini sezib yurgani uchundir, ehtimol bir mahal dilimga ozor bergani esiga tushib, uni ko‘nglimdan chiqarmoqchi bo‘lgandir, har qalay, umrimda birinchi bor boshimni silab, muzqaymoq oberishga ahd qildilar.

Ko‘chaning narigi yuzida shahar bog‘i bo‘lar, bog‘ oldidagi maydonchada har xil suv, meva sharbatlari, muzqaymoq sotiladigan mitti-mitti do‘konchalar bo‘lardi. Borsak, do‘konlar yopilgan ekan. Dadamlar astoydil ranjidilar.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim, bu ham nasib qilmadiyov, bolam! – dedilar u kishi allaqanday chuqur o‘kinch bilan.

Uyga borganimizda chiroqlar yongan, hovlidagi o‘choqqa qozon osilgan, bizdan avval yetib kelgan katta opamlar bilan oyimlar o‘choq atrofida kuymalanib yurishar, pochchamlar ko‘rinmas edilar.

Dadamlar ichkariga kirib ketdilar-u darhol qaytib chiqdilar. Chehralari ochilgan, kayflari chog‘ edi.

– SAKUda birga o‘qigan eski qadrdonlarim kelishipti. Qalay, tuzukroq go‘sht-po‘shtlaring bormi, Gulshan? – dedilar dadamlar oyimlarga qarab. – Bor bi-sotingni dasturxonga to‘kasan bugun...

Marhum volidamizda jindak shaddodlik bo‘lardi.

– Siz qozon-o‘choq atrofida aylanavermay, ichkariga kirib mehmonlaringizga qarayvering! – dedilar shartta kesib.

Dadamlar oyimlarning bu sal yasama qo‘rsligiga kulimsirab, ichkariga kirib ketdilar.

Hovlimizda, shundoq o‘choq yonida bir tup gujum o‘sar, gujum tagida chuqur quduq bo‘lar, issiq yoz va iliq kuz kunlari go‘shtni shu quduqda asrardik.

Oyimlar menga quduqdan go‘sht olib ber, dedilar. Men quduq chang‘irog‘ining dastasini aylantirib, go‘sht osilgan changakni torta boshladim-u, to‘satdan ko‘cha-dan kirib kelgan ikki harbiyga ko‘zim tushib, negadir yuragim orqamga tortib ketdi. Ular o‘choq atrofida kuymalanib yurgan oyimlar bilan opamlarga bir qarab qo‘ydi-lar-da, etiklari bilan yerni tap-tap bosib ayvonga chiqishdi. Ayvondan uyga kirishdi. Harbiylarni ko‘rishlari bilanoq turgan joylarida tosh qotib qolgan oyimlar bilan opam-lar birdan dod solishib, uyga qarab yugurishdi. Quduq chang‘irog‘ini beixtiyor qo‘yib yuborib men ham ketlaridan chopdim.

TAHLIL QILING:
Nega harbiylarni ko‘rib bolaning yuragi orqasiga tortib ketdi?
Oyisi bilan opasi nega dod solishdi?

Men o‘sha paytlar mamlakatimizda va hatto shahrimizda nima bo‘layotganidan bexabar edim, albatta, shu bois oyimlar bilan opamlarning harbiylarni ko‘rishlari bilanoq faryod chekib, ichkariga otilishlari sababini anglamadim. Ammo ular mud-hish maqsad bilan kelishganini aql bilan bo‘lmasa-da, yurak bilan his etgandim. Ke-yin bilsam, o‘sha davrda hamma joyda bo‘lganidek,Turkistonda ham har kuni, har daqiqada ko‘plab odamlar hibsga olingan ekan. Oyimlar va opamlar bundan boxa-bar bo‘lganlari uchun ham harbiylarni ko‘rib dod solishgan ekan. Eshikdan kirishim bilan harbiylardan biri – novchadan kelgan, malla sochlarining uchlari qoshlariga nafis egilib tushgan xushsurat o‘ris kapitan polni g‘arch-g‘urch bosib, eshikka kel-di-da, uning ilmog‘ini solib:

– Tintuv tutaguncha endi hech kim uyga kirmaydiyam, chiqmaydiyam! – dedi yurakka g‘ulg‘ula soluvchi bir qat’iyat bilan.

Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o‘rta eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo‘yniga osilib yig‘lamoqda, oyimlar ham dadamlarning yelkasiga suyanib, unsiz titramoqda, kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tiqilishib, xuddi kalxatlardan qo‘rqqan jo‘jalarday, ko‘zlari ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi.

Ikki tavaqali o‘rta eshik ochiq, ichkari xonaning to‘rida SAKUda dadamlar bilan birga o‘qigan mehmonlar, ranglarida rang yo‘q, tippa-tik serrayib turishardi. Ikkinchi harbiy esa ichkari uydagi katta qizil shkafga terilgan kitob va albomlarni bitta-bitta ko‘zdan o‘tkazmoqda edi.

Kitoblarning deyarli hammasi qizil jildli Lenin asarlari edi. Tintuv boshlagan harbiy Lenin asarlariga tegmas, qalin, sersurat albomlarni esa varaqlab ko‘rib bepisand, yerga tashlar edi. Hanuz esim-da: bu albomlar ham xuddi boloxonadagi kitoblar kabi, allaqanday rahbarlarning suratlariga to‘la bo‘lib, ularning ham aksari allaqachon qamalgani uchun (buni men keyin bildim, albatta) yuzlariga ko‘k siyoh chaplangan, ko‘zlari o‘yib olingan, ba’zi suratlarning kallalari “kesib” tashlangan edi. Bepisand harbiy (agar yanglishmasam, u ham kapitan edi) albomlarni ko‘zdan kechirarkan, dam ulardagi ko‘zlari o‘yilgan, boshlari “kesilgan” suratlarga, dam dadamlarga qarab:

– Ko‘rinib turibdi, ja g‘oyaviy ekanlar! – derdi miyig‘ida kulimsirab.

Xushsurat mallasoch kapitan esa tashqi xonadagi qutilar, sandiq va sandiqchalar, shkaflarning tortmalarini ochib, ulardagi buyumlarni titkilar, latta-puttalar orasidan allanimalarni qidirar edi. Navbatdagi shkafga kelganda harbiy urinmasin, uning pastki tortmalarini ocholmadi. Uyda birorta sandiq, yo shkaf yo‘q ediki, men uni ocholmasam. Kapitanning qiynalayotganini ko‘rib, men qo‘limga mix oldim-u pildirab borib shkafning tortmasini shartta ochib berdim. Kapitan chehrasi yorishib kuldi-da:

– Malades! – dedi boshimni silab. – Kelgusida zo‘r odam chiqadi sendan!

OYLAB KO‘RING:
Nega harbiy bolani maqtadi?

Kapitanning bu kutilmagan maqtovidan yuragim “jiz” etdi. Keyinchalik, katta bo‘lganimda men uydagi dod-faryodga qaramasdan otamni qamashga kelgan jallodning maqtovidan bir zumgina bo‘lsa-da yayrab ketganimni har eslaganimda bir o‘zimdan ijirg‘anib yurdim. Ammo o‘sha daqiqada, afsus-nadomatlar bo‘lsinkim, uning so‘zlaridan g‘ururlanib ketganim ham haqiqat, mudhish haqiqat!

Shu payt dadamlarning:

– Suv! – degan ovozlari eshitildi. – Bir piyola quduq suvi beringlar, yuragim kuyib ketyapti!

Uyda suv yo‘q ekan. Opam yig‘idan to‘xtab:

– O‘rtoq kapitan! – dedilar hiqillab. – Ruxsat bering, ukam quduqdan suv olib kirsin!

Kapitan shkaf tortmasidan boshini ko‘tarib:

– Agar dod-voyingni qo‘ysang – ruxsat beraman! – dedi va kuldi: – Shunday chiroyli qiz ham bunaqa yig‘loqi bo‘ladimi?

Kapitanning opamlarga qilayotgan soxta xushomadi yoqmadi. Lekin nima ham qilardim? Chelakni olib tashqariga otildim. Hovlidagi chiroq o‘chgan, ayvondan uzoqroqda, quduq yonidagi gujum panasida kimdir qoqqan qoziqdek qaqqayib turardi. Bu – pochchamlar edi. U lom-mim demasdan qo‘lidagi chaqaloqni menga tutqazib, quduqdan yarim chelak suv olib berdi-da, sharpasiz odimlab hovlining qorong‘i burchagiga qarab ketdi.

BAHO BERING:
Pochchasi ketib to‘g‘ri ish qildimi?

Keyinchalik marhum oyimlar ko‘p aytguchi edilar:

– O‘sha kuni pochchangni xudo o‘zi asradi! Agar pochchang opang bilan birga kelganida, kim bilsin, uni ham birga opketisharmidi bu toshbag‘irlar?

Oyimlarning bu gapida jon bor edi, chunki tintuv tutab, dadamlarni olib ketayotganlarida harbiylar SAKUchi sho‘rlik mehmonlarga Turkistondan ketishdan avval NKVDga borib, ruxsat olishlari shart ekanini uqtirishib, qo‘llaridan tilxat olishdi.

Men yarim chelak suvni ko‘tarib, ichkariga kirganimda dadamlar stulda o‘tirib, oyoqlari tagida hamon dod solib yig‘layotgan katta opamlar bilan oyimlarni tinchitishga urinardilar. Azaldan qoramag‘iz odam, dadamlar bir zumdayoq bamisoli olovda qolgan archadek qorayib ketgandilar. Oyimlar tokchadan kosa olib berdilar. Dadamlar bir kosa muzday quduq suvini bitta sipqorib:

– Qo‘y, yig‘lama, qizim, yig‘lama, Gulshan! – dedilar og‘ir hansirab. – Hukumat oldida tariqcha gunohim yo‘q! O‘rtoq Stalin tirik ekan, bu tuhmatlardan qutqarib oladi hali!

Dadamlar quduq suvini kosalab sipqorar edilar-u shu bitta gapni qayta-qayta takrorlardilar:

– Hukumat oldida begunohman, Gulshan! O‘rtoq Stalin barhayot ekan, bizni bularning oyog‘i ostiga tashlab qo‘ymaydi!

OYLAB KO‘RING:
Dadasi Stalin haqidagi gaplarni chin dildan aytdimi?

Men hozir shaxsga sig‘inish davrining mudhish kirdikorlari, mudhish inqilob dohiylari, ayniqsa, Stalin hukmronligi davrida yuz bergan shafqatsiz qatl-u qirg‘inlar, million-million begunoh kishilarning boshiga tushgan g‘urbatlar, ota boladan, bola otadan ayrilib, odamlarning ko‘zyoshi daryo bo‘lib oqqan o‘sha zimiston yillar haqida o‘ylaganimda dadamlarning Stalin to‘g‘risida gaplarini eslab, hayron bo‘laman. “Nahot otam bu qirg‘inbarotni ko‘rmagan-sezmagan bo‘lsalar, nahot Stalin bu jabr-u sitamlardan bexabar edi degan sodda, bemantiq so‘zlarga ishongan bo‘lsalar?”, degan fikr bot-bot ko‘nglimdan o‘tadi.

Lekin unday desam... o‘sha davrda hukm surgan inqilob chavandozlari orasida mash’um Inqilobning soxta otashin chaqiriqlar, jo‘shqin qo‘shiqlar, alvonlari, “dohiy”ning alangali nutqlariga astoydil ishongan, bo‘layotgan qatl-u qirg‘inlarning hammasi insoniyat baxti uchun qilinyapti degan mudhish yolg‘onga uchgan soddadil, oqko‘ngil odamlar oz bo‘lganmi?

Albatta, yurakni zirqiratuvchi bu o‘ylar mening xayolimga ko‘p yillardan keyin o‘sha davrlardagi dahshatli voqealar fosh qilinib, ko‘zimiz ochilganda keldi. U mahalda esa...

Bilmadim, tintuv qancha davom etdi. Lekin dadamlar quduq suvini sipqora-sipqora, “O‘rtoq Stalin sodiq farzandlarini xor-zor qilib qo‘ymaydi”, degan gapni takrorlay-takrorlay yarim chelak suvni ichib tugatganlari hanuz esimda.

Men keyinchalik, bu gapni aytsam ko‘plar ishonmay:

– Qo‘ying-e, odam bolasi yarim chelak suvni icha oladimi? – deguvchilar ham bo‘ldi, ammo men, o‘n-o‘n bir yashar bola, buni o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman, dadamlarning o‘sha so‘zlarini o‘z qulog‘im bilan eshitganman! Ichi yonib ketayotgan odam yarim chelak u yoqda tursin, bir chelak suvni ham ichadi!

Nihoyat, tintuv tugadi. Dadamlarga kiyinishni buyurdilar. Oyimlar bilan opamlarning nolasi ko‘kka chiqib, uyimiz achchiq faryoddan zir titradi. Oyimlar dadamlarning yelkasiga paltosini ildilar. SAKUni bitirgan sho‘rlik mehmonlarga tuzalgan dasturxondan ilingan narsani ro‘molga tugib, qo‘llariga tutqizdilar.

Boyagidan ham battar qorayib, bir zumda allaqanday ozib, munkayib qolgan dadamlar avval hamon faryod chekayotgan oyimlar bilan opamlar, so‘ng qaqshab-qaltirab qolgan ukalarimning peshonalaridan o‘pdilar-u, navbat menga kelganda:

– Hay, attang! – dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. – Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘luvdim. Shuniyam evlayolmadimov, bolam!..

Butun tintuv davomida ko‘zimga yosh olmagan, “kelgusida zo‘r odam bo‘lasan”, degan so‘zlardan shishib ketgan norasida birdan hamma narsa – dadamlarning hech qachon erkalamaganini ham, do‘kondan qimiz topolmay qaytganimda grafinni qulochkashlab otganlari ham – hammasi esimdan chiqdi-yu alamli chinqiriq bilan dadamlarning tizzalarini quchoqlab oldim...

...Bir necha oy o‘tdi. Bu orada xonadonimiz motamsaro bir makonga aylandi. Qish yaqinlashib qolgan, kun sayin uning qahrli nafasi kuchayib borar, uyda esa na o‘tin bor, na ko‘mir!.. Biz tancha qurib, bir amallab kun kechiramiz.

Haftada bir marta, yanglishmasam, shanba kunlari dadamga ovqat olishadi. Oyimlar bir amallab topgan-tutganlarini pishiradilar-u tong mahal u kishi bilan birga avaxtaga ravona bo‘lamiz.

Turkistonda Qul Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O‘rta Osiyoni zabt etgan general Chernyayev qurdirgan besh-oltita mustahkam g‘ishtin binolar bo‘lardi. Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan. Sho‘ro hokimiyati esa ularni qamoqxonaga aylantirgan-u atrofini tikanli sim bilan o‘rab tashlagan.

Har shanba tikanli sim bilan chegaralangan bu qal’a ro‘parasiga kamida 150–200 ayol, chol-kampirlar yig‘ilishadi, bular “xalq dushmanlari”ning oila a’zolari. Yosh-yosh juvonlar qaqshab-qaltirab qolgan keksalar hibsxona xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydirab turishadi. Oyimlar qamoqxonaga gohida meni ham yetaklab borishlariga sabab – mabodo dadamlar bilan yuz ko‘rishish nasib etsa, otamlar meni ko‘rib qolsinlar degan niyatda edilar. Lekin dadamlarni biror marta ko‘rsatishmadi, ko‘rsatishmaganlari ham mayli, bot-bot olib borgan ovqatlarimizni qabul qilmasdan qaytarib yuborishardi. Goho men

bir necha soat mahtal bo‘lib kutganimdan keyin biror bahonani ro‘kach qilib, hibs-xonaning shundoq yonginasidagi shahar bog‘iga qarab chopardim. U yerda xudoning kuni borki, miting bo‘lar, shahar maktablaridan nog‘oralar gumburi va karnay-surnaylar sadosi ostida bolalar saf tortib bog‘ga kelishardi. Bog‘ o‘rtasiga qizil alvon bilan o‘ralgan ulkan minbar o‘rnatilgan bo‘lib, charm palto kiygan, to‘pponcha taqqan faollar unga chiqib va’z aytishar, va’zlarning aksariyati trotskiychilar va ularning “dum”larini fosh qilishga bag‘ishlanardi. Bu va’zxonliklarning dahshatli tomoni shunda ediki, bugun Trotskiyning “dum”larini fosh etib, otashin nutq so‘zlagan notiqlarning aksari ertasiga o‘zlari “dum”ga aylanib, fosh etilganlar ro‘yxatiga tushib qolishardi.

TAHLIL QILING:
Qamoqxonadagi vaziyatni bola qanday tasvirlayapti?
“Trotskiychilar” va ularning dumlari kimlar?

Meni bu mitinglarga borishga nima chorlaganini hanuz tushunolmayman. Aftidan, karnay-surnay va nog‘oralar sadosi, saf tortib o‘tadigan tengdoshlarimning quvnoq va jo‘shqin qo‘shiqlari bo‘lsa, ajab emas. Chunki bu gumbur-gumbur sadolar, otashin qo‘shiqlar qulog‘imga chalinishi bilan xuddi nog‘oraga o‘rgangan harbiy otday oyoqlarim o‘z-o‘zidan raqsga tushib, yuragim hapriqib ketaverardi. Faqat bir narsa murg‘ak qalbimni ezar, u ham bo‘lsa, minbardan turib aytiladigan nutqlarda ba’zi-ba’zida dadamlarning nomi ham “dum”lar qatori tilga olinadi. Lekin shunday paytlarda dadamlarning Stalin to‘g‘risidagi so‘zlari esimga tushardi-yu yuragimga quyilib kelgan alamli tuyg‘uni haydardim. Bu hol toki shahar yoshlar qo‘mitasining kotibi bilan yuzma-yuz kelgunimcha davom etdi.

Bu yosh, xushqad, xushsurat yigitcha bizga qo‘shni edi. Oilamiz boshiga musibat tushgunga qadar u xonadonimizga bo‘zchining mokisidek qatnar, dadamlar bilan kechalari uzoq suhbatlashib o‘tirardi. U o‘sha yozda uylangan, xotini ham, o‘ziga o‘xshash ko‘hlik, xushqad, xushsurat edi. Damlar ularning to‘ylariga to‘yboshi bo‘lgan, oyimlarning aytishicha, dadamlar unga moddiy yordam ham bergan ekanlar.

Dadamlar qamalganlaridan keyin yon qo‘shnimiz qorasini ham ko‘rsatmaydigan bo‘ldi. Bunga ajablanmasa ham bo‘lardi, chunki shogird tugul qarindosh-urug‘lar ham bu og‘ir, g‘urbatli kunlarda uyimizni chetlab o‘tishar, bitta-yarimta kelsa ham, kechalari qo‘rqa-pisa kelib, so‘ng devor panalab qaytib ketardi.

BAHO BERING:
Qo‘shni va qarindoshlar nega bu oiladan o‘zlarini olib qocha boshladilar?
Ularning bunday harakatlarini oqlash mumkinmi?

Shanba kuni edi. Chamasi, qamalganlar soni ko‘paygan, chunki avaxtaga ovqat ko‘tarib kelganlar soni ancha ortgan, navbat kutayotganlarning dumi ko‘rinmasdi. Kun sovuq, sevalab mayda yomg‘ir yog‘ardi. Shu boisdanmi, boshqami, oyimlar men so‘ramasdanoq uyga ketishimga ruxsat berdilar. Men tinimsiz maydalab yog‘ayotgan yomg‘irdan diydirab, uyimizga tomon ravona bo‘ldim-u to‘satdan bog‘ tomonda yangragan nog‘oralar gumburi-yu karnay-surnaylar sadosini eshitib, beixtiyor to‘xtadim.

Nog‘oralar va karnay-surnaylar sadosi tobora avjga chiqmoqda, chamasi, odatdagidan ham katta miting boshlanmoqda edi. O‘rgatilgan otga o‘xshab yana nog‘oralar gumburlayotgan tomonga burildim. Haqiqatan ham yomg‘irga qaramay, bolalar har tomondan saf-saf bo‘lib bog‘ga yopirilib kelishardi.

Darvozaga yaqinlashib qolganimda nogahon ro‘para tomondan kelayotgan qo‘shnimiz – shahar yoshlar qo‘mitasining kotibiga ko‘zim tushdi. U bir o‘zi emas, charm paltolik harbiy odam bilan uch burchak soqol qo‘ygan, jikkakkina mo‘ysafid qurshovida kelardi.

Kotibni ko‘rishim bilan yuragim negadir “shuv” etib, bog‘ga sho‘ng‘ishga chog‘landim, ammo kotib bir sakrashda yo‘limni to‘sib, bilagimdan shappa ushladi-da:

– Ha, qashqirdan tug‘ilgan qashqircha! – dedi titroq bosib. – Bitta shaltoq buzoq bir to‘da podani buzadi! Bo‘yningga soxta qizil galstuk taqib, bu sofdil qizil pionerlarni buzmoqchimisan? – U qo‘limni og‘ritib siqqancha o‘ziga torta boshladi. Lekin shu payt jikkak mo‘ysafid:

– Qo‘yib yubor, bolapaqirni, – dedi oraga tushib.– O‘rtoq Stalin aytdi-ku, bola otasi uchun javob bermaydi, deb? Gunohi nima bu norasidaning!

Yosh kotib qovog‘idan qor yoqqanicha bir qariyaga, bir charm paltoli harbiyga qaradi-da, qo‘limni qo‘yib yubordi va: “Yo‘qol ko‘zimdan!” deb o‘shqirdi.

BAHO BERING:
Qo‘shni yigitning ozini bunday tutishini qanday izohlaysiz?

Shundan keyin nima bo‘ldi, nima qo‘ydi – hozir esimda yo‘q, faqat kotibning omburdek metin changalidan chiqdim-u tomog‘imni g‘ip bo‘g‘gan ko‘z yoshini yuta-yuta, saf-saf bo‘lib o‘tayotgan baxtli tengdoshlarim yonidan katta ko‘cha tomon otildim...

Dadamlar hibsga olingandan so‘ng uch-to‘rt oy o‘tdi hamki, u kishi bilan biror marta ko‘risha olmadik. Butun shahar hanuz tahlikada, hamma joyda, hatto maktablarda ham dushman qidirish hamon davom etardi. Sira esimdan chiqmaydi. O‘sha yili ulug‘ rus shoiri Pushkin vafotining 100 yilligi nishonlanar edi. Bu g‘amgin sanaga atalib qanaqa tadbirlar belgilandi, qanaqa kitoblar chiqarildi, qanaqa majlislar, adabiy kechalar o‘tkazildi – buni bilmayman. Ammo o‘sha sanaga atalib o‘quvchilar uchun daftar chiqarilgani yodimda. Million-million nusxada chiqarilgan bu daftarlarning oldi muqovasida bolalikdan hammamizga tanish jingalak soch, habashchehra shoirning surati solingan, muqovaning oxirgi betiga esa shoir ertaklaridan biriga chizilgan surat berilgan edi. Avvalboshda hech qanday gap yo‘q edi. Keyin to‘satdan shaharda, jumladan, men o‘qiydigan maktabda ham vahimali mish-mishlar tarqaldi. Go‘yo Pushkin yubileyiga chiqarilgan bu daftarlar, to‘g‘rirog‘i, daftar muqovasidagi suratlarga aksilinqilobiy so‘zlar bitilgan emish! Kimki Pushkinning soch va soqollari, ayniqsa, muqova oxiridagi ertaklarga chizilgan suratlarni e’tibor bilan ko‘zdan kechirsa, shoirning jingalak sochlari-yu ertaklarga chizilgan suratlarni hushyorlik bilan nigohidan o‘tkazsa, makkorona bitilgan aksilinqilobiy so‘zlarni topishi mumkin emish!

TAHLIL QILING:
Qanday qilib Pushkin suratiga va Pushkin ertaklariga chizilgan rasmlarga davlatga qarshi so‘zlarni yashirish mumkin?

Men o‘qiydigan 3-“A” sinfida yoshi anchaga borgan, tishlari to‘kilib qolgan, ammo juda muloyim, mehribon rus kampiri dars berardi. Bir oydan beri bu kampir – hozir ism-shariflari yodimda yo‘q – kasal bo‘lib, o‘rniga yosh tatar yigitcha dars bera boshlagan edi. Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo‘shni bo‘lmish ray-kom kotibining qaynisi bo‘lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o‘qrayib qa-ray boshlagan edi. Ammo hayotning o‘yinini qarangki, dadamlardan keyin bir hafta o‘tar-o‘tmas yosh o‘qituvchimizning pochchasi ham hibsga olinib, “xalq dushma-ni” deb e’lon qilingan edi. Shu-shu battar mung‘ayib, avvalgidan battar oqsoqlanib qolgan o‘qituvchi menga achinib qaraydigan, yo‘lakdami, hovlidami – tanho yurga-nimni ko‘rsa, boshimni silaydigan bo‘lib qolgandi. “Pushkin suratlari ichiga qabih aksilinqilobiy so‘zlar yozilgan emish”, degan gap tarqalgan kuni yosh o‘qituvchimiz sinfimizga juda xomush bir qiyofada kirib keldi. U mungli ko‘zlari bilan bolalarga uzoq tikilib turgach:

– Bolalar! – dedi allaqanday yolvorib. – Qani, kecha tarqatilgan daftarlaringni olinglar-chi! Haligi... muqovalariga Pushkin surati solingan daftarlaringni aytyap-man!.. Oldilaringmi? Ehtimol, eshitgandirsizlar, ashaddiy dushmanlarimiz makkoro-na chizilgan harflar vositasida SSSRga qarshi so‘zlar yozishipti! Bu mudhish so‘z-larni topgan bolalar bor. Ularning suratlari ertaga faxriy doskaga osiladi. Nahot biz-ning sinfimizda birorta hushyor o‘quvchi bola topilmasa? Qani, suratlarga yaxshilab qaranglar! Shoyad sizlar ham dushmanlarimizning bu qabih so‘zlarini topib, ularni fosh etsalaring!

Yosh o‘qituvchi shunday deb menga o‘zgacha bir umid bilan qarab qo‘ydi. Harqalay menga shunday tuyuldi-yu oldimdagi daftarga chizilgan suratlarga tikilib, jon-jahdim bilan makkorona chizilgan harflarni qidira boshladim...

Asablarim tarang tortilgan, miyam nazarimda laxchacho‘g‘ga aylangan edi. “Na-hot jonajon hukumatimizga qarshi yozilgan bu mudhish so‘zlarni topib, dushmanlar-ning kirdikorlarini fosh etolmasam? Yo‘q, topaman! Topganda ham birinchi bo‘lib to-paman. Ikkinchi bo‘lishning foydasi yo‘q!.. To‘xta, shoir yelkasidagi mana bu gajak tola nimani eslatadi? “S” harfining o‘zginasi-ku!.. Uning yonidagi gazak-chi! U ham “S”! Uning yonidagisi ham!” Mana bunisi “R”ning o‘zginasi-ku! Voy, tavba! Bu bat-tollar “SSSR” deb yozib qo‘yishibdi-ku, boyadan beri shuni ham ko‘rmapman-a?... Mana bu gajak tola-chi? Quyib qo‘ygandek “D” ku! Undan keyingi gajak-chi? “O”ning xuddi o‘zginasi-ku! “O” bo‘lgan joyda “L” ham bo‘lishi kerak? Mana “L”! Yonginasida esa “Oy”ga o‘xshash ikkita gajak qatorlashib turibdi! “Doloy SSSR!, ya’ni “Yo‘qolsin SSSR!” degan gap-ku bu!”.

O‘YLAB KORING:
Suratda davlatga qarshi yozuv bo‘lganmidi?

Men hayajondan nafasim bo‘g‘ilib:

– Topdim, muallim, topdim! – deb baqirib yubordim.

Majruh o‘qituvchim tekis polda qoqilib-surinib oqsoqlana-oqsoqlana yonimga keldi. Sinf to‘la o‘quvchilar ham “gurr” etib o‘rnilaridan turdilar-da, ustimga yopirildilar.

Men xuddi bezgak tutgandek dir-dir titrab, ulug‘ shoirning jingalak sochlari orasidan topgan mudhish harflarni ko‘rsata boshladim. Nihoyat, ko‘rsatib bo‘lib, tengdoshlarimga mag‘rur qaradim. Sinfga cho‘kkan og‘ir sukunat ichidan to‘satdan o‘qituvchimizning:

– Malades! – degan xitobi eshitildi. – Hushyor pioner deb shuni aytadilar!

Hamma menga hasad bilan qarar, men o‘zimni chinakam qahramon his qilardim.

– Qani, daftarlaringni yig‘ib beringlar! Bir soatdan keyin sport maydoniga butun maktab to‘planadi. Hammamiz birga bu mudhish daftarni yoqish marosimida qatnashamiz!

O‘qituvchimiz oqsoqlana-oqsoqlana sinfdan chiqib ketdi, lekin bir soat tugul ikki soat o‘tdi hamki, u qaytmadi. So‘ng daftarlarni yoqish marosimi boshqa kunga qoldirilibdi degan xabar keldi-yu uy-uyimizga tarqaldik.

Kechqurun men kunduzi bo‘lgan voqeani hayajondan entika-entika oyimlarga aytib berdim.

Oyimlar men kutgan maqtov o‘rniga:

– Hoy, bolamov, bolamov! – dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. – Senga nima bo‘ldi, bolamov!

– Menga nima bo‘pti? Nega bunday deysiz, oyijon? – dedim ranjib.

– Hech nima... Iloyo dadangga o‘xshab qahri qattiq bo‘lma. Ollodan bitta-yu bitta tilagim shu, bolam.

TAHLIL QILING:
Nega onasi bunday dedi?

Oyimlarning gapiga yaxshi tushunmadim. Ertalab maktabga, to‘g‘rirog‘i, zalda osilgan hurmat taxtasiga qarab chopdim. Nadomatlar bo‘lsinkim, ro‘yxatga bir necha marta ko‘z yugurtirib chiqdim: yo‘q, na nomim, na suratim bor! Dushmanning yovuz kirdikorini fosh etgan hamma hushyor pionerlarning surati hurmat taxtasiga osilgan-u, bitta mening suratim yo‘q! Aftidan, kimdir hushyorlik qilib xalq dushmani farzandining suratini hurmat taxtasiga osish mumkin emasligini aytib, mendan ham hushyorroq bo‘lgan!

Mana, bu voqealarning sodir bo‘lganiga yarim asrdan ko‘proq vaqt o‘tdi. Shaxsga sig‘inish davrining ne-ne jinoyatlari fosh etildi. Bu jinoyatlar qanday dahshatli bo‘lmasin, nazarimda, ularning eng yomoni – kattalar yetmagandek, menday go‘daklarni ham hamma narsaga shubha bilan qarash, hammayoqdan yovuz kirdikorlar qidirishga qaratilgan urinishlar deb bilaman.

Nihoyat dadamlar bilan vidolashadigan kun ham keldi. Vidolashishga uch kishiga ruxsat berishgandi: oyimlar, katta opamlar va menga! Shu boisdan bo‘lsa kerak, qarindosh-urug‘lardan hech kim, na dadamlarning ukalari, na yor-do‘stlari – hech kim kelmadi.

Oyimlar bilan opamlar kechasi uxlashmay, dadamlar uchun bug‘doy tolqon, so‘k tolqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi. Chunki bu payt dadamlar ozod bo‘ladi degan umid ojiz miltirab turgan shamday so‘ngan, u kishini uzoqlarga olib ketishlari chamasi oyimlarga ayon edi.

Ertalab to‘rva-xaltalarni ko‘tarib qamoqxonaga qarab yo‘l oldik. Bu safar bizni ko‘p kuttirishmadi. Beliga choynakdek to‘pponcha taqib olgan harbiy bizni uzun, tor, nimqorong‘i yo‘lakdan ichkariga boshladi. Yo‘lakning yarmiga borganda o‘ng qo‘ldagi eshikni ochib, bizga yo‘l berdi. Chog‘roqqina to‘rtburchak xonaning to‘ridagi stol oldida gimnastyorka kiygan, sochlari oppoq bir odam allanimalarni yozib o‘tirardi.

Dadamlar burchakda kursida o‘tirgan ekanlar (men avval u kishini tanimay qolibman!) biz kirishimiz bilan dik etib o‘rnidan turdilar. Azaldan barvasta, to‘ladan kelgan, novcha odam bir-ikki oy ichida cho‘pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko‘zlari kirtayib, qiyg‘ir burni so‘rrayib qolgandi.

Yana qamalgan kechasidagidek yig‘i-sig‘i boshlandi. Oyimlar-ku, yuzini ro‘moliga yashirib, jimgina titrab yig‘lar, lekin opamlar... dadamlarning bo‘yinlariga osilib olgan opamlarning faryodi tor xonani zir titratardi.

Keyinchalik marhum oyimlar ko‘p aytguchi edilar:

– Noinsoflar jilla qursa yarim soat ham fursat bermadilar. Dadang sho‘rlikning diydoriga ham to‘ymadik. Bergan chorak soatlari ko‘z ochib yumguncha o‘tib ketdi...

Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadamlar biror marta Stalinning nomini tilga olmadilar, qamalgan kunlaridagidek: “Men partiya oldida gunohkor emasman! O‘rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo‘ymaydi!”, – demadilar. Bil’aks, bir necha marta ko‘zlariga yosh olib:

– Meni kechir, Gulshan. Ayol boshing bilan besh bolani qanday boqasan – aqlim bovar qilmaydi. Endi yuz ko‘rishishimizga ham ko‘zim yetmaydi, kechir meni! – dedilar.

O‘YLAB KO‘RING:
Nega dadasi kechirim so‘radi?

Har safar dadam shunday deganlarida stolga mukka tushib, allanimalarni yozayotgan kishi:

– Hoy, Yoqubov! – derdi qog‘ozdan bosh ko‘tarmay.– Senga nima bo‘ldi? Yosh bolamisan, Yoqubov!

Nihoyat bu odam qarshisidagi devorga osilgan almisoqdan qolgan devor soatiga ko‘z tashlab:

– Fursat tugadi, Yoqubov. Endi xayrlashinglar! – deb buyurdi.

Opamlarning nidosi battar avjiga chiqdi. Oyimlar ozgina pul olib kelgan ekanlar, dir-dir titragan qo‘llari bilan dadamlarga tutdi, dadamlar esa:

– Bolalaringga yarat, Gulshan! – deb yolvorar edilar. Lekin oyim ko‘nmay, axiyri pulni olishga majbur qildilar.

Oyimlar keltirgan pul bor-yo‘g‘i ellik so‘m bo‘lib, o‘nta besh so‘mlikdan iborat edi. Dadamlar pulni qiynala-qiynala olarkanlar, besh so‘mliklardan birini menga uzatdilar. Oyimlar pulni mendan olib, dadamlarga qaytarib bermoqchi bo‘lgandilar, dadamlar ko‘nmadilar, kaftlarini boshimga qo‘yib:

– Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan, bolam, – dedilar va yana ko‘ziga yosh oldilar. – Oyingga yordamlashib, ukalaringga qarab turgin, bolam!

TAHLIL QILING:
“Sen endi bu uydagi eng katta erkaksan”. Dadasi nega bunday dedi?

Dadamlar shunday deb besh so‘mlikni cho‘ntagimga soldilar.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgan edim, bu ham nasib etmadi. Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o‘g‘lim!..

Boyadan beri oyim va opamlarga qo‘shilib yig‘lashni o‘zimga ep ko‘rmay serrayib turgan bola to‘satdan, xuddi dadamlarni olib chiqib ketayotgan paytlaridagidek yuragimda nimadir darz ketganday tuyuldi-yu NKVD xodimining maqtovlari ham, aksilinqilobchilar kirdikorlarini fosh etgan hushyor pioner ekanligim ham – bari yodimdan chiqib, “Dadajon!” degancha otamning tizzasini quchoqlab oldim.

Bu mash’um voqealardan keyin ko‘p yillar o‘tdi, ko‘p suvlar oqib ketdi. 1955 yili Xrushchyovning butun dunyoni larzaga solgan mashhur nutqidan keyin oilamiz shaxsga sig‘inish zulmidan jabr chekkan million-million oilalar kabi dadamlarning taqdirini, o‘lik yo tirik ekanini (ungacha yozgan o‘nlarcha xatlarimizning bittasiga ham javob ololmagandik) so‘rab, yuqori tashkilotlarga murojaat qildik.

Maktublarning bittasini Qozog‘iston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasiga, ikkinchisini SSSR Davlat xavfsizligi qo‘mitasiga yo‘lladik. Taxminan to‘rt-besh oydan keyin birin-ketin ikkita javob keldi. Javoblarning birinchisi Qozog‘iston Markaziy Qo‘mitasidan bo‘lib, unda dadamlarning partiyaviy ishi ko‘rib chiqilgani, u kishi Stalin shaxsiga sig‘inish qurboni bo‘lganligi e’tirof etilgani va 1918-yildan e’tiboran partiya a’zosi sifatida tiklangani xabar qilingan edi.

Ikkinchi javob Moskvadan, Davlat xavfsizligi qo‘mitasidan bo‘lib, unda aytilishicha, dadamlar Uzoq Sharqdagi qaysi bir o‘rmon xo‘jaligida daraxt kesuvchi bo‘lib ishlagan, 1943-yil qish oylarida (vaqti aniq aytilmagan) daraxt kesayotgan paytida yiqilib vafot etgan.

Birinchi javobdan farqli o‘laroq, bu xatda shunday ilova ham bor edi. Agar volidamiz (men yozgan xat, tabiiy, oyimlar nomidan bitilgan edi) nafaqa yoshida bo‘lsalar, u kishiga davlat tegishli miqdorda nafaqa to‘laydi. Agar oyimlarning turarjoyi bo‘lmasa, u kishi qo‘mitadan kelgan ushbu javob asosida shahar kengashiga murojaat qilib, navbatsiz uy oladilar...

Har ikkala xat ham haqiqatni qaror toptirish, adolatni tiklashga qaratilgan edi. Ammo men negadir, ehtimol, Uzoq Sharqda olti yil oddiy soldat bo‘lib, butun qiyinchiliklarni boshimdan o‘tkazganim uchundir, nogahon o‘zim ko‘rgan bepoyon sovuq o‘rmon, qor tagida egilib turgan daraxtlar, qish ko‘z oldimga keldi. Bir zum nigohim oldiga bu qorong‘i o‘rmonda behol imillab daraxt kesayotgan dadamlar keldi, keldi-yu, alam, iztirob, mehr-shafqat va xo‘rlik tuyg‘ulari toshqinday guvullab vujudimni qaqshatib yubordi.

“Yo‘q! Bu nopoklar 1918-yildan firqa a’zosi bo‘lmish otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni istamay, qahraton qishda ham o‘rmon kestirib, o‘limga mahkum etadilar-u, endi o‘z gunohlarini yuvish umidida judolik azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to‘larmishlar, boshpana berarmishlar! Yo‘q, men

bitta onamni ular bergan sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpana topib beraman!”

Xayolan shunday deb, yaxshi niyat bilan yozilgan ikki xatni burda-burda qilib yirtib tashladim...

BAHO BERING:
Hikoya qahramoni to‘g‘ri ish qildimi?

MUTOLAADAN KEYIN

Quyida Pushkin o‘limining yuz yilligiga bag‘ishlab chiqarilgan daftar muqovasi berilgan. Muqovadagi Pushkin suratidan “Doloy SSSR” (Долой СССР) degan yozuvni topishga urinib ko‘ring.

Badiiy asarda bayon qilinayotgan voqealardan oldin bo‘lgan voqeani eslash **retrospektiva** yoki **fleshbek** (inglizcha *flashback* – “ortga nazar”) deyiladi. Asarda retrospektiva qo‘llangan o‘rinni toping. Ushbu epizodsiz asar mazmunini to‘liq tushunish mumkinmi?

Asardagi voqealar bola tilidan hikoya qilingan. Voqealarni boshqa qahramonlar (otasi, onasi, otasining SAKUda birga o‘qigan orto‘qlari) nomidan hikoya qilib ko‘ring.

Asarning **kulminatsion** (eng yuqori) nuqtasini topib, sahnalashtiring.

Surgundagi otasi nomidan o‘g‘liga va o‘g‘li nomidan surgundagi otasiga xat yozing.

Quyida rus shoiri Osip Mandelshtam 1930-yillarda yozgan she’r keltirilgan. Bu she’r shoirning qamoqqa olinishiga sabab bo‘lgan. She’r “Muzqaymoq” hikoyasida tasvirlangan davr ruhiyatini qay darajada aks ettirgan? She’rda “tog‘lik” deb kim nazarda tutilgan?

Yashaymiz Vatanni goh sezib-sezmay,
Biroq ruhi hargiz ustuvor kezgay.
Kremldagi tund tog‘likni nogoh
Eslab, qudrat nima – bo‘lurmiz ogoh.
Uning barmoqlari misli semiz qurt,
Uning har so‘zidan titrar buyuk yurt.
Suvaraknikidek ko‘zlari nurli,
Cho‘tir chehrasida shaxt bor huzurli.
Tegrasi serta’zim dahochalardir,
Qahr-la mahv etar ularni bir-bir.
Arkonlar so‘z demoq payida garchand,
Faqat uning gapi hukmron, baland.
Nag‘al ulashgandek tarqatar farmon,
Kimgadir qalqon bu, kimga – laxta qon.
Kimdir – yer ostiga, kimdir – yuqori,
Shundan surur tuyar tog‘lik viqori.

ADABIYOT VA TARIX

Stalin davrida SSSRda hukm surgan tuzum tarixda **totalitar tuzum** deb nomlanadi. Asarni o‘qish davomida o‘rganganlaringizga tayanib totalitar tuzum va fuqarolik jamiyatining xususiyatlarini solishtiring. Jadvalni davom ettiring.

Totalitar tuzum	Fuqarolik jamiyati
Odamlar sud hukmigacha ham aybdor deb e’lon qilinishi mumkin.	Faqat sud birovning aybdor yoki aybsizligini hal qilishi mumkin.

ADABIYOT O‘QITUVCHISIGA: “MUZQAYMOQ” HIKOYASI BO‘YICHA NAMUNAVIY DARS ISHLANMASI TAHLILI

“Muzqaymoq” hikoyasi asosidagi namunaviy dars ishlanmasini tahlil qiling:

1. O‘qishdan oldin qanday topshiriqlar berilgan va bu topshiriqlarning maqsadi nima?

2. O‘qish davomida beriladigan topshiriqlarning qaysi turidan foydalanilgan? Bu strategiya o‘quvchilarga asarni tushunishda qay darajada yordam beradi?

3. Asarni o‘qish davomida qo‘yilgan savollar asarning tugun nuqtalarini qamrab olganmi? Siz asarning qaysi nuqtalariga savollar qo‘ygan bo‘lardingiz?

4. O‘qib bo‘lgandan keyingi topshiriqlarning qanday turlari ishlatilgan va ular nima maqsadga xizmat qiladi?

5. O‘qish davomidagi va o‘qishdan keyingi topshiriqlar kognitiv qobiliyatlarning yuqori bosqichlarini qamrab olganmi?

6. Adabiyot nazariyasining asarni yaxshiroq tushunishga yordam berishi ta’minlanganmi?

7. Personalizatsiyaga qaratilgan topshiriqlar mavjudmi? Siz asarni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash uchun qanday savol va topshiriqlardan foydalangan bo‘lardingiz?

8. Adabiyotning boshqa fanlar bilan integratsiyasi qanday ta’minlangan?

9. Asar bo‘yicha kulminatsion topshiriq mavjudmi? Siz qanday kulminatsion topshiriq bergan bo‘lardingiz?

O‘QUVCHILARNING O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY MATNLARDAN FOYDALANISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, xususan, 2030-yilgacha PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirish maqsad qilingan.

PISA tadqiqotlari Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan dunyoning ko‘plab davlatlarida har uch yilda o‘tkaziladi. Tadqiqotda ishlatiladigan testlar 15 yoshli o‘quvchilarning savodxonligini va maktabda olgan bilimlarini amaliyotda, hayotda qo‘llay olish qobiliyatini tekshirishga qaratilgan.

Tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri o‘qish savodxonligini baholashdir. PISA tadqiqotining rasmiy materiallarida “o‘qish savodxonligi” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “O‘qish savodxonligi o‘z maqsadlariga erishish, bilim va salohiyatini oshirish, jamiyat hayotida qatnashish maqsadida matnlarni tushunish, qo‘llash, ularga baho berish, ular ustida mushohada yuritish va ular bilan aloqaga kirishishdir”.

O‘qish savodxonligi bir qator lingvistik, kognitiv va metakognitiv kompetensiyalarni o‘z ichiga oladi:

– matnni tushunish: so‘zlarni dekodlash, leksik birliklarning ayni kontekstdagi ma’nosini anglash, grammatika va matn strukturasi (tuzilishi) bilan bog‘liq bilimlarni ishga solish, matndagi ma’lumotni tashqi dunyo haqidagi bilimlariga bog‘lash orqali matndan ma’no yaratish;

– qo‘llash: o‘qilgan matndan olingan bilimlarni turli maqsadlarda ishlatish;

– matnga baho berish: matnda ilgari surilgan fikrlar va dalillarga, muallif nuqtayi nazariga, matnning o‘quvchi maqsadiga muvofiqligiga baho berish;

– matn ustida mushohada yuritish: matn ustida ishlayotganda o‘z bilimi, fikrlari, tajribasiga tayanish, matndan olingan ma’lumot va o‘zining mavjud bilimlarini solishtirish va integratsiya qilish;

– matn bilan aloqaga kirishish: matn bilan ishlash uchun tegishli strategiyalarni ishga solish.

PISA uchun asos qilib olingan nazariy yondashuvga ko‘ra, matn bilan ishlash bir qancha jarayonlarni o‘z ichiga oladi:

– matndan ma’lumotni topish: maqsaddan kelib chiqqan holda ko‘z yugurtirish orqali, matnning tuzilishi haqidagi bilimlarini ishga solgan holda konkret so‘z yoki raqam bilan ifodalangan ma’lumotni topish;

– tushunish: bu o‘z navbatida ikki bosqichni o‘z ichiga oladi:

– ochiq aytilgan (eksplitsit) ma’lumotni tushunish;

– integratsiya (matndagi ma’lumotni tashqi dunyo haqidagi mavjud bilimlariga bog‘lash) orqali ochiq aytilmagan fikrlarni tushunish (inferensiya), matnni talqin qilish (interpretatsiya);

– baho berish va mushohada yuritish: bunga matnning sifati va ishonchliligiga

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

baho berish, mazmun va shaklni tahlil qilish hamda konfliktni aniqlash (bir-biriga zid ma'lumotlarni yoki fikrlarni aniqlash va ularga baho berish) kiradi.

O'qish savodxonligi ko'nikmalarini axborot, publitsistik, ilmiy va boshqa matnlar bilan bir qatorda badiiy matnlar yordamida ham rivojlantirish mumkin. Gabriel Garsia Markesning "Yolg'izlikning yuz yili" romanidan parcha asosida tuzilgan quyidagi topshiriqlar 2009-yilgi PISA tadqiqotlarida qo'llangan bo'lib, badiiy matn asosida o'qish savodxonligi kompetensiyalarini rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish lozimligi haqida tasavvur beradi.

Quyida romandan parcha berilgan. Siz o'qiydigan parchada Makondo degan shaharchaga endi temiryo'l va elektr kirib kelgan, birinchi kinoteatr ochilgan. Parchani o'qing va savollarga javob bering.

Ketma-ket g'aroyib ixtirolardan es-hushini yo'qotib qo'ygan makondoliklar hatto hayratlanishga ham ulgurishmadi. G'amgin Aureliano poyezdda olib kelgan elektr mashina (uning jonga teguvchi "tum-tum"iga o'rganish uchun ancha vaqt va kuch kerak bo'ldi) tokidan bo'zargan chiroqlarini tomosha qilgancha, kechalari uxlamay chiqishar edi. Ular omadli kommersant don Bruno Krespi sherning jag'iga o'xshagan kassali teatrda namoyish etadigan harakatlanuvchi rasmlardan g'azablanishar, negaki bir filmda o'lib, dafn etilgan, rahmdil tomoshabinlarning achchiq ko'zyoshini oqizgan qahramon boshqa filmda yana tirilib qolar yoki habashga aylangan bo'lardi. Ikki sentavo haq to'lagan olomon ko'z ko'rib-quloq eshitmagan bu masxarabozlikka chiday olmay, barcha kursilarni sindirib tashladi. Alkald o'zining maxsus axborotida, don Bruno Krespining qattiq talabiga binoan, olomonga illyuziyalar ko'rsatuvchi kino bor-yo'g'i bir apparat ekanini, darg'azab bo'lishiga arzimasligini tushuntirib berdi; bu mujmal izohlardan so'ng lo'lilarning yangi bir bema'ni nayrangiga qurbon bo'lib-miz-da, deb o'ylashdi va o'z kulfatimiz o'zimizga yetib-ortardi, uydirma shaxslarning uydirma musibatlariga ko'zyosh qilishimizga hojat yo'q, deb kinoga bormaslikka qaror qilishdi.

(Nurali Qobul, Anvar Jo'raboyev hamda Tohir Qahhor tarjimasi)

1. Kinoning qaysi xususiyati makondoliklarning g'azabiga sabab bo'ldi?

_____

_____

_____

_____

_____

_____

Ushbu topshiriq integratsiya va inferensiya (matnda ochiq aytilmagan fikrlarni tushunish) kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. O'quvchi matndagi "Ular omadli kommersant don Bruno Krespi sherning jag'iga o'xshagan kassali teatrda namoyish etadigan harakatlanuvchi rasmlardan g'azablanishar, negaki bir filmda o'lib, dafn etilgan, rahmdil tomoshabinlarning achchiq ko'zyoshini oqizgan qahra-

mon boshqa filmda yana tirilib qolar yoki habashga aylangan bo‘lardi” gapidan va parcha oxiridagi “uydirma shaxslarning uydirma musibatlariga ko‘zyosh qilishimizga hojat yo‘q” jumlasidan xulosa chiqarib, kinoning to‘qima, yolg‘onga asoslanishi to-moshabinlarning jahlini chiqarganligini tushunishi zarur.

Bunda “kinoning uydirma (to‘qima, yolg‘on) ekani”, “o‘lgan aktyorlarning aslida o‘lmaganligi”, “bir kinoda bir rolni o‘ynagan aktyorning boshqa filmda boshqa rol ijro etishi” singari javoblar qabul qilinadi.

2. Makondoliklar nega kinoga bormaslikka qaror qilishdi?

A) Ular kinoga ko‘ngil ochish, hayotdan chalg‘ish uchun kirishardi, lekin ularga qo‘yib berilgan kinolar real hayotdan olingan bo‘lib, tushkunlikka solardi.

B) Kinoga kirish uchun chipta narxi ular uchun qimmatlik qilardi.

C) Ular uchun uydirmaga o‘z hissiyotlarini bag‘ishlash erish tuyular, g‘azablarini qo‘zg‘ardi.

D) Ular kinoning hissiyotlarga ta’sir qilishini istashar, lekin ularga qo‘yib beriladigan kinolar zerikarli va sifatsiz edi.

Ushbu topshiriq ham inferensiya kompetensiyasini tekshirishga qaratilgan bo‘lib, matnda bir necha o‘rinda kelgan ma’lumotlarni birlashtirish va ulardan xulosa chiqarishni talab qiladi.

To‘g‘ri javob – C.

Qolgan distraktorlardagi (javob variantlaridagi) ma’lumotlar qisman yoki to‘liq matnga mos kelmaydi:

A – matnda makondoliklarning kinoga ko‘ngil ochish uchun kirishi haqida gap ketmagan.

B – matnda chipta narxi haqida gapirilgan (“ikki sentavo haq to‘lagan olomon...”), lekin bu narxning qimmat yoki azonligi haqida ma’lumot yo‘q.

D – matnda makondoliklarga qo‘yib beriladigan kinolarning sifati haqida ma’lumot berilmagan.

3. Parcha oxirida “uydirma shaxslar” deganda kimlar nazarda tutilmoqda?

A) arvohlar

B) g‘aroyib ixtirolar

C) kinolardagi obrazlar

D) aktyorlar

Ushbu topshiriq ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. O‘quvchi “kassali teatrda namoyish etadigan harakatlanuvchi rasmlar” deganda kino nazarda tutilayotganini, “uydirma shaxslar” esa kinodagi obrazlar ekanini tushunishi kerak.

To‘g‘ri javob – C.

4. Makondo aholisining kino haqidagi fikrlariga qo‘shilasizmi? Javobingizda o‘zingizning kinolarga munosabatingizni Makondo aholisining munosabati bilan solishtiring.

_____

_____

_____

_____

_____

_____

Ushbu topshiriq baho berish va mushohada yuritish kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. O‘quvchi makondoliklarning kinoga munosabatini o‘zining kinoga munosabati bilan solishtirib, shu asosda makondoliklar munosabatiga baho berishi kerak. Javobni makondoliklarning kinodan reallik kutayotgani bilan bog‘lash talab qilinadi. Misol uchun, javoblar quyidagi mazmunda bo‘lishi mumkin:

– makondoliklar fikriga qo‘shilmayman: kino hayotdagi muammolardan qochish, ozgina muddatga real hayotni unutish imkonini beradi;

– makondoliklar fikriga qo‘shilaman: hayotda shundoq ham g‘am-g‘ussa yetib-ortadi, yana yangi muammolar o‘ylab topishga hojat yo‘q;

– makondoliklar fikriga qo‘shilmayman: kino – dam olish, ko‘ngil yozishning bir turi, uni jiddiy qabul qilishning hojati yo‘q, lekin makondoliklar kinoni endi ko‘ryapti va ularni ham tushunsa bo‘ladi.

Quyida O‘tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi asosida PISA o‘qish savodxonligi namunasidagi test berilgan. Darsda va darsdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklarda shunga o‘xshash topshiriqlarning ishlatilishi o‘quvchilarning o‘qish savodxonligi kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga badiiy asar mutolaasiga qiziqtirish imkonini beradi.

URUSHNING SO‘NGGI QURBONI

(qisqartirib olindi)

O‘tkir Hoshimov

Shoikrom ayvon to‘ridagi sandal chetida xomush o‘tirardi. Allaqachon bahor kelib, kunlar isib ketganiga qaramay, hamon sandal olib tashlanmagani, ammo hech kim bu to‘g‘rida o‘ylab ko‘rmaganini u endi payqaganday g‘ashi keldi. Ammo beparvolik bilan qo‘l siltadi-yu, do‘ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi.

Yarim kecha bo‘lib qolgan, atrof jimjit. Faqat olislarda it uliydi. Shoikrom uyqu elita boshlagan ko‘zlari bilan o‘sha tomonga qaradi-yu, ter hidi anqib turgan lo‘labolishga boshini tashladi. Shu ondayoq yana tovoqqa, bandi kuygan qoshiqqa ko‘zi tushib, tag‘in g‘ashlandi. “Ziqna bo‘lmay o‘l! – deb o‘yladi xotinini so‘kib. – Azaldan qurumsoq edi, zamon og‘irlashgandan buyon battar bo‘ldi”.

Ichkarida chaqaloq yig‘ladi. Beshikning g‘irchillagani eshitildi. Bola xuddi shuni kutib turganday, battar big‘illay boshladi. Kattasi ham uyg‘onib ketdi shekilli, qo‘shilishib yig‘lashga tushdi.

– Ovozini o‘chir, Xadicha!

Ichkaridan xotinining beshikni mushtlagani, zardali tovushi eshitildi:

– Ovozi o‘chsa koshkiydi! To‘qqiz kechasida jin teggan bunga!

“Kambag‘alning ekkani unmaydi, bolasi ko‘payadi o‘zi, – deb o‘yladi Shoikrom ijirg‘anib. – Shu kunimdan ko‘ra urushga borib o‘lib keta qolganim yaxshiydi”.

Uni urushga olishmadi. To‘qimachilik kombinatida montyor yetishmasmidi yo o‘zi yaxshi ishlarmidi, har qalay, uni olib qolishdi. Shoikrom urush boshlanishidan sal oldin uylangan edi. Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida.

Hovli etagidagi pastak eshik g‘iyqilladi. Shoikrom kafti bilan ko‘zini chiroqdan pana qilib qaradi-yu, shu tomonga kelayotgan onasini ko‘rdi. U uylanganidan keyin otadan qolgan hovlini o‘rtadan ikki paxsa devor olib bo‘lishgan. Bungayam bir chekkasi Xadichaning injiqligi sabab bo‘lgan edi. Har xil ikir-chikir gaplar chiqaverganidan keyin Umri xola ro‘zg‘oring boshqa bo‘lsa, o‘zingga qayishasan, deb ularning qozonini boshqa qilib berdi. O‘zi kichik o‘g‘li Shone’mat bilan narigi hovlida qoldi.

– Yotaver, bolam. – Umri xola unsiz odimlar bilan ichkari uyga kirib ketdi. Qaynana-kelin bir balo qilib, bolalarni tinchitishdi. Keyin ikkovlari boshlashib chiqishdi. Xadicha bir qo‘lida choynak-piyola, bir qo‘lida zog‘ora non keltirib, dasturxon ustiga qo‘ydi.

– Ol o‘zing ham, – dedi Umri xola tomirlari bo‘rtib chiqqan qo‘llari bilan sochilgan uvoqlarni yig‘ib og‘ziga solarkan. Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganing endi payqadi. Ilgari ham shunaqamidi, yo‘qmidi – eslay olmadi.

– Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho‘kkalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab.

Xadichaning uzunchoq sarg‘ish yuzi qizardi. Aybdordek mahzun tovushda uzr so‘radi:

– Qolmovdi-ya.

Shoikrom uning qizarganidan yolg‘on gapirayotganini sezdi. Kim bilsin, ertalab o‘ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir…

– Yo‘q, bolam, ovqat kerakmas, – dedi Umri xola shoshilib. – U bir lahza jim qoldi-da, o‘ziga gapirganday sekin qo‘shib qo‘ydi. – Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi.

– Hozir qo‘y suti qatta, – dedi Xadicha. – Sigir suti otliqqa yog‘-u... shu paytda sigirimiz tug‘gan bo‘lardi-ya.

Shoikrom xotinining gapini eshitmadi. Birdan uning ko‘z o‘ngida pastak deraza ostida shiftga tikilib yotgan ukasi jonlandi. Bir hovlida turib o‘n kundan buyon holini so‘ramaganiga afsuslanib, ichidan xo‘rsiniq keldi. Ukasi sil ekan. Mana, uch oydirki, yerga yopishib yotibdi.

– Tuzukmi? – dedi u hammasi uchun o‘zi aybdorday qovog‘ini solib.

– Shukur, – Umri xola qult etib yutindi. – Hozir uxladi. – Onasi shu topda chiqib ovora bo‘lmagin, degan ma’noda gapirganini Shoikrom tushundi.

– Ertalab xabar olaman, – dedi u onasi o‘rnidan turganida.

– Sendan nega gina qilarkan, bolam, – dedi Umri xola ayvon labida to‘xtab. – Ko‘rib turibdi-ku. Ertalab chiqib ketasan, yarim kechada qaytasan. Bu kunlar unut bo‘lib ketadi, bolam.

– Padariga la’nat shunaqa turmushning! – dedi Shoikrom bo‘g‘ilib. Keyin dasturxonni yig‘ishtirayotgan xotiniga o‘shqirdi. – Seniyam padaringga la’nat! Tumshug‘ingni tagidan sigiringni yetaklab ketsa-yu, anqayib o‘tirsang.

– Nega menga o‘dag‘aylaysiz? – Xadicha tovoqni qoshiqqa urib, yig‘lamsiradi. – Nima, meniyam Ilhom samovarchining xotiniday so‘yib ketsinmidi? Siz kechalari smenda bo‘lsangiz. Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?!

Shoikrom xotinini tarsakilab yubormaslik uchun yuzini o‘girib, tishini g‘ijirlatdi.

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko‘paydi. Erta bahorda ularning tug‘ay deb turgan sigirini o‘g‘irlab ketishdi. O‘sha kecha Shoikrom tungi smenada edi. Tong-saharda bir nimani sezganday ko‘ngli g‘ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, bolalari, onasi dod solib o‘tirishibdi. Ko‘cha eshik lang ochiq, yong‘oqqa bog‘loqliq sigir yo‘q.

“Shu paytgacha sigir tug‘ardi, ukamning og‘ziga aqalli bir kosa sut tutardim, – deb o‘yladi Shoikrom o‘kinib. – Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”.

– Shu kunda yana o‘g‘ri oralab qoldi, – dedi Xadicha ko‘rpachani qoqib tancha chetiga solarkan. – Qulupnay qizarmasidan bitta qo‘ymay terib ketyapti.

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom qovog‘ini uyib. – Bolalar terib yegandir. O‘g‘ri qulupnayga keladimi?

– Og‘ziga bir dona olgan bo‘lsa buyurmasin. Nega kelmas ekan? Bir hovuchini opchiqib sotsa bir kosa jo‘xori beradi. Ana, borib qarang, devorning bir cheti o‘pirilib yotibdi!

– Vahima qilma! – dedi Shoikrom yana g‘o‘ldirab. Ammo bu safar o‘zining ham yuragi seskanib ketganini payqadi. Sekin yurib, qulupnay pushtalari oldiga keldi.

“Rost-da, – deb o‘yladi u pushtalar atrofida aylanarkan, – bir hovuch qulupnayga bir tovoq jo‘xori beradi. Tansiq narsa... Xadicha yolg‘on gapirmaydi. Bolalar yegan bo‘lsa, buyurmasin, deyapti-ku. Pishiq, yo‘latmaydi...”

U aylanib yong‘oq tagiga bordi. Bordi-yu, chindan ham ko‘cha tomondagi devorning bir cheti o‘pirilganini, ostiga tuproq to‘kilganini ko‘rib, yuragi orqasiga tortib ketdi. Yong‘oq shoxlarining shamolda vishillashi ham, oyog‘i ostida to‘kilib yotgan devor tuprog‘i ham shubhali, vahimali ko‘rinib, darrov orqasiga qaytdi. Chiroqni o‘chirib, sandal chetiga yotdi-yu, ko‘nglidagi g‘ulg‘ula kuchayib ketaverdi.

Xadicha rost aytadi. U kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong ottirsa, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? Bordi-yu o‘zi yo‘g‘ida uyini o‘g‘ri bossa, xotini dod solsa, pichoqlab tashlasa. U yoqdan onasi chiqsa, uniyam pichoqlasa... “Vijdonsiz! Odamlarning boshiga kulfat tushganidan foydalanib qoladiganlarni qirish kerak”.

Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun, ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g‘unajinini o‘g‘irlagani uchun, o‘lim to‘shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun, non puli bo‘lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki o‘sha xudo bexabarlardan.

U o‘rnidan sakrab turib ketdi. Chiroqni yoqib, otilib hovliga tushdi. Hamon shamol o‘kirar, osmonning goh u, goh bu burchida chaqmoq yaraqlab, yong‘oq shoxlari shubhali g‘iyqillar, ammo endi bular uni qo‘rqitolmas edi. U yonboshidagi oshxonaga kirdi-yu, cho‘ntagidan gugurt olib chaqdi. Titroq qo‘llari bilan devordagi mixga ilig‘liq turgan ikki o‘ram simni oldi. Bir vaqtlar urushdan oldin u bu simlarni bazmlarga olib borar, odamlarning hovlisini mash’aladay yoritib berardi. Endiyam yaxshilikka xizmat qilsin!

“Menga desa otib yubormaydimi! – deb o‘yladi u ayvon labiga cho‘qqayib o‘tirganicha usti yopiq simni ochiq simga ildam ularkan. – Harna bitta haromxo‘rni o‘ldirganim. Bittasi o‘lsa, boshqalari adabini yeydi”.

U simning ochiq qismini qulupnay pushtalari ustiga uloqtirdi. Sim ilonday bilanglab pushta ustiga tushdi. Yopiq qismini ayvon tagidan olib o‘tdi-da, bir uchini ustundagi ilgakka tiqib qo‘ydi. Keyin birdan bolalar kechasi hovliga tushsa nima bo‘ladi, degan xayol miyasiga urildi-yu, uyga kirdi. Xadicha yotgan joyida uyqusirab boshini ko‘tardi.

– Hovliga chiqma, bolalar ham chiqmasin, o‘ladi! – dedi Shoikrom ko‘zlari yonib.

Xadicha hech nimaga tushunmadi shekilli, “xo‘p” dedi-yu, boshini yostiqqa tashladi.

Shoikrom ayvon chirog‘ini o‘chirib, yana uyga kirdi. Shu topda negadir bolalarini emas, xotinini ham emas, ukasini o‘yladi. Shone’mat bolaligida ham zaifgina edi.

Shoikrom uni har kuni maktabdan o‘zi olib kelar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab o‘tirardi. Otasi o‘lganida Shoikrom oltinchida, ukasi ikkinchida o‘qirdi. O‘shanda Shone’mat yig‘lamagan, ammo ichikib kasal bo‘lib qolgandi. Ona-bola uni avaylab katta qilishdi. Endi bo‘lsa, besh kunligi qoldimi, yo‘qmi – aka bo‘lib xabar ham ololmaydi.

Shoikrom uxlamadimi, yo‘qmi, bilolmadi. Bir mahal bola yig‘ladimi, yo tashqarida shamolning guvullashi aralash dahshatli bir faryod qulog‘iga kirdimi, anglay olmay qoldi. Sapchib o‘rnidan turib ketdi. Ayvon chirog‘ini yoqishi bilan qulupnay pushtasida muk tushib yotgan odam gavdasini ko‘rdi-yu, dahshatdan qotib qoldi. Shu ondayoq xato qilganini, qotillik qilganini payqadi. Sim uchini shartta ilgakdan yulib olib, hovliga otildi. “Boshqalari qochdi” degan fikr lip etib xayolidan o‘tdi. Pushtalar ustida sakrab-sakrab yurib borarkan, oyog‘i botib ketayotganini payqadi. Keyin g‘ujanak bo‘lib yotgan odamdan uch qadam beriroqda to‘xtadi-yu, birdan cho‘kkalab qoldi. Bir lahza ko‘zlari olayib tikilib turdi-da, ko‘ksidan shamol g‘uvurini ham, o‘z vujudini ham larzaga soluvchi bir nido otilib chiqdi:

– Oyi-i-i!

U boshidan hushi uchib borayotganini elas-elas his qilib o‘zini yerga otdi. Titroq qo‘llari bilan loy changallagancha cho‘kkalab ko‘ksiga mushtlay ketdi.

– Oyi! Oyijon!

Umri xola bir qo‘li bilan uniqqan chit ko‘ylagining etagini mahkam changallab olgan, etak ichida ikki hovuch pishgan-pishmagan aralash qulupnaylar ko‘rinib turar, boshqa qo‘li bilan esa ilondek simni ushlab turardi. Shoikrom uning qulupnay qizili yuqqan, yorilib ketgan barmoqlarini, bo‘rtgan tomirlarini aniq ko‘rdi. Nariroqda, loyli ariq ichida uning kalishi yotar, chamasi, sim oyog‘iga tegganida yulib olmoqchi bo‘lgan-u, qo‘liga o‘ralashib yiqilgan edi.

U anchadan keyin o‘ziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yig‘layotganini payqadi. Boshini ko‘tarishi bilan marza chetida cho‘nqayib o‘tirgan Shone’matga ko‘zi tushdi. Necha haftalardan buyon o‘rnidan jilmay yotgan ukasi, aftidan, qandaydir kuch topib emaklab chiqqan, ko‘ylagining yelkalari osilib turar, katta-katta ko‘zlari vahima bilan boqar edi.

– Nima qilib qo‘ydim, ukam! – dedi Shoikrom yana balchiqqa belangan kafti bilan yuzini changallab.

– Sut ichmay zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone’mat ovozi titrab.

Shoikrom bu ojiz, titroq tovushdan seskanib, ukasiga tikilib qoldi.

– Zahar ichsam bo‘lmasmidi, – dedi Shone’mat yana o‘sha ohangda. Aftidan, u yig‘lay olmas, yig‘lashga madori yetmasdi. – Kechayam aytuvdim, ko‘nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar.

Shoikrom boshqa hech nimani eshitmadi. Eshitolmadi. Foydasi ham yo‘q edi.

* * *

Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi. Go‘ristondan chiqib kelishayotganida Shoikrom odamlarning o‘zaro gapini eshitib qoldi.

– Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi?

1. Quyidagi javob variantlaridan qaysi biri hikoyaning qisqacha mazmunini to‘g‘ri ifodalaydi?

A) Kasal o‘g‘il onasini qulupnayga yuborib, uning o‘limiga sabab bo‘ladi.

B) Ona o‘z o‘g‘lining uyiga o‘g‘irlikka tushib, fojiali halok bo‘ladi.

C) Xotinining injiqliklaridan zada bo‘lgan o‘g‘il onasini o‘ldirib qo‘yadi.

D) Shamolda uzilib tushgan elektr simi bir kishining umriga zomin bo‘ladi.

2. Quyidagi matnni o‘qing. “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi voqealari nechanchi yil bo‘lib o‘tadi? Javobingizni raqam bilan yozing.

1933-yilda Germaniyada nemislarning boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilishini da’vo qiluvchilar hokimiyat tepasiga kelishdi. Ularning yo‘lboshchisi Adolf Gitler mamlakatda o‘zining yakka hukmronligini o‘rnatdi. 1939-yil sentyabrida Germaniya Polshaga hujum qildi. Bunga javoban Buyuk Britaniya va Fransiya Germaniyaga qarshi urush e’lon qildilar. Shu tariqa Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi. Buyuk Britaniya, Fransiya va sobiq Sovet Ittifoqi o‘zaro qarama-qarshiliklar va ishonchsizliklar tufayli urushning oldini ola bilmadi. Urush boshlangach, Germaniya juda qisqa muddat ichida deyarli butun G‘arbiy Yevropa davlatlarini bosib oldi. 1940-yilda hatto Fransiyani ham tor-mor etdi. Uning navbatdagi maqsadi Buyuk Britaniya va sobiq Sovet Ittifoqini bo‘ysundirish edi. Gitler avval sobiq Sovet Ittifoqini bosib olishga qaror qildi va 1941-yilning iyun oyida unga hujum qildi. Sovet Ittifoqi, AQSH va Buyuk Britaniya Germaniyaga qarshi urushda o‘zaro hamkorlik qilish haqida kelishuvga erishdilar. Sovet Ittifoqi qo‘shini 1944-yilda o‘z hududidan Germaniya qo‘shinini butunlay quvib chiqardi. Nihoyat 1945-yilning 8-may kuni Germaniya ittifoqchi davlatlar oldida so‘zsiz taslim bo‘ldi. Bu haqda tegishli hujjat ham imzolandi. Sobiq Sovet Ittifoqi hukumati fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alaba sharafiga 9-may kunini “G‘alaba kuni” deb e’lon qildi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston hali Sovet Ittifoqi tarkibida edi. Binobarin, Gitler Germaniyasi Sovet Ittifoqiga hujum qilgach, O‘zbekiston ham urushga tortildi. O‘zbekiston frontni zarur qurol-yarog‘, o‘q-dori, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlab turdi. Urushda O‘zbekistondan 1 million 500 mingdan ortiq jangchi qatnashdi. Aholidan yig‘ilgan pul mablag‘lari mamlakat mudofaa jamg‘armasiga topshirildi. O‘zbekistonning qishloq aholisi esa frontni zarur oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlashda ulkan fidoyilik ko‘rsatdi.

“Tarixdan hikoyalar”,
5-sinf darsligidan olindi

“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasi voqealari _____ yil bo‘lib o‘tadi.

Hikoya matnidan fikringizni tasdiqlaydigan ikkita dalil keltiring.

a) _____

_____

_____

_____

_____

b) _____

_____

_____

_____

_____

3. Quyida berilgan gaplar to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanini aniqlang. Jadvalning tegishli katagiga ☑ belgisini qo‘ying.

		To‘g‘ri	Noto‘g‘ri
a)	Shoikrom kasal bo‘lgani uchun urushga ketmagan edi.		
b)	Hadicha qaynanasini yomon ko‘rgani uchun unga ovqat berishni istamadi.		
c)	Shoikrom ochiq tok simi pushtaga tushgan kishini o‘ldirishi mumkinligini bilardi.		
d)	Shone’mat onasining qilayotgan ishidan xabardor edi.		

4. “Payshanba kuni Komil tayibning uyiga boruvdim. Har kuni nahorga bir kosadan qo‘y suti ichsa, dard ko‘rmaganday bo‘lib ketadi, dedi”. Umri xola bu gapni kim haqida aytdi?

A) O‘g‘li Shoikrom haqida

B) O‘g‘li Shone’mat haqida

C) Kelini Xadicha haqida

D. Yig‘layotgan nevarasi haqida

5. “Qani o‘shalar qo‘limga tushsa, chopib tashlardim”. “O‘shalar” deganda Shoikrom kimlarni nazarda tutmoqda?

_____

_____

_____

_____

6. Shoikrom nima uchun ochiq tok simini pushtaga tashlashga qaror qildi?

A) Pishayotgan qulupnayni bolalaridan asramoqchi bo‘ldi.

B) Sigirini o‘g‘irlaganlardan qasos olmoqchi bo‘ldi.

C) Og‘ir kunlarda xalqni qiynayotganlarni jazolamoqchi bo‘ldi.

D) Xotinini o‘g‘rilardan himoya qilmoqchi bo‘ldi.

7. Siz Shoikromni qanday inson sifatida tasavvur qildingiz? Shoikromga xos bo‘lgan ikki xususiyatni sanang. Fikringizni asardan va hayotingizdan misollar bilan izohlang.

IZOHLAR

1. Ushbu test topshirig‘i o‘quvchining integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Topshiriqni to‘g‘ri bajarish uchun o‘quvchi butun matnning mazmunini tushunishi va ochiq aytilmagan fikrni anglay olishi (interpretatsiya – talqin qila olishi) talab qilinadi.

To‘g‘ri javob – **B.**

2. Ushbu test topshirig‘i ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi har ikkala matndagi (hikoyadagi va ma’lumot matnidagi) ma’lumotlarni solishtirib, xulosalar chiqara olishi talab qilinadi.

To‘g‘ri javoblar: **1945**

a) Asar matnida “urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsa ham” deyilgan, ya’ni urush tugayapti.

b) Asar oxirida “Urush tamom bo‘pti, eshitdingizmi” deyilgan, demak, asar voqealari urushning so‘nggi yilida bo‘lib o‘tadi.

3. Ushbu test topshirig‘i ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshiradi. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi jadvaldagi ma’lumotlarni matnda berilgan ma’lumotlar bilan solishtirishi talab qilinadi.

To‘g‘ri javoblar: **a** – noto‘g‘ri, **b** – noto‘g‘ri, **c** – to‘g‘ri, **d** – to‘g‘ri.

4. Ushbu test topshirig‘i ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi matnning bir necha qismida keltirilgan ma’lumotlarni tushunishi, ularni birlashtira olishi va ochiq aytilmagan fikrni anglay olishi (interpretatsiya – talqin qila olishi) talab qilinadi.

To‘g‘ri javob – **B.**

5. Ushbu test topshirig‘i ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi berilgan gapni matnning oldingi qismlari bilan bog‘lay olishi talab qilinadi.

To‘g‘ri javob – sigirini o‘g‘irlab ketganlar (o‘g‘rilar)

6. Ushbu test topshirig‘i ham integratsiya va interpretatsiya kompetensiyalarini tekshirishga qaratilgan. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi matnning ma’lum bir qismi mazmunini tushunishi va ochiq aytilmagan fikrni anglay olishi (interpretatsiya – talqin qila olishi) talab qilinadi.

To‘g‘ri javob – **C.**

7. Ushbu savol o‘quvchining **matn ustida mushohada yuritish va baho berish** kompetensiyasini tekshirishga qaratilgan. Savolga to‘g‘ri javob berish uchun o‘quvchi matnni to‘liq tushunishi, undan xulosalar chiqara olishi va o‘z hayoti bilan bog‘lay olishi talab qilinadi.

ADABIYOT DARSLARI VA DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLAR UCHUN BADIIY ASAR ASOSIDA DARS ISHLANMASI YARATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Adabiyot bo‘yicha Milliy o‘quv dasturida variativlik imkoniyati ko‘zda tutilgan: ayrim o‘rinlarda o‘rganilishi va tahlil qilinishi tavsiya qilingan bir necha asardan asarlardan birini tanlash imkoni berilgan. Bir asarni boshqa bir asar bilan almashtirishda quyidagilarga e’tibor berish lozim:

– asarlarning o‘quvchilarning yoshi, kognitiv rivojlanish darajasi va qiziqishlariga mosligi;

– asarning badiiy qiymati va unda ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar;

– badiiy matnning dasturda mazkur sinf uchun ko‘zda tutilgan kompetensiyalarni shakllantirilishga imkon berishi.

Adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklar uchun badiiy matn asosida dars ishlanmasi yaratishda quyidagilarga e’tibor qaratish tavsiya qilinadi:

1. Asar asosida qaysi **kompetensiyalarni** rivojlantirmoqchisiz va qaysi **axloqiy sifatlarni** shakllantirmoqchisiz? Asardagi qaysi o‘rinlar bunga xizmat qilishi mumkin? Mashg‘ulot (yoki mashg‘ulotlar, agar asar bilan bir necha soat davomida ishlanadigan bo‘lsa) **maqsadini** aniqlashtirib oling.

2. O‘quvchi badiiy matnni o‘qishga qiziqishi (**motivatsiya** – rag‘bat uyg‘onishi) va matnni **tushunishi** uchun undagi mavjud qaysi bilimlarni **faollashtirish** va qanday yangi **bilimlar** berish kerak? Shu asosda **mutolaadan oldingi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunda quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

– asar sarlavhasini yoki asarda ko‘tarilgan muammoni o‘quvchilar bilan muhokama qilish;

– asarni tushunishga yordam berishi bo‘lgan bilimlarni (asar yaratilgan yoki unda tasvirlangan davr, asarning yozilish tarixi, asarda qahramonlari mansub xalqlarning madaniyati va turmush tarzi, asardagi kalit so‘zlar izohi va hokazolar) faollashtirish (agar o‘quvchida bular haqida tasavvur bo‘lsa) yoki yangi bilimlar berib, ularni mustahkamlab olish;

– bashorat (gipoteza) qilish: asarda nima haqida gap ketishi, qanday voqealar tasvirlanishi mumkinligini muhokama qilish.

3. O‘quvchiga badiiy matnni tushunishga yordam beradigan **o‘qish davomidagi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunday topshiriqlar badiiy matnni **mikro darajada** tahlil qilish imkonini beradi. Bunda quyidagi strategiyalardan foydalanish mumkin:

– obrazlarning xatti-harakatlari sabab va oqibatlarini muhokama qilish;

– matndagi badiiy tasvir vositalarining ahamiyatini tahlil qilish;

– asardagi muhim detallarni muhokama qilish;

– matndagi o‘quvchiga ta’sir qilgan o‘rinlarni ajratib olish va muhokama qilish;

– voqealarning keyingi rivojini bashorat qilish.

4. O‘quvchiga badiiy matnni **makro darajada** tahlil qilishga yordam beradigan **mutolaadan keyingi topshiriqlarni** ishlab chiqing. Bunda asarning g‘oyasi va unda ko‘tarilgan axloqiy muammolarni muhokama qilish, asarning badiiy xususiyatlari

va obrazlar tizimini tahlil qilish, asarni o‘quvchi hayoti bilan bog‘lash, asarning turli talqinlarini (masalan, tasviriy san’atda, kinoda) solishtirish mumkin. Shuningdek, asar asosida **mahsulot yoki loyiha** yaratish (ijodiy yoki tahliliy ish yozish, asarning boshqacha talqinini yaratish singari) topshiriqlari ham asarni chuqurroq tahlil qilishga, unga boshqacha rakursdan qarashga yordam beradi.

Quyida Anton Chexovning “Garov” hikoyasi asosida mutolaadan oldingi, o‘qish davomidagi va mutolaadan keyingi topshiriqlar namunalari berilgan. Mazkur topshiriqlar qaysi strategiyalarga tayanilgani, ulardan qanday maqsad ko‘zlanganini tahlil qiling. Umid qilamizki, bu sizga Adabiyot darslari, darsdan tashqari mashg‘ulotlar va to‘garaklar uchun qiziqarli va samarali dars ishlanmalari yaratishga yordam beradi.

ANTON CHEXOVNING “GAROV” HIKOYASI ASOSIDA NAMUNAVIY TOPSHIRIQLAR

Biz o‘qiydigan hikoya **“Garov”** deb nomlanadi. Hikoya dastlab e’lon qilinganda uch qismdan iborat bo‘lgan va “Ertak” deb nomlangan. Keyinchalik muallif hikoyani qayta ishlab, uchinchi qismini olib tashlaydi va asar nomini o‘zgartiradi.

Muhokama qilamiz: Garov nima uchun o‘ynaladi? Hech garov o‘ynaganmisiz? Hikoyani o‘qish davomida garovning har ikki ishtirokchi hayotiga qanday ta’sir qilganini kuzating.

Hikoyaning audio variantini tinglang

GAROV

I

Qorong‘i kuz oqshomi. Keksa bankir xonada u yoqdan bu yoqqa borib kelar, bundan o‘n besh yil ilgari mana shunday kuz oqshomida ziyofat berganini eslardi. Ziyofatga ko‘plab aqli salim, orif mehmonlar tashrif buyurishgan va ko‘p maroqli suhbatlar bo‘lgandi.

salim – sog‘lom; tiniq

Darvoqe, kechada o‘lim jazosi haqida bahslashdilar. Mehmonlar orasida ancha-muncha olimlar va muxbirlar ham bor edi, ularning aksariyati o‘lim jazosiga norozilik bildirishdi. Ular jazoning bu usulini eskirgan, nasoro diniga e’tiqodda bo‘lgan xalqlar uchun badaxloq hamda shармandalik deb topishdi. Kechada yig‘ilganlarning ayrimlari o‘lim jazosi umrbod qamoq jazosiga almashtirilishi lozim deyishdi.

nasoro – nasroniy, xristian

– Fikringizga qo‘shila olmayman, – dedi bank sohibi. – Kamina na o‘lim, na umrbod qamoq jazosini boshidan o‘tkazgan, vaholanki, agarda apriori mulohaza yuritadigan bo‘lsak, qatl umrbod qamoq jazosidan axloqiy va insoniyroqdir. Jallod mahkumning jonini bir necha daqiqada tanidan judo qilsa, umrbod tutqunlik uzoq-uzoq yillar davom etadi. Ay-

apriori – tajribaga ega bo‘lmay turib

ting-chi, ularning qaysi biri insoniyroq – bir necha soniyada o‘ldiradiganimi yoki yillar davomida jonini zulukdek so‘rib yotadiganimi?

– Jazoning har ikkalasi ham insoniylik tamoyillariga to‘g‘ri kelmaydi, – ta’kidladi mehmonlardan biri, – chunki ularning har ikkalasi ham inson hayotini so‘ndirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Hukumat – Xudo degani emas. Modomiki, u istagan taqdirda ham, tortib olgan narsani egasiga qaytarib berolmaydi-ku!

Mehmonlar orasida yigirma besh yoshlardagi huquqshunos ham bor edi. Bu borada u o‘z fikrini shunday bayon etdi:

– O‘lim jazosi ham, umrbod qamoq jazosi ham bir xilda badaxloq choralardandir, biroq basharti ulardan bittasini tanla deyishsa, men, albatta, ikkinchisini tanlardim. Har holda, yashamoq – o‘lmoqdan afzalroqdir!

Davrada qizg‘in bahs boshlanib ketdi. O‘sha kezlari birmuncha yosh, shu bois serdiqqat bo‘lgan bankir quyushqondan chiqib ketib, stolni mushtlagancha yosh huquqshunosga tashlandi:

– Bekorlarni aytibsiz! Hoynahoy, siz umrbod qamoq jazosini yengil hisoblayotgandirsiz. Keling, garov o‘ynaymiz: siz kazematda besh yil ham o‘tira olmaysiz!

kazemat – bir kishilik zindon

– Buni jiddiy aytyapsizmi? – keskin javob qildi yosh huquqshunos. – Bo‘pti, o‘ynaganim bo‘lsin. Men u yerda besh yil emas, o‘n besh yil o‘tira olaman!

– O‘n besh yil! Nahotki? Siz-a? – xitob qildi bankir. – Janoblar, men garovga ikki million tikaman!

– Roziman! Siz millionlaringizni, men bo‘lsam o‘z erkimni tikaman! – dedi huquqshunos.

Shunday qilib, aqlga sig‘maydigan ahmoqona garov o‘ynaldi. U paytlari millionlarining hisobiga yetmayotgan bemulohaza taqdir arzandasining garovdan boshi osmonda edi. Ziyofatda bankir huquqshunosning ustidan kulgancha dedi:

Siz ham bu garovni “aqlga sig‘maydigan ahmoqona” deb hisoblaysizmi?

– Hoy yigitcha, es-hushingizni yig‘ib oling. Haliyam kech emas. Kamina uchun ikki million pul shunchaki arzimagan narsa, siz bo‘lsangiz zindonda hayotingizning eng gullab-yashnagan uch-to‘rt yilini yelga sovurasiz. Zero, kazematda siz undan ortig‘iga chiday olmaysiz! Yanayam aytaman – umringizning uch-to‘rt yilini yo‘qotasiz. Shuniyam unutmangki, ey notavon banda, o‘z inon-ixtiyori bilan o‘zni mahkum etish majburiy qamoq jazosiga qaraganda, nihoyatda mashaqqatli kechadi. Xohlagan paytingizda ozodlikka chiqish huquqi sizda saqlanib qolayotganligi bandilikda kechadigan hayotingizga muttasil og‘u solib turadi. Sizga rahmim kelganidan aytyapman bu gaplarni!

Shu topda bankir xonada betinim u yoqdan bu yoqqa borib kelar, shularni eslab, o‘zini savolga tutardi:

– Garovning nima keragi bor edi o‘zi? Huquqshunosning o‘n besh yil umrini yo‘qotishi, kaminaning ikki millionini ko‘kka sovurishidan kimga foyda-yu kimga ziyon? Bu narsa odamlarga o‘lim jazosining beshafqatligini anglatadimi yoki umrbod qamoq jazosining afzalliginimi? Yo‘q, aslo unday emas! G‘irt bema’nilik bu. Bu narsa kamina tomonidan badavlat kishining shunchaki to‘qlikka sho‘xligi bo‘lsa, huquqshunos tomonidan – pulga o‘chlik, boylikka hirs qo‘yish, tamom-vassalom...

Shundan so‘ng u o‘sha oqshom tag‘in nimalar bo‘lganini xotiriga keltira boshladi: o‘shanda barcha mehmonlarning guvohligida garov o‘ynalib, uning shartlariga ko‘ra,

yosh huquqshunos bankirning chorbog‘idagi xilvat go‘shada qamoq muddatini qattiq nazorat ostida o‘tashi lozim edi. Huquqshunos o‘n besh yil davomida ostona hatlab chiqmasligi, odamlar bilan uchrashmasligi va ular bilan muloqot qilmasligi, yaqinlari va do‘stlaridan xat-xabar olmasligi kerak edi. Ammo-lekin uning cholg‘u chalib xirgoyi qilishiga, xohlagancha kitob o‘qib, yozib-chizishiga, musallas ichib, tamaki chekishiga ruxsat berilardi. Tashqi dunyo bilan esa devordan ataylab ochilgan chog‘roq deraza orqali, unda ham lom-mim demasdan aloqa o‘rnatishi, ehtiyojlarini bir enlik qog‘ozga yozib, talab qilishi mumkin edi, xolos. O‘ziga kerakli barcha kitoblar-u musiqa notalari, musallas-u tamaki, yemag-u ichmak va hokazolarni istagancha so‘rashga haqqi bor edi. Garovda qamoq muddati 1870-yil 14-noyabr kunduz soat 12 dan 1885-yil 14-noyabr kunduz soat 12 gacha belgilanib, huquqshunosning garov shartlarini ozgina buzishi, aytaylik, muddat tugashiga ikki daqiqa qolganda kazematni tark etishi bankirning unga ikki millionni to‘lash majburiyatidan soqit qilar edi.

Huquqshunosning yozma talabnomalaridan shu narsa ma’lum bo‘ldiki, tutqunlikning dastlabki yilida u uzlatda qattiq iztirob chekkan. U bandilikka solingan xonadan kecha-yu kunduz musiqa ovozi eshitilib turgan. Bandi musallas va tamakidan bosh tortadi. “Sharob, – deb yozadi u, – ishtiyoqni battar alangalatadi. Zotan, ishtiyoq mahbusning ashaddiy dushmanidir. Zero, xushbo‘y va xushta’m musallasdan so‘ng kimsasizlikda zerikib o‘tirishdan-da rasvo holat bo‘lmasa kerak. Tamaki bo‘lsa, katalakday xonaning havosini buzib yuboradi”.

Tutqunlikning birinchi yilida huquqshunosga, asosan, yengil-yelpi mazmundagi kitoblar – chigal syujetli ishqiy romanlar, jinoiy va fantastik ruhdagi hikoyalar, komediyalar va shunga o‘xshagan narsalar yetkazib berib turildi.

Ikkinchi yili musiqa va qo‘shiq sadolari tinib, yurist mukka tushib olib, nuqul mumtoz asarlar mutolaa qila boshladi.

Beshinchi yilga borib qamoqxonadan yana ohang va navolar taraladigan, endi mahbus sharob berishlarini so‘raydigan bo‘ldi. Uning uzlatdagi hayotini zimdan kuzatganlar u yil bo‘yi faqat yeb-ichgani, to‘shakka uzala tushib yotib olib, dam-badam homuza tortib qo‘ygani, dilgirlikdan o‘zi bilan o‘zi tillashib o‘tirganini aytishdi.

homuza tortish – esnash

Endi u mutlaqo mutolaa qilmay qo‘ygandi.

Ba’zan kechalari u tuni bilan uxlamasdan allanimalarni yozib chiqar va tongga yaqin bitiklarining hammasini mayda-maydalab yirtib tashlardi. Goho uni yig‘lab o‘tirgan holda ko‘rishardi.

Oltinchi yilning ikkinchi yarmidan boshlab tutqun falsafa, tarix hamda xorijiy tillarni o‘rganishga qat’iy bel bog‘ladi. U mazkur fanlarni o‘zlashtirishga shunchalik jidd-u jahd bilan kirishib ketdiki, hatto bank sohibi unga qo‘llanma va darsliklarni yetkazib berib turishga ham ulgurolmay qolardi. Keyingi to‘rt yil mobaynida huquqshunosning talabiga muvofiq olti yuz jilddan iborat har xil kitoblar xarid qilindi. Ushbu fanlarni o‘rganish jarayonida bankir undan quyidagi mazmunda noma oldi:

“Birodari aziz! Ushbuni sizga olti xorijiy tilda yozmoqdaman. Ularni o‘z sohasining zarshunoslariga ko‘rsatishingizni so‘rayman. Yaxshilab o‘qib chiqishsin. Basharti ular nomalarimdan xato va kamchilik topa olishmasa, unda chorbog‘ingizda miltiqdan ikki marta o‘q uzib, ma’lum qilishsin. Bu kaminaning sa’y-harakatlari besamar ketmaganligini anglatadi. Qadimda buyuk daholarimiz turli tillarda ijod qilishgan, biroq ularning qalblarida yagona maslak o‘t bo‘lib yongan. Kamina daho insonlar

bilan hamfikr, hammaslak bo‘lish maqomiga yetganidan o‘zini arshi a’loda his etmoqda!”

Huquqshunosning xohish-istagiga binoan, bankirning chorbog‘ida miltiqdan ikki marta o‘q uzildi.

Bandilikning o‘n birinchi yilidan boshlab huquqshunos Muqaddas Kitobni o‘qishga tushdi. Qiyin tushuniladigan olti yuz jildlik kitobni to‘rt yilda tushirib tashlagan ziyolining bir yildan beri risolani o‘qib chiqolmayotganidan bankir taajjubda edi. Muqaddas Kitobdan so‘ng u “Dinlar tarixi” va “Ilohiyot”ni qo‘lga oldi.

Muqadas Kitob – Injil (Bibliya) nazarda tutilgan

So‘nggi ikki yil mobaynida huquqshunos nihoyatda ko‘p mutolaa qildi – qo‘liga nima tushsa o‘qiyverdi. Bir qarasang, u tabiiy fanlarni o‘rgana boshlagan, bir qarasang – Bayron va Shekspir asarlariga yopishib olgan. Ba’zan u bir vaqtning o‘zida kimyo va tibbiyotga oid darsliklarga qo‘shib bironta roman yoki bo‘lmasa falsafa va ilohiyot qo‘llanmalarini keltirib berishlarini so‘rardi.

Huquqshunosning mutolaasi halokatga uchragan kema parchasiga yopishib olgan kishi holatiga o‘xshardi.

Vaqt o‘tishi sayin huquqshunos so‘ragan kitoblardagi o‘zgarishlarga e’tibor bering. Bu o‘zgarishlar huquqshunos shuuridagi qanday evrilishlardan (o‘zgarishlardan) dalolat beradi? Tutqunlikning oxirgi besh yilidagi kitoblarga alohida e’tibor bering.

II

Shularni eslab bank sohibi teran xayolga cho‘mdi:

“Ertaga choshgohda u ozodlikka chiqadi. Shartga ko‘ra, kamina unga ikki million to‘lashim lozim. Agar garovda yutqazib qo‘ysam, rasvoyi jahon bo‘laman”.

O‘n besh yil ilgari u yiqqan sarmoyasining hisobiga yetmas, pulni po‘choqcha ko‘rmasdi, endi bo‘lsa u o‘zidan “Pullarim ko‘pmi yoki qarzlarim?” deb so‘rashga yuragi dov bermasdi. Gardkam birja o‘yinlari, qaltis oldi-sotdi operatsiyalari hamda keksayganda ham qutula olmayotgan, salga tutab ketish odati bora-bora hamma ishlarini chaparasta qilib tashladi va bebok, o‘ziga bino qo‘ygan kalondimog‘ boyvachcha birja qog‘ozlarining har ko‘tarilib tushishidan dag‘-dag‘ titraydigan o‘rtamiyona bankirga aylandi.

gardkam – tavakkal

bebok – qo‘rqmas

– Ming la’nat o‘sha garovga! – tushkunlikdan boshini changallagancha o‘zidan yozg‘irib oldi u. – Shu paytgacha nega o‘la qolmadi-a? U endigina qirqqa kirdi. Bor-budimdan ayirib, mening davlatimga uylanib oladi-da, rohat-farog‘atda yashab, meni har ko‘rganida: “Iqbolimni sarbaland etdingiz, endi sizga yordamlashishni burchim deb bilaman!” – deb qitig‘imga tegadi. Yo‘q, bunga toqat qilolmayman! Xonavayron va sharmisor bo‘lishdan qutulishning birdan-bir yo‘li – huquqshunosning o‘limidir!

Sizningcha, bankirni faqat ikki millionni yo‘qotish tashvishga solyaptimi?

Soat tungi uchga jom urdi. Bankir jim qoldi: butun boshli uy orom og‘ushida, faqatgina chorbog‘dan daraxt yaproqlarining so‘lg‘in shitirlashi quloqqa chalinadi. Qariya sas-sadosiz po‘lat sandiqdan o‘n besh yildan buyon qulflog‘lik turgan eshik kalitini oldi-da, paltosini kiyib tashqariga chiqdi.

Chorbog‘ qorong‘i va sovuq edi. Yomg‘ir yog‘ardi. Shiddat-la esayotgan rutubatli shamol vahimali shovullab, daraxt shoxlarini silkitib o‘ynardi. Bankir chor-atrofga zingil qarash qildi, biroq u na oyoqlari ostidagi yerni, na oppoq haykalchalarni, na chekkadagi ovloq uyni ko‘rardi. U huquqshunos hibsda saqlanayotgan binoga yaqinlashib, qorovulni ikki marta chaqirdi – javob eshitilmadi. Aftidan, qorovul yomg‘irdan qochib o‘choqboshigami, gulxonagami kirib olib uyquni urardi.

rutubatli – nam, zax

zingil – sinchiklab

Tabiat tasviriga e’tibor bering. Muallif nega aynan shunday manzarani tanlagan deb o‘ylaysiz?

“Basharti yovuz niyatimni amalga oshira olsam, – deya o‘yladi bank sohibi, – shubha daf’atan qorovulga tushadi”.

U zim-ziyo tun qorong‘ida pillapoyalarni bir-bir bosib tushib, asta dahlizga kirib bordi. So‘ng gugurt chaqib, chog‘roq yo‘lakka o‘tdi. U yer ham kimsasiz edi. Yalang karavot hamda cho‘yan pechkadan bo‘lak hech vaqo yo‘q edi. To‘g‘ridagi eshik qulflog‘ bo‘lib, surg‘ich bilan muhrlab qo‘yilgandi.

Gugurt cho‘pi yonib tugadi, keksa bankir hayajondan dag‘-dag‘ qaltirab, derazadan ichkariga mo‘raladi. Xonani sham shu’lasi xira yoritib turar, huquqshunos bo‘lsa, stoldan bosh ko‘tarmay o‘tirar edi. Bu yerdan uning yelkasi, orqasiga osilib tushgan sochi va uzun qo‘llarigina ko‘rinib turardi, xolos. Stol ustida, uning ikki yonidagi oromkursilarda va gilamda kitoblar tartibsiz sochilib yotardi.

Oradan besh daqiqacha vaqt o‘tdi, biroq tutqun qimir etmayotgandi. O‘n besh yillik qamoq uni tosh qotib o‘tirishga o‘rgatib qo‘ygandi. Bankir derazani chertdi, ammo tutqun bunga javoban loaqal qimirlab ham qo‘ymadi. Shunda bankir qulfning ko‘zidagi muhrni avaylab buzib, kalitni teshikka tiqdi. Zanglab yotgan qulf bo‘g‘iq shiqirlab ochildi. Huquqshunos hozir hayratdan qichqirgancha o‘rnidan turib ketadi, deb o‘ylagandi bank sohibi, lekin oradan uch-to‘rt daqiqa o‘tsa hamki, hech qanday ovoz eshitilmadi. Nihoyat, qariya ichkariga kirib bordi.

Stol yonida oddiy odamlarga mutlaqo o‘xshamagan alomat banda tosh qotib o‘tirardi. Sochlari ayollar sochidek o‘sib, jingala-jingala bo‘lib ketgan, soqol-mo‘ylabi baroqlashib, ustuxonini yupqa teri sirib turgan skeletdangina iborat edi u. Yonoqlari ich-ichiga botib ketgan, rangi murdaday oppoq, belidan yelkalarigacha cho‘zilib kambar tortgan tanasi hamda uzundan-uzun soch-soqolli boshini tutib turgan qo‘llar shunchalik ingichka va qoqshol ediki, unga ko‘zi tushgan kishining qo‘rquvdan yuragi tars yorilishi tayin edi. Sochlariga oq oralab qolgan, zero, butun andomi qarimsiq tus olgan bu odamning endigina qirqqa kirganiga aql bovar qilmasdi. U shu o‘tirishida uyquga ketgandi... Quyi solingan boshi qarshisida mayda harflarda yozilgan bir varaq qog‘oz yotardi.

kambar – eni kichkina, ensiz

andom – qadqomat, qiyofa

“Sho‘ring qursin! – dedi ichida bankir. – Uxlayapti. Ehtimolki, shu topda tushida garovga tikilgan million-million pullarni ko‘rayotgandir! Bu tirik murdani dast ko‘tarib to‘shakka yotqizaman-da, paryostiq bilan og‘iz-burnini yopib turaman – joni uziladi.

Huquqshunos tashqi qiyofasini va ichki olamini tasavvur qilib ko‘ring. Nima deb o‘ylaysiz, unga garovga tikilgan pul kerakmi?

O‘shanda eng adolatpesha ekspertiza ham u zo‘rlab o‘ldirilganini aniqlay olmaydi. Darvoqe, u nimalar haqida yozganini o‘qib ko‘ray-chi...”

“Ertaga kunduz soat o‘n ikkida kamina ozodlikka chiqib, yana odamlar orasida yashash huquqini qo‘lga kiritaman. Ammo-lekin ushbu zindonni butunlay tark etib, oftobni yana o‘z ko‘zim bilan ko‘rish baxtiga erishishdan oldin sizga quyidagilarni yetkazib qo‘yishni lozim topdim. Pok vijdonim hamda Yaratganning guvohligida sizga shuni aytmoqchimanki, endi men sizlarning minglab jild-jild kitoblaringizda foniy dunyoning noz-ne’matlari-yu rohat-farog‘atlari deya maqtalgan hurlik, sihat-salomatlik, to‘y-u tomoshalar-u, shod-u xurramliklar – hamma-hammasiga tupurdim!

Uzlatda kechgan o‘n besh yil davomida kamina bu o‘tkinchi dunyo hayotini miridan sirigacha o‘rgandim. To‘g‘ri, uzoq yillar men na quyoshni, na odamlarni ko‘rdim, ammo-lekin sizlarning kitoblaringizdan ajoyib musallaslar no‘sh etib, diltortar navolar tingladim, o‘rmon va yo-

g‘izol – ohu

sohir – sehrli **ofarida bo‘lgan** – yaralgan

bonlarda ohular-u g‘izollar ortidan quvdim, ofatijon xonimlarning ko‘nglini ovladim... Daho shoirlarning sohir xayolotidan ofarida bo‘lgan hur-u g‘ilmonlar uzoq oqshomlarda huzurimga tashrif buyurishar va aql-u hushimni sarmast etib, tong otguncha menga ertaklar so‘zlab chiqishardi. Sizlarning kitoblaringizdan men Monblan va Elbrus cho‘qqilarini zabt etar; erta-tongda quyoshning ufq ortidan ko‘z uqalab chiqib kelishini, kechga borib osmon-u ummonlarni hamda baland tog‘ cho‘qqilarini lolarangga bo‘yab yuborishini sehrlangancha tomosha qilar edim; yuksak qoyalarga chiqib olib, yildirimning bulutlarni tilkalashini vahima bilan kuzatardim, u yerdan turib yam-yashil o‘rmonlar va o‘tloqlar, daryolar-u ko‘llar, kentlar va qo‘rg‘onlarga zavqlanib boqar, ularning poyimda yastanib yotishidan lol-u musaxxar bo‘lar, pari-paykarlarning sehrli ovozi-yu cho‘ponlarning sibizg‘a sozi ruhimga orom bag‘ishlar va kamina bilan ilohlar haqida suhbat qurgani xonamga uchib kirgan farishtalarning oppoq harir qanotchalarini yaqqol his etardim... Kitoblaringiz sahifalaridan o‘zimni tubsiz jarliklarga otgan bo‘lsam, sabr-qanoatim, chidam-bardoshim bilan mo‘jizalar yaratar, bu ham yetmaganday, o‘zimni bebok va o‘tyurak chog‘lab, kent-u qishloqlarga o‘t qo‘yar, odamkushlik qilar, katta-katta mamlakatlarni zabt etib, xalqini qirg‘inbarot etar, pirovardida yangi-yangi ilohiy ta’limotlarning targ‘iboti bilan shug‘ullanar edim...

Kitoblaringiz aqlimni charxlab, idrokimni o‘tkirladi. Tinim bilmas va yaratuvchan inson zakovati asrlar mobaynida bunyod etgan narsalarning hammasi bosh chanog‘imda ixcham holga kelib yig‘ildi. Endi kamina o‘zimni sizlarning barchangizdan har jihatdan komil va yetuk ekanligimga ishonch hosil qilmoqdaman...

Bundan buyon men bu dunyoning jumla noz-ne’matlaridan nafratlanaman. Ularning hammasi o‘tkinchi, haqir, turgan-bitgani sarob ekan. Sizlar, ya’ni o‘zini ilm-u hikmatda, dunyoni anglab yetishda barkamollikka erishgandek chog‘layotgan mutakabbir bandalar qanchalik kibr-u havoga berilmang, ajal sizlarni yerto‘la va yer ostidagi sichqon-u kalamushlarga qo‘shib, yer yuzidan supurib tashlaydi, ortingizda qolayotgan avlod-u ajdodlaringiz yaratgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklar kurrayi zamin bilan birgalikda kunpayakun bo‘ladi...

haqir – qadrsiz

hamoqat – axmoqlik

Boylik, hasad, hirs-u havas barchangizning ko‘zingizni ko‘r, shuuringizni shafaq qilib qo‘ygan. Sizlar yolg‘onni haqiqat, hamoqatni nafosat deyishga o‘rganib qolgansiz. Mabodo falakning gardishi bilan daraxtlarda, olma, po‘rtaxol va nok o‘rniga qurbaqa, kaltakesak va ilonlar osilib tursa; atirgullar firdavs bog‘larining iforlarini emas, balki badbo‘y ter isi taratib turishidan qanchalik irganib-jirkanganingiz kabi, kamina ham Arshi a’loni yolg‘onchi dunyoning hoy-u havaslariga almashtirib o‘tirganingizdan bag‘oyat taxayyuldaman. Endi ichingizda kaminani yo‘q deb hisoblayveringlar!!!

taxayyulda – o‘y-xayolda

Sizlarning hulvo misol botil turmushingizga nisbatan qalbimda uyg‘ongan cheksiz nafrat va jirkanchimning isboti o‘laroq taqdirning buyuk ne’mati va katta omad deb orzu qilgan ikki millioningizdan butunlay bosh tortaman. O‘sha garovga tikilgan pullarga haqdorlik huquqidan o‘zimni mahrum etish maqsadida muddatidan besh soat burun bu yerdan qochib chiqib, o‘rtamizdagi shartni atayin buzaman...”

Nomani yana bir marta o‘qib chiqing. Noma muallifini bir so‘z bilan qanday ta’riflagan bo‘lardingiz?

Bank sohibi nomani o‘qib chiqib, uni joyiga qo‘ydi, so‘ngra huquqshunosning peshonasidan o‘pdi-da, ko‘zlariga g‘ilt-g‘ilt yosh olib, xonadan chiqib ketdi. U ilgari hech qachon, hatto gardkam birja o‘yinlarida yutqizib, katta talafotga uchraganda ham, hozirgidek o‘zidan bunchalik nafratlanmagandi. Bankir uyiga qaytib kelib, o‘zini to‘shakka tashladi, biroq kuchli iztirob va ko‘zlaridan oqayotgan yoshlar unga tinchlik bermasdi.

Ertasiga ertalab uning huzuriga chopa-chopa kelgan qorovul va malaylarning rang-qutlari o‘chgan, sarosimada edilar. Ular bandining derazadan bog‘ga, u yerdan darvoza orqali noma’lum tarafga qochib ketganini aytishdi.

Bank sohibi malaylari bilan darhol chorbog‘ning etagidagi xilvat go‘shaga yetib keldi va huquqshunosning qamoqdan qochganiga ishonch hosil qildi. Ortiqcha gap-so‘zlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun u huquqshunosning garov shartnomasini buzganligi haqidagi qog‘ozni olib uyiga qaytib keldi-da, uni po‘lat sandiqqa solib qulflab qo‘ydi.

Sizningcha, bankir qog‘ozni nega yashirib qo‘ydi? Nega yo‘q qilmadi?

MUTOLAADAN KEYINGI TOPSHIRIQLAR

Asar tahlili:

1. O‘n besh yil davomida bankir va huquqshunosda qanday **o‘zgarishlar** ro‘y berdi? Bu o‘zgarishlarning sabablari nimada?

2. Ayrim adabiyotshunoslarning yozishicha, 1880-yillar oxirida Chexov o‘ta tushkun kayfiyatda bo‘lgan. Hikoyada siz qanday **kayfiyatni** ilg‘adingiz? Sizningcha, Chexovning tushkunligi asarga ta’sir qilganmi?

3. Hikoya dastlab “Ertak” deb nomlanganligi va **uch qismdan** iborat bo‘lganligi haqida o‘qidingiz. Uchinchi qismda bankir oradan bir yil o‘tib yana bir marta, bu safar bir qari millioner bilan uch millionga garov o‘ynaydi va uni yutqizadi. Qizig‘i, bu garovni yutqizishiga birinchi, huquqshunos bilan o‘ynagan garovi sabab bo‘ladi. O‘ylab ko‘ring-chi, ikkinchi garov nima haqida bo‘lishi mumkin? Chexov nega bu qismdan voz kechib, asar nomini ham o‘zgartirgan deb o‘ylaysiz?

4. Hikoyaning uchinchi qismidan voz kechgani sababini Chexov shunday izohlaydi: “Bu yakun menga haddan tashqari **sovuq** ko‘rindi”. Hikoyaning hozirgi yakuni haqida nima deya olasiz?

Adabiyot nazariyasi:

5. Asarda yozuvchining vaqt jihatdan ortga qaytishi, bayon qilinayotgan voqeadan oldingi voqeani eslashi **retrospektiva** deyiladi. Sizningcha, Chexov hikoyada nega garov voqeasini xronologik tarzda bayon qilmay, retrospektiva usuliga murojaat qilgan?

6. Ko‘p adabiyotshunoslar “Garov” hikoyasini **ramziy hikoya (pritcha)** janriga mansub deb hisoblashadi. Ramziy hikoyada biron-bir axloqiy-falsafiy g‘oya majoziy usulda beriladi. “Garov” hikoyasi kim yoki nima haqida? Undagi asosiy g‘oya nima deb o‘ylaysiz?

Asar va o‘quvchi:

7. Huquqshunosning o‘rnida bo‘lsangiz o‘n besh yilni **qanday** o‘tkazgan bo‘lardingiz?

8. Kitob mutolaasi, adabiyot va san’atning insonga **ta’sir kuchi** nimada deb o‘ylaysiz?

Ijodiy topshiriqlar:

9. Bankir huquqshunosni o‘ldirmoqchi bo‘lib chorbog‘ eshigidan kirgan joyidan hikoyani **davom** ettiring.

19. Tasavvur qiling: oradan vaqt o‘tib bankir huquqshunosga maktub yubordi. Bu maktub nima haqda bo‘lishi mumkin? Bankirning huquqshunosga **maktubini** yozing.

ADABIYOT DARSLARIDA YOKI DARSDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARDA QO‘LLASH MUMKIN BO‘LGAN AYRIM TOPSHIRIQLAR

Asar syujetidagi muhim voqea tahlili (90 daqiqa)

1. Kichik guruhlarda ishlang. Darslikdan yoki o‘zingiz mustaqil o‘qigan kitoblardan bitta nasriy asar tanlang. Asarning asosiy g‘oyasini tushunish uchun muhim bo‘lgan biron-bir voqea bayonini toping. *(5 daqiqa)*

2. Ushbu voqea sodir bo‘lgan joyni boshqa makonga almashtirib, begona nigoh nuqtayi nazaridan qayta yozing, bunda zamonni o‘zgartirmang. *(30 daqiqa)*

3. Yozgan variantingizni ovoz chiqarib sinfda o‘qib bering. *(5 daqiqa)*

4. Bu vazifani bajarishda qanday murakkabliklarga, muammolarga duch keldingiz? Qanday usullardan foydalandingiz va nima uchun? Ushbu savollarga javoblaringizni guruhingiz a’zolari bilan muhokama qiling. *(10 daqiqa)*

5. Siz yozgan voqea va asliyatdagi voqea o‘rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz? Nega voqeaning aynan shunday sodir bo‘lishi kerakligiga urg‘u berdingiz? Fikrlaringizni xulosalang va guruhingiz a’zolari bilan birgalikda muhokama qiling. *(10 daqiqa)*

Prikvel yoki sikvel (80 daqiqa)

1. Kichik guruhlarda ishlang. Darslikdan yoki o‘zingiz mustaqil o‘qigan kitoblardan bitta asar tanlang. Bu hikoya guruhning hamma a’zolariga tanish bo‘lishi kerak. Asarga prikvel (asarda hikoya qilingan voqealardan oldingi voqealarni bayon qiluvchi asar) yoki sikvel (asarda hikoya qilingan voqealardan keyingi voqealarni bayon qiluvchi asar) yozishni maslahatlashib oling. (5 daqiqa)

2. Prikvel yoki sikvel yozing. Bunda manba bo‘lib xizmat qilayotgan asar tili, uslubi, badiiy xususiyatlari saqlanishiga e’tibor bering. (40 daqiqa)

3. Yozgan asaringizni boshqa guruhga o‘qib bering (yoki o‘qishga bering). Siz yozgan prikvel (sikvel) manba bo‘lib xizmat qilgan asar g‘oyasi, obrazlarini tushunishga qanday yordam berganligini yoki qanday o‘zgartirganligini muhokama qiling. (30 daqiqa)

Hikoya asosida dialog (120 daqiqa)

1. Darslikdan yoki o‘zingiz mustaqil o‘qigan kitoblardan bitta hikoya tanlang. Hikoyadan ikkita asosiy bo‘lmagan obrazni tanlang va hikoyadagi voqealar haqida bu ikki qahramon o‘rtasidagi suhbatni (dialog) yozing. Unutmang: hikoyani shu ikki qahramon nuqtayi nazaridan dialog shaklida qayta yozishingiz kerak. Bunda dialog vaqti va joyini, dialog uslubini maqsaddan kelib chiqib o‘zingiz tanlaysiz. (50 daqiqa)

2. Dialogingiz qoralamasini qayta o‘qib chiqing va tahrirlang. Bunda matn maqsadiga xizmat qilmaydigan keraksiz so‘zlar, lavhalarni o‘zgartiring yoki butunlay olib tashlang. Matnning ta’sirli chiqishiga e’tibor bering, ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladigan o‘rinlarni qayd qilib oling. (30 daqiqa)

3. Uch yoki to‘rt sinfdoshingizdan iborat guruhga yozgan dialogingizni o‘qib bering. Guruh a’zolaridan dialog haqidagi fikr-mulohazalarini so‘rang, siz ham ularga

o‘z fikr-mulohazangizni bildiring. Qabul qilingan fikr-mulohazalar, takliflarni yozib oling va ular asosida dialogni takomillashtiring. (40 daqiqa)

Hikoya asosida radiodrama (120 daqiqa)

1. To‘rt-besh kishilik guruhlarga bo‘lining. Darslikdan yoki o‘zingiz mustaqil o‘qigan kitoblardan bitta hikoya tanlang. (Bu hikoya guruhning hamma a’zolariga tanish bo‘lishi kerak.) Guruh a’zolari bilan hikoyaning g‘oyasi, syujetini muhokama qilib oling. (10 daqiqa)

2. Hikoya asosida radio uchun bir pardali drama yozing. Bunda voqea kechayotgan zamon va makon, qahramonlar soni, ularning harakatlari sabablari, konflikt va yechimga o‘zgartirishlar kiritishingiz mumkin. Shu bilan birga, hikoyaning g‘oyasi saqlab qolinishiga e’tibor bering. (100 daqiqa)

3. Yozilgan radiodramani sinfdoshlaringizga qanday taqdimot qilishni kelishing: rollarni bo‘ling, agar ovoz effektlari (shovqin, musiqa) kerak bo‘lsa, ularni maslahatlashib oling. Radiodramani sinfdoshlaringizga taqdimot qiling. (10 daqiqa)

Kiritma she’r (60 daqiqa)

1. Hamkorlikda (juft bo‘lib) darslikdan bitta kichik she’r tanlang va uni tahlil qiling. She’r g‘oyasi, vazni, ohangi, unda qo‘llangan badiiy tasvir vositalariga e’tibor bering. (20 daqiqa)

2. She’r ohangi va uslubini iloji boricha buzmagan holda she’rning o‘rtasiga bir parcha (bir yoki ikki band) qo‘shib yozing. (20 daqiqa)

3. She’rni o‘zingiz qo‘shgan bandlar bilan birgalikda o‘qing. Qo‘shilgan bandlarning maqsadi, ularning asliyatdagi (sizning kiritmangizsiz) she’r mazmuniga ta’sirini muhokama qiling. (20 daqiqa)

Xokku va tanka (90 daqiqa)

1. Darslikdan yoki o‘zingiz mustaqil o‘qigan kitoblardan bitta asar tanlang. (5 daqiqa)

2. Asar asosida avval xokku (uch qator, 17 bo‘g‘indan iborat qofiyalanmagan she’r), so‘ngra tanka (besh qator, 31 bo‘g‘indan iborat qofiyalanmagan she’r) yozing. (45 daqiqa)

3. Yozgan she’rlaringizni qayta o‘qing va kerakli o‘rinlarini tahrirlang. (10 daqiqa)

4. Uch yoki to‘rt sinfdoshlaringizdan iborat guruhga yozgan dialogingizni o‘qib bering va birgalikda muhokama qiling. (30 daqiqa)

She’r mashqi (90 daqiqa)

1. Sinf xonasi yoki maktabdan biror-bir e’lon yoki shior yozilgan lavhani toping. (10 daqiqa)

2. Ushbu e’lon yoki shior matnidan sizga ma’qul yoki e’tiboringizni tortgan 8 ta so‘z yoki so‘z birikmasini tanlab oling va ushbu so‘zlar ishtirokida o‘zingiz istagan mavzuda kichik hajmli she’r yarating. She’rga mos sarlavha toping. (30 daqiqa)

3. O‘zingiz yaratgan ijod namunangizni ifodali o‘qib berish bo‘yicha tavsiyalar

yozing: ifodali o‘qish jarayonida qaysi so‘zlarga urg‘u berilishi lozimligi, intonatsiya, ishoralar, tinish belgilarining she’rdagi ahamiyatiga e’tibor berish sabablarini izohlang. (10 daqiqa)

4. Sinfdoshingiz yoki partadoshingizga she’ringiz va uni qanday ifodali o‘qish kerakligi haqidagi ko‘rsatmalaringizni bering. Fikrlaringiz aniq va partadoshingiz uchun tushunarli bo‘lishi lozim. Taqdimot uchun yana bir karra tayyorlanib oling. Sinfdoshingiz (partadoshingiz) ham o‘zi yozgan she’r va uni ifodali o‘qish haqida ko‘rsatmalarini beradi. (20 daqiqa)

5. Sinfdoshingiz (partadoshingiz) she’rini ifodali o‘qib bering va boshqalarni ham tinglang. (20 daqiqa)

Sayohatnoma (90 daqiqa)

1. Geografik xaritadan uchta joy nomini toping va ularni A, B va C shaklida belgilang. *(5 daqiqa)*

2. A manzildan C yoki B manzilga xayolan “sayohat” qiling va shu sayohatingiz asosida sayohatnoma janridagi kichik matn yarating. Matnda tanlagan joyingizga xos xususiyatlar, diqqatga sazovor joylar, o‘sha joyda yashaydigan xalqlarning mif va afsonalari, yo‘lingizda uchrashi mumkin bo‘lgan hayvonot va nabotot olami vakillariga e’tibor bering. Yo‘lda uchratishingiz mumkin bo‘lgan shaxslar yoki narsalarga ham izoh berishni, ular haqidagi ma’lumotlarni keltirishda kartaga ham havolalar ko‘rsatishni unutmang. Siz matnga o‘zingiz istaganingizcha ijodiy yondashishingiz mumkin, ammo matnda aks etgan ma’lumotlar aniq dalillarga asoslanishi lozim. *(45 daqiqa)*

3. Sayohatnomangizni sinfdoshlaringizga o‘qib bering va ularning fikrlarini tinglang. Taqdim etayotgan matningizda e’tiroz tug‘dirishi mumkin bo‘lgan o‘rinlar bo‘lsa, ular haqida taqdimot avvalida sinfdoshlaringizga izohlar berishni unutmang. *(40 daqiqa)*

UMUMIY O‘RTA TA’LIMDA ADABIYOT FANINI O‘QITISHNI RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

Ushbu konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida umumta’lim fanlari o‘qitiladigan muassasalarda (keyinchalik – ta’lim muassasalari) adabiyot saboqlarini tashkil etishning asosiy masalalari, didaktik tamoyillari, maqsad, vazifalari hamda ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydi hamda sohaga oid pedagogik ashyolar hamda kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladigan rasmiy hujjatdir.

Konsepsiya xalq ta’limi tizimida adabiyot o‘quv fanini o‘qitish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Jumladan:

– adabiyot o‘qitishning bosh yo‘nalishi, maqsad va vazifalari, adabiy ta’lim asoslari va didaktik tamoyillarini adabiyotshunoslik hamda metodika ilmining so‘nggi yutuqlarini hisobga olgan holda belgilash;

– ta’lim tizimi rivojlangan chet mamlakatlarning tajribasidan mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar hamda xalqimizning milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanish yo‘llarini tayin etish;

– adabiyot o‘quv fani davlat ta’lim standarti talablarining ta’lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablar darajasida bo‘lishini ko‘rsatib o‘tish;

– adabiyot predmeti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarining real hayot talablariga muvofiq bo‘lishi kerakligini qayd etish;

– adabiyot o‘quv fanining mazmunini sifat jihatidan yangilab, uning o‘quvchilar yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelishini ta’minlash. Shuningdek, o‘qitish metodikasini takomillashtirib, ta’lim jarayonining individuallashtirilishi hamda shaxsga yo‘naltirilishini ko‘zda tutish;

– adabiy ta’limda ijodkor yoki u bitgan asarning mavqeyiga qaraganda o‘quvchi shaxsida shakllantirilishi mo‘ljallangan ma’naviy sifatlar ustuvor bo‘lishi kerakligini ko‘zda tutish;

– adabiyot predmetining boshqa umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi orqali o‘quvchilarni turli hayotiy vaziyatlarga tayyorlash imkoniyatini oshirish;

– adabiyot fanining mazmuni o‘quvchilar o‘z hayotida qo‘llashlarini hisobga olib belgilanishiga erishish;

– adabiyot saboqlarining o‘quvchilarda yozma va og‘zaki savodxonlik, badiiy did, tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilishini ko‘zda tutish;

– adabiy ta’lim jarayonida o‘quvchilarni milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalashning samarali usullarini joriy etish;

– o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida sinfdan va maktabdan tashqari adabiy ta’limning zamonaviy usullaridan foydalanishni ko‘zda tutish;

– adabiyot o‘qitish jarayoni samaradorligini ta’minlashda innovatsion pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish;

– o‘quvchilarda nutqiy va badiiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish orqali ularda ezgu sifatlar hamda badiiy-estetik didni shakllantirish;

– adabiyot o‘qitishning barcha bosqichlarida o‘quvchilarda hayotning har bir hodisasi hamda odamlarning har bir xatti-harakatiga mustaqil va asosli baho bera olish ko‘nikmasini shakllantirish;

– adabiyot darslari turli yoshdagi o‘quvchilarda yaxshini yomondan, go‘zalni xunukdan, haqni nohaqdan ajratish ko‘nikmasi qaror topishiga qaratilishini ko‘zda tutish.

II. ADABIYOT PREDMETINING TA’LIM TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Adabiyot ta’limi o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda ezgu ma’naviy sifat va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Buning uchun yoshlarni milliy va jahon madaniyatining eng sara asarlari bilan tanishtirish orqali ularda badiiy asar qahramonlaridagi turli ma’naviy-axloqiy sifatlarga faol hamda asosli mantiqiy va hissiy munosabat uyg‘otish lozim bo‘ladi.

Adabiyot – millatning ma’naviy qiyofasi va ruhiy qudratining ifodasi, ma’rifiy takomil, milliy til imkoniyatlarini namoyon qiladigan va uning boyliklarini saqlab qoladigan hamda boyitadigan vositadir. Badiiy adabiyot estetik va ma’naviy ta’sir orqali o‘quvchilarda odamiylik, halollik, vatanparvarlik fazilatlarini shakllantiradi, ularning shaxsiyatiga tarixiy xotira, o‘z xalqi va butun insoniyatga daxldorlik tuyg‘ularini singdiradi.

Adabiyot o‘qitish o‘quvchilarda bilish, kommunikativlik, go‘zallik va ezgulikni his etish, undan zavqlanish va yomonlikdan nafratlanish ko‘nikmalarini tarbiyalaydi. Bu hol umumta’lim o‘quvchilarida to‘la ma’nodagi shaxsiyat sifatlari shakllanishiga olib keladi.

III. KONSEPSIYANING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ushbu Konsepsiyaning maqsadi umumta’lim maktablarida adabiy ta’limni sifat jihatidan milliy va xorijiy tajriba uyg‘unligida xalqaro standartlarga mos tarzda yangi bosqichga ko‘tarib, samaradorlikka erishish, o‘quvchilarning mustaqil fikrlaydigan, adabiyot va hayot hodisalariga ijodiy yondashadigan, badiiy did hamda ezgu ma’naviy sifatlarga ega barkamol shaxslar sifatida shakllanishini ta’minlash yo‘llarini belgilashdan iborat. Bunda pedagogika, psixologiya, metodika hamda adabiyotshunoslik ilmining so‘nggi yutuqlariga tayaniladi.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi **vazifalar**ni bajarish ko‘zda tutiladi:

– umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘qitishning uzviyligi va uzluksizligiga erishish;

– o‘quv dasturi, darsliklar, metodik adabiyotlarni ijodiy fikrlaydigan o‘quvchini shakllantirish talabiga muvofiq yangilash, o‘qitish metodikasi va texnologiyalarni modernizatsiya qilishni ko‘zda tutish;

– o‘z ustida ishlash orqali adabiyot o‘qituvchilari faoliyatining samaradorligini oshirishga erishish;

– adabiy ta’limda o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan, o‘quvchilarning bir-birlari bilan hamkorlik qilishi natijadorlik omili ekanini anglatish;

– ta’lim jarayonida pedagoglar va o‘quvchilar faoliyatini qolipga solmaslik, o‘quv vaziyati talabidan kelib chiqib, turli didaktik usul va vositalardan foydalanish imkonini berish;

– o‘quv dasturi, darsliklar hamda qo‘llanmalarning variativ bo‘lishiga erishish;

– adabiyot saboqlari samaradorligini oshirishda elektron axborot vositalaridan muntazam foydalanishni ko‘zda tutish;

– badiiy asarlarni o‘qish va tahlil qilish orqali o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni darslikka kirmagan badiiy asarlarga ham qiziqtirish yo‘llarini belgilash.

IV. ADABIY TA’LIMNING ASOSLARI

Adabiy ta’limning asoslari *maqsad, vazifa* hamda *mazmun* tushunchalarini o‘z ichiga oladi.

Adabiyot o‘qitishning **maqsadi** badiiy asarlar yordamida sog‘lom e’tiqodli, mustaqil fikrli, o‘tkir hissiyotli, yuksak didli, axloqan barkamol, aqlan yetuk, o‘zga insonning tuyg‘ularini anglaydigan, o‘z xatti-harakatlariga xolis baho bera oladigan shaxsning ma’naviy dunyosini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot fanini o‘qitishning asosiy **vazifasi** o‘quvchilarda**:**

– badiiy so‘zdan ta’sirlanish, uning jozibasini his etish, haqiqiy badiiy asarni tanish va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish;

– o‘qilgan badiiy asarni tushunish, undan hayotiy xulosalar chiqarish, badiiy asar o‘qishni hayotiy ehtiyoj hisoblash tuyg‘ularini tarbiyalash;

– yozma va og‘zaki savodxonlik, nutqida adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglikdan foydalana olish ko‘nikmasini shakllantirish hamda adabiyot o‘quv fanining mazmunidan kelib chiqqan holda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

– uzliksiz ta’lim bosqichlarida badiiy asar mutolaasiga erkin yondashuv tamoyilini shakllantirish;

– ularda turli janrlardagi badiiy asarlarni o‘qish, bitiklarning saviyasini ajrata bilish, qahramonlar tutumlariga aksiologik baho berish ko‘nikmasini qaror toptirishdan iborat.

Adabiy ta’lim **mazmunini** esa:

– badiiy matnlar orqali o‘quvchilarda ezgu ma’naviy fazilatlar hosil qilishga yetarli vaqt ko‘zda tutilgan o‘quv rejasi;

– pedagogika, psixologiya va adabiyotshunoslik ilmlarining so‘nggi yutuqlariga tayangan holda tavsiya etilgan;

– o‘quvchilarning yosh, ruhiy va jins xususiyatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda yaratilgan, o‘quv materiallarini o‘rganish jarayonida ularni ishlash, izlanish, mustaqil fikrlashga undaydigan darsliklar;

– o‘zbek va jahon adabiyotining o‘quvchilarda ezgu ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladigan badiiy qimmati yuksak namunalari;

– badiiy asarlarni estetik o‘zlashtirishga yordam beradigan, sinflar bo‘yicha oddiydan murakkabga tamoyili asosida taqdim etib boriladigan adabiy-nazariy tushunchalar;

– o‘quvchilarga darsliklardagi asosiy o‘quv materiallariga qo‘shimcha bilim va ma’lumot berish maqsadida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalari;

– o‘quv materiallari mohiyatini o‘quvchilarga yetkazib berishda foydalanish uchun o‘qituvchilarga mo‘ljallab yozilgan metodik qo‘llanmalar tashkil etadi.

V. ADABIYOT O‘QITISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR

Adabiyot o‘qitishda uzoq yillardan beri davom etib kelayotgan samarali metodik yondashuvlar, zamonbop o‘quv-uslubiy majmualar, ommalashgan ilg‘or tajribalar ulkan ilmiy-metodik boylik sanaladi. Milliy adabiy ta’limda muayyan taraqqiyot bosqichlari kuzatilsa-da, adabiyot o‘qitish metodikasi global ta’lim imkoniyatlari, jahon standartlari bilan muqoyasa qilinganda, taassufki, uning zaif jihatlari oydinlashib qoladi. Mana shu nuqtayi nazardan, mazkur yo‘nalishda hal qilinishi lozim bo‘lgan motivatsion, mazmun-mundarijaga aloqador, metodik hamda kadrlar bilan bog‘liq yechimini kutayotgan bir qator muammolar mavjud.

Motivatsion xarakterdagi muammolar. Hozirgi davrda ta’lim oluvchilarning badiiy adabiyotga qiziqishi, kitobxonlik saviyasi sezilarli darajada pasaygan. Bu esa millat intellektual va hissiy qudratining pasayishiga olib keladi. Bu ko‘ngilsiz holatga adabiy ta’limdagi bo‘shliqlar, muammolarning mavjudligi ham ma’lum darajada sababdir. Yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib etishga hukumat darajasida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Maqsad – umuman, aholini, xususan, yoshlarni badiiy asar o‘qishga qaytarish.

Yoshlarning badiiy asar o‘qishga qiziqmasliklari sabablari:

– ta’lim oluvchilar badiiy asarlarning jozibasini his etish, ulardan zavqlanish, poetik olamini kashf qilish, estetik o‘ziga xosligini anglab yetish kompetensiyasiga ega bo‘lmay qolmoqdalar;

– umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflarida badiiy matnlarni o‘zlashtirishga faqat yodlash, tinglab tushunish va qayta hikoyalashdan iborat jarayon sifatida qaralib, o‘rganilgan badiiy asarlar yuzasidan o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritishlariga kam e’tibor berilayotgani tarbiyalanuvchilarning badiiy asarni his etmasliklariga, binobarin, unga qiziqmasliklariga sabab bo‘lyapti;

– xalq og‘zaki ijodi namunalarining har bir sinfda o‘qitilishi ko‘zda tutilgan holda o‘quvchilarni ko‘p asrlar oldin yaratilgan folklor asarlarining badiiy olamiga olib kirishning samarali yo‘llari belgilab olinmagani sababli bolalar bu bitiklar jozibasini anglay olmayaptilar;

– o‘qituvchilarning o‘qitilayotgan badiiy matnlarga asosan nasihat vositasi tarzida munosabatda bo‘lishi o‘quvchilarni badiiy asardan bezdirmoqda;

– uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida mumtoz badiiy tafakkur tarzidagi janr belgilari, vazn o‘lchovlari va qofiyalanish tartibidagi qat’iy qoliplar hamda asarlarda-

gi ramziylik, majoziylikda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xosliklar anglab yetilmaganligi nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham mumtoz asarlarni o‘qish, anglash, ta’sirlanish va tahlil qilishda qiyinchilik tug‘dirmoqda;

– shuningdek, adabiyotda tinimsiz amalga oshirilayotgan ijodiy yangilanishlar ham o‘quvchilarning taqdim etilgan badiiy asarlarni idrok qilish, tushunish va tahlil etishlarida muayyan murakkabliklar keltirib chiqarmoqda;

– adabiyot dastur va darsliklarini yaratishda pedagogik nuqtayi nazar o‘rniga ko‘pincha filologik yondashuv ustunlik qilishi o‘quvchilarni badiiy adabiyotdan uzoqlashtirmoqda;

– o‘quv dasturiga kiritilgan bir talay badiiy matnlarning muayyan sinfdagi o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelmasligi ham ularning badiiy adabiyotdan begonalashuviga olib kelmoqda.

Mazmun-mundarija bilan bog‘liq muammolar. Amaldagi adabiy ta’lim mazmuni o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirish emas, balki muayyan adabiy mahsulotlarni taqdim etish tamoyiliga tayanib belgilangani uchun ta’lim oluvchilarda kerakli adabiy kompetensiyalarni shakllantira olmaydi. Ta’lim tizimlarining ko‘pchilik bitiruvchilari badiiy asarni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, uning badiiy-estetik qimmatini mustaqil baholash ko‘nikmalariga ega emas. Nazariy bilimlarni o‘zlashtirgan holda ularni adabiy matn tahliliga tatbiq qila olmaydilar.

Bu boradagi muammolar quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘rganish uchun tavsiya etiladigan adabiy matnlarni tanlash, tizimga solish, taqdim etish va ta’lim tashkilotlariga yetkazish yo‘lga qo‘yilmagan;

– o‘rta ta’limda o‘qitiladigan adabiyot o‘quv fani darsligining mundarijasi bevosita 1–4-sinfdagi o‘qish kitobining davomi sifatida tizimli tashkil qilinmagan, o‘rganiladigan badiiy asarlarning bola yoshiga muvofiqligi darajasi hamma vaqt ham hisobga olinmagan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadigan topshiriqlar berilmagan;

– fan dasturlari metodist bo‘lmagan mutaxassislar tomonidan tuzilgani uchun ularda pedagogik yondashuvdan ko‘ra filologik yondashuv tarzi ustuvorlik qilmoqda. Bu hol o‘quvchilar o‘rganishlari uchun asar tanlashda bitiklarning bolalarda muayyan ma’naviy sifatlar shakllantirishga qanchalik xizmat qilishi emas, balki muallif yoki asarning mavqeyidan kelib chiqib, yondashilganida ko‘zga tashlanadi. Haligacha pedagogik jihatdan asoslangan, tajribalar bilan sobit bo‘lgan “Adabiyot” o‘quv dasturi yaratilmadi;

– o‘quv dasturlariga kiritilgan ayrim materiallarning o‘quvchilar yosh xususiyatiga mos emasligi, ba’zi asarlarni tushunish chuqur ixtisoslashgan filologik tayyorgarlikni talab qilishi tez-tez uchrab turibdi;

– darsliklarda o‘quvchilarni badiiy matnlarni o‘qish, tushunish, tahlil qilish, asar va uning qahramonlariga mustaqil baho berishga yo‘naltirish o‘rniga matnlarning mazmuni bayon qilinayotgani, tahlil bo‘yicha tayyor maqola berilayotgani adabiyot saboqlarining nursiz, zerikarli, o‘quvchilarning esa fikriy boqimanda bo‘lishiga olib kelmoqda;

– amaldagi “Adabiyot” dasturida xalqimizning milliy mentaliteti, etnik xususiyatlari aks etgan, shuningdek, hozirgi zamon bolalarining hayoti va muammolari yoritilgan asarlarni o‘rganishga e’tibor qilinmagan;

– oliy adabiy ta’limda badiiy asarga hamon ijtimoiy-faktologik tamoyil asosida yondashish yetakchilik qilayotgani bo‘lg‘usi filolog mutaxassislarning asosiy malaka ko‘rsatkichi bo‘lmish badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyalari yetarli darajada shakllanmayotganiga, natijada adabiyot saboqlari yetarlicha samarali tashkil etilmayotganiga sabab bo‘lmoqda.

Metodik xarakterdagi muammolar. O‘quvchilarda muayyan kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan adabiyot o‘quv predmeti ta’limning turlicha metodik yondashuv va shakllaridan foydalanadi. Ta’lim natijalarining zamon talablariga to‘la javob bermayotgani ko‘p darajada o‘qitish metodikasidagi bo‘shliqlarga ham daxldor. Metodik xarakterdagi mavjud muammolar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarning nutq faoliyatini yo‘lga qo‘yishning asosiy vositasi bo‘lmish badiiy adabiyot bilan ishlash bo‘yicha tarbiyachilar tegishli metodik yo‘riq, tavsiya va adabiyotlar bilan ta’minlanmagan, natijada bolalar maktabga nutqiy muayyan oqsoqlik bilan kelmoqdalar;

– o‘quv dasturini yaratishda ta’lim oluvchilarning yosh, jins, jismoniy va ruhiy o‘ziga xosligi hamda milliy xususiyatlari ilmiy asosda hisobga olinmagani uchun adabiy ta’limda uzluksiz tadrijiylik ta’minlanmagan;

– mavjud pedagogik ashyolarda o‘quvchilarda ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga qaratilgan innovatsion usullardan foydalanish ko‘zda tutilmagan;

– adabiyot o‘quv fanini o‘qitishda fanlararo integratsiya mexanizmi ishlab chiqilmagan;

– adabiyot predmetini o‘zlashtirish darajasini to‘g‘ri baholashning ilmiy mezoni yaratilmagan;

– adabiyot o‘quv fanini o‘rgatish bo‘yicha o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanmalar, ko‘rsatmali qurollar, multimedia vositalari hamda boshqa didaktik materiallar mutlaqo yetarli emas;

– o‘quvchilarning badiiy asar o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish yo‘llari ishlab chiqilmagan;

– metodika va adabiyotshunoslik tarmoqlaridagi ilmiy yangiliklarni o‘qitish amaliyotiga muntazam joriy qilish mexanizmi yaratilmagan.

Kadrlar bilan bog‘liq muammolar. Kompetentli adabiyot o‘qituvchisini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi talabga to‘la javob bermaydi. Shu sababli bu sohada bir qator muammolar yuzaga kelgan:

– oliy filologik ta’limda asosiy e’tibor bo‘lajak mutaxassislarga adabiyot tarixi, nazariyasi, jahon adabiyoti singari fanlar bo‘yicha bilim berishga qaratiladi. Ularni o‘qitish metodikasiga ikkinchi darajali yumush sifatida qaraladi. Holbuki, metodika bo‘lmagan joyda fan rivojining davomiyligi ta’minlanmaydi. Yosh pedagoglar badiiy asarlarni o‘quvchilarga yetkazish yo‘llarini yetarlicha o‘zlashtirmagan bo‘lishadi;

– oliy ta’limdagi nomukammalliklar tufayli ko‘pchilik bitiruvchilarda nazariy tayyorgarlik hamda badiiy matnni tahlil qilish kompetensiyalari shakllanmagan. Bu esa ta’lim tizimida sifatsiz kadrlar sonining oshishiga olib kelmoqda;

– pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazlarida metodist olim mutaxassislar juda oz, aksariyat markazlarda esa umuman yo‘q. Bu hol tinglovchi o‘qituvchilar metodik tayyorgarligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda;

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

– pedagoglar o‘z ustlarida davomli va uzluksiz ishlashga, metodik o‘quv va malakalarini oshirishga o‘rganmaganlar, masofadan o‘qitish tizimi yo‘lga qo‘yilmagan;

– o‘qituvchilarning ish sifatini baholash rasmiy tus olgan, ularning tajribalarini chinakamiga o‘rganish va yoyish tizimi shakllanmagan, attestatsiya o‘tkazishda muallimlarning kasbiy uquvi emas, balki qog‘oz tayyorlash mahorati hisobga olinadi;

– o‘qitish jarayonining ko‘p sonli tekshiruvchilari o‘qituvchilar qo‘llaydigan ta’lim usullarining qanchalik samara berishidan ko‘ra qanchalik urf (moda)ga aylanganiga qarab baho beradilar. Bu ta’lim metodlarining mohiyati emas, shakli birlamchi ahamiyatga ega bo‘lishiga olib kelmoqda;

– o‘qituvchilar bilan bevosita kundalik amaliyotda bog‘lanib ishlaydigan ko‘pchilik viloyat, tuman va shahar metodistlarining ilmiy saviyasi, metodik tushunchalari va tashkilotchiligi talab darajasida emasligi kuzatiladi.

VI. ADABIYOT O‘QITISHNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI

6.1. Adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari

Quyidagilar adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

– umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot predmetini o‘qitish samaradorligini oshirish, adabiy ta’limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, usul va vositalarining davr bilan uyg‘unlikda takomillashib borishiga erishish;

– milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o‘qitish orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini boyitish, ma’naviy-axloqiy qiyofasi va badiiy didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkur qilish ko‘nikmalarini hosil etish;

– o‘quvchilarga badiiy adabiyotni o‘rgatish orqali ularda olam va odam tabiatiga qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usi, sog‘lom e’tiqod va ilmiy dunyoqarash hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish;

– badiiy asarlar yordamida o‘quvchilarda sog‘lom e’tiqod, nozik did, ezgulikka muhabbat, halollik, millat va Vatanga sadoqat singari yuksak fazilatlarni qaror toptirish;

– badiiy adabiyotni o‘qitishning yangi usullarini joriy qilish orqali adabiy ta’lim jozibadorligini oshirish, bunda xalqaro ilg‘or pedagogik tajribalardan keng foydalanishdan iborat.

Adabiyot o‘qitishni rivojlantirishning strategik maqsadi quyidagi vazifalarni bajarish orqali amalga oshiriladi:

– umumiy o‘rta ta’limning barcha bosqichlarida adabiyot o‘quv fanini o‘qitish tizimini tubdan yangilash;

– predmetining ilmiy-metodik ta’minotini tubdan yaxshilash;

– o‘quvchilarning og‘zaki nutqi adabiy til me’yorlari asosida shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, ularning nutqiy kompetensiyasini o‘stirish;

– o‘quvchilar yozma nutqida savodxonlik, adabiy til me’yorlariga rioya etish, uslubiy rang-baranglik bo‘lishiga erishish orqali ularda tayanch adabiy kompetensiyalar shakllantirish;

– adabiy ta’limda o‘rganiladigan mavzu tabiatidan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarga dars o‘tish metodini erkin tanlash imkonini berish;

– adabiy ta’limga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion yondashuvni shakllantirish;

– umumiy o‘rta ta’limning boshqa fanlari bilan integratsiyasini yo‘lga qo‘yish;

– adabiyot o‘quv fanining o‘ziga xos xususiyatlari, turli bosqichdagi o‘quvchilarda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalardan kelib chiqqan holda aniq baholash tizimini ishlab chiqish;

– intellektual salohiyatning hayotdagi o‘rni haqida haqqoniy tasavvur shakllantirish;

– ta’limning ilg‘or amaliyotini ommalashtirish va adabiyot o‘quv fanini o‘qitishning shakllari xilmaxilligiga imkon berish.

6.2. Adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish

Adabiyot fanining o‘quv-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

– chet eldagi ilg‘or pedagogik tajribalarni milliy o‘qitish an’analari bilan uyg‘unlashtirgan holda adabiyot o‘quv fani bo‘yicha davlat ta’lim standartini ishlab chiqish;

– adabiyot predmeti bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim maktablari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari tizimini yaratish va takomillashtirish;

– umumiy o‘rta ta’limning tayanch o‘quv rejasida adabiyot predmetiga ajratilgan o‘quv yuklamasining miqdori hamda uning sinflar bo‘yicha taqsimoti yuzasidan asosli takliflar tayyorlash;

– tayanch o‘quv rejaga muvofiq adabiyot o‘quv fani dasturini sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari aks etgan holda ishlab chiqish;

– ta’limning har bir bosqichidagi o‘quvchilarning yosh, aqliy va jismoniy imkoniyatlari hisobga olingan holda o‘quv dasturlari yaratilishiga erishish. Buning uchun filolog mutaxassislargagina kerak bo‘ladigan asarlarni umumta’lim maktablari o‘quvchilariga taqdim etish tajribasidan voz kechish;

– “Adabiyot” darsliklarining har bir sinf o‘quvchilarida muayyan ma’naviy sifatlarni shakllantirish ko‘zda tutilgan holda yaratilishini yo‘lga qo‘yish;

– har bir o‘quvchining o‘rganilayotgan badiiy matn yuzasidan o‘z mustaqil fikri bo‘lishiga erishish uchun “Adabiyot” darsliklarida o‘rganilgan asar haqida maqola berish tajribasidan voz kechish;

– “Adabiyot” darsliklarida badiiy matn yuzasidan beriladigan savol-topshiriqlar sonini ko‘paytirish va ularning o‘quvchilar xotirasini kuchaytirishga emas, balki asar jozibasini his etish va matn zamiridagi tagma’nolarni anglashga qaratilishiga erishish;

– o‘quvchilarning tavsiya qilinayotgan badiiy asarlar ustida ko‘proq mustaqil ishlashlariga imkon yaratish uchun 5–8-sinflarda dastur va darsliklarda adiblarning umr yo‘lini berish tajribasidan voz kechish;

– adabiyot bo‘yicha barcha sinflar uchun darslik, o‘qituvchi uchun metodik qo‘llanma, darsliklarning multimediali ilovasi kabi o‘quv-metodik yig‘malarini ishlab chiqish va muntazam yangilab borish.

Adabiyot fani bo‘yicha sinflar kesimida o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

– o‘quv-metodik yig‘malar tayyorlashda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillariga tayanish;

– yig‘malarda o‘quvchilarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, ruhiy xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlarini hisobga olish;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarda adolat, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissini shakllantirishga ustuvorlik berilgan bo‘lishi;

– yig‘malarning o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va mantiqiy fikrlash hamda kreativlik qobiliyatini shakllantirishga yo‘naltirilganligi;

– o‘quv-metodik yig‘malarni o‘quvchilarning ma’naviy va aqliy ehtiyojlaridan kelib chiqib tayyorlash.

O‘quv-metodik yig‘malarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo‘yiladi.

Didaktik talablar:

– berilgan o‘quv materiallarining o‘quvchi tomonidan to‘liq o‘zlashtiriladigan yo‘sinda bo‘lishini ta’minlash;

– badiiy matnlar axborot berishga emas, balki hayotning mohiyatini anglashga xizmat qilishi;

– o‘quvchilarga taqdim qilinayotgan materiallarning qiziqarli, tushunarli va hayotiy bo‘lishi;

– yig‘malar o‘quvchida ilmiy dunyoqarashni, milliy g‘urur, vatansuyarlik va millatlararo totuvlik tuyg‘ularini shakllantiradigan materiallardan tarkib topishi;

– o‘quv-metodik yig‘malar ta’limning kundalik hayot va amaliyot bilan bog‘liq bo‘lishiga, o‘quvchilarda olgan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirishga yo‘naltirilishi;

– metodik vositalar turli ko‘rinishdagi illyustratsiya, jadval va fotosuratlar bilan bezatilgan bo‘lishi.

Ilmiy-metodik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar fan-texnikaning so‘nggi yutuqlari asosida tayyorlangan bo‘lishi;

– ularda o‘quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi aks etgan bo‘lishi;

– yig‘malarda mavzular adabiy til qoidalariga to‘liq rioya etilgan holda sodda, tushunarli va ravon bayon qilinishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda mantiqiy ketma-ketlik va izchillikka amal qilinishi;

– ular milliylikka zid bo‘lmagan illyustratsiyalar bilan bezatilishi;

– yig‘malarda savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo‘lishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, qarashlarini yozma ifodalashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo‘lishi;

– ularda bir tushunchaning ikki xil atalishi hamda sanalarni keltirishda mavhumlikka yo‘l qo‘yilmasligi;

– og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish, yozma savodxonlikka oid matnlar va rasmlar, izohli lug‘at, badiiy ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o‘stirishga qaratilgan topshiriqlarni qamrab olgan bo‘lishi lozim.

Pedagogik-psixologik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar ilmiy asoslangan ma’lumotlarga tayanib, o‘quvchilarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga va hayotiy qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug‘ullanishga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

– yig‘malardagi mavzularning o‘quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, fakt, tushuncha va qoidalar fanlararo bog‘liqlik hisobga olingan holda izohlanishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda o‘quvchilarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyati, oldin berilgan bilimlarini o‘zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo‘lishi lozim.

Estetik talablar:

– o‘quv-metodik yig‘malar yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bezalishi;

– yig‘madagi matnlar o‘quvchiga ijobiy-hissiy ta’sir o‘tkazib, unda o‘quv faniga qiziqish uyg‘otishi;

– o‘quv-metodik yig‘malarda bo‘lim, bob, paragraf, mavzu va matnlarning o‘zaro mutanosib turli shakl va ranglar bilan ajratilishi;

– yig‘malardagi rasm va tasvirlar badiiy talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalangan bo‘lishi lozim.

Gigiyenik talablar:

– matn va illyustratsiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo‘lishi;

– harflarning kattaligi va qog‘ozning sifati (og‘irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me’yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo‘lishi lozim.

6.3. Adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash

Adabiyot o‘quv fanining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

“Zamonaviy maktab” davlat dasturi doirasida umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda yangi turdagi zamonaviy darslik va metodik qo‘llanmalar yaratish, ona tili va adabiyot o‘qitishga ixtisoslashgan sinf xonalarini barpo etish, zamonaviy maktab namunasini yaratish;

– sinfxonalarni xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv jihozlari bilan ta’minlash;

– o‘quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan adabiy-badiiy to‘garaklarning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.

6.4. Adabiyot o‘qitish jarayoniga raqamli va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ta’lim zamonaviyligiga erishish

Ushbu yo‘nalishda quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi:

– raqamli texnologiyalar bilan ta’lim texnologiyalarining integratsiyasini ta’minlash orqali pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borishga sharoit yaratish;

– ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

– adabiyot o‘quv faniga doir elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar, darsliklarning multimediali ilovalari kabi o‘quv-metodik majmualarni joylashtirish tizimini yaratish;

– zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta’lim dasturlarini tashkil etish;

– adabiyot fanini o‘qitishda xalqaro standartlarda belgilangan ta’lim muhiti (Teaching environment)ga ham jiddiy e’tibor qaratish va o‘qitish xonalarini adabiyot ta’limning xususiyatlaridan kelib chiqib jihozlash. Ta’lim muhiti o‘quvchilarga katta rag‘bat berishini e’tiborga olish;

– masofadan turib foydalaniladigan elektron kutubxona tizimiga adabiyot bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv-metodik yig‘malarni, elektron ta’lim resurslarini joylashtirib, ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish;

– ta’lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo‘llanadigan zamonaviy elektron dasturlardan adabiyot o‘quv fanining o‘ziga xosligidan kelib chiqib, foydalanishni yo‘lga qo‘yish.

Adabiy ta’limning innovatsion infratuzilmasini shakllantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi:

– iqtidorli o‘quvchi-yoshlarni aniqlash, ularni chuqurlashtirilgan hamda variativ ta’lim dasturlari asosida o‘qitish, ularni “Ustoz-shogird” tizimi asosida o‘z sohasida yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislarga biriktirish;

– innovatsion infratuzilmani rivojlantirish hamda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimi bilan uzviyligini ta’minlash.

6.5. Adabiyot fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi:

– adabiyot o‘quv fanining umumta’lim fanlari bilan integratsiyasi o‘quvchilarning sog‘lom va keng dunyoqarashga ega, jadal rivojlanayotgan raqamli asrda erkin yashab, samarali faoliyat ko‘rsata oladigan raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishiga xizmat qiladi;

– fanlararo integratsiya o‘quvchilarda motivatsion va o‘z-o‘zini baholash (refleksiv) ko‘nikmasini shakllantirib, ularning kasbiy kompetentlilik va ilmiy izlanishlar qilish qobiliyatiga ega kadrlar sifatida shakllanishiga yordam beradi;

– adabiyotning o‘zga fanlar bilan integratsiyasi o‘quvchilarni turli ijtimoiy sohalarda o‘z yo‘nalishini topish, to‘g‘ri kasb tanlashga yo‘naltiradi.

6.6. Adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish

Adabiyot predmetining mazmun va metodlari takomillashtirilayotgani, umumiy ta’lim uchun ushbu o‘quv fani bo‘yicha ishlab chiqilayotgan me’yoriy hujjatlar hamda adabiy ta’lim jarayoniga zamonaviy ta’lim texnologiyalari, masofadan o‘qitish usullari joriy etilayotgani o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini keskin yuksaltirishni talab qiladi. Bugungi o‘zgarishlar adabiyot o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarlik darajasi yuqori, o‘z ish faoliyatida ham milliy, ham chet eldagi ilg‘or ta’lim tajribalarni uyg‘unlashtirgan raqobatbardosh kadr sifatida ko‘rinishini taqozo etadi.

Bu hol umumiy o‘rta ta’lim maktablari adabiyot o‘qituvchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi oldiga yangi vazifalar qo‘yadi. Buning uchun quyidagilar amalga oshirilishi kerak bo‘ladi:

– adabiyot o‘qituvchilarini masofadan turib va aralash usulda malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

– malaka oshirish davri oralig‘ida fanda yuz bergan muhim ilmiy yangiliklar hamda ilg‘or pedagogik tashabbuslar bilan tanishtirish;

– yangi yaratilgan o‘quv-metodik yig‘malar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarning mazmun va mohiyatiga doir ma’lumotlarni yetkazish;

– o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishlarini ta’minlash orqali kasb mahoratlarini oshirish;

– zamonaviy pedagogik texnologiyalar hamda ilg‘or tajribani o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilish;

– o‘qituvchilarning o‘z ustida mustaqil ishlashlarini ichki ehtiyojga aylantirish;

– joylarda o‘tkaziladigan ko‘rgazmali va ochiq saboqlarda, metodik birlashmalar, pedagogik o‘qishlar, kengashlarda o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-metodik seminarlarda faol qatnashishlarini yo‘lga qo‘yish.

VII. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali adabiyot predmetini umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitishni rivojlantirish bo‘yicha 2030-yilgacha quyidagi natijalarga erishish nazarda tutiladi:

– konsepsiya umumiy o‘rta ta’limning DTSida belgilanadigan talablar uchun asos bo‘ladi;

– konsepsiyada belgilangan maqsad va vazifalarni amaliyotga joriy etish o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy hamda intellektual rivojlanishiga samarali ta’sir etadi;

– adabiyot predmetini o‘qitish bosqichlari, o‘quv fani bo‘yicha ta’lim mazmuni me’yorlari aniqlashtiriladi;

– ta’limning barcha bosqichlarida zamonaviy va innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda adabiyot predmeti imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishga erishiladi;

– ta’lim muassasalarida badiiy adabiyotni o‘rganish va uni bilish darajasini baholashning zamonaviy tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Jamiyatda badiiy adabiyotning ezgu ma’naviyatli shaxslar shakllantirishning ma’naviy, ma’rifiy omili sifatidagi nufuzi ortadi.

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

MUNDARIJA

Adabiyot darslariga yangicha yondashuv 3
Adabiyot fanining maqsad va vazifalari 13
“Adabiyot” dasturi mazmuni va tuzilishi 13
Dasturda variativlik va o‘qituchi erkinligi 14
Darsdan tashqari mutolaa 15
Adabiyot fani bo‘yicha 6-sinf yakuniga qo‘yiladigan talablar 16
6-sinf uchun taqvim-mavzuviy reja (tavsiyaviy) 17

1-fasl

Abdulla Qahhor. “O‘g‘ri” 22
G‘afur G‘ulom. “Shum bola” 29
Odil Yoqubov. “Yaxshilik” 35
O‘tkir Hoshimov. “Dunyoning ishlari” 40
Fanlararo aloqa: adabiyot va tarix 45
Takrorlash 46

2-fasl

Xalq og‘zaki ijodi: xalq qo‘shiqlari 50
Alisher Navoiy. Ruboiylar 53
Abay. “Yoshlikdan bilim izlab…” Avaz O‘tar. “Har tilni biluv emdi…” 61
Lengston Hyuz. “Rahmat sizga, xonim” 65
Fanlararo aloqa: adabiyot va ona tili 75
Takrorlash 77

3-fasl

Hojiakbar Shayxov. “Birinchi sinov” 80
Rey Bredberi. “Bir kunlik yoz” 85
Jyul Vern. “O‘n besh yoshli kapitan” 92
Artur Konan Doyl. “Mallalar uyushmasi” 103
Fanlararo aloqa: adabiyot va texnologiya 107
Takrorlash 109

4-fasl

Rahmat Fayziy. “Hazrati inson” 112
Ibroyim Yusupov. “Qadrdon so‘qmoqlar”. Xurshid Davron. “Vatan devorlari” 116
Oskar Uayld. “Baxtli Shahzoda” 120
Azim Suyun. “Yomg‘ir yog‘ib o‘tdi…” Omon Matjon. “Osmon sog‘inch kabi…” 126
Fanlararo aloqa: adabiyot va tasviriy san’at 129
Takrorlash 130

www.idum.uz saytidan yuklab olindi

Ilovalar

Adabiyot darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan usullar 131
Faol o‘qish modeli 131
Dahshatli kutish 133
“O‘ylab ko‘ring – birgalikda ishlang – fikr almashing” 135
“Yo‘naltirish – o‘qish – mushohada yuritish” 136
Bashorat 137
To‘g‘ri / noto‘g‘ri / mavhum 137
Matndan dalil 137
Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi asosida namunaviy dars ishlanmasi 138
“Muzqaymoq” hikoyasi bo‘yicha namunaviy dars ishlanmasi tahlili 153
O‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirishda badiiy matnlardan foydalanish 154
Adabiyot darslarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda qo‘llash mumkin bo‘lgan ayrim topshiriqlar 175

Umumiy o‘rta ta’limda adabiyot fanini o‘qitishni rivojlantirish konsepsiyasi 178

O‘quv nashri

ADABIYOT

O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma

Muharrir Xurshidbek Ibrohimov
Badiiy muharrir Sarvar Farmonov
Texnik muharrir Akmal Sulaymonov
Sahifalovchi-dizayner Kamola Ahmedova
Musahhih Orifjon Madvaliyev

Bosishga __.__.2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.
Arial garniturasi. Kegli 12. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i ____. Nashriyot-hisob tabog‘i ____.
Adadi _____ nusxa. Buyurtma ___.